BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
1930

“ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR TENDENSIYALARI”

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI
TO‘PLAMI

2024 - yil, 20 - aprel

www.buxdu.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI

ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR TENDENSIYALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
2024-yil 20-aprel

Buxoro – 2024

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9-bandiga asosan xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyisodagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarning o‘z vaqtida samarali o‘kazilishini hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2024-yilning 20-aprel kuni Buxoro davlat universitetida **“ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR TENDENSIYALARI”** mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani asosiy maqsadi - psixologiya sohasidagi tadqiqotlarni yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ushbu yo‘nalishdagi yangi ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishish, ularni amaliyotga tadbiq qilish, psixologiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy psixologik va information texnologiyalardan samarali foydalanish, yoshlarni milliy g‘urur va ma’naviy fazilatlarga tayanadigan barqaror axloqiy-ruhiy holatni ta’minlash, murakkab vaziyatlarga shaxsning bardoshlilikni, yuksak hislarni tarbiyalash hamda ilmiy, innovatsion, pedagogik faoliyatida psixologik xizmatni ko‘rsatish va tegishli mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashdan iboratdir.

Anjuman materiallaridan oliy ta’lim muassasalari talabalari, magistrlar, doktorantlar va professor-o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

TAHRIR HAY’ATI:

Xamidov O.X. – Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Rasulov T.H. – fizika-matematika fanlari doktori, professor;
Nazarov A.M. – psixologiya fanlari doktori, professor;
Chudakova V.P. - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent;
Müşerref D.- psikolojik bilimler adayı, professor;
Trushina I.A. - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
Zabelina E.V. - psixologiya fanlari doktori, dotsent;
Leonova V.O. - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Kozubtsov I.N. - pedagogika fanlari doktori, dotsent;
Amarasena J. – Buxoro innovatsiyalar universiteti prorektori;
Xusainova T.M. - sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
Barotov Sh.R. – psixologiya fanlari doktori, professor;
Huseynova A.A. – falsafa fanlari doktori, professor;
Abdullayeva B.S. – psixologiya fanlari doktori, professor;
Akramova F.A. – psixologiya fanlari doktori, professor.

Maqolalarning to‘g‘ri va aniqligiga mualliflar mas’uldir.
© ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR TENDENSIYALARI

Konferensiya materiallari to’plami Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyrug‘i bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO‘ZI

Assalomu-aleykum hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Sizlarni Buxoro davlat universitetining anjumanlar zalida ko‘rib turganimizdan xursandmiz.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev mamlakatimizdagi ijtimoiy jarayonlar haqida ishonchli axborot berish maqsadida matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etilmoqda, hayotimizdagi muammo va hodisalarga tezkor munosabat bildirilmoqda, ularning veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil missenjerlardagi sahifalari yangilab borilmoqda. Bugun biz hamma sohada, jumladan, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish borasida yutuqlar bilan birga, kamchiliklar va nuqsonlar bo’lishi ham tabiiydir.

Jahonda shiddat bilan davom etayotgan globallashuv, inovatsion texnologik jarayonlarning murakkablashishi va tezlashishi natijasida axborot xurujlarining inson ruhiyatiga ta‘sirining mohiyatini ochib berish, insondagi o’ziga xos psixologik xususiyatlar rivojlanishini obyektiv aks ettirish muammosi yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2024-yilning 20-aprel kuni Buxoro davlat universitetida **“Zamonaviy psixologik tadqiqotlar tendensiyalari”** mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi. Bugun o‘tkazilayotgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni tashkil etilishidan maqsad shundaki, psixologiya sohasidagi tadqiqotlarni yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ushbu yo‘nalishdagi yangi ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishish, ularni amaliyotga tadbiq qilish, psixologiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy psixologik va information texnologiyalardan samarali foydalanish, yoshlarni milliy g‘urur va ma’naviy fazilatlarga tayanadigan barqaror axloqiy-ruhiy holatni ta’minlash, murakkab vaziyatlarga shaxsning bardoshlilikni, yuksak hislarni tarbiyalash hamda ilmiy, innovatsion, pedagogik faoliyatida psixologik xizmatni ko‘rsatish va tegishli mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashdan iboratdir.

Respublikamizda psixologiya sohasida 60 nafar fan doktori, 140 nafar fan nomzodlari faoliyat yuritmoqda, Shundan kafedrada 2 nafar fan doktori, 9 nafar fan nomzodi, falsafa doktorlari faoliyat olib bormoqdalar.

Universitet huzurida psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

Mazkur kafedra tashabbusi bilan “Psixologiya” jurnali va “Вестник интерактивный психологии” xalqaro OAK jurnallari nashr qilinmoqda. Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi huzurida “Psixologik klinika” faoliyati tashkil qilingan bo‘lib, hozirda aholiga samarali psixologik xizmat berib bormoqda.

Mazkur kafedra Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston va Buyuk Britaniyaning Sassiks universiteti bilan doimiy hamkorlik olib bormoqda. Ushbu anjumanga 300 dan ortiq ishtirokchilar o‘z maqolalari bilan qatnashmoqda. Xorij OTMlaridan 10 nafar, Respublika OTM laridan esa 20 nafardan ortiq psixolog olimlar offlayn va onlayn shaklda ishtirok etishmoqda.

O‘ylaymanki, bugun ushbu anjumanda muhokama qilinadigan masalalar, qabul qilinadigan xulosalar, ilgari suriladigan takliflar psixologiya sohasini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Anjuman ishiga omad tilayman.

Obidjon Xamidov Xafizovich
Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I SHO‘BA.
ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

TALABA - YOSHLARDA ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYATNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nazarov Akmal Mardonovich
Buxoro davlat universiteti
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Bugungi kunda barcha sohalarda ilmiy va innovatsion faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy ishlanma va innovatsion faoliyat natijalarini ishlab chiqarishga tadbiq etish, tadqiqotlarning samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada barcha sohalarda jumladan, oliy ta'lim muassalarida ham ilmiy va innovatsion faoliyatni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ilg‘or zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda yoshlarni ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishga doir empirik tadqiqotlar olib boorish davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Dunyoda aynan intellektual mulk sohasida bilan shug‘ullanuvchi Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) hamda Kornell universiteti va Xalqaro biznes maktabi (INSEAD) bilan hamkorlikda chop etiladigan "Global innovatsiyalar indeksi" (GII) jurnalining hisobotida jahon davlatlarining ilmiy yutuqlari, innovatsion salohiyati, innovatsion ko‘rsatkichlari bo‘yicha yillik reytingi e'lon qilinib borilmoqda. Shunga muvofiq tarzda O‘zbekiston Respublikasini "Global innovatsion indeks" (GII) reytingida 2026 yilgacha 30 pog‘onaga ko‘tarish vazifasi belgilangan. Butunjahon intellektual mulk tashkilotning (WIPO) yillik reyting natijalarida O‘zbekiston 81 ta indikator bo‘yicha baholanadigan Global innovatsion indeksi reytingida 2015-yilga nisbatan 36 ta pog‘onaga ko‘tarilganligini alohida e'tirof etish mumkin.

Yurtimizda ayniqsa, talaba-yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga yo‘naltirish bo‘yicha bir qancha samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, bu borada ilmiy, ijodiy va innovatsiya sohasiga taaluqli huquqiy normativ hujjatlar qabul qilinganligi bu sohaga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni qabul qilingan. Farmonga asosan innovatsiya va ilm-fan sohalariga Davlat budjetidan ajratiladigan yillik mablag‘lar hajmi 2018-yilga nisbatan 3 baravarga oshirildi va ya'ni 1,5 trillion so‘mga yetkazilgan; 2018-yildan boshlab har yili o‘tkazilayotgan Xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi - "Innoweek.uz" xorijiy innovatsion va ilmiy markazlar, investitsion fondlar, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes-inkubatorlarni bir maqsad yo‘lida jamlovchi innovatsion haftaliklar tashkil qilinmoqda. Bu haftaliklar ilmiy-innovatsion oylarga innovatsion yillarga aylanib bormoqda.

Ilmiy va innovatsion faoliyat insoniyat madaniyatining bir qismi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining eng muhim yo‘li sifatida qabul qilingan bo‘lib, bu insonlarning tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatlari, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari hamda maqsadlarini amalga oshirishda o‘ziga xos shaxs faoliyatining noyob shaklidir. Zamonaviy dunyo jamiyati va ilmiy-innovatsiyalarni axborotlashtirish jarayonida bunday faoliyat mamlakatning eng muhim strategik maqsadlarini hal qiladigan ilmiy loyihalarni joriy etish bo‘yicha yangi g‘oya va ishlanmalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda talaba-yoshlarni ilmiy va innnovatsion faoliyatini rivojlantirish, ularni

ushbu sohaga yo‘nalatirish dolzarb muammolardan sanaladi. Ushbu muammolarga yechim topish maqsadida shaxsning mavjud imkoniyatlari, individual xususiyatlarini va kreativ, kognitiv jarayonlarini empirik o‘rganish natijasida amalga oshirish mumkin.

Innovatsiya har qanday jarayonga yangi tashkiliy uslub kiritish hisoblanadi. Innovatsion - tushunchasi birinchi bo‘lib XIX asrda olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarda uchraydi. “Innovatsiya” tushunchasining yangicha yo‘nalishini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy sohalarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy tadqiqotlarida qo‘llagan**.** Taniqli iqtisodchi Y.Shumpeter 1900-yillarda iqtisod sohada ushbu terminni ilmiy jihatdan qo‘llagan ilk olimlardan biri hisoblanadi.

“Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da qayd etilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangaan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi” deb izoh berilgan.

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki, mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qaraladi. Keng tarqalgan yanglish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi, innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi quyidagi tushunchalar bilan izohlanadi:

Ilm-fan – bu ma’lum mablag‘larni bilimlar va g‘oyalarga aylantirish jarayoni hisoblanadi. Innovatsiyalar – bu bilimlar va g‘oyalarni mablag‘larga aylantirishdir.

Ixtiro – bu yangi konsepsiyalarni yaratishdan iborat.

Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini alohida ajratib ko‘rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Yangilik - bu intellektual faoliyat natijasi bo‘lib, bu yangi strategiya, biznesning yangi modeli, yangi tashkiliy tuzilma, yangi marketing usuli, yangi jarayon, yangi texnologiya, yangi mahsulot yoki ularning ma’lum birikmasidan tashkil topgan murakkab jarayonlar yig‘indisi hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat - to‘plangan bilim, texnologiya va uskunalarni tijoratlashtirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlar majmui sanaladi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iborat bo’lib, innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining asoslarini o’rganish oliy o’quv yurtlarining o’quv jarayonini zamonaviy psixologiya hamda pedagogika fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, bugunning yoshlari birinchidan o‘ziga ishonchi bo‘lsa, o‘zini o‘zi qadrlash darajasi yuqori bo‘lsagina, ikkinchidan, esa o‘z faoliyatini o‘zining harakatlari natijasida rivojlantirsa, ayniqsa, ular muvaffaqiyatsizlikka uchraganda, o‘zini past baholaganda, salbiy emotsional holatlarni his qilganda yaqqol sezilar ekan. Bunday ikki toifadagi yoshlar o‘ziga xos tarzda o‘zini o‘zi anglash yo‘llari, usullari va shakllarini qidiradi.

Talaba-yoshlar o‘rtasida shaxslararo munosabatlar va hayot bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish maqsadida olimlar tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalarga ko‘ra, 1853

nafar ishtirokchilar o‘z baxtini nimada ko‘rmoqda, degan savolga ko‘pchiligi o‘zlarining maqsadlarini belgilagan mustahkam oila (59%), samimiy do‘stlar (52%), muhabbat (50%), sevgan faoliyatidagi muvaffaqiyat (44%) deb javob berishgan.

So‘rovnomadan olingan quyidagi omillar sezilarli darajada past natijani tashkil etgan. Bular moddiy ta’minot (31%), o‘zining shaxsiy hayoti (20%), qadriyatlar (9%).

Mashhur yozuvchi R.Berne ta’kidlaganidek, “Bizning baxtsizliklarimizning siri shundaki, bizning baxtli yoki baxtsizligimizni o‘ylash uchun juda ko‘p bo‘sh vaqt bor” deb yozgan edi.

Talaba-yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga yo‘naltirish jarayonining psixologik shartlari quyidagilardan iborat:

- ilmiy va innovatsiya asoslarini o‘rganish jarayonini faollashtirish;
- yoshlarda ilmiy va innovatsion faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirishning zamonaviy hamda yangi usullarini izlash;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini o‘zi anglash jarayonini takomillashtirish.

Amerikalik mashhur psixolog N.Rodjers o‘z tadqiqotlarida munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, shaxslararo munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo‘lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo‘lgan tayyorgarlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o‘rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy-psixologik munosabatlarning tasnifi masalalari o‘rganilgan.

Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik olimlardan biri K.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo’lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan.

Rus psixologi V.A.Petrovskiyning olib borgan tadqiqotlarida yoshlarda faoliyat davomida kutilmagan noodatiy, moslashmagan holatlar borligini aniqlagan. Bu esa hayotiy muammolarni anglash va hal qilishning yangi bosqichiga olib chiqishi hamda ijodkorlik, kognitiv jarayonlarning faol shaklida namoyon bo‘ladi – deb ta’riflaydi.

Tadqiqotchi I.Stepanovaning fikriga ko‘ra, “innovatsiya” tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi.

B.Santoning fikriga ko‘ra, innovatsiya - bu yuqori sifatli barcha sohalar uchun yaratiladigan texnologik jarayonlar deb ta’riflaydi.

Masalan, M.V.Volinkina innovatsion faoliyatni yangi bilimlarni olish va uni ta’lim bozorining boshqa ishtirokchisi tomonidan amalga oshirish bilan bog‘liq biznes faoliyati deb tushuntiradi. Olimning fikricha, innovatsion faoliyatning zarur tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- yangi texnologiyalarni yaratish uchun bilimlardan foydalanish;
- yangi bilim olish;
-innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish.

Aksariyat hollarda shaxslararo munosabatlar ilmiy va innovatsion faoliyatning asosi sifatida qaraladi. Ya’ni yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda ularnining ijtimoiy muhiti ham ma’lum bir darajada ahamiyat kasb etadi.

Olimlar V.Y.Lyaudis va N.R.Yusufbekova tadqiqotlarida innovatsion faoliyatni jarayon sifatida qaraladi. Buning natijasida mavjud madaniyatda ijtimoiy sohaga ham tegishli innovatsion o‘zgarishlar yuz beradi. “Innovatsiya” tushunchasi ular tomonidan ham yangilik, ham ushbu yangilikni amaliyotga joriy yetish jarayoni sifatida belgilanadi. Shulardan kelib chiqib, innovatsiya va yangilik tushunchasini ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda farqlash asosiy g‘oya

sifatida qaraladi.

Innovatsion ijtimoiy texnologiyalar - bu innovatsion faoliyat usullari, jamiyatda innovatsiyalarni yaratish va moddiylashtirishga, ijtimoiy hayotning turli sohalarida sifat o‘zgarishlariga hissa qo‘shadigan, jamiyatdagi moddiy va boshqa resurslardan maqsadga muvofiq foydalanishga olib keladigan tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan usullardir. Alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy sohadagi innovatsiyalarning asosiy maqsadi zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-psixolgik muammolarini hal qilishdir. Ijtimoiy munosabatlardagi innovatsion faoliyat aholining ijtimoiy muammolarini hal qilishning yangi, yanada samarali va arzon usullarini topish zarurati bilan bog‘liq.

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo’nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. «Innovatsion ta’lim» termini va unga xos bo’lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G’arbiy Yevropa va AQShda paydo bo’lgan. Zamonaviy ta’limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi XX asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o‘rganila boshlagan.

Xususan, V.V.Belous, F.E.Vasilyuk, O.Y.Zotova hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g‘oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Innovatsion ta’lim (ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim. Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

“Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubi”da qo‘llanilgan. Ta’lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Innovatsiyalar turli ko‘rinishga ega.

Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko‘rinishlari sanaladi:

- yangi g‘oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan’anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo‘lmagan tashabbuslar;
- ilg‘or ish uslublari.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” va ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida fikrlar mavjud.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa, u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.

Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi. Ilmiy adabiyotlarda “novatsiya” (yangilanish, yangilik) hamda “innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va boshqa ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Mohiyatiga ko‘ra, novatsiya va innovatsiya o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. Bu farqni

quyidagi 1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo‘llaniladi;	1) tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi;
2) ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi;	2) ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;
3) metodlar yangilanadi;	3) subyektlarning faoliyati to‘la yangilanadi;
4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi.	4) yangi texnologiyalar yaratiladi;
	5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi;
	6) amaliyotning o‘zi ham yangilanadi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, ta’lim innovatsionlari quyidagi o‘zgarishlarga olib keladi:
pedagogik nazariyaning o‘zgarishi;
o‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi;
o‘quvchi (talaba) faoliyatining yangilanishi;
pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi;
ta’lim mazmunining yangilanishi;
o‘qitish shakl, metod va vositalarining o‘zgarishi;
ta’lim tizimi boshqaruvning o‘zgarishi;
ta’lim maqsadi va natijalarning o‘zgarishi.

Tadqiqotchi R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o’qitish va tarbiya berishda avval ma’lum bo’lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi voqelikning o’zgarib turishi mumkin bo’lgan mazmuni sifatida ta’riflaydi. N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga e’tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonida avval ma’lum bo‘lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o‘zgarib turishi mumkin bo‘lgan mazmuni ekanligi ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida. PF-60 son Farmoni. 28 yanvar, 2022 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022 - 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiya qilish tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ – 3899 son Qarori. 8 avgust, 2018 yil.
4. Берне Р. Развитие “Я – концепции” и воспитание: Пер. С англ. - М., 1986.
5. Петровский А.В. Личность. Деятельность. Коллектив. - М.: Знание, 1982. - 255 с.
6. Роджерс К.Р. // Клиент-центрированная психотерапия. - М.: Апрель Пресс, Издательство ЭКСМО-Пресс, 2002.
7. Бойко В.В. Синдром "Эмоционального выгорания" в профессиональном общении. Монография. - СПб.: Питер, 1999. - 105 с.

BOSHLANG‘ICH SINFLARGA INFORMATIKA FANINI O‘QITISH METODIKASI (1-sinflar misolida)

Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti tyutori

Bugungi raqamli asrda informatika fani ta’limi hatto, eng yosh o‘quvchilar uchun ham o‘quv dasturining asosiy qismiga aylandi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga, xususan, birinchi sinf o‘quvchilari uchun informatika fanini o‘rgatish o‘ziga xos qiyinchiliklar va imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu maqola birinchi sinf o‘quvchilarining rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirilgan samarali metodolarni o‘rganadi va o‘qituvchilarni erta yoshdan boshlab hisoblash qobiliyatlari va raqamli savodxonlikni rivojlantirish strategiyalari bilan boytishga qaratilgan.

O‘qitish metodikasini o‘rganishdan oldin, birinchi sinf o‘quvchilarining rivojlanish tayyorgarligini aniqlash juda muhimdir. Bu yoshda bolalar tabiatan qiziquvchan va izlanishga intiladi. Ular boshlang‘ich darajada bo‘lsa ham, mavhum fikrlash va muammolarni hal qilish uchun rivojlanayotgan qobiliyatga ega. Shu jumladan, informatika fanini o‘rgatish amaliy va nazariy o‘rganish imkoniyatlarini taklif qilish orqali rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanishi kerak. O‘qituvchilar, shuningdek, talabalar o‘rtasida kognitiv rivojlanishning turli sur’atlarini yodda tutishlari va shunga mos ravishda ta’lim strategiyalarini moslashtirishlari kerak.

Misol uchun: O‘yinga asoslangan ta’limni integratsiyalash. O‘yin yosh bolalar uchun tabiiy o‘rganish usuli bo‘lib, uni informatika ta’limiga integratsiyalash juda samarali bo‘lishi mumkin. Interfaol o‘yinlar, boshqotirmalar va hikoya qilish mashg‘ulotlari, naqsh va algoritmlar kabi asosiy tushunchalarni qiziqarli tarzda tanishtirishi mumkin. Ushbu tadbirlar nafaqat hisoblash qobiliyatini, balki hamkorlik va ijodkorlikni ham rivojlantiradi. O‘yin orqali o‘quvchilar mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari va muammolarni hal qilish qobiliyatlariga ishonch hosil qilishlari mumkin.

Vizual dasturlash vositalaridan foydalanish. Birinchi sinf o‘quvchilari hali malakali o‘quvchilar bo‘lmasligi mumkin, bu esa vizual dasturlash vositalari orqali informatika tushunchalarini o‘rgatish uchun xizmat qiladi. Scratch Junior kabi platformalar foydalanuvchilarga qulay interfeysni taqdim etadi, unda talabalar animatsiya va o‘yinlarni, kod bloklarini belgilab to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirib yaratishlari mumkin. Kodlash tushunchalarini vizual tarzda ifodalash orqali bunday vositalar kirish uchun to‘siqni kamaytiradi va yosh o‘quvchilarga kodlash orqali o‘z g‘oyalarini ifoda etish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, vizual fikr-mulohazalar o‘quvchilarga o‘z harakatlarining natijasini darhol ko‘rish imkonini beradi, tushunishni mustahkamlaydi va tajribani rag‘batlantiradi.

Jismoniy hisoblashni birlashtirish. Jismoniy hisoblash qurilmalari bilan amaliy tajribalar birinchi sinf o‘quvchilariga texnologiya bilan o‘zaro aloqa qilishning aniq usullarini taklif qiladi. Bee-Bots yoki Code-a-Pillars kabi oddiy robototexnika to‘plamlari bolalarga jismoniy manipulyatsiya orqali harakatlar va ketma-ketlikni dasturlash imkonini beradi. Ushbu tadbirlar raqamli va jismoniy dunyo o‘rtasidagi tafovutni ko‘paytiradi, hisoblash tushunchalarini tushunish va saqlashni kuchaytiradi. Bundan tashqari, moddiy obyektlarni his qilgan holda ishlashni ta’minlaydi.

Bahs munozaraga asoslangan ta’limni rivojlantirish. Qiziqish va izlanishni rag‘batlantirish birinchi sinf o‘quvchilariga informatika fanini o‘rgatishda asosiy hisoblanadi.

O‘quvchilar savollar berish, yechimlarni o‘rganish va kashfiyotlar qilishda bahs munozaraga asoslangan ta’lim yondashuvlari informatika tushunchalarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. O‘qituvchilar bu jarayonni o‘quvchilarga ularning qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan ochiq topshiriqlar va loyihalarni yo‘naltirish orqali osonlashtirishi mumkin. O‘quvchilar o‘z bilimlarini egallashga va dolzarb mavzularni izlashga imkon berish orqali, bahs munozaraga asoslangan yondashuvlar, ichki motivatsiya va o‘sish tafakkurini rivojlantiradi.

Hamkorlikdagi ta’lim muhitini yaratish. Hamkorlik o‘quv jarayonida, ayniqsa yosh o‘quvchilar uchun hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Loyihalar va tadbirlarda birgalikda ishlash orqali birinchi sinf o‘quvchilari bir-biridan o‘rganishlari, fikr almashishlari va ijtimoiy muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Hamkorlikdagi o‘quv muhitlari, shuningdek, muvaffaqiyat uchun jamoaviy ish hamda hamkorlik muhim bo‘lgan real senariylarni aks ettiradi. O‘qituvchilar guruh loyihalarini tayinlash, hamkasblar o‘rtasida repetitorlik mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘quvchilar o‘z fikrlarini baham ko‘rish hamda savollar berish uchun qulay bo‘lgan sinf madaniyatini rivojlantirish orqali hamkorlikni osonlashtirishi mumkin.

Haqiqiy topshiriqlar orqali o‘rganishni baholash. Baholash o‘qitish va o‘qitish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun qimmatli fikr-mulohazalarni beradi. Birinchi sinf o‘quvchilariga informatika fanini o‘rgatish jarayonida, baholash o‘quvchilarning fundamental tushunchalarni tushunishini va ularni real sharoitlarda qo‘llash qobiliyatini baholashga qaratilishi kerak. Baholash faqat an’anaviy testlar va viktorinalarga tayanishdan ko‘ra, raqamli hikoyalar yaratish, o‘yinlarni loyihalash yoki dasturlash muammolarini hal qilish kabi haqiqiy vazifalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu topshiriqlar nafaqat o‘quvchilarning hisoblash ko‘nikmalarini baholaydi, balki ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham rag‘batlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga, xususan, birinchi sinf o‘quvchilariga informatika fanini o‘rgatish o‘ylangan va rivojlanishga mos yondashuvni talab qiladi. Amaliy mashg‘ulotlar, interfaol o‘yinlar va so‘rovga asoslangan ta’limdan foydalanish orqali o‘qituvchilar yosh o‘quvchilarda hisoblash ko‘nikmalarini va raqamli savodxonlikni rivojlantirishlari mumkin. Ushbu metodlar orqali birinchi sinf o‘quvchilari doimiy rivojlanayotgan raqamli landshaftda kelajakdagi muvaffaqiyat uchun mustahkam poydevor qo‘yishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bers, M. U. (2018). Coding as a playground: Programming and computational thinking in the early childhood classroom. Routledge.
2. Brennan, K., & Resnick, M. (2012). New frameworks for studying and assessing the development of computational thinking. In Proceedings of the 2012 annual meeting of the American Educational Research Association.
3. Yadav, A., & Hong, H. (2017). Computational thinking for teacher education. Communications of the ACM, 60(4), 55-62.
4. Code.org. (n.d.). Computer Science Fundamentals. Retrieved from https://code.org/educate/curriculum/elementary-school
5. Papert, S. (1993). The children’s machine: Rethinking school in the age of the computer. Basic books.

6. Resnick, M., Maloney, J., Monroy-Hernbndez, A., Rusk, N., Eastmond, E., Brennan, K., ... & Kafai, Y. (2009). Scratch: Programming for all. Communications of the ACM, 52(11), 60-67.

BO‘LAJAK PSIXOLOGLARDA EMPATIYA SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yelibayev Jaxanger Tungishebayevich
O‘zbekiston Milliy universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Bo‘lajak psixologlarda (yoshlik) davrida kasbiy kamolotga erishishning bir qismi, kasbiy o‘zini o‘zi anglashning yuqori bosqichiga to‘g‘ri kelib, bu yosh shaxsni shakllantirish jarayonida, juda muhim rol o‘ynaydigan davr hisoblanadi. Shuningdek, ushbu yoshdagi yuqori talabalarning asosiy psixologik xususiyatlari sifatida, ilk bor mustaqil ravishda qaror qabul qilish, kelajak yo‘lni tanlash, muhim hayotiy maqsadlarga ega bo‘lish kabi xususiyatlar shakllanadi. Y.I.Kulaginaning so‘zlariga ko‘ra, bolalikdan yoshlikka o‘tish davri nafaqat shaxsiy kamolotining belgisi, balki madaniyatga intilish, ma’lum darajadagi bilim, me’yorlar va malakalar tizimini egallash, ular orqali shaxs samarali mehnat qilishini, hayotiy muvaffaqqiyatlarga erishishi mumkinligi hamda ijtimoiy mas’uliyatga ega bo‘lishni anglash, kabi sifatlarning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Muallif ushbu fikr-mulohazalari bilan, voyaga yetish davrini jamiyat hayotiga qo‘shilish, ishtimoiy me’yor va qoidalarning mazmunini anglash, ijtimoiy javobgarlikni his etish davri sifatida talqin etadi. Xorij tadqiqotchisi Dj Battervort ham, mazkur masalaga o‘ziga xos yondashib, uni bolalikdan kattalikka o‘tish davri deb ta’riflab, undagi ijtimoiy shart-sharoit, jamiyatdagi o‘zgarishlar va guruhiy vaziyatlarni, shaxs intellektual taraqqiyoti va dunyoqarashiga samarali ta’sir etuvchi, psixologik omillar sifatida e’tirof etadi. Demak, muallifning ta’biriga muvofiq, yuqori sinf davri nafaqat ijtimoiy bosqichi balki, kasbiy ahamiyatga ega bilimlar va malakalarni anglash, kelajak sari intilish balki, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan munosabatlarni o‘zlashtirish, boshqalarning muammolariga qiziqish, notanish his-tuyg‘ular va tajribalarga befarq bo‘lmaslik kabi, kasbiy xarakterologik sifatlarning shakllanish davri ham sanaladi. Biroq, jamiyatda birovlarning taqdiri, murakkab vaziyatlariga befarq, empatik qobiliyatlari sust darajada rivojlangan insonlarni uchratish ham tabiiy holdir. Ye.S.Goncharenko ta’lim sharoitida o‘zaro empatik munosabat bildirish masalasini o‘rganar ekan, empatik qobiliyat darajasi yuqori o‘quvchilar shasini shunday ta’riflaydi: “Empatik o‘quvchilar o‘zini boshqalar o‘rnida ko‘ra oluvchi, boshqa shaxslarning his-tuyg‘ulari, istaklari, g‘oyalari va harakatlarini bevosita tushuna oluvchi, yaqin insonlarga ijobiy nuqtai – nazar munosabat qiluvchi, ularning his-tuyg‘ularini ajrata oluvchi shaxslardir”. Mazkur ta’rifga muvofiq, o‘quvchilar shaxsi uchun ham, empatik qobiliyatlar (hamdarlik) o‘ta muhim xususiyat sanalib, u sinf o‘quvchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi, hamkorlikdagi faoliyatni takomillashtiruvchi, boshqalarning taqdiriga e’tiborni oshiruvchi, ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiruvchi psixologik jarayondir.

G.M.Breslavning aytishicha, empatik qobiliyat odatda, hayotiy tajribaning o‘sishi bilan orta boradi, shaxsning xatti-harakatlari va hissiy reaksiyalari qanchalik yetuk bo‘lsa, empatiya bildirish ham, shunchalik osonroq bo‘ladi. Boshqa bir tadqiqotchi G.Etchegoenga ko‘ra esa, zamonaviy psixologik amaliyotda, empatik qobiliyatlarni takomillashtiruvchi psixologik xususiyatlar sifatida muloqotga kirishuvchanlik, yuqori emotsional intellekt, refleksiya, hissiy barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyatlilik, yuqori darajadagi ijtimoiy intellekt, rivojlangan ichki

altruizm, yuqori darajadagi rivojlangan ijtimoiy idrok, sezgirlik, ekzestensial ehtiyojlarga ega bo‘lish kabilar, ko‘proq afgor omma tomonidan e’tirof etiladi. O‘spirinlik yoshida namoyon bo‘luvchi, aqliy yetuklikning sharti sifatidagi empatiya, ijtimoiy xulq-atvor va altruizmning stimulyatori sanaladi. Bu borada tadqiqotchi M. V. Osorinaning so‘zlari juda ahamiyatga molik “g‘oya” hisoblanadi. Tadqiqotchi shunday deydi: “Agar bolalik va o‘smirlik davrida inson ota-onasi bilan empatik o‘zaro munosabatga ega bo‘lsa, u holda balog‘at yoshida ham atrof-muhitga nisbatan salbiy munosabat namoyon bo‘lmaydi. Ya’ni boshqalarning taqdiri va hayotiy vaziyatlariga, boshdan kechirayotgan hissiy kechinmalariga befarq bo‘lmaydi”. Muallif tomonidan aytib o‘tilgandek, yuqori sinf o‘quvchilarida mazkur xususiyatlarning shakllanganlik darajasi muhim sanalib, ushbu xususiyatlarsiz biror bir faoliyatda samarali natija ko‘rsatish ehtimoldan holi sanaladi. Quyida empatik qobiliyatlarni takomillashtiruvchi ayrim psixologik xususiyatlar va ularni tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilganlik holati masalasiga to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.

Ta’kid joizki, empatik madaniyat faoliyat va muloqotda shakllanib, u muloqot va faoliyatga tegishli ko‘plab o‘ziga xos bilimlar tizimini o‘z ichiga oladi, ya’ni bunda tushunish, empatik tinglash, empatik munosabat, empatik kuzatish va boshqa tushunchalar farqlanadi. Muloqot va faoliyat ikki komponent sifatida, boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabat o‘rnatishga, yordam qilish va hamkorlikda ishlash vaziyatlarida namoyon bo‘luvchi, empatiya ko‘nikmalar va qobiliyatlarni takomillashtirishga keng hissa qo‘shadi. A.V.Kurpatov o‘zining “Individual munosabat: Empatiya nazariyasi va amaliyoti” nomli monografiyasida yozishicha, empatik madaniyat o‘quvchilar shaxsi shakllanishida o‘ta ahamiyatli sanalib, u guruhiy sharoitda shaxslararo munosabatlarni muvozanatli bo‘lishiga keng imkon beradi. Bundan tashqari, empatik madaniyat nafaqat boshqa insonni konseptual tushunishga, balki boshqa insonlarning ichki dunyosiga hissiy kirib borish kabilarga keng yordam beradi. Tadqiqotchining so‘zlariga ko‘ra, o‘quvchilarni empatik madaniyatga o‘rgatish –bu o‘z fikrlarini tinglash va ularni to‘g‘ri ifodalay olish, his-tuyg‘ularni turlicha tasvirlash va ularni og‘zaki ifodalay olish, muloqot sherigining hissiy holatini seza olish, shu asosda o‘zining yaqin kishilari, tengdoshlari va boshqalar bilan konstruktiv munosabatlar o‘rnatish kabi xususiyatlarni shakllantirish bilan xarakterlanadi. Ammo, shuni unutmaslik lozimki, empatik madaniyatini rivojlantirishga nafaqat psixologlar, balki o‘qituvchilar va ota-onalar ham o‘z hissalarini qo‘shishlari lozim bo‘ladi. Rejaga muvofiq, yuqori sinf o‘quvchilarida yaxshi empatik munosabatlarni ta’minlovchi, ayrim psixologik xususiyatlarning turi hamda ularning empatik qobiliyatlar bilan uzviy aloqadorlik holati masalalariga to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz. Bizningcha, o‘z hissiyotlarini erkin ifodalash yoki ularni boshqa tuyg‘ular bilan identifikatsiya qilish jarayoni bu, insonlarning o‘z sheriklariga va o‘z faoliyatlariga his-tuyg‘ularini har tomonlama to‘g‘ri yo‘naltira olish qobiliyati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Баттерворт Дж., Харрис М. Принципы психологии развития / Дж. Баттерворт, М. Харрис. - Москва : Когито-Центр, 2000. – 350 с.

2. Бреслав Г.М. Эмоциональные особенности формирования личности в детстве: норма и отклонения / Г.М. Бреслав. – М.: Педагогика, 2013. – С.123-124.

3. Гончаренко Е.С. Развитие эмпатийного потенциала личности (на материале исследования детей 7-8 лет) автореферат / Е.С. Гончаренко. – Краснодар: Сириус, 2003. – С.65-66.

4. Кулагина И.Ю., Колюцкий В.Н. Возрастная психология: Развитие человека от рождения до поздней зрелости: Учебное пособие для вузов.:Юрайт,2011. – С.14-15.

5. Этчегоен Г. Эмпатия // Журнал практической психологии и психоанализа. - 2003. - №1.С.14 -16.

MILLIY TARBIYA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JARAYON SIFATIDA

Jabborov Xazrat Xusenovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Davlatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan aksariyat chiqishlarida "Har bir ishning ilmi bor", deb ta'kidlaydilar. Tarbiyaning ham ilmi bor. Uning nomi – pedagogika va bugungi kunda psixologiya fani predmetiga ham aylanib ulgirdi. Ayniqsa farzand tarbiyasi masalasida ota-onalarning bilimlari puxta, amaliy bo'lishi - millatimiz uchun hayot-mamot masalasi. Zero bu davrda 20 yildan keyin keladigan avlod qanday bo'lishi hal qilinadi.

Shuningdek, milliy tarbiya masalasiga qaratilgan tadqiqotlarimiz va davlatimiz rahbarining tarbiya masalasiga bag'ishlangan chiqishlari, nutqlari va asarlarida milliy tarbiya ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligi aniqlandi. Ya'ni, tarbiya orqali milliy o'zlikni anglash mumkin, milliy o'zlikni anglash orqali shaxs o'z milliy xarakteri, milliy qadriyatlari, milliy an'analari bilish mumkin.

Milliy tarbiyaning- ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqinini davlatimiz rahbari tomonidan aytilayotgan "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari", "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori", "Ma'rifatli jamiyat quraylik", "Jamoatchilik nazorati kuchaysin", "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", "Halollik vaksinasi", "Ma'naviyat bo'lmagan joyda hech qachon adolat bo'lmaydi!","Inson manfaatlari hamma narsadan ulug'", "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi", "Xalq bizdan rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi", "Adolat – qonun ustuvorligida", "Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir", "Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz", "Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz" kabi g'oyaviy qarashlarda ming asrlik milliy qadriyatlarimiz, milliy o'zligimiz va milliy tarbiyamizning asoslariga urg'u berilayotganligida ham ko'rish mumkin.

Bugungi yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy ma'rifat egasi bo'lgan vatanparvar o'smirni yetishtirib beradi. Biz tadqiqotimiz davomida ota-onalarni farzand tarbiyasi masalasidagi ikki xil qarash va yondashuvini kuzatdik, ya'ni biri "milliy tarbiya", "zamonaviy tarbiya". Bugungi kunda O'zbekistonda o'smir tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun

ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar o'smir ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida katta tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Amerikalik olima M.Midning fikricha, taqlid muloqot, o'yin, o'qish va mehnat orqali shakllanadi. Bu jarayon boshqalarni ijtimoiy rolini qabul qilish, ularga o'xshashga intilishning ko'rinishidir.

Taqlid bolaning yoshiga, idrokiga bog'liq ravishda ongli yoki ongsiz tarzda yuz berishi mumkin. Bola go'dak yoshida kattalarga ko'r-ko'rona taqlid qiladi, buni ongsiz holatdagi taqlid deyishimiz mumkin.

Fransuz olimi E.Dyurkgeymning fikricha, bola taqlid qilish qobiliyati bilan tug'iladi, o'smir yoshiga yetganda esa taqlid qilish faqat tanlov asosidagina amalga oshib, ijtimoiy tajribani keng ma'noda egallay boshlashi, natijada bolaning xarakteri, temperamenti, qiziqishlari ham shakllanadi. Demak, bola o'sgan sari, taqlid jarayoni mazmunan o'zgaradi va ongli xarakter kasb etadi.

Keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, azaldan o'zbek xalqining tarbiya usullarida go'daklarni e'zozlash, kichik yoshli bolalarni erkin qo'yish, ularga qattiq intizom talabi qo'yilmasligi kabilar o'z ifodasini topib kelgan. Tartib-intizomga bo'lgan talabning kuchayishi bolaning keyingi yosh bosqichlarida (5–6 yoshdan so'ng) amalga oshirilgan. Mazkur yondashuvlar masalaga daxldor tadqiqotchi M.Quronov va X.Jabborov larning "Baxtli bola ma'naviyati" nomli kitobida ham ko'rish mumkin.

Shu munosabat bilan bugungi globalashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillari tadqiq qilish orqali oiladada farzand tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarni shakllantirish, mazkur fazilatlarga ularni odatlantirish, tarbiyada tushuntirish/ko'rsatish/o'rgatish/namuna bo'lish kabi ta'sirchan usullarni isloh qilish va shu orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy tarbiya masalasiga daxldor tadqiqotchi M.Quronovning "Milliy tarbiya" nomlgi monografiyasida qayd qililinishicha XIX asrga kelib chet el ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qiluvchi kulturantropologiya va sotsiologiya maxsus fanlarga aylanib, "Boshqa dunyo kishisi" muammosini o'rgana boshladi. Bu aslida, boshqacha tarbiya - milliy tarbiyaning tizim, uslublari, maqsadlaridagi xususiyatlarni ilmiy nuqtai-nazardan o'rganish davri boshlanganligini anglatar edi.

"Boshqa dunyo kishisi"ni o'rganish taraqqiyparvar yangilik edi. U "Boshqa mamlakat, millat kishisi qanaqa?", "U o'zini o'rab olgan dunyoni, borliqni qanday idrok qiladi?", "U yaxshilik va yomonlikni qanday tushunadi?", "U o'z xatti - harakatlarida qanday mezonlarga asoslanib yo'l tutadi?" kabi savollarga javob berish kerak edi. Bizningcha bu milliy tarbiyaga ijtimoiy va etnopsixologik bilimlarga ehtiyoj sezilganligini ham bildiradi, shuningdek o'sha davrlardan boshlab milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillarga qiziqish ortib borgan.

Milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir! Shunday ekan biz tadiqoqtimizda o'quvchi uchun tadqiqotimiz bir butun yaxlit idrok etilish uchun bu so'zlarning ham etimalogiyasiga to'xtalishni maqsad qildi.

"Millat", "milliylik", "milliy g‘urur", "milliy odob", "millatlararo muloqat madaniyati" tushunchalarining o’zagini arabcha "mil" so’zi tashkil qiladi. Bu so’z arabchada "o’zak", "‘tub mohiyat", "negiz" ma’nolarini anglatadi. "Millat" so’zi esa bir necha ma’noni; 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi: 3) xalq ma’nolarini anglatadi. "Millat", "milliylik" tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g‘arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko’ramiz. Aniqrog‘i, g‘arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o’zbeklarga borib tutashadi. Ya’ni, Ovrupo xalqlari tillariga "millat" tushunchasi lotincha "natio" - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo’lsa, Osiyoga esa Islom ta’limoti orqali yuqoridagi uch xil ma’noda kirib kelib singdi.

"Tarbiya" so’zi "milliy tarbiya" tushunchasining tarkibiy qismi bo’lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik ta’rif bermoq kerak. Arabcha "tarbiya", "tarbiyat" so’zlari 1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o’rgatish; odob o’rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko’rsatish: ko’z-quloq bo’lish; himoya qilish kabi ko’pqirrali mazmunga ega. "Tarbiyachi" so’zi esa shu ko’pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir. Demak, milliy tarbiyaga quyidagicha mualliflik ta’rifini berish mumkin Milliy tarbiya - yosh avlodni xulq-atvorida o’z xalqiga xos milliy fazilatlarni shakllantirish jarayonidir.

Milliy tarbiya ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida o’rganishlarimizga asoslanib quyidagicha xulosalarni taqdim etish mumkin:

milliylik - ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy tamoyili natijasida yig‘ilgan madaniy qadriyatlar sintezidir. Milliy tarbiya - ana shu madaniy-tadrijiy sintezga asoslangan holda yosh avlodni zamonaviy sharoitga va kelajakka mos ravishda shakllantirish jarayonidir: shaxsning milliyligi va zamonaviyligi - uning ijtimoiylashuvining madaniy darajasidir;

har bir milliy madaniyat - umuminsoniy qadriyatning muayyan ko’rinishidir. Chunki insoniyat - bu xalqlar, millatlardir. Ana shu nuqtai-nazardan milliy tarbiya - har bir insonni o’z milliy madaniyati manbaida, ya’ni muayyan umuminsoniy qadriyat asosida shakllantirishdir;

har bir inson o’z Hayoti davomida turli ijtimoiy rollarni o’taydi. Bu rollar mazmuni, ko’lami, namoyon bo’lish jabhalari ilk o’smirdan boshlab ko’payib, kengayib, murakkablashib, milliylashib boradi. Ana shunday tug‘ma va ilk o’zlashtiriluvchi ijtimoiy rollardan biri – shaxsning milliy rolidir;

xalqlar, millatlar mavjud ekan, milliy tarbiya jarayoni bizning xoxishimizdan tashqari ravishda, madaniy determinizm asosida davom etaveradi. Shuning uchun bu jarayonni davlatning manfaatlariga mos ravishda maqsadga yo’naltirilsa, milliy tarbiya ulkan yaratuvchan taraqqiyparvar ma’naviy kuchga aylanadi;

har bir zamonda shakllanayotgan avlod bilan oldingi avlod vakllari orasidagi milliy fazilatlar, milliy qadriyatlar, milliy xarakter xususiyatlaridagi o’zgarish va tendensiyalarni kuzatib borish, ular orasidagi bog‘liqliklarni psxodiagnostik metodlar orqali doimiy ravishda tekshirib, ahamiyatga molik jihatlarini monitoringini olib borish maqsadga muvofiq;

oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo’lib yetishidagi ota–onaning sa’yi- harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo’lib yetishishida muhim o’rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko’radi, bo’lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko’ra kamol topib boradi;

farzandlarimizni ilm-fan va ta’lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o’z o’rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo’g‘rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq qilishimiz va qo’lga

kiritilgan tahliliy malumotlar asosida maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqib uni amaliyotga tabiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz mazkur paragrifda milliy tarbiyani ijtimoiy psixologik jarayon ekanligini ilmiy izohlantirdik, endi keying paragrifda milliy tarbiyani sharq mutafakkirlari tomonidan o'rganilishini ko'rib chiqamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маргарет Мид. Культура и мир детства. – М.: Глав. ред. восточ. летературы, 1988. – С. 179.

2. Дюркгейм Э. Ценностные реальные суждения // Социологические исследования. – М.: издво "Рефл-бут", 1991, № 2. – С. 109–110.

3. Quronov M., X.Jabborov "Baxtli bola ma'naviyati" nomli qo'llanma // "Sano-standart" nashriyoti T:.2018 y. 268 b.

4. Jabborov X.X. "O'smirda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

STRESS: NAZARIY ASOSLARI, TURLARI VA HAYOTDA NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

Tajibayev Shohruh Maqsudovich
Buxoro davlat universiteti, tadqiqotchi

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, stress muammosini ilmiy asoslash faqat so'nggi o'n yilliklarda sodir bo'ldi. Stress haqidagi birinchi eslatmalar V. Vundt, V. Jeyms, R. Manning, V.Kannon asarlarida ilmiy asoslanishiga qaramay, stress haqidagi ta'limotning asoschisi kanadalik psixofiziolog Gans Sele hisoblanadi. 1936 yil iyul oyida uning muharrirga yozgan maktubi ingliz tilidagi "Nature" jurnalida nashr etilgan turli tashqi ta'sirlarga tananing qarshi reaksiyalari haqida ma'lumot beradi. G. Selening fikricha, stress (umumiy moslashish sindromi) har qanday salbiy ta'sirga javoban tananing o'ziga xos bo'lmagan reaksiyasidir. Boshqacha qilib aytganda, bu xavf tug'ilganda tanada sodir bo'ladigan o'zgarishlar majmuasi, deyishimiz mumkin: qondagi adrenalin darajasi keskin oshadi, qon bosimi ko'tariladi, yurak urishi tezlashadi, qon tomirlari kengayadi, miya va miya intensivligi, mushaklarning faolligi kuchayadi, ochlik hissi yuzaga keladi va 1400 ga yaqin boshqa psixofiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Shu ma'noda stress omon qolish mexanizmi sifatida mavjud. Qadimgi odam, xuddi hayvon kabi, xavf-xatarga duch kelganda, bir zumda reaksiyaga kirishishi kerak edi: hujum qilish (jang reaksiyasi) yoki qochish (parvoz reaksiyasi). Uning mavhum fikrlarga vaqti yo'q edi. Bu ibtidoiy, fiziologik stress deb atalgan. Har bir inson bir necha marta fiziologik stressni boshidan kechiradi. Ilmiy adabiyotlarda "psixologik stress" yoki "emotsional stress" tushunchalari ajralib turadi, ular odamning o'tkir yoki uzoq muddat davomida uning ijtimoiy yoki biologik ehtiyojlarini qondirishni cheklaydigan ziddiyatli hayotiy vaziyatlarning aniq psixo-emotsional holati bilan tavsiflanadi. Stress, Y.G.Chirkov ta'biri bilan aytganda, qarama-qarshi, tushunarsiz va noaniqdir. Tadqiqotchilar A.Fridman, D.Galansev, Yu.Sherbatixning fikricha, "stress – bu organizmning hayotiy vaziyatlarga uzoq muddatli tizimli (psixologik va gormonal) reaksiyasi bo'lib hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, stress holatini keltirib chiqaradigan omillar odatda "stressorlar" deb ataladi va stress ta'sirida organizmda sodir bo'ladigan

o‘zgarishlarning umumiyligi umumiy moslashish sindromi deb ataladi. Zamonaviy adabiyotda stressning turli tasniflari mavjud:

1. Kundalik stress - bu kundalik hayotda paydo bo‘ladigan, lekin shaxsga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan kichik va ahamiyatsiz hodisalarga tananing reaksiyasi, masalan, hozirgi sog‘liq muammolari, kiyim-kechak uchun pul yetishmasligi, ovqat pishirish bilan bog‘liq muammolar va boshqalar.

2. Emotsional stress - asab tizimining haddan tashqari kuchlanishiga javobidir.

3. Kasbiy stress - boshqa xil hodisa bo‘lib, insonning mehnat faoliyatidagi stressli vaziyatlarga ruhiy va jismoniy reaksiyalarida namoyon bo‘ladi.

4. Axborot stressi - bu odam bardosh bera olmaydigan va belgilangan tezlikda qaror qabul qila olmaydigan axborot hajmi natijasida yuzaga keladigan holat.

Stress va stressga chidamlilik sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan taniqli rus olimi, biologiya fanlari doktori, professor Yu.V.Shcherbatix odamning ta’sir qilish qobiliyatiga ko‘ra stressning uch turini ajratadi:

1) bizning nazoratimizdan tashqarida bo‘lgan stresslar;

2) biz haqiqatan ham ta’sir qilishimiz mumkin bo‘lgan stresslar;

3) o‘zimizning tasavvurimiz mahsuli bo‘lgan stresslar.

Shuningdek stressning yana ikki turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) eustress - hayotni saqlab qolish va saqlashga xizmat qiladigan normal stress ("stress" (inglizcha) - bosim, taranglik);

2) patologik stress - og‘riqli holatlarda namoyon bo‘ladi ("distress" (inglizcha) - qayg‘u, baxtsizlik, bezovtalik, charchoq, muhtojlik).

Odamlarda stressning eng keng tarqalgan sabablari orasida yaqinlarini yo‘qotish, sog‘liq muammolari, atrofdagilar bilan buzilgan munosabatlar, yoqimsiz odamlar bilan muloqot qilish, moliyaviy qiyinchiliklar, ishsizlik, vaqt etishmasligi va dam olmaslik, raqobatlar yoki ommaviy nutqlar kiradi. Stress ham obyektiv va subyektiv bo‘lishi mumkin. Obyektiv stress insonda fiziologik va psixologik buzilishlarning mavjudligini anglatadi. Subyektiv stress deganda umumiy psixo-emosional fonning pasayishi tushuniladi. Psixika va tana bir xil energiya axborot tizimining bir qismi ekanligini tushunish kerak. Agar tanada o‘zgarishlar bo‘lsa, bu odamning ruhiy holatiga ta’sir qiladi va aksincha, ruhiy holatdagi o‘zgarishlar tanadagi o‘zgarishlarga olib keladi. Zamonaviy inson stressni boshdan kechiradi, lekin ibtidoiy odamlar kabi emas. Zamonaviy stress, birinchi navbatda, psixologik darajada, shundan keyingina jismoniy darajada namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha, zamonaviy odam, psixologik qiyinchiliklar ta’sirida, tanada jamlangan barcha zo‘riqishlarga jismoniy darajada munosabat bildirish imkoniyatiga ega emas. Kuchli tashqi ta’sirlarga javob berish qobiliyati ma’lum bir shaxsning individual psixologik xususiyatlari ya’ni: psixofiziologik konstitutsiyasi, ta’sirlarga sezgirlik darajasi (sezuvchanlik), motivasion va hissiy-irodaviy xususiyatlarining barqarorligi darajasi bilan belgilanadi. Tashqi ta’sirlarning qayg‘uga olib kelishini oldini olish uchun shaxsda ijobiy fikrlash, o‘zini nazorat qila olish, intizom, to‘siqlarni engib o‘tish istagi va boshqalar kabi fazilatlarni rivojlantirish kerak.

Xalqaro statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ishchilarning 30% dan 90% gachasida charchash sindromi rivojlanish xavfi mavjud. Bunday keskin stress holatining paydo bo‘lishi uchun asos stress omillari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Stressorlar insonda stressni keltirib chiqaradigan va uning salomatligi va farovonligi uchun salbiy oqibatlarga olib keladigan tashqi yoki ichki sharoitlardir. Stress omillari juda ko‘p, ammo eng muhimlari quyidagilardan iborat:

1) mikrostressorlar - bu odamda stressni keltirib chiqaradigan kichik, kundalik vaziyatlar yoki hodisalar. Masalan, ishga kechikish, hamkasblar bilan kelishmovchiliklar, rejalardagi kutilmagan o‘zgarishlar;

2) makrostressorlar - bu odamga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan va stressni keltirib chiqaradigan jiddiyroq hodisalar yoki holatlar. Makrostressorlarga misollar: ishni yo‘qotish, ajralish, jiddiy kasallik;

3) surunkali stress omillari doimiy yoki uzoq muddatli omillar bo‘lib, ularning doimiy mavjudligi sababli stressni keltirib chiqaradi. Surunkali stress omillariga misollar: vaqt etishmasligi, moliyaviy muammolar, qiyin munosabatlarni kiritish mumkin.

Uzoq muddatli stress insonda charchoq, asabiy buzilishlar va ba’zida jiddiy fiziologik kasalliklarga olib keladi. Shunday qilib, stress - bu tananing tarang holati, ya’ni organizmning unga yuklatilgan talabga (stressli vaziyat) o‘ziga xos bo‘lmagan javobidir. Stress ta’sirida inson tanasi stressni boshdan kechiradi, buning natijasida odam deyarli bir zumda o‘zining barcha ichki resurslarini safarbar qilib, to‘siqni engib o‘tishga harakat qiladi. Ammo shunday bo‘ladiki, stressli vaziyat surunkali holga kechadi va keyin charchoq bosqichi boshlanadi, bu esa odamni hissiy charchash va psixosomatik kasalliklarga olib keladi. Shuning uchun inson jismoniy va psixo-emosional holatini uyg‘unlashtirishga yordam beradigan o‘z-o‘zini tartibga solish va qayta tiklash usullarini bilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рудаков, А. Л. Стресс, стрессоустойчивость и саногенная рефлексия в спорте: монография / А. Л. Рудаков. – Красноярск, 2011. – 190 с.
2. Управление стрессом для делового человека. Технологии управления стрессом, проверенные в корпоративных войнах, судебных баталиях и жестких переговорах / А. Фридман, Д. Галанцев, Ю. Щербатых, – М. : изд-во «Добрая книга», 2018. – 512 с.
3. Полякова, О. Н. Стресс: причины, последствия, преодоление / О. Н. Полякова; под ред. А. С. Батуева. – СПб. : Речь, 2008. – 144 с.
4. Яковлев Е.В., Леонтьев О.В., Гневышев Е.Н. Психология стресса: Учебное пособие. — СПб.: Изд-во Университета при МПА ЕврАзЭС, 2020. 94 с.
5. https://www.statista.com/ – 02.07.2018. Электронный ресурс
6. Бергис Татьяна Анатольевна, проблема профессионального стресса педагогов в условиях современной образовательной системы. Карельский научный журнал. 2020. Т. 9. № 1(30), стр 47-48.

IJTIMOIY JARAYONLARNING SHAXS MA’NAVIY EHTIYOJLARI XARAKTERIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Kudratov Akmaljon Ibodillayevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyi direktori,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zamonaviy psixologiya fanida “ehtiyojlar muammosi” ilmiy tadqiqotlarning markaziy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Chunki ehtiyoj muammosiga yechim topishda xorij va mamlakatimiz psixologiyasining zamonaviy holatini tahlil qilish jiddiy ahamiyat berilishini talab etilmoqda.

Mamlakatimiz jamiyati inson ehtiyojlarini ko‘p tomonlama qondirilishini ta’minlash maqsadida rivojlanib bormoqda. Mashhur olimlar ham yosh tadqiqotchilarni tadqiqotlarida ehtiyojlarning fiziologik mexanizmini tushunishning tabiiy-ilmiy asoslarini tasvirlab berishga harakat qilmoqdadir.

Inson ehtiyojlari ijtimoiy-psixologik xarakterga ega. Bu birinchidan, hatto tor shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan deb tuyuladigan masalan, ovqat tanovul qilish bilan bog‘liq ehtiyojlarni ham qondirish uchun ham mehnatning ijtimoiy-psixologik natijalaridan foydalaniladi.

Ikkinchidan, ehtiyojlarni qondirish uchun, inson berilgan real ijtimoiy muhitda tarixan yuzaga kelgan usul va yo‘llardan foydalanadi va unga muayyan sharoitlarning mavjud bo‘lishi talab etiladi.

Uchinchidan, insonning ko‘plab ehtiyojlari nafaqat uning shaxsiy talablarini, balki inson mansub bo‘lgan, birga mehnat qiladigan jamiyat, jamoa, guruh talablari hamdir - jamoa ehtiyojlari shaxs ehtiyojlari xossasini oladi.

Shaxs faolligida fiziologik ehtiyojlarning roli nimadan iborat?

Organizmning ichki muvozanati bevosita bog‘liq bo‘lgan omillarning soni juda ko‘p. Ular qatoriga qurilish va quvvat, energetik moddalarning yetarli miqdori, tegishli harorat, atmosferada kislorodning mavjudligi, suv, asabiy va jismoniy taranglikdan, og‘ir, yuksak psixologik holatdan keyin hordiq, muayyan vaqtda uyqu va hokazoar kiradi. Biz tirik organizmlarda oziq-ovqat tanovul qilish, suv ichish va uxlash va boshqa ehtiyojlari bor deymiz. Shuningdek shaxsda fiziologik ehtiyojlarni qondirish yoki qondirmaslikning psixologik jarayonlarga va umuman olganda shaxsga ta’sir ko‘rsatishi muqarrar bo‘lib va shu sababdan individ psixik hayotining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O‘z navbatida, aksariyat hollarda fiziologik ehtiyojlarni qondirish jarayoni psixik omillarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, kislorodning yetishmasligi ko‘rsatmalarning vaqtinchalik o‘zgarishini, tanqidiy munosabat darajasining susayishini, his-tuyg‘ularning jo‘shishi holatini keltirib chiqaradi va bu shaxsning tartibini, izdan chiqishiga olib keladi.

Uyqudan qoldirish (uxlashga qo‘ymaslik) Korsakov sindromi deb nom berish mumkin bo‘lgan bir qator psixik tartibsizliklarga olib keladi. Gallyusinatsiya (alahsirash, har xil mavjud bo‘lmagan hodisa, narsalarni ko‘rish) holatlari ham kuzatilgan. Biroq, bunday tartib buzilishlarning belgilari o‘n besh soat odatiy uyqudan keyingina to‘la yo‘qolgan.

Masalan, ona qaramog‘ida bo‘lmagan, yasli yoki kasalxonalar muhitida bo‘lgan bolalarda tartibni buzilishi aniqlangan. Bunday sharoitlarda, emadigan chaqaloqlarda nafaqat rivojlanishda inqiroz, orqaga ketish regressiya, balki jismoniy holdan toyish bilan birga kuzatiladigan somatik tartib buzilishlar ham kuzatilgan.

Ma’lumotlar miqdorini va psixika o‘tkazadigan ta’siri va psixika turiga bog‘liq ravishda tadqiqot qilishning oddiyligini hisobga olganda oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoj eng muhim va qiziqarli ehtiyoj turlaridan biridir. Bu yerda insonda fiziologik ehtiyojlarni qondirishning ijtimoiy xarakteri, ma’lum ijtimoiy guruh bilan muloqot jarayonida olingan individ tajribasiga va shaxsning xususiyatlariga bog‘liqlik xususan aniq namoyon bo‘ladi.

O‘tkazilgan tajribalarda tajribada ishtirok etuvchilar orasida jiddiy farq borligi aniqlandi. Biroq, bunday farqlar mavjudligiga qaramasdan, barcha ishtirokchilarda jiddiy zaiflik kuzatildi. Bosh og‘riqlar, arzimas narsaga achchig‘i chiqish, jinsiy masalalarga befarqlik paydo bo‘ldi, ovqat pishirish haqidagi kitoblarga va oziq-ovqat tasviri tushirilgan ko‘rgazmali suratlarga qiziqish oshdi. Ko‘p hollarda etnik nazoratning susaygani kuzatildi.

Ko‘p marta ochlikdan o‘lish bo‘sag‘asida bo‘lishni boshdan kechirgan odamlar ularning oziq-ovqatga – asosan non va yog‘ mahsulotlariga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘lgan miyalaridan muhrlanib qolgan fikr bilan ajralib turishgan. Bunday munosabat xususan ularning oziq-ovqat mahsulotlarini keraksiz miqdorda ko‘p zahira qilishlarida, non mahsulotlari do‘konida nonga ko‘zlari tushganda o‘ziga xos jonlanib ketishi va boshqa ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Aytish lozimki, faol, serg‘ayrat odamlar og‘ir urush davrlarida asirga tushganda, ochlikka boshqalardan ko‘ra yaxshiroq dosh berganlar.

Olim K. Obuxovskiy “Ochlik keladi deb uzoq vaqt qo‘rquvda turish ochlikning o‘zidan ham kuchliroq salbiy ta’sir o‘tkazuvchi omildir” degan farazni ilgari surdi.

Ilgari surilgan farazni tasdiqlab, ushbu faktlar insonning o‘zi qondirmagan ehtiyojning oqibatlarini kutishdan kelib chiqqan qo‘rquvning “jarohatlovchi” ta’sirini kuchaytiruvchi yana bir omilni ko‘rsatish imkonini beradi. Ushbu omil qo‘rquv bilan chambarchas bog‘liq ojizlik, nochorlikdir.

Ochlik bilan bog‘liq turli asabiy, jismoniy tanglik, tarangliklar hammada ham bir xil bo‘lishi ehtimoldan xoli emas, biroq ularning “aqliy qayta ishlanishi” insonning hayot tajribasi, uning rag‘batining (motivining) sababi bo‘lmish ko‘rsatmalarga bog‘liq holda turli darajada bo‘ladi.

G‘arb mamlakatlari psixologlari orasida insonning barcha rag‘batlari (motivatsiyasi) asosida “biologik” ehtiyojlar yotadi degan nuqtai nazar keng tarqalgan. Bunda ushbu nuqtai nazar tarafdorlari biologik ehtiyojlarning hayotiy zarurligiga, ularning genetik paydo bo‘lishining birlamchiligiga va hokazo da’volarga ishora qilishadi. Bu yerda aksar holatlarda rag‘batlanishning (motivatsiyaning) kelib chiqish muammosining aynan psixologik ifodasining o‘zini umuman hayot faolligining kelib chiqishining biologik muammosi tomonga o‘tkazib yuborish (adashtirib yuborish) sodir bo‘ladi. O‘z o‘zidan ma’lumki, biologik jihatdan, oziq-ovqat vositasida amalga oshuvchi almashinuv jarayonlari (assimilyatsiya va dissimilyatsiya) faollikning manbai hisoblanadi. Biokimyoviy jarayonlar psixik jarayonlarning moddiy asosini tashkil qilgani sababli, pirovard natijada ular psixik faollikning ham dastlabki manbai hisoblanadilar.

Ushbu yondashuvdan turib yuqori, ruhiy, faqat insonga xos (intellektual-aqliy, estetik, ijodiy, yaratuvchanlikka bo‘lgan) ehtiyojlar qanday tushuntiriladi?

Bu masalada, birlamchi va ikkilamchi deb nomlanadigan harakatga keltiruvchi omillar mavjudligi haqidagi keng tarqalgan qarash mavjud. Bunda ikkilamchi omillar birlamchilariga nisbatan “asbob” (instrumental) hisoblanib, birlamchilarning qondiruvchi vositalar sifatida paydo bo‘lishgan va keyinroq nisbatan mustaqillik xossasini olgan. K. Obuxovskiy ham shunday fikrni ta’kidlab o‘tadi. Olim: “Dastlabki ehtiyojlarni qondirish individ ichki muvozanatini saqlab turishning asosiy shartidir. Buni esa muhitning alohida olingan elementlari organizm uchun qanday qimmatga (ahamiyatga) ega ekanligini tushungandagina amalga oshirsa bo‘ladi”, deb yozadi.

K.Obuxovskiy dastlabki faoliyatning aynan insonga xos turlari sodir bo‘ladigan uch pog‘onaga tegishli bo‘lgan uch xil ehtiyojni ajratib ko‘rsatadi:

1. Individ uchun tushunarli bo‘lmagan, noma’lum voqea-hodisalarni bilishga intilish;

2. O‘z xatti-harakatlarini nafaqat mavjud voqelikka mos ravishda, balki boshqa odamlarning his-tuyg‘ulari (emotsional) ko‘rsatmalariga bog‘liq holda ham tartibga solish;

3. O‘z shaxsining qadriyatini boshqa barcha tan olgan qadriyatlar bilan taqqoslash;

Birinchi navbatda, inson o‘zi uchun dolzarb, mavjud voqelik asosida qarorlar qabul qilishi va amal qilishi lozim. Kichkina bola uchun ham uni o‘rab turgan dunyoning alohida predmetlari, odamlar, hayvonlar va narsalar uning o‘zi uchun qanday qimmatga ega ekanligini tushunish, shuningdek, boshqa qimmatlar, qadriyatlarga nisbatan ulardan imkoni boricha samarali tarzda “foydalanish, iste’mol qilish, tanovul qilish” yoki ularning salbiy ta’sirini oldini olish maqsadida munosabatda bo‘lish uchun tasavvurlar, ko‘rsatmalar o‘ta muhimdir.

Insonning mavjud voqelikda qanday xatti-harakatlar, qarorlar qabul qilishi tarziga intellektual, ya’ni mavhumiy tafakkur yordamida bilishga asoslangan oriyentirovka deb ta’rif berish mumkin. Demak, insonda uni o‘rab turgan dunyoni “intellektual (aqliy) bilishga bo‘lgan ehtiyoj” mavjudligini tan olish zarur. Bunday ehtiyojni bilishga bo‘lgan ehtiyoj deb atash mumkin.

Aksariyat hollarda, ijtimoiy munosabatlarda intellektual bilimlar yetarli bo‘lmasligi mumkin, sintoniya kelishganlik, moslashganlik esa boshqa odamlarning inson manfaatlariga putur yetkazadigan xubdin xulq-atvoridan “himoya qiluvchi vositaga” aylanadi. Boshqa odamni his-tuyg‘u asosida bilish his-tuyg‘ular asosida (emotsional) muloqotga kirishning (kontaktning) asosidir. His-tuyg‘ular asosida muloqotga kirishning o‘zi insonning o‘zgacha, o‘ziga xos ehtiyojidir, uning ikkinchi muhim dastlabki xatti-harakat qilishga, qaror qabul qilishga asos bo‘ladigan ko‘rsatma, oriyentirovka ehtiyojidir.

K.Obuxovskiyning ushbu konsepsiyasida maxsus e’tibor qaratishga munosib bo‘lgan bir qator juda qiziqarli holatlar ilgari surilgan va u ba’zi misollar keltirilgan bo‘lsada, uning ikkilamchi ehtiyojlari birlamchi ehtiyojlarga nisbatan “asboblar”, “vositalar” ekanligi va ularni birlamchi ehtiyojlarni qondirish uchun paydo bo‘lganliklari va keyinchalik nisbiy mustaqillik maqomini olganligi haqidagi fikri uncha asoslangan emas. Albatta, aynan insonga xos qobiliyatlar va tegishli ehtiyojlarning shakllanishi, paydo bo‘lishi insonning taqqoslab bo‘lmaydigan keng ma’noda umumiy bo‘lgan va nozik tarzda moslasha olishiga olib keldi. Biroq, batafsilroq tahlil qilinganda, filogenezda ham, ortogenezda ham intellektual (aqliy) va boshqa qobiliyatlar va ehtiyojlar bevosita paydo bo‘lmagan va asosan biologik ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida xizmat qilganligini aniqlash qiyin emas.

A.N.Leontevning ta’kidlashicha, asosli tarzda yoshi kattalarning bolaning faoliyati (asosan o‘yin faoliyati) samaradorligi qanday bo‘lishiga qaramay uning ehtiyojlarini qondirishadi. Biologik ehtiyojlarning qondirilmasligi faoliyatning yuqori daraja vositalari va stimullarning (motivlarining) shakllanishiga stimul, sabab, turtki bo‘lmaydi, aksincha: rivojlanayotgan intellektual (aqliy) imkoniyatlar va yuqori pog‘ona bilish ehtiyojlari shubhasiz bola hayotini ta’minlab turish vositasi hisoblanmaydi, aynan biologik ehtiyojlarni qondirish o‘sha faqat insonga xos yuqori pog‘ona ehtiyojlarning shakllanishi vositasi hisoblanadi. Bolaning yuqori pog‘ona funksional imkoniyatlarining elementlari, ularning kurtaklari biologik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan faoliyatdan emas, balki aynan ushbu faoliyat doirasi, chegarasidan tashqarida va bolaning bunday faoliyatdan ozod bo‘lib borgani sari o‘sib, rivojlanib chiqadi.

Tadqiqotchi olimlardan L.I. Bojovich rahbarligi ostidagi laboratoriyada bir ehtiyojning ichida psixologik rivojlanish mexanizmini va uning sifat jihatdan boshqa shakllarga aylanishini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Bunday mexanizmni, ya’ni aynan insonga xos xulq-atvorni harakatga keltiruvchi, ruhiy ehtiyojlar deb nomlanuvchi omillarning kelib chiqishi muammolarini ochib berish, bizni asosiy nazariy muammomizning yechimini topishga yaqinlashtiradi.

Bu holat haqida L.I.Bojovich quyidagi farazni ilgariga suradi. Ehtiyoj qondirilganda, bola nafaqat qoniqqanlik va tinchlanishni his qiladi, balki ba'zi, hali o‘rganilmagan vaziyatlarda kuchli ijobiy psixologik hissiyotlar ham oladi. Aftidan, ushbu emotsional his-tuyg‘ular ehtiyojni qondirish yo‘lini izlash va uni qondirish jarayoni bilan bog‘liq. Ushbu his-tuyg‘ularni davom ettirish, qayta jonlantirish yoki kuchaytirishga intilib, bola (albatta ulg‘aygan odam ham) ehtiyojni qondirish predmetini takomillashtirishni yoxud qondirishning yangi usullarini izlashni boshlaydi.

I.Lingar ning takidlashicha "Insonda ehtiyojlarning chuqur rivojlanish darajasida boshqa ko‘rinishga o‘tishi (metamorfozasi) nima sodir bo‘layotganida, obrazli qilib aytganda, ularni organizm holatlarining ob'ektiv ehtiyojlaridan ajratib olishda aks etadi. Ularning bir-biriga mos kelmasligi, ba'zan esa ular orasida ro‘y rost tafovut elementar ehtiyojlardayoq aks etadi".

Barcha odamlarning moddiy ehtiyojlarining qondirilishi shaxsning tirikchilik, bir burda non topish yo‘lida qaqshatqich kurash natijasida tug‘iladigan ochko‘zlik, qizg‘anchiqlik, hasadgo‘ylik, o‘g‘rilik va hokazo kabi illatlardan qutulishga yordam beradi.

Asl, haqiqiy insoniy ehtiyojlarning asoslari oilada, chaqaloqlikdan kurtak otib, tarbiyalanib qo‘yib boriladi. Afsuski, ota-onalar bunday o‘ta muhim masalaga hamma vaqt ham tegishli va yetarlicha e'tibor berishmaydi. Farzandlariga muhabbatlaridan ko‘r bo‘lib qolgan ota-onalar ko‘p hollarda o‘z farzandlarining eng arzimas injiqliklarini ham qondirish uchun ularni erka qilib yuborishadi, turli qurbonliklarga borishadi, o‘zlari uchun eng zarur narsalardan voz kechishadi, bolalarga o‘z talablarini oila byudjeti imkoniyatlariga mos tarzda qo‘yishlarini, boshqa odamlarning ehtiyojlarini ham hurmat qilish lozimligini o‘rgatishmaydi. Buning natijasida jamiyatga haddan ortiq talab qo‘yadigan g‘irt takasaltang, ishyoqmas, tekinxo‘r, hayotini umrini bekorga kuydirib yuboradigan odamlar sezilmagan holda ulg‘ayadi. Narsaparastlikka, o‘yin-kulgu, kayf-safoga hirs qo‘yish ularning oldiga hayotni uning buyukligi va ko‘p qirraligidan foydalanish, undan bahra olish yo‘lini to‘sib qo‘yadi, bunday odamlarda insonga xos boshqa ehtiyojlarning ahamiyatini yo‘qqa chiqaradi. Ma'naviy majruh, ba'zan esa jinoyatchi odamlar mana shunday tarzda paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. К. Обуховских. Психология в лечения человека -М.., "Прогресс", 1971 с 76
2. А.Н. Леонтьев. Деятельность, Сознание, Личность -М.: Политиздат. 1975. С 107
3. И.Лингарт. Процесс и структура человеческого учения. М. "Наука" 1970
4. Б.Г. Ананьев. Психология педагогической оценки. Избр. Психолог. труды.-М.: "ЛГУ" 1980с 76

MAKTAB DIREKTORLARINING SAMARALI BOSHQARUVINI TASHKIL QILISHDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENSIYALARNING AHAMIYATI

Safarov Dilmurod Xalimovich

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedrasi mudir, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), professor

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rahbar maktab direktorlarining samarali boshqaruvini*

Maktab direktorlarining samarali boshqaruvini tashkil qilishda ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish juda ham muhim hisoblanadi. Maktab direktorlari ishning tahlilini xodimga bo‘lgan talablarning manbai sifatida qarash mumkin. Mehnat psixologiyasida (yoki industrial psixologiyada, u g‘arb ilmiy va amaliy adabiyotida shunday nomlanadi) ishning tahlili asosiy tadqiqot metodi va rahbar talablari va ish o‘rnining ijrochiga nisbatan qo‘yadigan talablarini baholash imkonini beruvchi metod bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun ish o‘rni va ish jarayoni mukammal tahlil qilingan va professional muhim sifatlar ro‘yxati, shuningdek, absolyut va nisbiy professional yaroqsizlik belgilari aniqlangan. Bunday yondashuv yetarlicha uzoq vaqt hukmronlik qilgan va yaqinlargacha o‘zini oqlab kelgan.

Ish o‘rnining odamga bo‘lgan talablarini aniqlashning usullaridan biri - bu faoliyatning yaxshi va yomon xodimlar o‘rtasida eng yaqqol namoyon bo‘ladigan farqini aniqlashga va tavsiflab berishga yo‘naltirilgan bajariladigan ishlar kompleksidir. Bunday yondashuv asta-sekin yangi kontsepsiya – kompetentlikni modellashtirish kontsepsiyasining shakllanishiga olib keldi.

Ish o‘rnining odamga bo‘lgan talablarining tahlili xodimning ish samaradorligi yuqori yoki past bo‘lishini ta’minlab beradigan eng muhim talablarga, masalan, qo‘l harakatlari tezligi yoki bir operatsiyadan ikkinchi operatsiyaga o‘ta olish tezligini tahlil qilishga qaratilgan.

Shu tariqa psixologlar yaxshi xodimlarni tanlab olishga yo‘naltirilgan ish o‘rnini tahlil qilish metodidan ish o‘rinlarini odam imkoniyatlariga moslashtirishga qaratilgan metodga o‘ta boshladilar. Shu narsa e’tiborliki, kompetentlikni modellashtirishga erta qiziqish paydo bo‘lishini rag‘batlantirgan konkret yondashuvlardan biri Xey-Makber yondashuvi bo‘lib, u o‘z mohiyatiga ko‘ra ish o‘rinlarini tahlil qilish metodining adaptatsiya qilingan va kengaytirilgan ko‘rinishidan iborat.

Hozirgi zamon biznes-muhiti o‘ta raqobatliligi va o‘zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. Shu sababli tashkilotlar o‘z strukturalarini ancha oddiylariga almashtirib, ko‘proq komandaning o‘z-o‘zini boshqarishiga ishongan holda boshqaruvning oraliq zvenolarini (quyi va o‘rta zvenodagi rahbarlarni) olib tashlamoqdalar.

Tashkilotlar matritsaviy tuzilmaga ega bo‘la boradilar va shunga mos ravishda ularning qiyofasi va an’anaviy ish strukturasi o‘zgara boradi).

Ushbu o‘zgarishlarning kuzatilishi ishni tahlil qilishning an’anaviy bajariladigan tartibi yangi tashkiliy muhitda va personalni boshqarishning zamonaviy amaliyotida yaroqsiz bo‘lib qoladi, degan xavotirni ortishiga olib keladi.

Aynan ushbu sharoitda ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni modellashtirish amaliyoti oxirgi bir necha yillar davomida inson resurslari sohasiga tarqaldi. Hozirgi vaqtda kompetensiyalarga o‘rganishga asoslangan tadqiqotlar 75% dan (292 ta tashkilotda o‘tkazilgan so‘rov asosida) 80 % gacha (Amerika kompensatsiya assotsiatsiyasi, 1996-yil, 426 ta tashkilotda o‘tkazilgan so‘rov asosida) holatda respondent-kompaniyalar kompetensiyalarga asoslangan yondashuvni qo‘llashlarini ko‘rsatganlar.

Bu bozorning girdobli muhitini, shuningdek, tashkilot o‘sishining ko‘lamlari va tempini hisobga olgan holda personalni boshqarish imkonini beradi. Ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar modellari rivojlanib borishiga bog‘liq ravishda mutaxassis-amaliyotchilar va kadrlar xizmati iste’molchilari yangi foydali sxemalar va metodlarni izlay boshlaydilar. Ushbu zo‘r berishlarga yordam berish maqsadida sanoat va tashkiliy psixologiya Jamiyati (SIOP) kompetensiyalarni modellashtirish amaliyotini tadqiq qilish va qayta ko‘rib chiqish vazifasini qo‘ydi.

Shunday qilib, keyingi yillarda ishlarni tahlil qilish o‘rnini kompetensiyaviy yondashuv ishonch bilan egalladi. Tashkilotda personalni boshqarish xizmati ishida kompetensiyaviy

yondashuvni amaliy qo‘llash dolzarb bo‘lib bormoqda, chunki tashkilot ishining natijasi, asosan, xodimlarning kompetensiyalari ular egallab turgan lavozimlari talablariga qanchalik mos kelishiga bog‘liq bo‘ladi. Ammo hozirgacha kompetensiyalar nima, ularni qanday o‘lchash va baholash mumkin, degan savolga bir xilda javob yo‘q. Ko‘pchilik mualliflar o‘z ishlarida mazmuniga ko‘ra yaqin, ammo baribir farq qiladigan ta’riflarni beradilar va turli xil metod va kompetensiyalarni baholovchi metodikalarni tavsiflaydilar.

Ishlar tahlilida, eng avvalo, nigoh “nima” bajarilganligiga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘lsa, kompetensiyalarni modellashtirish esa ko‘proq maqsadlarga “qanday” erishilishi yoki ish qanday bajarilishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bunday holatda ikkita yondashuvning o‘xshashligi va farqlarini qanday qilib yaxshi tashkillashtirish va tavsiflash mumkin, degan savol tug‘iladi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlilikni modellashtirish va ishlarni tahlil qilish o‘rtasida qator ahamiyatli farqlar mavjud. Kompetentlikni modellashtirishga yondashuvlar, odatda, professional guruh uchun, ishlarning butun darajasi (masalan, ijro hokimiyati, boshqaruv, nazorat) uchun yoki butun tashkilot uchun asosiy yoki umumiy bo‘lgan kompetensiyalarning individual darajasi tavsifini beradi.

Asosiy e’tibor umumiy yoki universalni keng qo‘llanilishi va foydalanilishiga qaratiladi. Hatto modellashtirish bo‘yicha zo‘r berish vazifalarning qisqa belgilangan guruhiga (masalan, sotish bo‘yicha menedjerlarga) mo‘ljallangan bo‘lsa ham, olingan tavsiflar odatda, yetarlicha yuqori darajada va umumiy xarakterda bo‘ladi. Ikkinchi tomonda esa, asosiy e’tibor ish o‘rinlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, bunda nima farq qilishiga, ya’ni turli xildagi ish o‘rinlari o‘rtasida, professional guruhlar o‘rtasida, tashkilotdagi darajalar o‘rtasida nima farq qilishiga e’tibor qaratiladi.

Garchi ishlar tahlili ba’zida keng e’tibor darajasida bo‘lsa ham, (masalan, oilaviy tadqiqotlar o‘tkazilganda) guruhlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan deskriptor elementlar, odatda, kompetensiyalarni modellashtirishga bo‘lgan ko‘pchilik urinishlarda erishiladigan detallashtirishga qaraganda ancha batafsil darajada bo‘ladi. Boshqa tomondan, faqat umumiy kompetensiyalardan foydalanib qurilgan modellar, odatda, bir-biriga o‘xshash bo‘ladi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlikni modellashtirishga bo‘lgan yondashuvlar, eng muhimi, olingan tavsiflardagi mos kelishlarning qisqacha mazmuniga qaraganda o‘zining uzoq muddatli tashkiliy yaroqliligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Данилченко, Ю.Б. Понятие, цель и содержание оценки кадровой работы в органах прокуратуры.// Европейские перспективы 2014. С. 46-52.

2. Atai, F., Blum, D., Horowitz, T., Khalid, A., &Rzaeva, N. Cultural Elites in Uzbekistan. In P.J. Luong (Ed.), The Transformation of Central Asia: States and Societies from Soviet Rule to Independence, (pp. 93-119). New York: Cornell University Press. 2018.

3. Ding D.Z., Akhtar S. (2001) The organizational choice of human resource management practices: A study of Chinese enterprises in three cities in

4. Athey T. R., Orth M. S. Emerging competency methods for the future //Human Resource Management: Published in Cooperation with the School of Business Administration, The University of Michigan and in alliance with the Society of Human Resources Management. – 2009. – Т. 38. – №. 3. – P. 215-225.//

5. Boyatzis RE. The competent manager: A model for effective performance. New York: Wiley. 2002.- 78 p.

6. D'Aveni D. Hyper competition. New York: Free Press. 1994 - 98 p.

7. Иванов В.Г., Кузменкова В.Н., Афанасев К.С., Формирования системы кадрового резерва государственной и муниципальной службы: российский и зарубежный опыт // проблемы и пути социально-экономического развития: город, регион, страна, мир. Международная научно-практическая конференция: Сборник статей. 2013. стр.39-48

O‘ZBEK OILASIDA AJRALISH MUAMMOSINI O‘RGANISHNING HOZIRGI HOLATI

Ro‘ziqulov Faxriddin Rasulovich

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, direktori, psixologiya fanlari nomzodi, professor

Respublikamiz oila institutining mustahkamlashga doir qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar va “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etilganiga qaramasdan, oila-nikoh munosabatlaridagi o‘zgarishlar, oiladagi er-xotin o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, ajralishlar, ota-onalari hayot bo‘lgan “tirik yetim” bolalar sonining ko‘payishi, ularni tarbiyalash muammosi, sobiq qudalar o‘rtasida jiddiy janjallarning yuzaga kelishi, ajralishganlar hamda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar miqdorining o‘sishi, o‘z joniga qasd qilishlar, oilaviy nizolar zaminida ro‘y berayotgan jinoyatlar, (shu jumladan, qotillik), avlodlar o‘rtasidagi hissiy yaqinlikning zaiflashuvi, buning oqibatida xalqimiz uchun an’anaviy bo‘lib kelgan: yaqin kishilar, nogironlar, qariyalar, bolalarga g‘amxo‘rlik qilish kabilarning sustlashishi, qariyalar uylaridagi shaxslar sonining ko‘payishi, bolalar va kattalar o‘rtasidagi asab kasalliklari, nevrozlar, nevrasteniya, psixasteniya va boshqalarning ortib borayotganligi oila va oilaviy munosabatlar muammolarini maxsus o‘rganish masalasini paysalga solib bo‘lmaydigan o‘ta dolzarb ahamiyat baxsh etdi.

Ilmiy adabiyotlarda o‘zbek oilasining umumiy masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan qator tadqiqotlarda o‘zbek oilasining pedagogik, falsafiy, sotsiologik, tibbiy jihatlari o‘rganilgan. Bularning orasida o‘zbek oilasining psixologik jihatlari nisbatan kam o‘rganilganligi ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumki, XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o‘zbek oilalarida ajralish hollari juda kam bo‘lgan. Oila-nikoh inson hayotida eng muqaddas ijtimoiy hodisa bo‘lib, u jamiyat tomonidan, Islom aqidalari, urf-odatlar, qadriyatlar orqali juda qadrlangan. Oilaning buzilishi esa qoralangan.

O‘tgan asrimizning so‘nggi 50-70- yillari mobaynida barcha oilalar qatori o‘zbek oilalarida ham oila-nikoh munosabatlarida keskin o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi. Masalan, ayolning oilada va jamiyatda tutgan o‘rni tubdan o‘zgardi. Bu o‘zgarishlar esa oilaviy munosabatlarda haqiqiy “inqilob” bo‘lishiga va yangi oila-nikoh munosabatlari turlarining shakllanishiga olib kelmoqda. Milliy oilalarda er-xotin munosabatlarining yangi shakllari yuzaga kelmoqda. An’anaviy avtoritar oila-nikoh munosabatlari o‘rniga egalitar (teng) oila-nikoh munosabatlari ko‘proq shakllana boshladi. Umuman oila-nikoh munosabatlarida qator o‘zgarishlar yuzaga keldi. Lekin shular bilan bir qatorda, ayrim salbiy hodisalar miqdori ham ortib bordi. Bunday

salbiy hodisalarga: ajralishgan oilalar sonining ortib borishi va bularning erkaklar, ayollar, bolalar ruhiy ijtimoiy holatiga ta'sir etishi, tug'ilish darajasining pasayishi, o'smirlar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning ortishi, xotin-qizlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish, o'ziga o't qo'yish, sobiq er-xotin, ularning yaqin qarindoshlari orasida ziddiyatlarning yuzaga kelishi, ajralishganlar orasida turli kasalliklar sonining ko'payishi, erkaklarning ichkilikka ruju qo'yishi, jinoyat sodir qilishi kabi ko'ngilsiz hodisalarning tez-tez sodir bo'layotganligi va bularning bevosita oilaviy hayot bilan bog'liqligi tufayli o'rganilayotgan masalaning dolzarblik darajasini yanada oshirib yuboradi. Bu yerda shuni aytib o'tish joizki, O'zbekiston bo'yicha ajralishlar, MDH bo'yicha olingan o'rtacha ko'rsatgichdan bir necha marta kam sodir etilsa-da, lekin ularning salbiy asoratlari o'zbek oilasida boshqa millatlardagiga qaraganda keskinroqdir. Masalan, N.A.Sog'inov tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, o'zbek oilalarida ajralish miqdori MDH miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkichdan 2,5 marta kam bo'lsa-da, lekin har bitta ajralgan oila boshiga to'g'ri keladigan "tirik yetim" bolalar miqdori, o'rtacha ko'rsatkichdan to'rt marta ko'pdir (131. -86 b.). O'zbekistonda statistika agentligi ma'lumot berishicha 40 yil maboynida ajralishlar koeffitsienti 0,1 dan 1,6 gacha o'sgan. Bilasizmi, o'rganishlardan xulosa sifatida aytib o'tish lozimki, ajrimlar asosan 30 yoshgacha bo'lgan er-xotinlar oilasida sodir bo'lmoqda va o'zbek oilasida ajralishlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri - uning qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi farqlari bo'lib, shaharda oilalar buzilishi hollari qishloqqa nisbatan 4-5 barobar yuqoridir. Bunday farqlarni viloyatlarimizning barchasida ham uchratishimiz mumkin . Bulardan tashqari, so'nggi vaqtlarda bevosita oilaviy hayot va shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq salbiy hodisalar soni ham ortib bormoqda.

Yuqorida keltirilgan salbiy hodisalarning ro'y berayotganligi va shular bilan birga o'zbek oilasining ijtimoiy psixologik jihatlarining deyarli o'rganilmaganligi o'z navbatida bu jihatlarni ilmiy asosda maxsus o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Oila-nikoh munosabatlari yurtimizda bundan qariyb uch ming yil muqaddam yaratilgan, zardushtiylarning diniy kitobi "Avesto"da ham o'z aksini topganligini alohida ta'kidlash lozim. "Avesto" kitobida oilaga jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida katta ahamiyat berilgan, jamiyatning mavjudligi va farovonligi, ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishi, yomonlikka qarshi kurash, inson zotining davom etishi, "Avesto" jamiyatining yashovchanligi, dinning vorisligi va tarqalishi jamiyat mustahkamligiga bog'liq ekanligi keltiriladi. Shuning uchun nikoh Oliy tangri Ahura Mazdaga xush kelishi, nikohsizlik esa gunoh, yomonlik ekanligi ta'kidlanadi.

Zardushtiylik qo'ydi-chiqdini, ya'ni taloq qilishni qat'iyan taqiqlagan, er-xotin sadoqatini targ'ib etgan, buzuqlikni, zinokor xotinlar turmush tarzini la'natlagan.

Sharq mamlakatlarida bir necha asrlar mobaynida din va shariat qonunlari asosiy hal qiluvchi axloqiy va huquqiy kuch bo'lib hisoblanib kelingan. Har qanday dinda bo'lgani kabi islomda ham oilaga, oila-nikoh munosabatlariga, ajralishgan er-xotin munosabatlariga va oilalarning buzilishiga juda katta e'tibor berilgan. Islomda oila-nikoh munosabatlari boshqarilib turilishining asosiy, hal qiluvchi ijtimoiy-nazariy manbasi "Qur'oni Karim"dir. "Qur'oni Karim"ning oila-nikoh masalalari bo'yicha asosiy g'oyasi, monogam (bir nikohli) oiladagi tartibni ideallashtirishdan iborat. Bunda erkak va ayolning oiladagi va jamiyatdagi vazifalari aniq ko'rsatilgan. Oilada erkak va ayolning o'rni va vazifalarini aniq ko'rsatib berish bilan "Qur'oni Karim" erkakka oilani moddiy jihatdan ta'minlash va taloq qilish javobgarligini alohida yuklaydi. Er-xotinlarning ajralishlari aniq bo'lgan taqdirda, uni salbiy asoratlarsiz o'tishini Islomda "chiroyli suratda ajralish"ga, ya'ni er-xotin bir-birini va bolalarini behurmat qilmay xususan ayol kishini boshqalar nazarida qora qilmay, ayblamay, unga keyin ham boshqa er

xaridor bo‘lishligini nazarda tutish lozimligi ta’kidlanadi. Bulardan tashqari shuni aytish lozimki, shariat qonunlari asosida oilaviy hayotning deyarli har bir ikir-chikiri, holati, jihati shunday ko‘rib, tuzib chiqilganki, unda biron bir arzimas narsaning o‘zi e’tibordan chetda qolmagan.

Ajralish masalasi, xususan, er xotinini taloq qilishi, ajralishning salbiy oqibatlari, yetim bolani tarbiyalash muammolari Islom ilmida ham o‘rganilgan bo‘lib, unda oqibatlar, sodir bo‘lish sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari diniy nuqtai nazardan bayon etiladi.

Ajralish oqibatlari er-xotinlarning xarakterini, ruhiy emotsional kechinmalarini to‘kis anglamasliklari yoki bir-birlarining haq-huquqlarini poymol qilishlari natijasida kelib chiqadi. Shariat qonunlari o‘zi belgilab bergan shart-sharoitlarga, inson o‘z etiqodlariga qat’iy itoat etishini talab qilgan. Bunday ta’limotlarning asrlar mobaynida hukmronlik qilishi odamlarda oila-nikoh munosabatlariga, oilaviy hayotda sodir bo‘ladigan hodisalarga nisbatan shunday tayyorgarlikni shakllantirganki, bunga ko‘ra odamlar o‘zlarining oilaviy hayotlarida nimalar ro‘y berishidan qat’iy nazar ularni tabiiy bir hol deb, taqdir taqozosi (peshonaga yozilgani) deb qabul qilganlar va ularga ko‘nikib kelganlar. Bular esa o‘z-o‘zidan Islomga etiqod qiluvchi xalqlarda, jumladan, o‘zbeklarda ham oila-nikoh munosabatlarini, ijtimoiy psixologik xususiyatlarini maxsus ilmiy o‘rganish lozimligiga zarurat tug‘dirmagan. Shular bois o‘zbek oilalarining psixologik muammolari shu vaqtgacha maxsus ilmiy tadqiq etish doirasidan chetda qolib kelgan.

Oila-nikoh muammolariga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarining sharhi shuni ko‘rsatadiki, bevosita o‘zbek oilasi, jumladan, o‘zbek oilasida ajralish masalalariga bag‘ishlangan ishlar miqdori nihoyatda kam. Shu bilan birga nafaqat o‘zbek oilasi, balki Markaziy Osiyoda yashovchi mahalliy xalqlar: qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qirg‘izlar, qoraqalpoqlarda oila-nikoh masalalari kam o‘rganilganiga qaramay, ming yillar davomida xalqimizning buyuk farzandlari, bashariyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan allomalar: Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom Termiziy, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Rudakiy, Alisher Navoiy, Abulqosim Firdavsiy, Ahmad Donish, Muso Xorazmiy, Faxr ul Banot Sibg‘atulloh qizi, Abdurauf Fitrat va ko‘plab mutafakkirlarimiz oilaviy hayot masalalari bo‘yicha o‘zlarining shaxsiy kuzatishlariga asoslangan holda o‘z zamondoshlari va o‘zlaridan oldin yashab o‘tgan donishmandlarning bu boradagi ishlarini tahlil qilib, oila-nikoh masalalari, oilaviy hayot haqida qator asarlar yozib, o‘zlarining fikr mulohazalarini kelajak avlod uchun bebaho ma’naviy meros sifatida qoldirganlar. Ular tomonidan qilingan ishlar, yozilgan asarlar asrlar osha xalq ongida, xalq ijodida “axloqiy qoida” sifatida saqlanib, avloddan avlodga o‘tib yashab kelgan va bugungi kunda ham o‘zining tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shoumarov G‘.B. Muhabbat va oila. -Toshkent: Ibn Sino, 1994. - 119 b.
2. Ro‘ziqulov F.R. Ajralishlarni oldini olishga va oilaviy qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan trening mashqlari. Uslubiy qo‘llanma.
3. Абдулов С. и др. Азбука семейной жизни: беседы о любви, браке, семье /Н. Ростов н/д.: Кн.Изд-во,1983.-63с.
4. Абрамов М.С. Мужчины и женщины - Т.:Медицина, 1990.-160 с.

BULLING IN SCHOOLCHILDREN SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF NORMALIZATION OF BEHAVIOR

G'aybulloyev Alisher Asadovich
BuxSU " psychology and sociology" chair teacher

Around the world, ages 13-15; about 50% of adolescents say they have been exposed to peer abuse in and around school.

Bulling has become a part of student life around the world.

The problem of school violence arose at the beginning of the 20th century, when in 1905 K. Dukes first published his work on the subject. The first systematic studies of the problem of bullying were carried out by Scandinavian researchers: D. Olweus, P.P. Heinemann, A. Picas, E. Roland. They developed the concept of bullying (from English bully - bully), which they described as oppression, discrimination and violence.

This problem later became known as V.T.Orton, D.A. Lane, D.P. Tattum, E. Monthe. interested British scientists like.

Tattum (1989) understood bullying as a specific type of violence that when a person physically attacks or threatens another powerless person for a long time, a person feels lonely, deprived of fear and freedom of movement.

D.In his study, Lane wrote that E.Relying on Roland's work, bullying provides the following definition: violence, which can be both short-term and long-term, can be physical or psychological violence and manifests itself in such a way. Attitude towards a person or group of people who cannot defend themselves today.

Other foreign scholars, such as Besag, have advanced their views on the concept of bullying. Besag (1989) mentioned that behavioral forces that can be described as intimidation, physical, psychological, social, or verbal repeated attacks can occur repeatedly in people who are formally or situationally large, compared to those who do not have any means of self-defense.

T.R.According to Heald (1994), bullying is a long - term, physical or psychological abuse carried out by one person or directed against an individual who cannot defend himself in a group and tactical situation, consciously causing pain, intimidating or threatening to stress a person for a long time.

P.K.Smith & amp; I.Whitney defines bullying as a situation, showing specific examples of bullying, such as; threatening, beating and kicking, locking the room, sending intimidation messages, and refusing to communicate with a person.

Arora (1994) studied the problem of bullying in a school environment and concluded that bullying can be observed, causing dissatisfaction or stress, which occurs among young people attending school. From an advantage over the "victim", who is physically and mentally weaker, the "offender" receives a sense of satisfaction; the "offender" uses this behavior to devalue others, to stand out from his background.

Bullying is common in the world and has always existed. They have been struggling with this problem for a long time, the problem of intimidation cannot be solved instantly and forever. If the manifestation of violence is not stopped in time, over time they become more dangerous. To solve the problem of violence, it is important to correctly and timely respond to attempts to create a state of violence. If all participants in the educational process are actively and seriously engaged in the problem of violence, then there is a high probability of preventing many conflicts.

Prevention of bullying; should include aspects such as warning, elimination and control.

Preventive work involves changing the social, family and personal State of the student, helping to improve the quality of his life and behavior, applying special pedagogical and educational measures through changing personal directions.

The main goal of measures to prevent bullying situations: to help children learn to fight stressful situations and aggression.

The goals of violence prevention include:

• teaching teachers to work with difficult children and solve bullying situations;

* promote the social well-being of students;

* psychological and pedagogical education of parents;

* elimination of traumatic and socially dangerous situation;

* development of tolerance and patriotism in students;

"Adolescent bullying prevention program" (co.S. Shalaginova) after implementation, "bullying request (self-assessment)", "aggression test" (L.G. Pochebut), a repeated study using" Sociometry " methods. "(Moreno). The study was carried out in the control group of Class 6 "B" and the experimental group of Class 6 "B", with which a program for the Prevention of bullying among adolescents was carried out.

To determine if there are cases of bullying in the classroom, consider the results of the “Bullying Survey (self-assessment)”. According to the survey, the number of "victims" of violence has slightly increased - 46%, 50% of adolescents among boys, and 44% among girls. The share of the total number of "victims" of bullying has slightly increased, they scare less than once a week, and bullying lasts less than six months - 15%.

Later we got T.R. we rely on the concept given by. Heald (1994), Violence is a prolonged physical or psychological violence directed against an individual who is carried out by an individual or group and cannot defend himself. This concept most fully and accurately describes the concept of "bullying" and includes all the features that we have identified.

Determine what forms bullying takes at school. As previously noted, D. Lane incorporates physical and mental violence into the concept of violence, researcher I. Berdyshev speaks of the presence of verbal, behavioral and, in fact, aggressive violence with physical violence; T.Mertsalova divides physical, emotional, verbal, mental and sexual violence.

Based on this, the following forms of violence can be distinguished:

1. Bullying in physical school is the act of intentionally pushing, kicking, kicking, beating, and inflicting other bodily injuries, etc.Sexual violence is also possible, which involves actions of a sexual nature.

2. Psychological school violence-violence associated with exposure to the psyche of a child, psychological trauma is carried out through constant abuse, threat, harassment and intimidation.

The" victim"constant name begins to feel insecure due to calling (malicious nicknames), ridicule, spreading unpleasant rumors, isolation, intimidation (the" criminal "can force the" victim " to do what he does not want), extortion. money, food, forced to steal something, damage property and other actions (Theft, Robbery, hiding the personal belongings of the "victim"). This also includes “cyberbullying” - bullying using mobile phones, the internet, controversial images, the dissemination of photos and rumors, names, etc.

Thus, on the basis of the analysis, we can conclude that bullying is understood as violence that is systematically carried out by an individual or a group of individuals over a long

period of time in relation to an individual who cannot defend himself, and these actions are the act of harming the victim for a long time and, receiving psychological or physical satisfaction from the

Diagram



We consider bullying that occurs in the school environment between adolescents in relation to the educational process, whether at school or outside of it, with participants in the educational process.

"Aggression test" (L.G. Pochebut) results remained the same, with 31% of adolescents having low levels of aggression and high levels of adapted behavior. The remaining 69% of adolescents have an average level of aggression and adaptation.

According to the results of the aggression scale, the results remained the same: 16% of adolescents in the class had a higher level of physical aggression, 12% had a higher level of objective aggression, and 19% of adolescents had a higher level. self-aggression.

Table

Quantitative data using the "aggression test" method (L.G. Pochebut).

Degree of aggression	Verbal aggression		Physical aggression		Object aggression		Emotional aggression		Self-mutilation	
Normal level of aggression and flexibility in measurement.	26	100	22	84	23	88	26	100	26	81
High levels of aggression and low levels of flexibility on the scale	0	0	4	16	3	12	0	0		19

A comparison of results was made to determine the reliability of differences in the level of aggression between experimental and control groups (according to the"aggression test" method) and in the sociometric Status Index ("Sociometry"). From the analysis of the data obtained, it is possible to assess the differences between the groups. Prior to the adolescent violence prevention program, groups had the same metrics across all studied metrics.

At the control stage, differences in indicators were found: the level of aggression of adolescents in the control group was higher than that of adolescents in the experimental group, and the sociometric status of participants in the experimental group was higher than that of

adolescents. control group. Consequently, preventive work has led to significant changes in all variables for the positive.

Comparing the two group-control and experimental results, using the "bullying survey (Self-Assessment)" Method to determine the presence of violent situations in the classroom, it can be seen that class 6-"B" has a higher number of "victims". and the violent cases themselves are more than the Experimental Group 6 "b". Thus, in the control group, the "victims" of intimidation are 46% of the total number of the class, and in the experimental group-27%, almost twice as low. Also, in the control group, 31% of cases of violence occur over a long period of time; in the experimental group, this percentage is lower and is 23%.

Calculating the results using the Wilcoxon T-test showed that the empirical t value corresponds to a zone of significance in terms of" importance". In an experimental group, aggressive behavior and decreased levels of flexibility (Temp. = 153), as well as a slight improvement in the sociometric status of adolescents in the group (Temp. = 3)followed a positive trend.

Using theoretical analysis, we found that violence is systematic violence against an individual or a group of individuals who cannot defend themselves for a long time.

The main causes of violence in adolescence can be divided into external, personal and intra-family.

• external reasons are the environment of the educational institution in which the teenager is studying,

• personal causes are based on adolescent experience and include psychological and physiological changes,

• the reasons within the family, on the other hand, arise from problems in the relationship of the parent brother, sister and child. These reasons are related to the psychological changes of the teenager and his experiences, and also apply to the "offender" and "victim".

Taking into account Individual characteristics, it is important to carry out individual work with potential “bullies” and “victims”, in order to achieve a good result in the Prevention of violence, group work on the Prevention of intimidation should be carried out throughout the school and in each class separately.

During the practical study, it was diagnosed that there were cases of bullying in the lessons, the degree of aggression of adolescents was measured, “Sociometry” was carried out to identify potential “victims”and “offenders”.

In this regard, a program for the Prevention of bullying among adolescents was selected, which includes tasks for constructive response in disputes, reduction of aggressive reactions, optimization of interpersonal relationships and the development of tolerance. During the trainings, participants actively worked, expressed their opinion, discussed the proposed topics of classes with interest.

As a result of the program, a decrease in cases of bullying among adolescents was achieved, repeated diagnostics proved the effectiveness of the program.

The stated goal of the study was achieved. All prescribed tasks for bullying and prevention among adolescents were completed. A diagnosis was made and a program for the Prevention of bullying among adolescents was chosen, which had a positive effect on the results of re-diagnosis.

List of used literature

1. Реан А.А., Новикова М.А., Коновалов И.А., Молчанова Д.В. Руководство по противодействию и профилактике буллинга: Методические рекомендации – Москва, 2019.
2. Доклад ООН о положении дел в мире в области профилактики насилия в отношении детей 2020 г.: резюме. ISBN 978-92-4-000713-0 (Версия онлайн).
3. Воробьева К. Детская агрессивность как следствие деструктивного семейного воспитания / К. Воробьева // Воспитание школьников. – 2008. – № 7. – С. 48–56.

XULQ-ATVORDA VA SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA IRODANI RIVOJLANTIRISH

Rahmatova Nasiba Sobirovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar"kafedrasi
Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi.

Iroda inson shaxsiyatining eng muhim fazilatlaridan biridir. Bolalikdan ota-onalar, keyin esa o'qituvchilar farzandida ana shu xususiyatni tarbiyalashga intiladi. Insonda irodaning mavjudligi uni o'z hayotining erkin va ongli sub'ektiga aylantiradi. Iroda sizga maqsadlar qo'yish va ularga erishish imkonini beradi. Zamonaviy psixologiyada iroda tushunchasining ko'plab ma'nolari mavjud. Umuman olganda, zamonaviy psixologlarning ko'pchiligi iroda tushunchasini insonning tashqi va ichki to'siqlarni engib o'tishda ongli ravishda belgilangan maqsadga erishish qobiliyati sifatida izohlaydi .

Iroda – arabcha xohish, istak, maqsad degan ma'noni bildiradi. U shaxsning ma'lum maqsadni amalga oshirish yo'lidagi o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda yo'naltirib turish, shu yo'ldagi qat'iyatliligi, mavjud to'siqlarni yenga olishga qodir bo'lgan psixologik qobiliyatidir. Iroda inson faoliyati, muomalasi va xulq-atvorining muhim xususiyati, uning turmush mazmunini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Irodasi mustahkam, kuchli odamda maqsad bilan faoliyat, xulq-atvor izchilligi kuzatiladi. Shaxs oldiga qo'yilgan maqsadga erishishga nisbatan ishonch tuyg'usi irodaning kuch-quvvati va bosh mezonidir.

Har qanday inson faoliyati har doim o'ziga xos harakatlar bilan birga keladi, ularni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin: ixtiyoriy va ixtiyorsiz. Ixtiyoriy harakatlarning asosiy farqi shundaki, ular ong nazorati ostida amalga oshiriladi va shaxsdan maqsadga erishishga qaratilgan muayyan harakatlarni talab qiladi. Harakat qilish va qaror qabul qilish zarurligini anglagan odam har doim ham uni samarali amalga oshirishga kirishmaydi. Nima uchun odamlar ba'zan o'z rejalarini, qarorlarini amalga oshirish uchun hech narsa qilmayaptilar, hatto kuchli va hissiy manfaatlarni qondirishadi, lekin faqat kuzatuvchilar bo'lib, chetda qolishni afzal ko'rishlarini qanday tushuntirish mumkin. Va boshqalar, aksincha, yangilangan energiya bilan harakat qilishadi. Bo'g'imlari og'riydigan, har bir keraksiz harakati qattiq og'riq keltiradigan kasal va zaif odam qanday qilib o'zini to'shakdan turishga majbur qiladi, qiyinchilik bilan qo'liga bir stakan suv olib, og'ziga olib keladi, stakanni qiyshaytiradi, og'ziga qiyshaytiradi. og'zi bilan harakat qilish, ya'ni bitta maqsad bilan birlashtirilgan bir qator harakatlarni bajarish - chanqoqni qondirish. Xulq-atvorni tartibga solishga qaratilgan ongning harakatlari tufayli barcha individual harakatlar bir butunga birlashadi va odam yotoqdan chiqib, suv ichadi. Bu hodisalar ko'pincha irodaning namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, harakatlarni namoyon qilish harakatlari ko'pincha ixtiyoriy tartibga solish deb ataladi.

Insoniyatning ijtimoiy tarixiy taraqqiyotining yirik namoyandalari ijodiy faoliyatiga taalluqli ma'lumotlar, qarorga kelish namunalari ularning ijtimoiy psixologik qiyofalarini aks ettirish imkoniyatiga egadir. Masalan, buyuk sarkarda Amir Temur Ko'ragoniyning "Kuch adolatdadir" degan shikmati, Alisher Navoiyning "Zanjirband sher-engaman der" shitobi, Cho'lponning "Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir" chaqirig'i javobgarlikni yuksak his etgan holda xalqining xoshish irodasini ifoda qilib, qat'iy irodaviy xatti-harakatlarini amalga oshirganlar, shu bilan birga ular o'zlarining ma'naviy, qadriy, ruhiy qiyofalarini chuqur va ko'pyoqlama ochib berishga musharraf bo'lganlar.

Vigotskiyning ta'kidlashicha, "shaxs mahorat belgisi bilan ajralib turadigan xulq-atvor birligini o'z ichiga oladi" va shunga ko'ra, shaxsning rivojlanishi o'z xatti-harakati va aqliy jarayonlarini boshqarish qobiliyatini shakllantirishdir. D.B. Elkonin shaxsiy xulq-atvorning shakllanishi ixtiyoriy harakatlar va xatti-harakatlarning paydo bo'lishi ekanligini bir necha bor ta'kidlagan. A.N. Leontyev umumiy ixtiyoriylikni shakllantirish bolaning shaxsiyatini rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb hisobladi. L.I. Bozovich, shuningdek, iroda va iroda muammosi shaxs psixologiyasi va uning shakllanishida markaziy o'rinni egallaydi, deb ta'kidlaydi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, psixologiya fanida irodani tushunish, ta'riflash bo'yicha bir xil munosabat yaratilmaganiday, irodaviy sifatlarning ma'noviy asosini tashlil qilish yuzasidan ham umumiylik, umumiy qarashlar majmuasi mavjud emas. Jumladan, V.AKruteskiy o'z asarida irodaviy sifatlar tarkibiga sobitqadamlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlikni kiritadi. P.M.Yakobson bo'lsa, irodaning muhim sifatlarini mustaqillik, qat'iyatlilik, tirishqoqlik, o'zini uddalashga ajratadi.

Har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo'yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatlari bo'lib qolishi mumkin. Shaxsning bu o'ziga xos xususiyatlari xarakter xislatlari deb ataladi. Har bir kishidagi biron bir irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo'lishi shu kishi xarakterining xislati bo'lavermaydi.

Iroda kuchi va xarakter qat'iyati. Iroda ma'lum kuch bilan yuzaga chiqadi: ba'zi hollarda kishining irodasi kuchli sur'atda namoyon bo'lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo'ladi. Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko'rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishda ko'rinadi, biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz hohishlarni farq qilamiz.

Iroda kuchi jasorat deb ataladigan dadillikda ayniqsa ravshan ko'rinadi. Jasorat kishining shunday holatiki, bunda kishi tez qarorga keladi va uni bajarishga ahd qiladi. Hatto salomatligini va hayotini xavf ostida qoldirishi mumkinligi hayoliga ham kelmaydi. Jasorat kishining boshqa kishilarga emas, balki o'ziga bergan amridir. Kishi axloqiy burchining talabiga ko'ra, buyuk maqsadga erishish uchun bir zumda hayot bilan o'limdan birini tanlab olsa, bunday jasorat iroda kuchi ekanligini ko'rsatadi.

Irodaviy harakatlarda kishining axloqiy xislatlari namoyon bo'lsa, iroda kuchi ijobiy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Kishilarning axloqiy hislarlari haqida fikr yuritilganda aytilgan so'zlarni emas, balki ularning ma'naviy qiyofasini ko'rsatadigan irodaviy harakatlarni nazarda tutamiz. Shuning uchun kuchli irodaning mardlik, o'zini tuta bilish, sabot-matonat, chidam va jasurlik kabi xususiyatlari irodaning axloqiy sifatlari deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda irodaviy fazilatlar irodaning axloqiy tarkibiy qismi bilan bog'liq bo'lganligi sababli, bu shaxsni tarbiyalashda va uning motivatsion-irodaviy sohasini rivojlantirishda katta istiqbollarni ochadi. Biroq, bu fazilatlar nafaqat axloqiy tarkibiy qism, balki

genetik xususiyatni ham namoyon qiladi: irodaviy fazilatlar asab tizimi xususiyatlarining tipologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, insonning qo‘rquvi va paydo bo‘lganda o‘zini tuta olmasligi, shuningdek, tez qaror qabul qila olmaslik, uzoq vaqt charchoqqa dosh berolmasligi va hokazolar tug‘ma asosga ega bo‘lishi mumkin. Ammo bu kuchli irodali fazilatlarni rivojlantirish befoyda degani emas. Biroq, insonning tug‘ma xususiyatlariga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lgan ba’zi irodaviy fazilatlarga kelsak, ularning rivojlanishiga haddan tashqari optimizm va standart yondashuvlardan qochish kerak. Siz kuchli irodali fazilatlarni rivojlantirish yo‘lida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishingiz mumkinligini bilishingiz kerak, shuning uchun o‘qituvchilar, murabbiylar va ota-onalardan sezgirlik va pedagogik donolik talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. F.I. Xaydarov, N.I. Xalilova darslik umumiy psixologiya . Toshkent -2009

2. Bozhovich L. I., Slavina L. S., Endovitskaya T. V. Ixtiyoriy xatti-harakatlarni eksperimental o‘rganish tajribasi // Masalalar. psixolog. 1976. No 4. B. 55 – 68.

3. Bojovich L. I. Ontogenezda shaxs shakllanishining psixologik qonuniyatlari // Masalalar. psixolog. 1976. No 6. B. 45 – 53.

4.Lyin E. P. Iroda psixologiyasi - Sankt-Peterburg: "Piter" nashriyoti, 2000 yil 5.Leontyev A.I. Ehtiyojlar, motivlar, his-tuyg‘ular // Tuyg‘ular psixologiyasi Matnlar. − M., 1984 yil.

6. Leontyev A.I. Iroda psixologiyasi. Vestn. Moskva Univ. Ser. 14, Psixologiya. 1993. № 2, 2-bet. 3–14.

7.Vygotskiy L. S. To‘plami. manba: 6 jildda M., 1983 yil.

TALABALAR FAOLIYATIDA KOPING STRATEGIK XULQ NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK TAVSIFLARI

Amonova Sanobar Xamidjonovna
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Hozirga qadar koping xulq va uning mazmunini aniqlashtirish borasida ko‘plab, ijtimoiy-psixologik, umumpsixologik, pedagogik - psixologik mazmundagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq, ushbu amalga oshirilgan tadqiqotlarda koping-strategik xususiyat o‘smirlik davriga xos xususiyatlar bilan, tibbiy soha vakillari faoliyati bilan, boshqaruv sohasidagi rahbar shaxslar faoliyati bilan hamda ichki ishlar xodimlari faoliyati bilan bog‘liq ayrim masalalarni tadqiq etishda o‘rganilgan. Shunday bo‘lsada, bardosh berish, chidamlilik, murakkab vaziyatlarda moslashuvchanlik, yengib o‘tuvchi xulq kabi xususiyatlarni talabalik davri bilan bog‘lab o‘rganish holati, aytarli darajada qoniqarli emas. Ta’kidlash joizki, mazkur masalada rus psixologiyasida talaygina ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, biroq mahalliy psixologik tadqiqotlarda bunday masalalar deyarli o‘rganilmagan. Shu boisdan, talabalik davrida o‘quv jarayoni bilan bog‘liq bardosh bera olishlik, yengib o‘tish, tez moslasha olish kabi xususiyatlarni tavsiflovchi “koping-strategiya” shakllanishini psixologik jihatdan tekshirish, o‘ta ahamiyatli ilmiy izlanishlar turkumidan biri hisoblanadi. Mazkur paragrafda talabalar shaxsida koping-strategik xulq shakllanishining psixologik o‘ziga xosliklari haqida batafsil to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.

Umuman olganda, talabalar faoliyatida koping - strategik xulq o‘ta muhim holat sanalib, uning foydasi imtihon oldi vaziyatlarida, mustaqil yashash sharoitlarida, o‘quv vazifalarining haddan ortiq qo‘pligi sharoitida, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim sanalgan ehtiyojlarning qondirilish yoki qondira olmaslik sharoitida yaqqol namoyon bo‘ladi. Aslida koping xulq, talabalar shaxsi uchun faqat ijobiy xarakterga ega bo‘lgan xususiyat sanalib, uning yaxshi rivojlanganligi ta’lim sharoitida yuzaga keluvchi ko‘plab salbiy holatlarning oldini olishga imkon beradi. Koping xulqning ijobiy namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi yoki unga omil bo‘la oluvchi psixologik unsurlarni aniqlash, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik xususiyatlarini psixodiagnostik baholash, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi yetakchi shaxslilik sifatlarini ajratib olish kabilar, zamonaviy psixologiya uchun o‘ta ahamiyatli ilm turlaridan biridir.

N.S.Tatarnikovaning yozishicha, talabalik davri o‘z taqdirini o‘zi belgilash, ijtimoiy aloqalarni keng doirada o‘rnatish, mustaqil ishlash malakalarini o‘zlashtirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash, shaxsiy aloqalarni mustahkamlash, hayotiy strategiyalar va rejalarning paydo bo‘lishi, kasbiy ko‘nikma va malakalarni puxta egallash, ijtimoiy guruh sifatida rivojlanish kabilar bilan xarakterlanadi. Ushbu yondashuvga muvofiq, shaxsning to‘liq ijtimoiylashuvi va kasbiy tayyorgarligining eng muhim davri sifatida, talabalik davriga to‘g‘ri kelishini ko‘rish mumkin. Biroq, ta’lim olish jarayoni har doim ham, ijodiy imkoniyatlar va muvaffaqqiyatlar bilan kechadigan jarayon emas.

Qoidaga ko‘ra, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlari ko‘pincha, ularning hissiy sohasining xususiyatlariga, imtihon sharoitlarida muvaffaqqiyatga erishish va yaxshi natijalarni ko‘rsatish qobiliyatiga ham bog‘liq hisoblanadi. M.V.Juykovaning yozishicha, imtihon stress omili sifatida talabalarda psixologik stressni keltirib chiqaradigan, u ta’sir etuvchi omillar orasida birinchi o‘rinni egallaydi. Imtihonlar bilan bog‘liq stressning oqibatlari, keyinchalik talabaning o‘quv faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki, akademik muvaffaqqiyat nafaqat bilim darajaga, balki mashg‘ulot paytidagi talabalarning zo‘riqish holilik holatiga ham uzviy bog‘liq sanaladi. Imtihon davri ko‘pchilik talabalar uchun juda og‘ir bo‘lganligi sababli, undagi stressni yengish muhim muammoga aylanadi. Ya’ni, organizmda stress darajasining oshishi aqliy va somatik salomatlikka, ishlashga, kognitiv, hissiy va fiziologik jarayonlarning ko‘rsatkichlariga kuchli ta’sir qiladi.

Imtihon davrida talabalarning shaxsiy ko‘rsatkichlari va ularda kechayotgan stress darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni masalalari A.G.Ilyuxin tomonidan keng tadqiq etilgan. Muallifning ta’kidicha, imtihon topshirish sharoiti bilan bog‘liq vaziyatlarida, stress muhim nazariy va amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lishi ta’kidlangan. Boshqacha aytganda, vaqt ichida psixologik stressni ta’minlaydigan imtihon holati, talabadan barcha psixofiziologik va psixo-emosional resurslarni, shu jumladan qator yengish strategiyalarining safarbar eta bilishni talab etadi. Shuning uchun ham, imtihon sharoitida talabalarning yengish strategiyalarini o‘rganish va uning shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liqligini o‘rganish masalalari dolzarbdir. Imtihon paytida stressni boshdan kechirish darajasida turli mutaxassisliklar talabalari o‘rtasida sezilarli gender farqlarga egadir.

Ye.A. Annekovaning qayd etishicha, o‘quv faoliyatida talabalar salbiyga nisbatan ijobiy kurash strategiyalaridan tez-tez foydalanadilar. Ya’ni imtihon stressi sharoitida, ularning harakatlari qiyin vaziyatni va o‘zlarining reaksiyalarini nazorat qilish va yuzaga kelgan stressni kamaytirishga qaratiladi. Stressli vaziyatni samarali yengish bo‘yicha, o‘z qobiliyatlarini haddan tashqari oshirib yuborishlari bilan ajralib turadi. Yigitlar va qizlar o‘zlarining salbiy tajribalarini yengish uchun foydalanadigan usullarda farqlarga ega bo‘ladi. Demak, yigitlar ko‘pincha,

stressga xulq-atvor va kognitiv reaksiyalar, muammoni hal qilish uchun faol urinishlar bilan bog‘liq, kurash strategiyalari bilan murojaat qilishadi. Qizlar esa, ko‘pincha, muammolardan o‘zini chalg‘itish, kuchli his-tuyg‘ulardan qochish va ijtimoiy yordam izlashda kabi turdagi hissiy strategiyalardan foydalanadilar.

Yu.L.Sorokinaning tadqiqotlariga ko‘ra, gumanitar yo‘nalishda ta’lim oluvchi talabalar, jinsidan qat’iy-nazar, texnika yo‘nalishdagi talabalarga qaraganda, hayotiy qiyin vaziyatlarda ijobiy his-tuyg‘ularni izlashga, ijtimoiy yordam olishga, almashtirish va chalg‘itish strategiyalaridan keng foydalanishga ancha ustun bo‘lishi aniqlangan. Mazkur qarashlarga muvofiq, imtihon vaqtida emosional zo‘riqish darajasining oshishi ko‘proq, nochorlik va o‘ziga achinish tuyg‘ularining kuchayishiga, stressli vaziyatdan qochishga urinish, muammodan aqliy chalg‘ishga qodir emaslik, o‘zini o‘zi ayblash hissi kabilarda yaqqol namoyon bo‘lar ekan.

Xulosa. Talabalarda koping-strategiya shakllanganligini belgilovchi psixologik xususiyatlar sifatida, o‘zini o‘zi boshqara olish malakasi, stressbardoshlilik, hayotiy maqsadlarni erta tushuna olish, yuqori darajada rivojlangan emotsional intellekt, axloqiy yetuklik, o‘z ustida mustaqil ishlay olish, ekstremal vaziyatlarda qaror qabul qila olish ko‘nikmasi kabilar ko‘proq ilmiy e’tirof etilar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Татарникова Н. С. Основные пути индивидуализации высшего профессионального образования : монография / Н. С. Татарникова. - Нижний Новгород: ВГИПУ, 2009. – С.96.

2. Жуйкова М. В. К вопросу о необходимости формирования навыков совладающего поведения // Современная психология: актуальные проблемы и тенденции развития: материалы междунар. науч.-практ. конф. - Новосибирск: Изд-во «ЭНСКЕ», 2010. – С.37 - 45.

3. Илюхин А.Г. Развитие копинг-стратегий у студентов в ситуациях интеллектуальных испытаний. Дисс. … к.психол.н. – Тамбов, 2011. – С.57.

4. Аннекова Е.А. Личностные детерминанты оценки трудных жизненных событий юношами и девушками и их стратегий совладания. Дисс. … к.психол.н. – Ростов-на-Дону, 2010. – С.80.

5. Сорокина Ю.Л. Преодоление кризиса учебной адаптации студентами педагогического вуза. Дисс. … к.психол.н. – Ярославль, 2005. – С.28.

TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

R.A.Abdurasulov

Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi professori

G.S.Xudoyqulova

Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti

Davr hamma zamonlarda ham ta’limning yuqori darajada bo‘lishini taqozo qilgan. Barcha rivojlangan mamlakatlardagi xalq ta’limi tizimining muvaffaqiyati ushbu sohada psixologik xizmatni har tomonlama to‘g‘ri va samarali tarzda tadbiq etish bilan bevosita bog‘liq ekanligi e’tiborni tortmoqda. Tegishli adabiyotlar tahlili va kuzatishlarimiz natijasi shundan

dalolat bermoqdaki, maktabda psixologik xizmat tizimining ilmiy va amaliy vazifalari turli mamlakatlarda turlicha joriy etilmoqda. Bizning umumta'lim maktablarimizda psixologik xizmat tizimi o'ziga xos usulda joriy etilgan va eksperimental ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Maktabda ta'lim olayotgan har bir bolaning iqtidorini, individual imkoniyatlarini to'liq o'rganmay, tahlil qilmay turib, mazkur o'quvchi kelajagini pedagogik jihatdan to'g'ri baholab bo'lmaydi. O'quvchilarning faolligini ta'minlashda bugungi kunda psixologik xizmat tizimi tomonidan bartaraf qilinishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjud.

Psixologik pedagogik adabiyotlardan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng birinchi maqsad - bu yaxshi baho orqali o'z « men»ligini ilk bor his etish, ota-onasi va kattalar hurmatiga sazovor bo'lishidir. Shuning uchun o'quvchilar yaxshi baho olishga intiladilar. Lekin ko'p hollarda baholash mezonining buzilishi o'quvchi ruhiyatiga, ayni paytda shaxs sifatidagi taraqqiyotiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida baholashning psixologik mezonlari chuqurroq o'ylab ko'rilishi kerak. Bola shaxsini to'g'ri tushunish va uning harakatlarini tahlil qila olish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib borilayotgan ta'lim jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, unda bolalar baho uchun emas, balki o'zligini tanishi, o'zidagi imkoniyatlarini kashf etishi va iqtidorini namoyon qilishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bunga misol tariqasida Yaponiya ta'lim tizimini keltirish mumkin. Yaponiyada boshlang'ich ta'lim tizimida bolalarni shaxs sifatida shakllanishiga alohida e'tibor berilishi, boshlang'ich ta'limda baholash tizimini yo'qligi, asosiy e'tibor tarbiyaviy jarayonga yo'naltirilganligi bilan o'ziga xosdir. Aytish joizki, ta'limning sifati bolalarning qay darajada tarbiyalanganligiga ham bog'liqdir.

«Har bir shaxs qaytarilmas temperamentdir»- degan edi mashhur fiziolog olim I.P.Pavlov.

Qolaversa, har bir insonning o'zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi haqida O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari Ibn Sino, Farobiy va Beruniy ham o'z zamonalarida alohida qayd etib o'tganlar. Chunonchi, o'qituvchi bola shaxsini tarbiyalash uchun, dastavval uning «betakror olamiga» kira olishi va shunga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzishi va qo'llashi lozim.

Taniqli psixolog olim L.S.Vigotskiy taraqqiyotdan ilgarilab ketgan ta'limgina samarali bo'lishini qayta-qayta ta'kidlagan edi. Bugun bola kattalar yordamida amalga oshirilayotgan ishni ertaga o'zi bajarishi kerak. Bunga bolani har tomonlama rivojlantiradigan, uni fikrlashga o'rgatadigan, qobiliyatini asta-sekin o'sib borishiga imkon yaratadigan, tafakkurining yangi-yangi qirralarini ochadigan pedagogik usullar va maxsus psixologik xizmat tizimi mavjud bo'lgan taqdirdagina erishish mumkin.

Ta'lim tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etishda quyidagi holatlarni inobatga olish lozim deb o'ylaymiz:

1.Maktab psixologlarining kasbiy tayyorgarligi masalasi hozirgi kunning muhim vazifasi sifatida amaliyotchi psixologlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga e'tibor qaratish. Bunda oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan amaliy psixologiya yo'nalishi fan dasturlarini takomillashtirishga e'tibor qaratish.

2.Oliy ta'lim tizimida amaliy psixologiya yo'nalishida psixologlarni tayyorlashda o'quv rejalarini takomillashtirish.

3.Amaliy psixologiya yo'nalishi uchun o'quv rejalarini tayyorlashda o'quv fanlarining uzluksizligiga va o'quv soatlarining hajmiga e'tibor qaratish.

4.Amaliy psixologiya yo‘nalishida o‘qitiladigan fanlarning ketma-ketligi, fanlarning bir-birini to‘ldiruvchi holatlariga va amaliyot bilan bog‘langanligiga urg‘u berish.

Ta’lim jarayonini samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni psixologik jihatdan kamolotini ta’minlash uchun maktab psixologlari quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim:

1.Har bir o‘quvchida namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan stress (hissiy zo‘riqish) holatlariga xos asosiy ko‘rinishlarni aniqlash.

2.O‘quv faoliyatini tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish jarayonida o‘quv faolligi va samaradorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan holatlarni oldindan ko‘ra bilishi va ularni bartaraf etish uchun muntazam ravishda tegishli tadbirlar o‘tkazish.

3.Fanlarni o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarni o‘zlashtira olmaslik sabablarini aniqlash va shu asosda ular bilan alohida mustaqil ishlar olib borish, ulardagi imkoniyatlarni kengroq o‘rganish va ularning rivojlanishi uchun o‘quvchi shaxsidagi faollikni oshirish yo‘llarini izlash.

4.Har bir o‘quvchining o‘zigagina xos iqtidori, qiziqishlari, maqsadlari, o‘qish imkoniyatlari haqida shu o‘quvchining o‘ziga, sinf rahbariga va ota-onasiga o‘z vaqtida tegishli ma’lumotlar bera olish.

5.Psixologik xizmat nizomiga amal qilgan holda har bir o‘quvchi uchun «psixologik varaqa» to‘ldirish.

6.Har bir sinfdagi o‘quvchilar guruhi, rasmiy va norasmiy kichik guruhlar, sardorlar va ayrim «ajralib kolgan» o‘quvchilar bilan individual psixologik ishlar olib borish rejalarini tuzish.

7.O‘quvchilarni maktabga qabul qilishda faol ishtirok etish va ularni kasbga yo‘llash bilan bog‘liq tadbirlar ko‘lamini belgilash.

Qisqasi, har bir o‘quvchi uchun psixologik muhofaza imkoniyatlarini yaratish va shu asosda o‘quv faoliyati samaradorligini ta’minlash zarur bo‘ladi. Maktabda o‘quvchilarga xos psixik qonuniyatlarni aniqlab olish ta’limni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bolalarga bilimlari va huquqlari doirasida boshlang‘ich ta’lim tizimida olib borilayotgan darslarni psixologik jihatdan tahlil qilish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish ta’limdagi yutuqlar omili bo‘ladi. Bu jarayonda ayniqsa aqliy va nutqiy taraqqiyotida nuqsoni bo‘lgan ayrim o‘quvchilar faoliyatiga alohida e’tiborni qaratish lozim. O‘ylaymizki, maktab psixologlari tomonidan yuqorida qayd etilgan masalalarga e’tibor qaratishi va vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ta’limda psixologik xizmat tizimi istiqbollarini yanada yuqori saviyaga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurasulov R.A., Qarshiboyeva G.A. Psixologik trening asoslari. O‘quv qo‘llanma. T. «ZUXRA BARAKA BIZNES».2019. 176 b.

2. Ismoilova N.Z. Psixologik trening asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsiya-ziyo”, 2019. - 242 b.

3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. - T. 2006. - 243 b.

ONKOLOGIK KASALIKKA CHALINGAN BEMORLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Axmedova Zarrina Djamilovna
Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Axtamova Ferangiz G‘ayrat qizi
Buxoro davlat universiteti talabasi

Onkologik kasalliklar “o‘sma kasalligi”deb ham nomlanadi. Bu insonning ichki tana muhitida turli xildagi o‘smalarning rivojlanishi bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Onkologik kasalliklar nafaqat katta yoshdagi aholi, balki bolalar salomatligiga ham jiddiy ta’sir etayotgan muammolardan biridir.

Bugungi kunda bolalar o‘rtasida qanday onkologik kasalliklar ko‘p uchrayapti?

Bolalar o‘rtasida uchraydigan onkologik kasalliklar ichida gemablastozlar qariyb qirq foizni tashkil etadi. Shuningdek, markaziy asab tizimi o‘smalari, neyroblastomalar, buyrak, suyak, yumshoq to‘qimalar, quloq, tomoq, burun, jigar va jinsiy a’zolar xavfli o‘smalari uchrab turadi. Bolalarda onkologik kasalliklar yuzaga kelishida embrional omillar asosiy o‘rin egallaydi. Bolalarda xavfli o‘sma kasalliklarining oldini olish uchun, avvalo, ota-ona sog‘lom bo‘lishi, oilada sog‘lom muhit yaratilishi, inson zararli illatlardan xoli bo‘lishi, shuningdek, ekologik muhit musaffoligi juda muhim hisoblanadi.

Onkologiya fani hozirgi 3 yo‘nalishda rivojlantirilmoqda:

1. Normal hujayradan rak hujayraga o‘tish mexanizmini fundamental usullar orqali yechish;
2. Aholi o‘rtasida ushbu kasallikka moyil bo‘lgan va klinik belgilari yuzaga chiqmagan kishilarda rak immunologik usullar bilan aniqlash;
3. Xavfli o‘smalarni immunologik usullar bilan davolashni takomillashtirish.

O‘sma kasalliklari insoniyatga juda qadim zamondan ma’lum bo‘lgan, unga oid dastlabki yozma manbaalar miloddan avvalgi asrlarda Misr, Xitoy, Hindistonda topilgan. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida o‘zining shaxsiy eksperimental va klinik tajribalari bilan birga o‘smalarning kelib chiqishi, belgilari, ularni taniy olish va davolash usullarini ham bayon qilgan. Xavfli o‘sma ko‘pincha o‘lim bilan tugaydi. Shuning uchun deyarli hamma mamlakatlarda unga qarshi kurash olib boriladi. Bu ishga Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro rakka qarshi kurash ittifoqi va agentligi rahbarlik qiladi. Onkologik kasalliklar bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston hududida, balki butun dunyo bo‘yicha dolzarb muammo bo‘lib kelmoqda. Aksariyat onkologik kasalliklarning davo chorasi hozirgacha o‘ylab topilmagan. Ma’lum bir onkologik kasalliklarni davolash imkoni bor. Masalan “saraton” kasalligining bir qancha yengil formasini davolash mumkin. Onkologik kasalliklarni aniqlash va ularni aniqlash jarayonida skrining markazlar muhim rol o‘ynaydi. Sababi skrining orqali kasallikni ancha oldinroq aniqlash va darhol davolash choralarini ko‘rish orqali kasallikning oldini olish mumkin.

Bolada xavfli o‘sma rivojlanayotganini qanday bilish mumkin?

Bola holsizlanadi, kamqonlik rivojlanib boradi, tana harorati 37-37,5 gacha ko‘tariladi. Bundan tashqari, tana vazni kamayadi, periferik limfa tugunlari, jag‘osti, qo‘ltiqosti, bo‘yin, chovlarda limfa tugunlari kattalashadi. Ana shunday alomatlar kuzatilsa, bolani onkolog ko‘rigiga yo‘llash kerak. Bugungi kunda hududlarimizdagi tibbiyot muassasalarida bolalarda onkologik kasalliklarni erta aniqlash va davolash bo‘yicha zamonaviy imkoniyatlar yaratilgan.

Keling saraton (o‘sma) kasalligi bilan yaqindan tanishamiz.

Saraton (boshqa nomlari: kanser (lotincha: cancer — „qisqichbaqa“), rak (ruscha: рак)) deb hujayralarning tipik o‘sishi aytiladi. Atipik o‘sish bunday hujayralar qarishi yoki jarohatlanishiga qaramay cheksiz ko‘payishi bilan ifodalanadi. Sog‘lom hujayradan farqli o‘laroq, bunday hujayralarda tabiy o‘lim mexanizmi o‘chirilgan, ya’ni ular to‘xtovsiz bo‘linish jarayonida bo‘ladi.

Saraton mutatsiyaga uchragan hujayralarga qarab asosiy 4 guruhga bo‘linadi. Karsinoma — epitelial to‘qimalarda, sarkoma — mezenxemal to‘qimalarda, leykemiya — qon ishlab chiqaruvchi ilikda, limfoma va miyeloma — immunitet tizimi hujayralarida va miya va bosh miya hujayralarida atipik rivojlanishni anglatadi. Tabiiyki, saratonning „suyuq“ turlari o‘sma paydo qilmaydi. Saraton (rak) — bu tanadagi ichki to‘qimalardan o‘sadigan yomon sifatli o‘sma (shish). Kasallikning bunday nomlanishiga sabab, 90% holatlarida bemorlarda yomon sifatli o‘smalar qisqichbaqa (saraton) qisqichiga o‘xshaydi (rus. рак). Rivojlangan mamlakatlarda barcha o‘limlarning 15-20% saraton kasalligidan kelib chiqadi.

Saraton kasalligi 2 bosqichga bo‘linadi.

Saratonning erta bosqichlari

Shifokorlar saraton oldi (prekantseroz) va erta bosqichlarida saratonni davolashga optimizm bilan nazar solishlari, ilm-fan yutuqlari va ularni amaliy qo‘llash natijalariga asoslanadi:

Kundalik amaliyotga minimal invaziv diagnostika tizimlari: KT, MRT, MSKT, PET-KT kiritilishi real vaqtda shikastlangan hujayralarning yakka to‘planmalarini 2D va 3D vizualizatsiya qilish (saraton oldi bosqichlari uchun) imkonini berdi;

Erta bosqichlarida onkojarayon patogenezi mexanizmini yaxshiroq tushunish, biokimyo, patofiziologiya, klinik tibbiyot sohasidagi kashfiyotlar davolashning yangi choralari va usullarini ochib berdi.

Yuqorida keltirilganlar faqat onkologiya boshlanayotganida samarali bo‘ladi.

Saratonning so‘nggi bosqichi

Tibbiy muassasalarga beparvo qilingan patologiya shakllari bilan murojaat qilgan bemorlarni samarali davolash juda qiyin.

Onkologik kasallikni kech aniqlanishi sabablari:

Ko‘plab odamlarda onkologik kasalliklarni erta aniqlash texnologiyasi ishlab chiqilmagan, klinik belgilar bo‘lmagan bemorlar o‘zlarini sog‘lom deb hisoblashadi;

Saratonning ba’zi shakllarida metastaz mavjudligi, subklinik kechimdan o‘smalarning tez o‘sishi bilan namoyon bo‘ladigan patogenezning yuqori tezligi.

Inson saratonining yuzdan ziyod nozologik shakllari aniqlangan. Ko‘pincha a’zo va to‘qimalarda yuqori tezlikli apoptoz (dasturlashtirilgan o‘limi) va mos ravishda o‘lgan hujayralarning o‘xshash xususiyatli yangi hujayralar bilan almashadigan yomon sifatli o‘smalar kuzatiladi. Jarayon qayerda rivojlanganligiga qarab, kasallik alomatlari va belgilari o‘zgarib turishi mumkin.

Rak kasalligini keltirib chiqaruvchi sabablar nima ekanligini hozirgacha hech kim aniq isbotlanmagan. Hozirda bir necha o‘nlab ilmiy nuqtai nazarlar mavjud. Agar ularning barchasi bir umumiy tasvirga birlashtirilsa, yomon sifatli o‘smalarning rivojlanishiga yordam beradigan uchta asosiy omil ajratiladi:

Fizik omillar — ular radiatsiya, ultrabinafsha nurlari;

Kimyoviy omillar — kantserogenlar;

Biologik omillar — ayrim xavfli viruslar.

Ularning barchasi dastlab DNK tuzilishi patologiyasiga olib keladi, natijada, onkogen faollashadi va hujayralar abadiy hayotga erishadi. Buning oqibatida hujayralar nobud bo‘lmasdan, juda katta miqdorda ko‘payishni boshlaydi va o‘smani hosil qiladi.

Turli yosh guruhlari uchun onkologik kasalliklarning rivojlanish xavfi quyidagicha bo‘ladi:

Gemopoez (qon hosil qilish) va limfa hosil qilish organlari — 30 yoshgacha;

Oshqozon, qalqonsimon bez, limfoma, leykoz (erkaklar va ayollar), bachadon bo‘yni, tuxumdonlar, sut bezlari (ayollar) — 31- 40 yosh;

O‘pka, oshqozon-ichak trakti (erkaklar, ayollar), sut bezlari, ayol jinsiy a’zolari (ayollar) — 41-50 yosh;

Oshqozon-ichak trakti, o‘pka — 51-60 yosh;

O‘pka, teri, oshqozon-ichak trakti, sut bezlari — 61-70 yosh;

Teri, o‘pka, oshqozon-ichak trakti — 70 yoshdan oshganlar uchun.

Saratonni davolashning zamonaviy tamoyillari — rivojlanib bo‘lgan kasallikning oqibatlarini bartaraf etishga asoslangan: jarrohlik aralashuvi, kimyoterapiya va radioterapiya usullari orqali o‘simta hujayralari o‘sishini bostirish;

Hujayra mutatsiyasini boshqarish usullarini tushunish uchun hech qanday tamoyillar mavjud emas.

Saraton kasalligining oldini olish uchun tez-tez shifokor ko‘rigidan o‘tib turing. Kantserogenez jarayonini dastlabki bosqichlarda aniqlash imkoniyati yildan-yilga o‘sib bormoqda. Saratonni boshlang‘ich davrlarida yengish esa juda oson!

2000 yilda saraton kasalligiga chalinganlarning soni 10 000 000 ni tashkil etdi. Turmush sharoiti, atrof-muhit va turmush tarzi yomonlashib borayotganligi sababli, 2020 yilga kelib, olimlar bashoratiga ko‘ra, saraton bilan kasallanganlar soni 16 millionga yetadi. Kasallanganlar foizini kamaytirish uchun rak kasalligini profilaktika qilish lozim.

Yevropada saraton kasalligining oldini olish choralari qo‘llanilgach, kasallanishlar soni 20 foizga kamaydi. Saraton bilan kurashishdagi eng yaxshi choralar — chekish va noto‘g‘ri ovqatlanish bilan kurashish, ultrabinafsha nurlanishini kamaytirishdir. Saraton bilan og‘rigan bemorlarning hissiy iztiroblari, tashvishlari va ruhiy tushkunliklari turli xil hayot sohalariga ta’sir qilishi mumkin.

Xulosa. O‘zaro munosabatlarda avtonom va mustaqil bo‘lishga odatlangan bemor paradoksal ravishda o‘zini haddan tashqari ko‘tarishi va e’tiborga loyiq emasligini his qilishi mumkin. Bundan tashqari, yaqinlarining borligi va e’tibor bemorga yomon tashxisni doimo eslatishi mumkin: "Men o‘zimning saratonim haqida o‘ylamaslikni afzal ko‘raman, boshqalarning e’tibori esa buni eslatadi". Aksincha, g‘amxo‘rlik qiluvchilar kasallikka etarlicha baho bermaslik yoki o‘z yaqinlaridan uzoqlashish, tashxis va davolanishga e’tibor bermaslik munosabatini ko‘rsatishi mumkin.Bu ko‘pincha o‘zlarini qabul qilib bo‘lmaydigan salbiy his-tuyg‘ulardan himoya qilish uchun xavfsiz aqlning "qochib ketishi" ni ko‘rsatishi mumkin, ammo bemorlar tomonidan salbiy qabul qilinishi mumkin. Bu ularning azob-uqubatlari va kasalliklarining kattaroq devalvatsiyasi sifatida ko‘rinishi mumkin va ba’zi bemorlar o‘zlarini "past darajadagi bemor" deb bilishlari mumkin. Davolash jarayonining markaziy jihati tibbiyot xodimlari va bemorlar o‘rtasidagi aloqadir. Tashxis va sog‘liqni saqlash muolajalari haqidagi munozaralar bemorlar uchun stressli jihat va agar etarli darajada boshqarilmasa, hissiy/affektiv noqulaylik manbai bo‘lishi mumkin. Bemorlar klinik ma’lumotni tushunishlari mumkin bo‘lgan

samarali va qo‘llab-quvvatlovchi joyning yo‘qligi ularning kasalliklarining mantiqiyligini tushunishning pasayishiga va ularning tashxisi bilan bog‘liq xavflar haqida real taxminlarni yaratish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Odatda, saraton tashxisi og‘riq, o‘lim va funktsiyani yo‘qotish kabi ba’zi potentsial noqulay hodisalarning kutishlari bilan bog‘liq. Bemorlarga ularning sog‘lig‘ini tan olishga va kasallik haqidagi tasavvurlarini o‘zlarining hayot hikoyalariga qayta yo‘naltirishga yo‘naltirish muhimdir. O‘zlarining saraton sayohatlari bilan bog‘liq shaxsiy e’tiqodlari va ehtiyojlarini o‘rganish ularga o‘z kasalliklarini shaxsiy nazorat qilish imkonini beradi, bu ularga o‘z mahoratini hayotning bir nechta sohalariga o‘tkazishga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arrieta Ó., Angulo LP, Núñez-Valencia C., Dorantes-Gallareta Y., Macedo EO, Martinez-López D., va boshqalar (2013). Kichkina hujayrali bo'lmagan o'pka saratoni bilan og'rigan bemorlarda hayot sifati, davolanishga rioya qilish va prognoz bo'yicha depressiya va tashvish assotsiatsiyasi . Annal. Surg. Onkol. 20 , 1941–1948 yillar. 10.1245/s10434-012-2793-5 [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]
2. Ó., Angulo LP, Núñez-Valencia C., Dorantes-Gallareta Y., Macedo EO, Martinez-López D., va boshqalar (2013). Kichkina hujayrali bo'lmagan o'pka saratoni bilan og'rigan bemorlarda hayot sifati, davolanishga rioya qilish va prognoz bo'yicha depressiya va tashvish assotsiatsiyasi .
3. Bishop GD (1991). Kasallik tushunchasini tushunish: kasallik vakillari. Salomatlik va kasallikdagi ruhiy vakillik . Nyu-York, NY: Springer, 32-59. [Google olimi]
4. Xaydarov F.I. Xalilova N.I Umumiy psixologiya . – T.:TDPU 2010
5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. – T.Fan.2003
6. Umarov B.M. Psixologiya.T.2012
7. G‘oziyev E.G‘. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent Universitet, 1997
8. Ibodullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent, 2012

POZITIV PSIXOLOGIYA – YANGI SHAKLLANGAN MAKTAB

Haydarbek Hamdamov
Jizzax davlat pedagogika universiteti “Umumiy psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Bizga ma’lumki, psixologiya tarixida bir necha o‘nlab psixologiya maktablari va yo‘nalishlari mavjud. Har bir maktab yoki ta’limot inson xulq-atvorini turli rakurslarda o‘rganishga harakat qilgan. Pozitiv psixologiya fanida paydo bo‘lgan nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu o‘ziga xos bo‘lgan ta’limot insonlarni sog‘lom va baxtli hayotga yetaklab borishni asosiy maqsad qilib olgan. Ta’kidlash joizki, psixologiyaning boshqa yo‘nalishlari asosan anormal xulq-atvor hamda disfunksiyaga ko‘proq ahamiyat qaratganlar. Pozitiv psixologiya esa boshqa ta’limotlardan farqli o‘laroq, insonlarga xushhollikni bunyod etish va hayotda baxtliroq bo‘lish kabi muammolar bilan shug‘ullanadi.

Aniqroq qilib aytganda, pozitiv psixologiya zamonaviy psixologiyaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu maktabning vakillari diqqat-e’tiborini asosan shaxsiy va ijtimoiy xushhollikni

(ingl. well-being) shakllantirish va yaxshilashga, shuningdek insonning o‘zini o‘zi takomillashtirishi uchun mavjud imkoniyatlarni tadqiq etishga qaratadilar.

Pozitiv psixologiya baxt va xushhollikni, mamnunlikni, o‘z-o‘ziga ishonchni, hamda optimizmni his qilish shart-sharoitlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi. Hayotning mazmuni, hayotiy qadriyatlar ijobiy hissiyotlar bilan yashash kabi masalalar ham pozitiv psixologiyaning tadqiqot doirasiga kiradi.

Pozitiv psixologiya singari insonni baxt va xushhollikka olib borishda o‘ta foydali bo‘lgan sohani yaxshiroq tushunib olish uchun uning asosiy nazariyalari, amaliy qo‘llanilishi hamda shakllanish tarixini o‘rganishdan boshlash maqsadga muvofiq.

Eng avvalo pozitiv psixologiyaning darajalarini bilib olish kerak bo‘ladi. Aksar mutaxassislar pozitiv psixologiyada uchta ma’lum ma’noda tafovutli darajalarni ajratib ko‘rsatadilar:

1. Subyektiv daraja. Ushbu darajada tadqiqotchining nigohi baxt va xushhollikni, shuningdek nekbinlik, ya’ni optimizmni his etishga qaratiladi. Sanab o‘tilgan his-tuyg‘ularni inson hayoti va tajribasini qay tartibda o‘zgartirishiga doir masalalar ham aynan shu darajada tadqiq etiladi.

2. Individual daraja. Subyektiv daraja bilan kechirimlilik, sevgi va mardlik kabi fazilatlarning majmui pozitiv psixologiyaning individual darajasini tashkil etadi.

3. Guruhiy daraja. Insonning altruizm va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlar bilan ijtimoiy munosabatlarni yanada kuchaytirib, o‘zi yashab turgan jamiyat bilan o‘zaro ta’sirga kirishishi.

Mazkur darajalardan kelib chiqqan holda pozitiv psixologiyaning uchta katta sohasini alohida keltirib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Baxtni subyektiv his etish (pozitiv emotsiyalar – lazzatlanish, hayotdan qoniqqanlik, yaqinlik hissi, o‘zi va kelajak haqida konstruktiv fikrlar – optimizm, o‘ziga ishonch, energiyaning ko‘pligi, “hayotiy kuch”ning mo‘lligi);

2. Oliy individual-psixologik insoniy sifatlar (donishmandlik, muhabbat, ma’naviylik, haqqoniylik, mardonavorlik, ezgulik, ijodkorlik, reallik hissi, mazmunni izlash, kechirimlilik va hamdardlik, hazil-mutoyiba, saxiylik, altruizm, empatiya va hokazo). Aytish mumkinki, pozitiv psixologiya maktabining vakillari ijtimoiy-gumanitar fanlarda “axloqiy fazilatlar” deb ataladigan qadriyatlarni ilmiy-psixologik jihatdan tadqiq etishga harakat qilganlar.

3. Pozitiv ijtimoiy institutlar (demokratiya, sog‘lom oila, erkin ommaviy axborot vositalari, ish joyida sog‘lom muhit, jamiyat ichidagi hududiy sog‘lom guruh va jamoalar).

Yuqoridagi uch sohani yanada aniqlashtiradigan bo‘lsak, pozitiv psixologiyaning strukturasi uchta subyektiv darajani o‘zida mujassam etadi: yoqimli hayot, yaxshi hayot, anglangan hayot. Bu darajalar ierarxiyani hosil qiladi. Ta’kidlash joizki, darajalarning har birini yaxshi tadqiq etilgan deb aytolmaymiz. Yoqimli hayot – inson hayotida nisbatan yaqqol namoyon bo‘ladigan, kuzatish osonroq bo‘lgan daraja. Gap bu yerda emotsiyalarning muvozanatlashgan holga kelishi haqida bormoqda. Ya’ni, mazkur pog‘onada ijobiy emotsiyalar salbiy emotsiyalardan ustunlik qiladi. Yaxshi hayot – inson bu darajaga o‘zidagi kuchli tomonlarni ishga solish orqali erishadi. Ikkinchi darajaga o‘tar ekanmiz, xushhollik bilan shaxs tavsiflarini tahlil qilishimiz va hayotga tadbiq etishimiz kerak bo‘ladi. Bunda ijobiy emotsiyalar bilan umumbashariy qadriyatlar o‘rtasida aloqadorlik mavjud ekanligini yaxshi tushunishimiz kerak bo‘ladi.

Anglangan hayot – psixologik xushhollikni tushunish va to‘liq his eta olish. Psixologik xushhollikning darajasi “o‘zini baxtli his qilish” holati hamda organizmdagi barcha

funksiyalarning yaxshi ishlashini belgilab beradi. Yuqori psixologik xushhollik darajasiga ega odamlarda mahsuldorlik, baxtli hayot, hayotdan qoniqish va zavqlanish kabi ijobiy his-tuyg‘ular namoyon bo‘ladi.

Martin Seligman, Mixay Chiksentmixayi, Ed Diner, Barbara Fredrikson, Sonya Lyubomirski, Ilona Bonivell, Tal Ben-Shaxar kabi psixologlar pozitiv psixologiyaning yirik vakillari sifatida e’tirof etilganlar. Umuman olganda pozitiv psixologiya 1990 yillarning oxirida amerikalik psixolog Martin Seligman va uning hamkasblari J.Vayllant, E.Diner va M.Chiksentmixayilarning tashabbusi bilan fan olamida paydo bo‘lgan.

Individlarning jamiyatda ravnaq topishi va xushhol tarzda mavjud bo‘lishini ta’minlovchi omillarni izlash uchun ilmiy-psixologik tadqiqotlarni tashkillashtirish va o‘tkazish pozitiv psixologiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Seligman va uning izdoshlari zamonaviy psixologiyaning paradigmasi salbiylikdan ijobiylikka, kasallik konsepsiyasidan salomatlik konsepsiyasiga o‘zgarishi kerakligini ta’kidlaganlar. Ularning fikricha, insonning kuchli tomonlari, uning yaratuvchilik potensiali, shuningdek alohida insonning hamda insonlar jamoasining sog‘lom va xushhol yashay va ishlay olishi tadqiqot va amaliyotning obyekti bo‘lishi lozim.

Pozitiv psixologiya psixika va xulq-atvorning adaptiv va ijodiy elementlarini tushunish va amaliyotda qo‘llashga oid muammolarni tadqiq etishga harakat qiladi. Pozitiv psixologiyaning vakillari “Nega aksar odamlar atrof-muhitda ularni o‘rab olgan barcha qiyinchiliklarga qaramay, mazmunli hayot kechirishni uddasidan chiqadilar?” degan masalani psixologiya fanining atamalari yordamida izohlab berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadilar. Bizga ma’lumki, hozirgi zamonda psixologiya ko‘p jihatdan inson hayotidagi ko‘ngilsizliklar va xatoliklar bilan ishlaydigan bo‘lib qoldi. Aniqroq qilib aytganda, psixologiya insonning kuchli tomonlari ham mavjud ekanligini unutib qo‘yib, asosan odamlarga yetishmayotgan ruhiy masalalar bilan o‘ralashib qoldi. Ya’ni an’anaviy psixologiyada shaxsning ruhiy buzilishlari, distresslar va boshqa turdagi kasalliklarga haddan ziyod urg‘u beriladi. Masalan, zamonaviy klinik psixologiyada insonning baxtsizligini tavsiflab beruvchi bir necha yuzlab sindrom va fenomenlarni uchratishingiz mumkin. Biz xurofotlar va zo‘ravonliklar haqida ko‘p narsa bilamiz, ammo saxiylik yoki qahramonlik psixologiyasi haqida esa akademik fan doirasi deyarli hech narsa bilmaydi.

Pozitiv psixologiya o‘zining qarashlarini yanada aniqroq ifodalash maqsadida “PERMA” modelini ishlab chiqqan. “PERMA” bu xushhollikning asosiy unsurlarini o‘zida mujassam etgan beshta qadriyatning bosh harflaridan tuzilgan qisqartmadir:

1. Pozitiv emotsiyalar (Positive emotions). Nekbinlik, ya’ni optimizm bilan yashash, o‘tmishni shukr bilan yod etish, “Hozir va shu yerda” mamnunlik bilan yashash hamda kelajakka umid bilan qarash.

2. Jalb qilinganlik, qo‘shilganlik (Engagement). Zavq keltiradigan faoliyat turlari va sevimli mashg‘ulotlarga “oqim” bilan kirishib ketish va “ichida yashash”.

3. Munosabatlar (Relationship). Oilasi va do‘stlari bilan yaxshi shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish.

4. Mazmun (Meaning). Hayotda kengroq va chuqurroq bo‘lgan ma’no va mazmunni qidirish va topa olish.

5. Orzularning ushalishi (Accomplishments). Hayotda qo‘yilgan maqsadar va orzularga erishish.

Pozitiv psixologiyaga asosan baxt va xushhollik “genlar ishi” yoki “taqdir ishi”ning natijasi emas. Inson o‘zidagi kuchli sifatlardan unumli foydalanish orqali baxt va xushhollikni bunyod etishi mumkin. Oliy insoniy sifatlar depressiya kabi negativ psixik holatlarni bartaraf etishda zaruriy resursni tashkil etadi.

Pozitiv psixologiyaning yorqin vakillaridan biri asli kelib chiqishi vengriyalik bo‘lgan AQSh psixologi Mixay Chiksentmixayi (1934-2021) psixologiya faniga “Oqim” (flow) tushunchasini olib kirganligi bilan mashhur. “Oqim” konsepsiyasida jamiyatda har bir inson aynan o‘zi istagan ishni qilishi uchun muayyan bir yoki bir nechta faoliyat turlari mavjud bo‘ladi.

“Oqim” holatida vaqt go‘yoki to‘xtab qolgandek bo‘ladi va inson ushbu faoliyatni hech qachon tugamasligini orzu qilishni boshlaydi. Inson o‘ziga yoqmaydigan ishni qilgan paytida boshqa ko‘p ishlari ko‘ngildagidek chiqmaydi.

“Oqimni boshdan kechirish” turli odamlarda turlicha kechadi. Bu zavq bag‘ishlaydigan ish bilan shug‘ullangan vaqtda ko‘proq kuzatiladi. “Oqim” holati “inson-badiiy obraz” tizimida, ayniqsa yozuvchilik va rassomchilikda yanada aniqroq ro‘y beradi. Oqim holatida yashashning quyidagi foydali tomonlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Hissiyot va emotsiyalarini yaxshi boshqara olish.
2. Baxt va xushhollik.
3. Ichki motivatsiya.
4. Ishga sho‘ng‘ib ketish va mahsuldorlik.
5. O‘qish-o‘rganish, ko‘nikmalarga ishlov berish va kreativlik.

Pozitiv psixologiyani fandagi alohida yo‘nalish sifatida e’tirof etilishi “American Psychologist” jurnalining 2000 yilda chiqqan 1-soni bilan bog‘liq. Jurnalning ushbu soni to‘liq pozitiv psixologiyaga bag‘ishlangan edi. M.Seligman va Mixay Chiksentmixayilar jurnalning umumiy tahririni zimmalariga oladilar. Mazkur sonda ularning dasturiy maqolalari chop etiladi (Seligman, Csikszentmihalyi, 2000). Ularning maqolalari pozitiv psixologiya harakatining manifesti sifatida qabul qilinadi. Bundan tashqari, jurnalda P.Baltes va U.Shtaudingerlarning donishmandlik haqida, A.Bassning baxt evolutsiyasi haqidagi, E.Dinerning subyektiv xushhollik hamda D.Mayersning baxt va pulning aloqadorligi to‘g‘risidagi maqolalari ham nashrdan chiqadi. K.Piterson (optimizm), R.Rayan va E.Desi (o‘zini o‘zi determinasiyalashtirish), D.Saymonton (kreativlik), E.Vinerlar (iste’dod) ham jurnalning ushbu tarixiy sonida ilmiy maqolalarini chop ettiradilar.

Bir qarashdan pozitiv psixologiya gumanistik psixologiya maktabiga o‘xshab ketadi. To‘g‘ri, o‘z vaqtida Abraxam Maslou va Karl Rodjerslar ham inson ruhiyatidagi kamchiliklarga emas, balki insondagi kuchli va ijobiy imkoniyatlarga ko‘proq e’tibor berishga chaqirgan. Gumanistik psixologiyani psixologiya fanining umumiy taraqqiyoti o‘zanidagi g‘oyaviy harakat desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, psixologiya tarixi bilan shug‘ullanuvchi bir qator mutaxassislar gumanistik psixologiyani ilmiy maktab deb hisoblamaydilar. Aniqroq qilib aytganda, gumanistik psixologiya akademik fandan ma’lum ma’noda uzoqlashishga urinib, o‘zining muqobil metodologiyasini ishlab chiqishga uringan. M.Seligman va M.Chiksentmixayilar pozitiv psixologiya vakillarini gumanistik psixologiyaning xatolarini takrorlamaslikka chaqirganlar. Ular o‘zlarining ilmiy farazlarini umume’tirof etilgan ilmiy metodologiyaga asoslangan holda asoslab berishni eng to‘g‘ri yo‘l deb bilganlar.

M.Seligman va M.Chiksentmixayilarning ta’kidlashicha, “pozitiv psixologiya – yangi g‘oya emas. O‘tmishda uning ko‘plab atoqli vakillari bo‘lgan. Biz originallikka da’vo

qilmaymiz. Biroq, o‘tmishdoshlarimiz o‘zlarining g‘oyalarini asoslash uchun yetarli darajadagi empirik tadqiqotlarni jalb etish va to‘plashning uddasidan qoniqarli darajada chiqolmadilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bir necha yil mobaynida pozitiv psixologiya yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlarning o‘zi fan olamida yaxshi taassurot qoldira oldi. Biz bu borada chiqayotgan nashrlarni tahlil qilishdan to‘xtamasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Леонтьев Д.А.* Подход через позитивные черты личности: от психологического благополучия к добродетелям и силам характера // Личностный потенциал: структура и диагностика / Под ред. Д.А. Леонтьева. М.: Смысл, 2011.

2. Селигман М. Новая позитивная психология. М.: София, 2006.

3. Чиксентмихайи М. Поток: психология оптимального переживания. М.: Смысл; Альпина нон-фикшн, 2011.

4. Ҳайдарбек Ҳамдамов. (2022). ХУШҲОЛЛИКНИНГ ТУЗИЛИШИ ВА АҲАМИЯТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 533–538. https://doi.org/10.5281/zenodo.7337673

5. *ҲАМДАМОВ Ҳайдарбек.* (n.d.). ПСИХОЛОГИЯДА РЕЗИЛЕНТЛИК ФЕНОМЕНИ: АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАР ВА ИСТИҚБОЛДАГИ МАСАЛАЛАР. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.7743535

ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОГИГИЕНЫ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ- ЭФФЕКТИВНЫЙ ПУТЬ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ

Д.Д. Шарипова

д.п.н., проф. ТашГПУ

В настоящее время установлено, что психогигиена- наука о сохранении и достижении психического здоровья населения в процессе различных возникающих межличностных отношений, влияние факторов внешней среды (экологических, производственных, социально-бытовых), нуждающаяся в проведении специальных исследований для разработки эффективных путей воздействия на среду пребывания и функции человеческого организма.

В контексте сказанного, психогигиену межличностных отношений следует рассматривать как возрастную психогигиену, психогигиену быта, психогигиену семейной жизни, психогигиену трудовой деятельности обучения и воспитания.

При этом необходимо учитывать, что здоровые межличностные отношения формируются на уровне здоровьесберегающего мышления, способствующего психологическому благополучию и психическому здоровью при условии уделения внимании мыслям, эмоциям и поведению, направленных на развитие способности мыслить и принимать решения, обеспечивающие сохранение и укрепление всех видов здоровья (физического, психического, социального, репродуктивного).

В этой связи весьма важным становиться обязательное выполнение основных принципов здоровьесберегающего мышления, в частности, осознанность, предвидение

последствий, целенаправленность и уверенность в оптимальном развитии межличностных отношений в изменяющихся условиях среды.

Согласно литературным данным, наличие здоровьесберегающего мышления способствует формированию психогигиены межличностных отношений, имеющие значения для продления жизни и повышения качества жизни, предотвращения заболеваний и проблем со здоровьем, эмоциональному благополучию (уменьшить стресс, улучшить настроение и повысить самооценку), повышению жизненной активности, развитию самосознания и саморазвития, а также развитию социальных навыков (умение работать в команде, эмпатия, уважение к себе и окружающим).

Как выше отмечалось, важное значение приобретает создание здоровьесберегающей среды для формирования психогигиены межличностных отношений, как эффективного пути социально-психологического и профессионального развития личности. Человек большую часть своей жизни проводит в общении с другими людьми и эти коммуникации должны быть дружескими, способствующих хорошему настроению. В то же время грубое, пренебрежительное отношение и неприемлемый тон общения приводят к психотравмам особенно у мнительных и чувствительных людей.

Проблемы психогигиены имеют свои особенности у лиц пожилого и старческого возраста, характеризующиеся снижением общей работоспособности, функции памяти и внимания, акцентуацией отдельных характерологических черт личности, что может стать причиной возникновения межличностных конфликтов в силу уязвимости психики пожилого человека.

Особого внимания заслуживает психогигиена семейной жизни, так как здесь наблюдается разный характер проявления межличностных отношений: между супругами, между невесткой и свекровью, между старшими и младшими поколениями, которые определённым образом влияют на развитие и судьбу каждого члена семьи.

Следует отметить, что на социально-психологическое и профессиональное развитие человека существенным образом влияет соблюдение психогигиены трудовой деятельности и образовательный процесс, так как определенные периоды жизни человека связаны с этими видами деятельности и образовательный процесс, сопровождающийся проявлением различных межличностных отношений (обучающий и обучающиеся, обучающиеся между собой и обучающиеся с другими участниками процесса), а также именно здесь ведется профориентационная работа на выбор будущей профессии.

Список использованной литературы:

1. Камилова Н.Г., Шарипова Д.Д. Психолого-педагогические аспекты здоровьесбережения обучающихся. Ташкент. 2017 “Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi. – 134 с.
2. Казаков Ю.Н. Теория личностного здоровья санационное мышление превентивной безопасности. М.: РАСН, 2014. С 56-58.
3. https://moluch.ru
4. https://cyberleninka.ru
5. https://studlife.ru
6. https://infourok.ru
7. https://ppt-online.org

HIMOYA ORDERI- ZO‘RAVONLIKDAN JABRLANGAN AYOLLARNING HUQUQIY KAFOLATIDIR

Raximova Indira Igorovna
Falsafa fanlari doktori dotsent (PhD)
Abdumalikova Mashhura Xusan qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar Universiteti Psixologiya yo‘nalishi magistiranti

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma’qullangan

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga “Bolalarni zo‘ravonliklarning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan kiritildi. Bu haqda parlament quyi palatasining axborot xizmatiga tayanib, O‘zAga xabar berdi. Qonun loyihasida bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga mas’ul davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, ularning vakolatlari belgilanmoqda. Bundan tashqari, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishda ota-onalarning (yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning) ishtiroki, ularning majburiyatlari, ta’lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yilmaslik nazarda tutilmoqda. Shuningdek, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha ularga himoya orderi berish tizimi joriy qilinmoqda, himoya orderi — tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga davlat himoyasini beruvchi hujjat hisoblanadi.

«Alohida ta’kidlash joizki, himoya orderi oilada eridan jabrlangan yo uchinchi shaxslarning zulmiga uchragan ayollarga, ota-onasi yoki boshqa shaxslarning zulmiga duch kelgan (voyaga yetmagan) qizlarga, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarda jabr ko‘rgan, ko‘chada, ishda, o‘qishda tazyiq yoki shilqimlikka uchragan, huquqbuzarlik yo jinoyat qurboni bo‘lgan xotin-qizlarga beriladi»,

Order qanday asoslarga ko‘ra beriladi?

Uning so‘zlariga ko‘ra, tartibga ko‘ra, himoya orderini berishga quyidagilar sabab bo‘ladi:

tazyiq va zo‘ravonlikdan jarblangan xotin-qizlarning murojaati;

jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari, shu jumladan, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan xabarlar;

tazyiq yoki zo‘ravonlik holatlarining vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlari tomonidan aniqlanishi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlardan olingan materiallar.

Ma’lumot uchun, 2019 yil 2 sentabrda qabul qilingan «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi qonun hamda Hukumatning 2020 yil 4 yanvarda tasdiqlangan «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori bilan himoya orderini berish tartibi belgilangan.

Order olish uchun qayerga murojaat qilish lozim?

Himoya orderini olish uchun mahalla fuqarolar yig‘ini vakillari: rais yoki o‘rinbosarlari, ichki ishlar organlari yoki IIV tizimida tashkil etilgan qisqa «1259» raqamli «Ishonch markazi»ga murojaat qilish mumkin.

Himoya orderi mahalla raisining huquq-tartibot masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, ya’ni profilaktika inspektori tomonidan beriladi. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jarblangan fuqaroning o‘zidan tashqari, yaqinlari, qo‘shni yoki qarindoshlari ham order olish uchun murojaat qilsa bo‘ladi. Holat haqida xabar bergan fuqarolar hamda tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarning shaxsga doir ma’lumotlari qonunga asosan sir saqlanadi.

Bundan tashqari, 18 yoshga to‘lmagan jabrlanuvchi ham order olishi mumkin. Ammo uning arizasi qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organining vakili bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi.

Erkaklarga ham himoya orderi beriladimi?

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, himoya orderi faqat xotin-qizlarga rasmiylashtiriladi. Yaqinda tayyorlangan «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonun loyihasi Oliy Majlis Senatiga kiritilgan. Unda himoya orderini zo‘ravonlikdan jabrlangan barcha shaxslarga, xususan, erkaklarga ham berish ko‘zda tutilgan.

Amal qilish muddati qancha?

Tazyiq va zo‘ravonlik fakti yoki ularni sodir etish xavfi aniqlansa, 24 soat ichida rasmiylashtiriladi va o‘sha vaqtdan e’tiboran kuchga kiradi. Himoya orderi 30 kunga beriladi. Agar shu vaqt ichida holat o‘zgarmasa, hujjatning amal qilish muddati jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra, ko‘pi bilan 30 kungacha cho‘ziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arrieta Ó., Angulo LP, Núñez-Valencia C., Dorantes-Gallareta Y., Macedo EO, Martinez-López D., va boshqalar (2013). Kichkina hujayrali bo‘lmagan o‘pka saratoni bilan og‘rigan bemorlarda hayot sifati, davolanishga rioya qilish va prognoz bo‘yicha depressiya va tashvish assotsiatsiyasi . Annal. Surg. Onkol. 20 , 1941–1948 yillar. 10.1245/s10434-012-2793-5 [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar].
2. Ó., Angulo LP, Núñez-Valencia C., Dorantes-Gallareta Y., Macedo EO, Martinez-López D., va boshqalar (2013). Kichkina hujayrali bo‘lmagan o‘pka saratoni bilan og‘rigan bemorlarda hayot sifati, davolanishga rioya qilish va prognoz bo‘yicha depressiya va tashvish assotsiatsiyasi .
3. Bishop GD (1991). Kasallik tushunchasini tushunish: kasallik vakillari. Salomatlik va kasallikdagi ruhiy vakillik . Nyu-York, NY: Springer, 32-59. [Google olimi]
4. Xaydarov F.I. Xalilova N.I Umumiy psixologiya . – T.:TDPU 2010
5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. – T.Fan.2003
6. Umarov B.M. Psixologiya.T.2012
7. G‘oziyev E.G‘. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent Universitet, 1997
8. Ibodullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent, 2012

GLOBALLASHUV SHAROITIDA KOMIL INSONNI TARBIYALASH MUAMMOLARI

Avezov Olmos Ravshanovich
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti
Najmidinova Guzal Axlitdinovna
Osiyo Xalqaro universiteti magistranti

Kirish. Bugun axborot almashinuvi tezlashgan, ma'lumotlar yangilanish sur'ati oshgan globallashuv sharoitida yasharkanmiz, tarbiya, milliylik, komil inson tushunchalari naqadar muhim ekanini ko‘ramiz. Globallashuv, modernizatsiya hayotimizga har kuni yangi tushunchalarni olib kiryapti. Jamiyatimizda turli sohalaridagi jarayonlarda bilim, ko‘nikma, malakalar yangilanyapti. Shu bilan birga insonning ruhiy dunyosi, o‘zligiga ham ta'sirlar ortib bormoqda. Bu ham ijobiy, ham salbiy deyishimiz mumkin. Xo‘sh, nima qilish kerak? Demak, inson doim o‘z ustida ishlashi, uzluksiz bilim olib, ruhiy olamini ham boyitib borishi darkor. Ruhiy tarbiya esa bizga tasavvuf so‘zi bilan ko‘proq tanish. Tasavvufning kelib chiqish tarixi haqida qisqacha bayon qilib, nega aynan uni komil inson tarbiyalashda avvalgi o‘ringa qo‘yganimizni bildiramiz.

Islomning ilk davrida tasavvuf so‘zsiz ma'no anglatar edi, hozir esa u ma'nosiz so‘zga aylandi. Masalan, agar biror sahobaga qarasak, Islom uning tashqi olamini va birdek ichki dunyosini ham sayqallab shakllantirganini ko‘ramiz. Ya'ni ularda birodar ehtiyojini o‘zinikidan yuqori qo‘ygan, yashirin dushmanlik bo‘lmagan, hasad yo‘q, kibr qilmagan, boylik va dunyo hayoti ortidan quvish bo‘lmagan. Buni tasavvuf deb atashganmi yo‘qmi bu muhimmas, bizdan talab qilinadigani shu jihatlarini bilish. Tasavvuf atamasi bo‘lmagan, hech kim bu so‘zni bilmagan. Xo‘sh, unda bu so‘z qachon paydo bo‘ldi? Tarbiya bilan shug‘ullanayotgan kishilarni bunday atamani olib kirishga, kishining ichki olamiga e'tibor berishga nima majbur qildi? Dunyo hayoti islom turmush tarziga kirib kelganda, islom tamadduni yuqori cho‘qqiga chiqqanda, boyliklar ko‘payib, xursandchiliklar, ko‘ngil ochadigan ishlar ko‘payib borar ekan, insonda nafs bor, uni doim yomonlikka boshlab turadi. Sahobalar davrida hayot juda cheklangan, hayot quvonchlari oddiy, fitnalar kam bo‘lgan. Shuning uchun o‘sha paytda ular uchun qo‘rquvga asos yo‘q edi, lekin bir yarim asrdan keyin hoyu havaslar, istaklar ko‘payaverdi, hayotdagi quvonch yanada xilma-xil bo‘lib, musulmonlar ko‘proq narsani qo‘lga kiritdilar. Bu hammasi tabiiyki, nafsga yoqadi, uning ishtahasini oshiradi va inson tobora unga bo‘ysunib, unga itoat qiladi, hayotdan zavqlanadi. Tarbiya bilan shug‘ullanuvchi ustozlar hayot quvonchining turli lazzatlari ko‘payib borayotgan bir holatda, odamni bu o‘yin-kulgilardan, bu unutishdan tortib olish uchun yangi harakatlar qilish kerakligini tushunishdi. Unda insonni o‘z qalbini taftish qilib turishga, o‘zini tarbiyalashda ishtirok etishga yo‘llashdi, toki u o‘zini nazorat qilib tursin va bu kabi dunyo hayotiga kirib ketmasin, o‘yin-kulgiga, hayotning bu quvonchlariga berilmasin.

Tasavvuf insondan botinini tarbiyalashga qaratilgan qadamlar tashlashni talab qiladi. Chunki tasavvuf degani, meni ichki gunohlardan poklaydigan, moddiy boylik va dunyo hayotiga intilish istagidan poklaydigan, boshqalarga bo‘lgan nafratdan, hasad, xudbinlik va takabburlikdan poklovchi qadamlar tashlashdir. Aytishimiz mumkinki, tasavvuf – bu islomga mos tarbiyaviy chora-tadbirlarni ko‘rish, ayni paytda insonni ichki gunohlaridan xalos qiluvchi atamadir.

Tasavvufning zamonaviy dunyoda globallashuv sharoitida komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu yo‘lda, albatta muammolar yetarlicha. Keling,

o‘zimizga chetdan nazar solaylik. Nima uchun yashayapmiz? Maqsadimiz nima? Bizni boshqa mavjudotlardan farqlaydigan yagona narsa biz hayotga shunchaki yeb ichich va nasl qoldirish uchun kelmaganmiz, har birimizning o‘z vazifamiz, majburiyatlarimiz bor va unga mas’ulmiz. To‘g‘ri, moddiy barqaror hayotni istash va unga harakat qilishning yomon joyi yo‘q. Biroq mol dunyo to‘plashga ruju’ qo‘yish, bu yo‘lda harakat qilar ekanmiz, ma’naviy, ruhiy dunyoimizni unutib qo‘yishimiz to‘g‘ri emas. Afsuski, bugun mana shu muvozanat buzilgan. Natijada, kelajagimiz egalari deya ataydiganimiz – yoshlarning ma’naviy dunyosi ham globallashuv jarayonida turli salbiy ta’sirlar ostida qolmoqda. Taraqqiyot, ilm-fan qanchalik rivojlanayotgan bo‘lsa, shu bilan birga ma’naviy qadriyatlar tanazzulga yuz tutib boryapti. Chunki globallashuv keltirgan moddiy farovonlik, asosan, faqat tanga rohat berishga xizmat qilmoqda. Bugungi taraqqiyot bizga in’om etgan ne’matlar haqida bir o‘ylab ko‘ring. Kompyuter texnologiyalari, mediya, “4G”, “5G”, sun’iy yo‘ldoshlar berayotgan imkoniyatlar, internet va hokazo. Bular mutaxassislar qo‘lida taraqqiyotni yanada jadallashtirishga xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, oddiy xalq - ularning katta foizini yoshlar tashkil qiladi - bu vositalardan faqat ko‘ngilxushlik uchun foydalanyapti. Buning oqibatida ularga berilayotgan ta’lim va tarbiya tashqaridan kelayotgan har xil milliyligimizga yot g‘oyalar, kino, klip, musiqa va hokazolar ta’sirida qorishib o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalgani, undan to‘g‘ri-noto‘g‘ri foydalanish natijasida yoshlarning ongi, dunyoqarashi salbiy fikrlar, keraksiz informatsiyalar bilan to‘lmoqda.

Bugungi tezkor globallashuv jarayonida ma’naviyatni saqlab qolishning yagona chorasi insonning qoniga, joniga komil inson g‘oyasini singdirishdir. Xo‘sh, bu qanday amalga oshiriladi?

Bu muhim vazifaning umumiy yo‘nalishini Yurtboshimiz shunday belgilab bergan: *“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim — yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”*. Tarbiyada esa tasavvufning o‘rni beqiyos. Tasavvufda komil insonni tarbiyalash masalasi diqqat markazida turadi. Va bu ish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Tasavvuf – bu eng avvalo komil inson haqidagi ta’limotdir, bu insonning ruhiy me’yorga erishishi haqidagi hamda beqaror o‘zgaruvchan holatdan barqaror holatga o‘tuvchi, rivojlanish, takomillashish darajalariga yetaklovchi ta’limotdir. Insonning o‘z ma’naviy olamini shakllantirish va boshqarish uning o‘zidan katta matonat, mehnat va iroda talab etadi. Tasavvuf aynan inson qalbini ezgulikka yetaklovchi ta’limotdir.

Shuningdek, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ma’naviyatga, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan maqsadlar ilgari surilgani va bu masalaning umummilliy ahamiyat kasb etishi globallashuv sharoitida komil insonni tarbiyalash nechog‘lik muhim ekanini ko‘rsatadi. Taraqqiyot strategiyasining “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” nomli beshinchi yo‘nalishida, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda eivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri ekanligi ta’kidlangan. Aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy ma’rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish

bilan uyg‘un holda tashkil qilish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev: “Agar jamiyat hayotning tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir” deb, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bo‘lsa, ikkinchisi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tasavvufdagi nafs tarbiyasi, komil inson g‘oyalari, shuningdek xalqimizning boy madaniy va ma’naviy merosidan, axloq, odob, tarbiya borasidagi an’analaridan qanchalik samarali foydalansak, yoshlarni tarbiyalash borasida shunchalik yutuqlarga erishamiz. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida barkamol shaxs tarbiyalanib voyaga yetadi. Axloqiy tarbiyaning bosh maqsadi esa insonni haqiqatga olib borish, uni komil shaxs sifatida tarbiyalash masalasidir. Axloqiy tarbiyani rivojlantirish bu sohada dunyoda tasavvuf ilmi borasida to‘plangan tajribalarni o‘rganish va ijtimoiy hayotga tadbiq etishni taqozo etadi. Yoshlarni axloqiy ruhiy tarbiyasini shakllantirish va axloqiy tarbiya bo‘yicha asosiy tadbirlarni oila va turli jamoalarda, xususan umumiy o‘rta maktablar va oliy o‘quv yurtlarida yuksak darajada amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu bilan ma’lum darajada shaxs qamrab olinadi: shaxsning axloqiy qiyofasini yuksaltirish jamiyat talablari darajasida amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Sh.Mirziyoyev “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqi, 2017 yil, 15 iyun
2. Hamidulla Boltaboyev. “Tasavvuf- so‘fiylik ta’limoti”
3. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “ Tasavvuf haqida tasavvur” T.: “Movarounnahr” 2004
4. Mehmed Zahid Kotki. Tasawwufi ahlak. “Sena” haskiyat. A. S. Kitab 1-5. – Ahkara: 1991. Kitab 2.
5. N.Komilov. “Tasavvuf” T.: “Yozuvchi” 1996-y.

TALABALARNI MANIPULYATSIYA TA’SIRIDAN HIMOYA QILISHNING IJTIMOIY - PSIXOLOGIK ASOSLARI

Rustamov Shavkat Shuxrat o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Niyozova Zarina Otabek qizi
Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasi magistranti

Jahon tajribalari shuni ko‘rsatadiki, hayotimizni ijtimoiy tarmoqlar va internetsiz tasavvur qila olmaydigan zamonda yashayapmiz. Ijtimoiy tarmoq, talabalarni manipulyatsiyalarni o‘tqazish uchun bir vosita bo‘lishi mumkin. Sotsial media, internet forumlari, va onlayn chatlar orqali insonlar orasida dezinformatsiya, negativ tajovuz, yoki g‘ayrioddiy bo‘lgan salbiy ko‘rsatishlar tarqatish mumkin hisoblanadi.

Insonlarni manipulyatsiya ta’siridan himoya qilish ijtimoiy va psixologik xususiyatlarning uyg‘unligini talab qiladi. O‘z-o‘zini anglash, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, hissiy intellekt, qat’iyatlilik, kuchli qo‘llab-quvvatlash tizimi, vakolat va o‘ziga ishonch, manipulyatsiya taktikasini bilish, sog‘lom skeptitsizm, chidamlilik va qat’iyatlilik va axloqiy

qadriyatlar bu himoyaga yordam beradi. Insonlarda bu xususiyatlarni tarbiyalash orqali biz ularga manipulyatsiyaga qarshi turish va o‘z qadriyatlari va e’tiqodlariga mos keladigan ongli qarorlar qabul qilish imkoniyatini berishimiz mumkin.

Psixologiyada manipulyatsiya boshqasiga ta’sir qilish yoki boshqarish uchun mo‘ljallangan, odatda shaxsiy maqsadlarni osonlashtiradigan tarzda hiyla deb ta’riflanadi. Amaldagi usullar suhbatdoshning voqelikni idrok etishini buzadi yoki yo‘naltiradi, xususan vasvasa, taklif, ishontirish va ixtiyoriy bo‘lmagan yoki konsensual bo‘ysunish orqali.

Manipulyativlikning turli ko‘rsatkichlari manipulyatsiyaning turli jihatlari yoki ifodalariga qaratilgan bir qancha ko‘rinishlari mavjuddir va uning bashorat qiluvchilarining bir oz boshqacha moyilliklarini ko‘rishimiz mumkin. Kam empatiya, yuqori narsisizm, o‘z-o‘ziga xizmat qiladigan ratsionalizatsiyadan foydalanish va yuqori vakolatlilik (hukmronlik) va past muloqot (ya’ni, sovuqqonlik) bilan ajralib turadigan shaxslararo munosabat kabi xususiyatlar barcha chora-tadbirlarga mos keladi. Manipulyatsiya uchun motivatsiya o‘z-o‘ziga xizmat qilish yoki boshqalarga yordam berish yoki foyda keltirish bo‘lishi mumkin. Anti-ijtimoiy manipulyatsiya — bu boshqalarning hisobidan o‘zining shaxsiy maqsadlari yoki manfaatlariga yetishish uchun foydalanish ko‘nikmalarini ishlatishdir“, ijtimoiy xulq-atvor esa „boshqa shaxs yoki shaxslar guruhiga yordam berish yoki foyda keltirish uchun mo‘ljallangan ixtiyoriy harakat“.

Talabalarda mavjud bo‘lgan manipulyativ xatti-harakatlar odatda quyidagi zaifliklardan foydalanadi:

Psixologik bilim haqiqatan ham odamlarni samarali boshqarishga yordam beradi. Misol uchun, agar siz semiz odamlar odatda yaxshi xulqli va ovqatlanishni yaxshi ko‘rishlarini bilsangiz, bunday odamni qulay munosabatda bo‘lish uchun sozlashingiz kerak bo‘lsa, buni hisobga olish mantiqan. Yoki aksincha - agar kerak bo‘lsa, uni yomon kayfiyatga olib kelish. Yana bir misol. Agar, masalan, Karl Yungning pozitsiyasini egallash uchun erkakning ruhi va uning biologik jinsi mos kelmasa, bu erkaklar ustidan qanday hukmronlik qilishi aniq bo‘ladi. Bu erkaklikni shubha ostiga qo‘yish uchun to‘g‘ri vaqtda kifoya - va boshqaruv va yana o‘zlarining erkakligini isbotlashga shoshilishadi. Qisqasi, psixologiya bo‘yicha deyarli har qanday kitob, agar hozirgi holatda bo‘lsa, odamlarni samarali boshqarishga yordam beradi. Ko‘pgina manipulyatorlar - faqat o‘z-o‘zini o‘rgatganligi sababli, kitoblardagi shubhasiz foydalari manipulyatorlarning mahoratini oshirishga yordam beradi. Gap manipulyatsiya qilinganmi yoki yo‘qligida emas - hamma odamlar buni muntazam ravishda qilishadi. Qurbonlar tomonidan shubha tug‘dirmasdan, muloyimlik bilan manipulyatsiya qilishni o‘rganish juda muhim - nima uchun siz o‘tirgan novdani kesishingiz kerak. Deyarli barcha akademik psixologiya pul asoslarga asoslangan. Inson u subyekt sifatida, ko‘pincha obyekt sifatida - idrok, ma’lumot, fikr-mulohaza, ta’lim, ta’lim va boshqalar sifatida tasavvur qilinadi.

Manipulyatsiyadan himoyalanish zarurati kamaygan muhitni yaratish muammosi ham xuddi shunday muhim. Bu muammo psixologik xizmatlar qayerda paydo bo‘ladi. Ma’lumki, har qanday psixologik xizmat to‘laqonli shaklga aylansa, odamlarni to‘liq qamrab olish, o‘zi yaratilgan ta’sir ko‘rsatish yo‘lida rivojlanadi.

Talabalarni manipulyatsion ta’sirlarga qarshi immunitet shakllanganlik darajalarini aniqlashga qaratilgan metodlarni tadqiqot maqsadidan kelib chiqib uch holat, ya’ni, yosh, jins, hudud kesimida tahlil qilishga ham urinib ko‘rdik.

1-**jadval**

Regressiya psixologik himoya mexanizmi namoyon etilishining gender tafovutlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari (n=240)

	Jinsi		O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	T	Ishonch daraja-si
regressiya	qizlar	125	6,5633	2,29454	3,61	,005
	o‘g‘il bolalar	115	6,0235	2,42114		



1-rasm. Regressiya psixologik himoya mexanizmi namoyon etilishining gender tafovutlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari

Biz tadqiqot davomida o‘g‘il bolalar va qizlarning psixologik himoya mexanizmlarida tafovutlar mavjudmi yoki yo‘q degan holatlarga quyidagicha javob oldik. Regressiya psixologik himoya mexanizmi bo‘yicha ishonch darajasidagi farqlarni kuzatdik (t=3,61; p>0,005). Regressiya psixologik himoya mexanizmiga moyillik o‘g‘il bolalarga nisbatan qizlarda yuqori ekan. Psixologik himoya mexanizmida regressiya holatlari moslashish holatlarini ongsiz holatda idrok qilinishi bilan bog‘liqdir. Qizlarda emotsional holatlar regressiv xarakterga egaligini ko‘rsatdi. Qizlarda emotsional holatlarni o‘zlariga olish va emotsional holatlardan foydalanish yuqoriligi qayd qilindi, ular ma’lum bir muammoga duch kelib qolsalar regressiya darajasini oshishi bilan chiqib ketar ekanlar, masalan yosh bolalarga xos bo‘lgan xususiyatlarni namoyon qilishi bilan. O‘g‘il bolalarda esa bu holatlar qizlarga nisbatan past, ya’ni ular regressiyaga murojaat qilmasligi ma’lum bo‘ldi.

Ma’lumki, texnologiya (yoki hunarmandchilik) san’atdan ko‘ra osonroqdir. Shuning uchun, manipulyatsiya muammosini sinchkovlik bilan ko‘rib chiqish, menimcha, manipulyatorlarga emas, balki manipulyatorlar qurbonlariga ko‘proq foyda keltiradi. Bilimlarni shakllantirishning aks ettirish usullari, ularni o‘zgartirish vositalari va ulardan foydalanish usullari har qanday bilim sohasidagi tadqiqotchilarning uslubiy masalalari mavzusidir. Psixologiya metodologik muammolarga ayniqsa sezgir. Bu xususiyatni tushuntirning uning tabiiy yoki insoniy maqomidagi ikki tomonlama pozitsiyasi bo‘lishi mumkin. Aftidan, gumanitar psixologiya yoki fanga murojaat qilish to‘g‘risidagi munozaralar hali tugamaganga o‘xshaydi. Yagona qaror qabul qilish uchun asoslar va boshqasi mumkin, har qanday uzoq muddatli nizoda bo‘lgani kabi. Ko‘rinib turibdiki, tez-tez bo‘lgani kabi, nizo har xil asoslar asosida olib boriladi, lekin hali ham asoslar haqida xabardor emas. Psixologlar bizning fanimiz qoidalarini kuchga kirganlarida, o‘zlarining mantiqiyligini aniqlashda juda ko‘p qiyinchiliklar paydo bo‘ladi.

Psixologik tadqiqotlar mavzusi odamlar o‘rtasidagi aloqa, asosiy cho‘qqi yoki shaxs ichidagi jarayonlar bo‘lsa, muammo ayniqsa keskinlashadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, talaba-yoshlarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlari talabalarni manipulyatsiyadan himoya qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlangan talabalar axborotni xolisona tahlil qila oladilar va uning ishonchliligini baholaydilar. Ular ishonarli xabarlarning sabablarini so‘roq qiladilar va taqdim etilgan dalillarni baholaydilar, bu manipulyatorlarga o‘z fikrlarini o‘zgartirishni qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari hissiy intellekt yana bir muhim xususiyatdir. Yuqori hissiy intellektga ega bo‘lgan talabalar o‘zlarining his-tuyg‘ularini tushunish va boshqarish, shuningdek, boshqalarning his-tuyg‘ularini tan olish va ularga hamdardlik bildirish qobiliyatiga ega. Bu ularning zaifliklaridan foydalanadigan hissiy manipulyatsiya taktikasiga qarshi turishga imkon beradi. Talabalar o‘zlarining va boshqalarning his-tuyg‘ulari bilan uyg‘un bo‘lish orqali o‘zlarini manipulyatsiyadan yaxshiroq himoya qilishlarini asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. APA Dictionary of Psychology. Washington, DC: American Psychological Association. n.d. Retrieved 10 October 2021
2. Simon, George K. In Sheep’s Clothing: Understanding and Dealing with Manipulative People, 1996. ISBN 978-1-935166-30-6.
3. Kantor, Martin. The Psychopathology of Everyday Life: How Antisocial Personality Disorder Affects All of Us, 2006. ISBN 978-0-275-98798-5.
4. Dotsenko ELPsychology manipulation: phenomena, mechanisms and zaschita.- M .: CheRo, Publisher State University, 1997 - 344 p.ISBN 5-88711-038-4

SUD PSIXOLOG EKSPERTINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIKNI O’RGANISH – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Olimov Laziz Yarashovich
Buxoro davlat universiteti professori
Ispandiyorova Gullola Otabek qizi
Buxoro davlat universiteti talabasi

Zamonaviy psixologiyada sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishi muammosini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo’lgan ko‘plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e’tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo‘lsak, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tadbiqiy psixologiya, balki ko’pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo’llanilishida ko’rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o’z ifodasini topgan bo’lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezoni sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda kompetentlik asosan, inson qobiliyati sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste'dodi haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bunda "qobiliyat" tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bu holatda shaxs tuzilmasidagi motivatsion, xulq-atvor va kognitiv komponentlarning birlashuvini aks ettiruvchi "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

A.I.Subetto kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining sifat, xususiyat, mahorat toifalari doirasida o'rganadi. Uning ta'kidlashicha, kompetentlik va kompetensiya tushunchalari murakkab strukturali va dinamik ta'lim jarayonidir, ammo sifat va xususiyat toifalariga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida quyidagi umumiy tamoyillarga bo'ysunadi:

– yaxlitlik va tizimlilik tamoyili, bunda sifatning ichki tuzilmasi asos qilinadi;

– obyektning sifatini yuqori sifat darajasida, sifatning tashqi tuzilmasi esa, obyekt yoki jarayonning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri sifatini real sifat darajasida aniqlaydi;

– sifatning vujudga kelishi va rivojlanishida potensial va dolzarb tashqi va ichki ziddiyatlar tizimining mavjudlik tamoyili;

– turli jarayonlar sifatini natijalarda aks ettirish tamoyili.

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo'naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko'nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlari G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko'rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o'qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya'ni ta'lim oluvchining ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.

Chunonchi, mehnat foliyatining barcha jihatlari uchun psixologik modul deb nomlanuvchi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar ishtirok etadi. Shuningdek, kompetentlik tuzilmasi faoliyatning ichki vositasi, ya'ni motiv, bilim, ko'nikma va

malaka kabi elementlarni qarab chiqish uning jarayonli va natijali ko'rsatkichlarini hisobga olish haqidagi tasavvur paydo bo'ladi.

A.V.Xutorskiyning o'tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o'ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo'lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikka qo'yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta'kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, kompetentlik faqatgina individual psixologik xususiyat bo'libgina qolmasdan, balki hissiy-irodaviy sifatlarni ham o'z ichiga oladi. Agarda mana shu hissiy-irodaviy sifatlar bo'lmaganida edi, sud psixolog eksperti o'z kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil qila olmas edilar.

M.Kyaerst tadqiqotlarida kompetentlikning mohiyati va uning asosi sifatida (qobiliyatlar, iqtidor, bilim), inson faoliyati jarayon sifatida (ta'riflar, tavsiflar, alomatlar), faoliyat natijalari (ish natijalari, faoliyat obyektidagi o'zgarishlar) kabi komponentlar kiritiladi. Muallif kompetentlik mazmuniga quyidagi tavsiflarni kiritgan:

– lavozimda ishlayotgan shaxs(xodim)ga majburiy bo'lgan masalalarga intellektual mosligi;

– mutaxassis tomonidan shakllantirilgan va hal etilgan masalalarning asosiy ishdagi miqdori va sifati;

– asosiy masalalarni hal etishdagi muvaffaqiyat;

– muammoli masalalar yechimining samaradorligida namoyon bo'luvchi shaxsning xususiyatlari. Bu yerda olim kompotentlik tushunchasiga ko'proq insonning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olib yondashgan.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko'nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya'ni insonlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish malaka va ko'nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo'nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo'lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to'laqonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta'kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o'ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg'un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo'luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi. Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi, faoliyatda qanaqadir turg'unlik bo'lishi uni muvaffaqiyatga erishishida to'siq bo'lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo'naltirilganlik, maqsadni qo'ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o'z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o'ziga xos bo'lgan me'yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo'llay olish tajribasi, ya'ni ko'nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o'zaro ta'sir holatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lish holatlarida o'zini-o'zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o'ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekpertizasi jarayonida o'z bilim, ko'nikma va malakalarni samarali qo'llash sud psixolog ekspertidan o'zini-o'zi idora qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
2. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
4. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
5. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'.O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

BOLA FAOLIYATINI TASHKIL QILISHDA OILANING ROLI HAMDA OILADA AXLOQIY VA MADANIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH.

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna
BuxDU psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti, (PhD)
Sayfullayeva Shahinabonu G'ayrat qizi
Psixologiya ta`lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Azaliy qadriyatlar, ma'naviyat va tarbiyaning ilk ko'rinishlari oilada ildiz otadi. Bolalarni tarbiyalash ishida eng muhim shart-oilaning mustahkam, ma'naviy sog'lom asosga qurilganligi, avvalo, ota-onalarning o'zlari tarbiyalangan bo'lishlari, ular o'rtasida totuvlik, ahillik, chin do'stlik barqaror bo'lishi, bolalarni kelajak hayotga tayyorlash- ularning kundalik e'tiqod tarzida mas'uliyatli burch ekanligini ongli tushunishlari va buni amalda oqlashlari kerak.Bola jamiyatning a'zosi, mukammal shaxs sifatida muayyan ijtimoiy muhitda kamol topar ekan, uning butun bilish jarayonlari, o'ziga xos xususiyatlari va ruhiy holatlari, ongi rivojlanadi. Ana shu rivojlanish natijasida uning psixikasi, ongi go'dakning dastlabki oddiy aks ettirish (in'ikos)tarzidagi sodda ongidan balog'atga yetgan insonlarga xos tevarak-atrofni, borliqni, odamlarni, to'liq, yaqqol, to'la va anglab aks ettirish darajasigacha taraqqiy etadi. Novator-pedagog , "Ota-onalar kitobi''da, hozirgi ota-onalar bolalarni tarbiyalab o'stirish bilan mamlakatimizning kelajak tarixini, demak, dunyo tarixini ham tarbiyalab yetishtiradilar"deb ta'kidlaydi. Bir donishmand "bir bolani tarbiya qilish, bir davlatni

idora qilishdan ko‘ra qiyin kechadi”, degan edi. Modomiki shunday ekan, farzandlarimiz tarbiyasini, barcha ishlardan ustun qo‘ya bilishimiz kerak.

Oilada bolalarni komil inson etib shakllantirish uchun ularning aqliy tarbiyasini maqsadli tashkil etish pedagogika va psixologiya mutaxassislari, ota-onalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki, aqliy tarbiyani to‘g‘ri tashkil qilish tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlarining muvaffaqiyatli ta’minlanishiga xizmat qiladi. Bolaga aqliy tarbiya bermay turib uni oila va ijtimoiy hayotga tayyorlab bo‘lmaydi.

Oila sharoitida ota-onalarning eng asosiy vazifasi bolalarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini, maylini tarbiyalashga erishishidir. Buning uchun ota-onalar bolalar tomonidan so‘raladigan turli savollarga befarq bo‘lmasligi, ularning bilishga oid intilishlarini, diqqat bilan kuzatib borishlari va harakatlarini qo‘llab-quvvatlashlari juda foydali. Bilimga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishda qiziqqan yo‘nalish bo‘yicha ilmiy, badiiy adabiyotlar bilan o‘z vaqtida ta’minlash, taniqli allomalarning uy muzeylariga sayohatga borish ular hayoti faoliyati bilan tanishish, kinofilmlar ko‘rish, internet axborotlarini o‘rganish kabi oilaviy tarbiyaviy tadbirlar bolalar bilimlarining ortishiga, mustahkamlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

A.S. Makarenko “Ota-onalar kitobi”da bolalar tarbiyasi xususida har xil oilalarni misol qilib keltiradi, ularning qanday asosda qurilganligini aytib, undagi salbiy tomonlarni ham, ijobiy tomonlarni ham ko‘rsatib o‘tadi. A.S. Makarenko oilada bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashda ota-ona namunasi, ularning obro‘si muhim rol o‘ynashini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Tashqi ko‘rinishdan dilkash, o‘z farzandlariga g‘amxo‘r bo‘ib ko‘ringan, ammo ota-onalik ma’naviy qiyofasini butunlay yo‘qotgan, jahl g‘azab o‘tini sochib o‘z farzandining yosh murg‘ak qalbini kuydirayotgan, uning kelajagini bo‘g‘ayotgan, salomatligini izdan chiqarayotgan, hayotdan bezdirayotgan, uning jamiyat uchun ham, o‘z hayoti va kelajagi uchun ham mutlaqo yaroqsiz bo‘lib qolishiga sabab bo‘lgan kishilar, yaramas oila muhiti, kaltabin, jaholatparast ota-onalar xususida atoqli pedagogning gapirib kuyinishida jon bor. U ota-onalarga qarata: “ Siz bolangiz bilan yonma-yon bo‘lganingizda emas, balki uyda yo‘q paytingizda ham tarbiyalay oling. Sizning tarbiyaviy ta’siringizni bolangiz doimo his qilib tursin”,- deydi. Bunga, albatta, ota-onalar o‘z farzandlari oldidagi yuksak obro‘si orqali erishishlari mumkin. Oilada bolalarning o‘zlari bajaradigan yumushlari bo‘lishi lozim. Bolalarning o‘z topshiriqlarini a’lo darajada bajarishlarini, boshlagan ishlarini oxirigacha yetkazishlarini, ishdagi saranjom-sarishtaligini, mas’uliyatini sezish tuyg‘usini, tashabbuskorligini, ijodkorligini ota-ona qattiq nazorat ostiga olishlari yaxshi natijalar beradi.

Kichik yoshdagi bolalar hayotida o‘yinning ahamiyati katta. Atoqli olimlar “bola kichikligida o‘yin faoliyatiga qanday munosabatda bo‘lsa, katta bo‘lganda ham mehnat faoliyatiga xuddi shunday munosabatda bo‘ladi”, deb ta’kidlaydilar. Krupskayaning fikricha, 5 6 nafar bolaning boshini qovushtirib ularni o‘yin faoliyatiga jalb eta olgan, o‘yinning borishini muvofaqqiyatli tashkil etib, o‘z tengdoshlari faoliyatini to‘g‘ri uyishtirayotgan bolalardan kelgusida davlat arboblari yetishib chiqishi ehtimoldan holi emas. Bunga misol tariqasida jahongir Amir Temur olishimiz mumkin. Ertaklar, badiiy adabiyot va san’at asarlari kichik yoshdagi bolalarning murg‘ak qalblarini to‘lqinlantirib, ularning estetik va axloqiy jihatdan shakllanishlarida g‘oyat muhim rol o‘ynashi hammaga ma’lum.

“Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, axloq-odobini ham yaxshilangizlar”,- deyiladi Muhammad payg‘ambar hadislaridan birida. Farzand -hayotning guli. Darhaqiqat , odobli farzand bilan hayotimiz fayzlidir. Biroq farzandlarimiz xatti-harakatida ham goho nuqsonlar ko‘zga tashlanadi, ularni o‘z vaqtida oldini olib, bartaraf etmaslik yomon oqibatlarga

olib keladi.Tarbiya ishining zargarning mehnatidek nozik ish ekanligini unutmagan holda, bolani eng kichik yosh davridan boshlab xulq-odob, yurish-turish malakalariga o‘rgatib borish, buning uchun avvalo, mashq qildirish, suhbat, tushuntirish, ishontirish, ibrat-namuna kabi ilmiy-amaliy metodlardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Inson o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga yetish uchun tinimsiz mehnat qilar ekan, buning uchun avvalo, unda mustahkam iroda bo‘lishi lozim. Demak, biz tarbiyaviy ishimizning asosiy yo‘nalishini bolalarda mashq qilish sifatlarini shakllantirishga qaratishimiz zarur. Bunda kun tartibi katta rol o‘ynab, uning asosida o‘z faoliyatini tashkil etgan bola vaqtdan unumli foydalana oladi, hayoti davomida qunt bilan ishlash, mehnat qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Unda intilish bilan shaxsiy imkoniyatiga baho berish o‘rtasida uyg‘unlik vujudga keladi. Vaqti-vaqti bilan axloqiy mavzularda suhbat o‘tkazib, bolaning ongiga ta’sir etish ham ahamiyatlidir.

Oilada ota-onalar birinchi galda o‘z bolasining o‘qishga bo‘lgan munosabati haqida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga to‘g‘ri, asosli ma’lumot berishi juda muhim va foydalidir. Ota-onalar o‘g‘li yoki qizining sog‘ligi, intilishlari, harakatlari, fe’l-atvori, o‘qish, yozishga bo‘lgan munosabatlari va umumiy tayyorgarligi to‘g‘risida aniq ma’lumot bersa, bolani maktabga tayyorlash oson kechadi.

Bunday suhbatni badiiy asar qahramonlari, vatanimizning ajoyib kishilari hayoti va faoliyati to‘g‘risida, tabiat olami haqida qiziqarli qilib o‘tkazish mumkin. Bunda o‘g‘il va qizlarning yosh xususiyatlari, bilim saviyalari, aqliy imkoniyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari e’tiborga olingan holda tarbiyaviy tarbiyani tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ota-ona esa farzandlar nigohida eng buyuk kishilardir. O‘zining eng yaxshi sifatlari: mehnatsevarligi, bir-birlari bilan ahilligi, farzandlariga g‘amxo‘rligi, qo‘shnilari bilan ittifoqligi qariyalarga nisbatan mehribonligi, kishilarga iltifotliligi- odamoxunligi, ochiqko‘ngilligi, kamtarlik xususiyati; oddiy va bejirim kiyinishi, xullas, tashqi va ichki qiyofasining go‘zalligi bilan farzandlar nazarida “eng chiroyli, istarasi issiq” kishilardir. Haqiqatan ham, ana shu fazilatlar sohibi bo‘lgan har bir ota va ona kelgusida o‘z farzandlari tomonidan bir umr e’zozlanadi. Chunki ular mashaqqat chekib, jon pardasida ardoqlagan, mehr chasmasi bilan o‘stirgan nihollarining kelgusidagi shirin mevasidan bahramand bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. H. Uzoqov, A. Tojiyev “Oila etikasi va psixologiyasi”.
2. E. G‘oziyev “Ontogenez psixologiyasi”
3. Ismatova D.T.Oilaviy psixologik xizmatda shaxslararo munosabatlarni empirik tahlili Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №5) 338-343 b.
4. Ismatova D.T.Oilaviy munosabatlarda emotsional zo‘riqishlarni korreksiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ―Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 596-101b

ИССЛЕДОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ ПОДРОСТКОВ, ПРОЖИВАЮЩИХ В СЕМЬЯХ С НАСИЛИЕМ

Шарипова Асаль Сарваровна,
Докторант 2 курса Научно-исследовательский институт «Оила ва хотин-кизлар», город Ташкент

Тема насилия в семье в настоящее время является одной из самых острософиальных проблем в мировом сообществе, разрешение которой требует комплексного подхода, в том числе и изучения психологических особенностей этого явления.

Bugungi kunda o'zbek oilasida ota-onalar tomonidan tarbiyada qaysi usullar qo'llanilishi, oilada ota-onalarning mas'uliyati qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazildi. "Kelajakda qurilajak oilangiz o'z oilangizga o'xshashini istarmidingiz?" mazmundagi savolga farzandlarning qariyb 35 foizi o'z oilasidagi muhitdan qoniqmasligini bayon qilishgan. Xo'sh, bu nimadan dalolat? O'sha oilalarning notinchligidan, farzandlarning o'z ota-onalari xulq-atvoridan qoniqmasligidan dalolat emasmi?!

Tadqiqot mobaynida olingan natija va xulosalarga binoan bolada xulq og'ishi, turli yot g'oyalarga berilishi, boshqalar ta'siriga tushish, ota-onasidan uzoqlashish, o'zboshimchalik, daydilik kabi salbiy xulq-atvor ko'rinishlari yuzaga kelishi oiladagi ota-ona munosabatlarining ta'siri kuzatildi.

"Ota-onangizni sizning ta'lim-tarbiyangiz bilan qiziqadimi?" savoliga Respublika bo'yicha 7950 ta umumta'lim maktablarining 207111 nafar o'quvchilardan 155693 nafari "doim qiziqadi", 39249 nafari "vaqti bo'lsa qiziqishadi", 6353 nafari "eshitishni xohlamaydi", 6145 nafari "qiziqmaydi" deb, javob berishgan. Ushbu ko'rsatgichlardan ko'rinadiiki, eng yuqori ko'rsatgich "doim qiziqadi" javobiga to'g'ri keldi (155693). Ammo "vaqti bo'lsa qiziqishadi" (39249), "eshitishni xohlamaydi" (6353), "qiziqmaydi" (6145) kabi javoblar ko'rsatgichining yuqoriligi bu sohada ham qator muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqib, ota-onalar o'rtasida oilada bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanish borasida yo'l-yo'riq berish, tushuntirish ishlarini olib borish hamda amaliy ishlarni yo'lga qo'yish zarurati yuzaga keladi va talab etiladi.

"Oilangizdagi muhitni qanday baholaysiz?" savoliga Respublika bo'yicha 7950 ta umumta'lim maktablarining 207111 nafar o'quvchilardan 124600 nafari "namunali", 65642 nafari "yaxshi", 11685 nafari "bilmadim", 4931 nafari "notinch" deb, javob berishgan. Ushbu ko'rsatgichlardan ko'rinadiki, garchand eng yuqori ko'rsatgich bo'lmasda, ammo, "notinch" (4931), "bilmadim" (11685) kabi javoblar ham ko'zga tashlanadi. o'quvchilardan "namunali", "yaxshi", "bilmadim", va ayniqsa "notinch" deb, belgilangan javob kuzatiladi. Bu tabiiyki, o'z navbatida oilalarda sog'lom muhitni shakllantirish masalasiga panja orasidan qaramaslik va buning uchun ota-onalarning oila oldidagi burchini doimiy uqtirib borish muhim ekanligini bildiradi.

Ushbu raqamlar shundan dalolat beradiki, ota-onalarning farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishlarida muammolar mavjud. Ota-onalarning o'zlari farzandlariga oila muhitida hamisha odob-axloq qoidalariga rioya etishni muntazam ravishda uqtirib, o'rgatib borishlari, buning uchun ota-onalarning tarbiyaviy mas'uliyatini oshirish zarurligi ko'rindi.

Ulug'lardan biri «Nobop farzand ortiqcha barmoqqa o'xshaydi, kesib tashlasang og'ritadi. Kesmasang, har joyda izza qilib, yuzingni yerga qaratadi» - degan ekan. Yoshlarni tarbiyalash bobida qayerda, qachon, qanday xatoliklarga yo'l qo'ymaslikni bilish ota-onalar, kattalarning zimmasidadir. "Ota-ona - san'atkor, bola – san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir", - deyilgan. Shunday ekan, farzandning har jihatdan komil inson bo'lib yetishishida ota-onalarning tarbiya masalasi azaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andreyeva G.M. Sosialnaya psixologiya. -M.: Izd-vo Aspekt Press, 2002 - 364s.
2. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi // O'quv qo'llanma. – T., 2006.-142 b.

3. Shoumarov G‘.B. va boshqalar. Oila psixologiyasi: akademik lisey va kasb-xunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma.-T.: “Sharq”,2008.-296-b.
4. Akramova F.A. O‘zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. –T.: OOO “NORI” MCHJ, 2019. - 186 b.
5. Akramova F.A., Bilolova Z. Oilada kelishmovchiliklarni bartaraf etish psixologiyasi. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent.: OOO “NORI” MCHJ, 2019. - 32 b.
6. Akramova F.A. Oilada shaxslararo munosabatlarning oila mustahkamligiga ta’siri masalalari. Monografiya – T.: OOO “NORI” MCHJ, 2019. – 130 b.

SHOGIRD KAMOLOTIDA O‘QITUVCHI MURABBIYNING SHAXSIY VA KASBIY FAZILATLARINING O‘ZIGA XOS IJTIMOIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Otajonova Odinaxon Alijonovna
Profi Universteti psixologiya fanlari nomzodi

Kirish. Kim kasbining ustasi bo‘lsa, uning har bir harakati nafaqat o‘ziga, balki butun yon-atrofiga, yaqinlariga, jamiyatga manfaat keltiradi, har bir harakatida unga zafar yor bo‘ladi, muvaffaqiyat qozonaveradi. Qo‘l uchida ishlaydigan yoki endi kasb sohasiga kirib kelgan inson bilan professional o‘rtasidagi farq shundaki, birinchi, ya’ni, havaskor (dangasa yoki nomiga ishlovchi) muvaffaqiyatga erishishga umid qiladi, professional esa bunga astoydil ishonadi. Umid va ishonch o‘rtasida esa farq bor.

XXI asrda texnika taraqqiyoti tufayli imkoniyatlarimiz ko‘p marotabaga oshdi. Ayniqsa, mamlakatimiz davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, barcha yutuqlarimiz, taraqqiyotimizning muhim omili sifati INSON, uning sharafli mehnati, kasb–koriga juda katta e’tibor berila boshladi.

Hali mustaqilligimiz qo‘lga kiritilgan birinchi kunlaridayoq yurtimizda kadrlar va yoshlar siyosatining ahamiyatiga juda katta urg‘u berilgan. Va bugun ham Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” deb nomlangan kitobida” Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyasiga ega, chinakam vatatanparvar insonlarni tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi.” deb yozganlari har birimizga katta mas’uliyat yuklaydi.

Ota-bobolarimizning ustoz va shogirdlar uchun o‘ziga xos odob-axloq, maxsus qonun-qoidalari, urf-odatlari, duolari, milliy an’analari mavjud bo‘lib, ularga qat’iy rioya qilingan. Ustozning ham, shogirdning ham oldiga qo‘ygan o‘ziga yarasha vazifalari va burchlari bo‘lgan.

Xalq hunarmandchiligida ustozlarning o‘ziga yarasha shaxsiy va kasbiy fazilatlarining mezonlari bo‘lgan. Masalan, ustozning shaxsiy fazilatlari mezoni bo‘lib, uning tarkibiga “ustozning saxiyligi, odobi, mehr-shafqatliligi, marhamatliligi, ochiq yuzligi, shirin muomalasi, sabrliligi, talabchanligi, qanoatliligi, to‘g‘ri so‘zligi va pokligi kabilar” kiritilgan.

Rizouddin Ibn Faxriddin ustozlarga shu nuqtai nazardan shunday nasihat qilgan: “Shogirdlaringizni har bir harakatlariga qarab turingiz, ularga xushmuomalali, go‘zalu shafqatli odatlarni tushuntiringiz, so‘zlarni-yu fe’llarni yaxshilangiz, ust-boshlarini, kiyim-kechaklarini pok tutmaklari haqida nazorat aylangiz. Yomon xulqlar yuqumli bo‘lganidan bir shogirdning yomon xulqi borligini bilsangiz, jumlasini barobar ko‘rib, jumlasi foyda olajak ravishda o‘rgatingiz, foydali ishlar, kerakli adablarning jumlasidan xabardor aylangiz, natijada bola

mumkin qadar reja ila ish qilmoq, ehtiyotkorlik, poklik, ko‘rkam tartib, ko‘p foydasiga tirishmak kabi xususiyatlaringizni egallab oladi”.

Ustozning kasbiy fazilatlariga eng avvalo “o‘z hunariga qiziqishi, o‘z hunarini yoshlarga sidqidildan o‘rgatish, o‘z hunariga yangiliklar kiritishi, shu hunarni o‘zidan keyin yaxshi, sodiq shogirdiga qoldirishi va boshqalar” kiradi.

Xulosa qilib aytganda, hunarmandchilik Sharq xalqlarining qadimiy qadriyati bo‘lib, u asrlar davomida xalq madaniyati, o‘y-xayollari, orzu-istaklarini o‘zida ifodalab kelayotgan sanoat hisoblanadi. Uning o‘ziga xos milliylik xususiyatlari, ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari, usta-shogird an’alari o‘rtasidagi axloq-odob mezoni, madaniyati, yosh avlodda hunarmandchilik kasbiga mehr-muhabbatini o‘stirishda muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbek urf-odatlariga ko‘ra, oila ota-ona ham farzandining kasb-hunarning egasi bo‘lishini o‘ylab, yoshlikdan farzandiga hunar o‘rgatayotgan ustozining oldidagi burchlari va munosabat madaniyatini ongiga singdirgan. Bunda ular farzandlariga birinchi navbatda hunar o‘rgatayotgan ustozni hurmat-ehtirom qilish lozimligini uqtirganlar. Ota-onalar va ustozlar o‘rtasida munosabat madaniyati ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lganki, bunday munosabatlarda ustozga muruvvat ko‘rsatish, ustozning farzandiga bergan tanbehini to‘g‘ri tushunish, farzandini hunar o‘rganishida kerakli narsalarni yetkazib berish, ustozni rozi qilish va boshqalar ustuvor bo‘lgan.

Ustozning shogirdi ota-onasiga ham o‘ziga xos munosabati mezoni bo‘lgan. Ular quyidagilardan iborat:

-farzandiga hunar o‘rgatish uchun zimmasiga olgan vazifasini bajarish;

-o‘z va’dasining ustidan chiqish;

-ota-onaga farzandining qobiliyati, xulq-odobi to‘g‘risida ochiq gapirish.

Mualliflar S.G‘ulomov va S.Bulatovlar o‘zlarining “Sharqona “ustoz-shogird” odobi” nomli risolalarida muhim tahlillar asosida ustozlar va shogirdlar odobiga oid qoidalarni keltirganlar. O‘sha risolada, jumladan, ular “Usta-shogird” modelini ham o‘quvchilar diqqatiga havola etganlar (o‘sha manba; Ushbu modelning bevosita xususiyatlari, kuchli yoki kuchsiz tomonlari bo‘yicha fikr bildirishdan o‘zimizni tiygan holda risolada keltirilgan “Ustoz va shogird odobi” bo‘limidagi (o‘sha manba; ayrim qoidalarni keltirishni joizdir. Masalan, ustoz odobi xususida bu yerda quyidagilar keltiriladi:

“1. O‘z ishiga yaxshi munosabatda bo‘lish, ya’ni o‘z kasbini sevish.

2. O‘z ishiga e’tiqod qo‘yish va unga ishonish.

3. Ustoz oldidagi xokisor bo‘lish, o‘zining salbiy odatlarini tark qilish.

4. Ko‘rish lozim bo‘lmagan hamma narsalardan nigohni olib qochish.

5. Eshitish mumkin bo‘lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik.

6. Barcha noloyiq ishlardan qo‘l tortish.

7. Ustozga zid bo‘lgan kishilar bilan muomala qilmaslik”

Shogirdlarning o‘z ustozlari oldidagi burchlari va vazifalari haqida esa quyidagilar keltiriladi:

“1. Ustozga itoatli bo‘lish.

2. Ustoz an’analarini davom ettirish.

3. Ustozning pand-nasihatlariga amal qilish.

4. Ustozga taqlid qilish.

5. Sabr-toqatli bo‘lish.

6. Irodali bo‘lish.

7. Ustoz yuzini yerga qaratmaslik, aksincha uning obro‘sini ko‘tarish.

8. Ustozning sha’niga iliq so‘zlar olib kelish.

9. Ustozning dushmani bilan do‘st tutinmaslik.

10. Ustozning oila a’zolarini hurmat qilish.

11. Ustozning qarindosh-urug‘larini hurmat qilish.

12. Ustozning ruxsatisiz hech narsaga qo‘l tekkizmaslik.

13. Birovning narsasiga ko‘z olaytirmaslik

14. Ustoziga cheksiz hurmat bilan munosabatda bo‘lish .

Yuqoridagi xususiyatlarga ega bo‘lgan shogird yaxshi hisoblanib, uning eng yaxshi fazilatlariga quyidagilar kiradi:

“1. Ustoz qabuliga kirganida yoki ustozni ko‘rganda birinchi bo‘lib salom berish.

2. Ustozning oldida oz gapirish va boshini oldiga egib turish, ko‘zni har tomonga yugurtirmaslik.

3. Agar masala so‘ramoqchi bo‘lsa, oldin ustozdan ijozat olish.

4. Ustoz javob aytganda e’tiroz bildirmaslik.

5. Ustoz oldida boshqalarni g‘iybat qilmaslik.

6. O‘tirib-turish hurmatini to‘liq saqlash.

Shular asosida quyidagilar shogirdning muhim shaxsiy xususiyatlarini tashkil etadi: o‘rtoqlik, do‘stlik, hamkorlik, hamjihatlik, sadoqat, mehr-muruvvat, kasb tanlash imkoniyati, vatanparvarlik, milliy iftixor, insonparvarlik, xushmuomilalik, ozodalik, pokizalik, samimiylik, ziyraklik, tashabbuskorlik, insoflilik, rostgo‘ylik, or-nomuslilik, andishalilik, kattalarni hurmat qilish, sof muhabbatni qadrlash, vazminlik, to‘g‘rilik, millatlarni hurmat qilish, ota-onasini hurmat qilish va boshqalar.

Demak, ustoz-shogird munosabatlari ikki tomonlama munosabatlar tizimi bo‘lib, bunda shogirdning oilasi, ota-onasi ham muhim ijtimoiy omillardandir. Shuning uchun ham xalq an’analariga ko‘ra, shogirdning ota-onasiga bo‘lgan muomala ham bu muloqot tizimida muhim hisoblangan. Xususan, ustozning shogird oilasiga nisbatan munosabati quyidagicha bo‘ladi:

1.Farzandiga hunar o‘rgatish uchun zimmasiga olgan vazifasini bajarish.

2. O‘z va’dasi ustidan chiqish.

3. Ota-onaga farzandining qobiliyati, axloq-odobi to‘g‘risida ochiq gapirish.

Shu kabi tamoyillarga bo‘ysunish, odatda, shogird bilan ustoz munosabatlarida ham samimiyatni ta’minlagan.

Albatta, ustoz-shogird munosabatlarida ustozning shaxs sifatidagi shaxsiy hamda kasbiy fazilatlariga qo‘yiladigan talablar ham ishlab chiqilgan. Masalan, “Saxiylik, odoblilik, mehr-shavqatlilik, marhamatlilik, ochiq yuzlik, shirin muomalalik, sabrlilik, talabchanlik, iffatlilik, itoatlilik, qanoatlilik, to‘g‘ri so‘zlik, poklik, muloyimlik” kabilar ustozning shaxsiy sifatlarini tashkil etgan.

Ularning kasbiy normalariga ko‘ra quyidagilar hunarmandlar holi bo‘lishi lozim bo‘lgan sifatlarga kiritilgan:

1. Nopok yo‘llar bilan aloqada bo‘lmaslik.

2. Boshqa hunarmandlarga nisbatan adovatda bo‘lmaslik, xasadgo‘ylik va boshqalar muvaffaqiyatini ko‘ra olmaslik.

3. Hunarni faqat boylik orttirish maqsadida qo‘llamaslik.

4. Jur’atsizlik, dangasalik, yalqovlik, erinchoqlik, isrofgarchilik, takabburlik va yolg‘on gapirmaslik.

Shunga mos tarzda hunarmandning odob normalari ishlab chiqilgan:

1. O‘z hunarlarini iflos va shubhali daromadlardan asraydilar.

2. Hunarni boylik orttirish manbai deb emas, balki hayotda munosib o‘rin egallash maqsadida o‘rganadilar.

3. O‘z ishining ustalariga doimo hurmat va ehtiromda bo‘ladilar.

4.Nopok yo‘llar orqali boylik to‘plovchilar bilan aloqa qilmaydilar.

5. Ishda kamchilikka yo‘l qo‘ymaydilar va tanlangan kasblariga befarq bo‘lmaydilar.

6. Mahsulotining asl bahosini bilmaganlar bilan to‘g‘ri muomalada bo‘ladilar.

7. Agar oldi-berdi tarzi bilan bog‘liq bo‘lsa, kam bermaslik va ko‘p haq olmaslikka intiladilar.

8. Agar ish hisobchi bilan bitadigan bo‘lsa, o‘zlarining hissasini jamiyat hissasidan yuqori qo‘ymaydilar.

Hunarmandlarning kasbi yuzasidan odob-axloq normalari ham bo‘lgan:

1. Hunarni jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish maqsadida o‘rganish.

2. Hunarni mehnatsiz daromadlardan asrash.

3. Ustozlar an’anasiga ehtiromda bo‘lish.

4. Mehnatsevar bo‘lish.

5. Intizomli bo‘lish.

6. Muvaffaqiyatsizlikdan tushkunlikka tushmaslik.

7. Hunarda aqlli tadbirkor bo‘lish.

8. Rost so‘zli bo‘lish.

9. Pokiza bo‘lish.

10. Bir ishni qiyomiga yetkazmay turib, ikkinchi ishga o‘tmaslik.

11. Halol mehnat qilish”

Yuqoridagi axloq normalari tahlilidan ko‘rinadiki, ustoz bilan shogird munosabatlari jamiyat taraqqiyotiga mos tarzda rivojlanib, takomillashib borgan. Har bir davrning o‘z normalari bo‘lganidek, har bir kasbning takomiliga mos tarzda kasb-hunar e’zozlangan, shuning uchun ham mamlakatimiz hududida yashagan xalqlar bu borada o‘z qadriyatlarini shakllantirib, ular avloddan-avlodga o‘tib borgan. Yangi va yuksak texnologiyalar davrida ham ana shu an’analarning eng yashovchanlarini saqlash, yosh avlodga yetkazish va ularni yangicha munosabatlar bilan uyg‘unlashtirish davr talabidir.

Demak, bugungi ta’lim tarbiya tizimining asosiy vazifasi yoshlarga ilm berish bilan bir qatorda ularda hunarga nisbatan yuksak ixlosni tarbiyalash va bu borada hunar o‘rgatishning milliy a’anaviy asoslarini ishlab chiqqan holda, hozirgi zamonaviy talablar, yangi kasb-hunarlar doirasida hayotga izchil tadbiq etishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2. G‘ulomov S.S., Bulatov S.S. Sharqona “ustoz-shogird” odobi.-T., 1997

3. O.Otajonova , V.Karimova. Kasbiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma K. Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.- T.: “Iqtisod Moliya”, 2018 -232 bet.

4. Islomov Z.M.,Sirojiddinov Sh.S.,O‘sarova F.X.Buyuk allomalar ijodida ahillik va bag‘rikenglik g‘oyalari.–T.: JIDU,2005.– B.38-57.

5. O.Otajonova. Kitobga rasm ishlash jarayonida psixologik yondoshuvning o‘ziga xos ahamiyati.-T.; Ta’LIM, FAN VA INNOVATSIYA.2019/4-SON.

6.Otajonova O. A.Kasbiy psixologiya {Matn}:Oquv qo‘llanma. /O. A Otajonova.-Toshkent Bookmany print,2023.-268 b.

7.THE ROLE OF FINE ARTS IN THE FORMATION OF STUDENTS’ THE ROLE OF FINE ARTS IN THE FORMATION OF STUDENTS’ CREATIVE THINKING

SUD VA TERGOV JARAYONIDA PSIXOLOG KOMPETENTLIGINING O‘ZIGA XOSLIGI

Olimov Laziz Yarashovich
Buxoro davlat universiteti professori
Roziqova Munisa Fazliddinovna
Buxoro davlat universiteti talabasi

O‘zbekistonda oxirgi yillarda sudlov va huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud psixolog ekspertlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

“Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko‘rsatib o‘tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo‘gan xususiyatlarni ro‘yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 5-iyuldagi PF-6256-son “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 17-martdagi PF-89-son “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 13-dekabrdagi 705-sonli “Sud-ekspertlik faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 21-fevraldagi 73-sonli “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, hamda faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda psixologlar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tatbiqiy psixologiya, balki ko’pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo’llanilishida ko’rishimiz mumkin. Xuddi

shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o’z ifodasini topgan bo’lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezoni sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o’rganish bo’yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo’lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug‘ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda yuridik faoliyat amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to’laroq anglash va amaliyotga keng doirada tadbiq etish uchun esa uning shakllanish yo’lini, tarixiy rivojlanishini bilish talab etiladi.

Sudga oid psixologik ekspertizasiga doir tadqiqotlarda sud psixolog eksperti faoliyatiga aloqador turli jihatlarini, xususan: K.Marbe psixolog jinoiy va fuqarolik ishlarda ekspert sifatidagi ishtiroki, V.Shtern sud psixolog ekspertining jinsiy jinoyat ishlari yuzasidan yosh guvohlar ko’rsatmalarini baholash va ekspertiza qilinayotganlarning aqliy qobiliyatlarni aniqlashning psixologik usullarini, G.Gross esa kriminal psixologiya sohasiga doir ekspertiza o’tkazish mexanizmlarini ochib bergan.

Guvohlik ko’rsatmalarini tadqiq etish sohasida psixologik ekspertiza o’tkazish va boshqa muammolar bo’yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilib, psixolog A.Luriya tomonidan 1927 yilda Moskva guberniya prokuraturasi qoshida tashkil qilingan amaliy psixologiya laboratoriyasida jadal tadqiqot ishlari olib borilgan. U yerda psixologik ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish va jinoyatlarni ochish uchun amaliy psixologiya usullarini qo’llash imkoniyatlari o’rganib chiqilgan.

Ta’kidlash joizki, amaliy psixologiyada yuridik amaliyot ehtiyojlari uchun uning qo’llanilishi asosan jinoiy jarayon ishtirokchilari ko’rsatmalarining haqiqiyligini aniqlash metodikalarini ishlab chiqish uchun qo’llanilgan. T.V.Saxnova yozishicha, bir tomondan qonunbuzar shaxsini o’rganib chiqishga e’tibor kuchayishidan darak bergan (ilgari u faqat qonunbuzarning o’zini o’rganilishida to’xtalgan), bu esa o’z navbatida, obyektiv va subyektiv tomonlarni inobatga olgan holda sodir etilgan qonunbuzarlikka aniq va to’g‘ri baho berishga imkon bergan. Boshqa tomondan esa, jarayon (sodir etilgan holat) ishtirokchilarining ko’rsatmalarini haqiqiy ekanligini isbotlash uchun, ekspert sud yoki tergov jarayonida berilgan ma’lumotlar qay darajada haqiqiy ekanligini aniqlash bo’yicha vazifani o’z zimmasiga yuklatadi.

T.V.Saxnovaning fikricha, ekspertiza doirasida shaxsga tashxis qo’yish orqali haqiqatni aniqlash uchun qo’llanilgan. Respondentning erkin hikoyasi (o’zi bilan sodir bo’lgan holat yoki hodisa to’g‘risida bildirgan fikrlari, yoki ko’rsatuvlari) va ekspert bergan savollarning javoblari asosida, ob’ektiv u yoki bu shaxs tipi bilan shartlangan, yolg‘on belgilari mavjudligi (yoki mavjud emasligi) haqida xulosa qilinadi. Taxmin qilinishicha, sovuqqon, xo’mraygan va yopiq odamlar oldindan uylab qo’ygan yolg‘onni aytishga tayyor bo’lishadi. Shuning uchun u bergan ko’rsatmalar ahamiyatli emas, deb baholash mumkin. Bajarilmagan istak-xohishlar majmui

mavjud bo'lgan shaxsning ko'rsatmalari ham to'la haqiqiy deb tan olinmasligi mumkin, biroq boshqa sabablariga ko'ra: sub'ekt boshqalar nigohida o'z mavqeiga ega bo'lishi uchun, istaklarini qiziq tarzda amalga oshiradi. Bu turdagi ekspertizalar voyaga yetmagan guvohlarga nisbatan samaralidir. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, o'sha paytda ishonchli, ilmiy asoslangan shaxsni tadqiq etish bo'yicha metodikalar ishlab chiqilmagan edi, shu tufayli ekspert vazifasini obyektiv tarzda hal etish imkoni bo'lmagan.

Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vazifasi yuklanib, faqatgina ko'rsatmalar haqiqiyliginigina tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo'lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida mukammallashib borayotgan amaliyotning, o'sib borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik o'rinlidir.

Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellektini o'zaro bog‘lovchi jihatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda insonlarni tushunish bilan o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,503$, $p\leq0,05$), axloqiy ustanovkalar bilan o'z emotsiyasini boshqarish ($r=0$, $0,562$, $p\leq0,05$), emotsional barqarorlik bilan empatiya ($r=0,526$, $p\leq0,05$), ego kompetentlik bilan o'z-o'zini rag‘batlantirish ($r=0,512$, $p\leq0,05$), barqaror insoniy munosabatlar bilan va emotsional barqarorlik bilan emotsional bilimdonlik ($r=0,573$, $p\leq 0,05$) o'rtasida kuzatildi ($r=0,457$, $p\leq0,05$). Qolgan ko'rsatkichlar o'rtasida korrelyatsion ko'rsatkichlar biroz past bo'lganligi esa sud psixolog ekpertlari kasbiy faoliyati davomida o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish, ish faoliyatini tartibga solish va uni ro'yobga chiqarish ustida jiddiy ishlashlari amalga oshirish zarurati borligidan dalolat beradi.

Sud psixolog ekspertlari faoliyat jarayonida boshqa shkalalar bo'yicha ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish orqali ekspertiza o'tkazilayotganlarning ichki kechinmalari, ularning his-tuyg‘ulari, bergan ko'rsatuvlarini, shuningdek, o'zi bilan sodir bo'lgan hodisa yoki holat ularning keyingi ruhiy holatidagi ta'siri (iz, asorat)ni adekvat baholashga va sud psixologik ekspertizasi xulosasini tegishli tartibda rasmiylashtirishda samaradorlikka erishish mumkinligidan dalolat beradi (1-jadval).

Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini tadqiq etishda ularning emotsional intellektiga murojaat qilish juda ham zarur. Aytish mumkinki, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellekti o'rtasida ijobiy bog‘lanishlar faoliyat jarayonida muhim hisoblanib, barcha mezon bo'yicha ijtimoiy-psixologik kompetentlik sifatlari bilan emotsional intellekt o'rtasidagi to'g‘ri ichki munosabat shakllangan. Bu esa sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligining kasbiy kamolotdagi holatini yanada chuqurroq tushunish imkonini berdi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha o‘quv modulini amalda qo‘llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga bog‘liq bo‘lgan kasbiy kompetentlikning yuqori diapazonda ko‘tarilganligini ko‘rsatadi. O‘quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta'minlovchi sohaga tegishli bo‘lgan me'yoriy hujjatlar bo‘yicha savodxonligi, shuningdek psixodiagnostik ishlarni amalga qo‘llay olishi, sudga oid psixologik ekspertizasi xulosasini sifatli tarzda rasmiylashtirish bo‘yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

Sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetenliligi bilan emotsional intellekti umumiy ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari

	Shklalar	**Emotsional intellekt (N.Xoll metodikasi bo'yicha)**				
		Emotsional bilimdonlik	**O'z emotsiyasini boshqarish**	**O'zini-o'zi rag'batlantirish**	**Empatiya**	**O'zga insonlarning kechinmalarini sezish**
Ijtimoiy-psixologik kompetentlik (Kunitsina metodikasi bo'yicha)	Insonlarni tushunish	0,319	0,106	0,281	0,262	0,503*
	Vaziyatlarni tushunish	-0,039	0,416	0,143	0,331	0,431
	Uddaburonlik	0,090	-0,037	0,236	0,259	0,407
	Axloqiy ustanovkalar	0,087	0,562*	0,318	0,371	0,320
	Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,291	-0,013	0,290	0,400	0,239
	Emotsional barqarorlik	0,207	-0,033	0,303	0,526*	0,269
	Imidj	0,368	0,430	0,104	0,266	0,482
	Sotsial psixologik kompetentlik	-0,011	0,244	0,455	0,234	0,466
	Verbal kompetentlik	0,101	0,125	0,454	0,198	0,487
	Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,561*	0,131	0,060	0,160	0,497
	Ego kompetentlik	0,273	0,249	0,512*	0,235	0,228
	Kommunikativ kompetentlik	-0,030	0,452	0,249	0,447	0,395
	Ishonchlilik	0,068	0,216	0,459	0,446	0,512*
	Barqaror insoniy munosabatlar	0,573*	0,291	0,499	0,485	0,432
	Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,078	0,436	0,382	0,141	0,208

Izoh: * p≤ 0,05, ** p≤ 0,01

Sud psixologik ekspertizasi ishlarida faoliyat olib boradigan ekspertlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning sud psixolog eksperti sifatidagi faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog'liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligiga tayanch kompetensiyalarini faoliyat jarayonida shakllantirilishi kognitiv, emotsional, xulqiy omillarni o'zaro mutanosib ravishda rivojlanishi faoliyat samadorligini ta'minlashda individual va differensial farqlarga bog'liqligi haqidagi g'oyalarimiz

o’z tasdig‘ini topdi. Bu borada ijtimoiy-psixologik kompetentlik, eng avvalo, kasbiy faoliyat samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta’minlashga xizmat qilishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
2. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
4. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
5. Olimov L.Ya., Bahronova M.O‘.O‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
6. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O‘smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiypsixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.
7. Olimov L.Ya. Sotsialno-psixologicheskiy podxod k issledovaniyu konfliktov. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2019 god, Vipusk 19. 379-381 st.
8. Olimov L.Ya. Teoreticheskie osnovi pedagogicheskoy texnologii. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2018 god, Vipusk 18. 163-165 st.
9. Olimov L.Ya. Teoreticheskiy analiz problemi kreativnosti v psixologii. Vestnik integrativnoy psixologii jurnal dlya psixologov. Vipusk № 23, 2021 g. S 237-241.

QO‘RIQLASH XIZMATI XODIMLARI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI

Maxmudova Zulfiya Mexmonovna
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Roziqova Munisa Fazliddinovna
Buxoro davlat universiteti talabasi

Jahonda yuqori malakali, raqobatdosh, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Jahonda qo‘riqlash xizmati xodimlari ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentligining psixologik jihatlarini o’rganish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish omillarini tadqiq etish, qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko’rsatkichlarini baholash, ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga mo’ljallangan maxsus tizimlashtirilgan psixologik usullar majmuini ishlab chiqish bo’yicha izlanishlar olib borilmoqda. Qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy faoliyatiga psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta’siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

Psixolog qo‘riqlash xizmati tizimida xizmat qilayotgan barsha xodimlar va harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy qo‘llab-quvvatlashning mutlaqo yangi vazifalari, shuningdek, xodimlarning umumiy dunyoqarashi, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, kasbiga sadoqat va yuqori mas’uliyat xislarini oshirish bilan bohlash vazifalarni belgilab beradi.

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o’rganish jarayonida bir nechta yo’nalishlarni ajratib ko’rsatish mumkin. Ko’pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo’ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo’lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo’naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko’nikma), kognitiv va operatsional.

A.V.Xutorskiyning o’tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o’ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo’lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo’lgan tayyorgarlikka qo’yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta’kidlaydi.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko’nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo’yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya’ni insonlar bilan o’zaro ta’sir o’tkazish malaka va ko’nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo’nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo’lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to’laqonli hisoblanmasdi.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo’naltirilganlik, maqsadni qo’ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o’z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o’ziga xos bo’lgan me’yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo’llay olish tajribasi, ya’ni ko’nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o’zaro ta’sir holatlariga bog‘liq holda namoyon bo’lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo’lish holatlarida o’zini-o’zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o’ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekpertizasi jarayonida o’z bilim, ko’nikma va malakalarni samarali qo’llash sud psixolog xodimidan o’zini-o’zi idora qilish va o’zini-o’zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

A.V.Raysev tomonidan kompetentlik tushunchasining mohiyatida quyidagi bosqichlar keltirilgan: intellektual, amaliy, qadriyatli-mo'ljalli va nutqli. Shundagina mutaxassis kompetentligi har doim faoliyat turiga bog'liq bo'lgan aniq holatda namoyon bo'ladi.

L.G.Semushina asarlarida talqin qilishicha, malaka past, o'rtacha va yuqori darajada bo'lganligi tufayli mutaxassis tomonidan biror bir kasb yoki mutaxassislikning egallaganlik darajasini beligab beradi, deb ta'kidlaydi. Olim bu yerda malakani kompetentlik tushunchasiga yaqinlashtirishga uringan.

N.S.Aulova olib borilgan nazariy tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy kompetentlikning quyidagi mezonlarini asos qilish kerakligini ko'rsatadi:

– shaxs refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o'z kasbiga mosligini baholash, refleksiv (o'z tushunchasi va hatti-harakatlarni anglash) harakatlarning shakllanganligi;

– asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operatsional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, metodlari va yo'llarini egallash;

– bilish faollik darajasining o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish usullarini qo'llash ko'nikmasi;

– kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchning shakllanganligi darajasi;

– samarali kasbiy faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;

– ularni o'z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo'llarini topishga intilish;

– anglashning faollik darajasi.

Bizningcha, muallifning mazkur ta'rifida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e'tibor qaratadi.

Bugungi kunda jahonda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning quyidagi asosiy jihatlariga alohida ahamiyat beriladi:

a) ijtimoiy – o'ziga mas'uliyatni his etish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish va unda faol ishtirok etish qobiliyati, turli etnik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning jamiyat talablari bilan mosligi;

b) kommunikativ – turli tillardagi yozma va og'zaki tarzda muloqot qila olish qobiliyatiga egalik;

c) ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;

d) kognitiv – doimiy ravishda ta'lim olish darajasini oshirishga intilish, o'zining imkoniyatini faollashtirish va amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyati;

e) madaniyatlararo kompetensiyalar;

f) mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentlik;

j) maxsus – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o'z mehnati natijalarini baholash.

Shunday qilib, malaka ham kompetentlik kabi asosiy va kasbiy bo'lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko'pincha oddiy malakalar deb nomlash ham mumkin. Ilmiy adabiyotlarda asosiy malakalar sifatida quyidagilar kiritiladi:

– shaxsning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunksional bilimi, ko'nikmalari, individual xususiyalari;

– aniq kasblar guruhlari sohasidagi ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko'nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatlari va sifatlari;

– turli jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va qobiliyatlar.

NATIJALAR

1-jadval

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili

Omillar		besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar		besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlar		Farq (% hisobida)
		n_1-41		n_2-61		
		n	%	n	%	
«A» omil	Muloqotchan	16	39,01	40	65,6	±26,5
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	25	60,9	21	34,4	
	Jami	41	100	61	100	
«B» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	19	46,3	33	54,1	±7,8
	Zaif fikrlaydigan	22	53,6	28	45,9	
	Jami	41	100	61	100	
«C» omil	Barqaror	13	31,7	43	70,5	±38,8
	Beqaror	28	68,3	18	29,5	
	Jami	41	100	61	100	
«D» omil	Optimizm	16	39,01	34	55,7	±16,6
	Pessimizm	25	60,09	27	44,3	
	Jami	41	100	61	100	
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	34,1	38	62,3	±28,2
	Realist	27	65,9	23	37,7	
	Jami	41	100	61	100	
«N» omil	O'zini nazorat qila oladigan	19	46,3	45	73,8	±27,5
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	22	53,7	16	26,2	
	Jami	41	100	61	100	
«M» omil	O'ziga yo'nalgan	18	43,9	28	45,9	±2
	O'zgalarga yo'nalgan	23	56,1	33	54,1	
	Jami	41	100	61	100	
	Jami	41	100	61	100	

“Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi” metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko’ra “A” omil bo’yicha “muloqotchanlik” besh yilgacha ish stajiga ega bo’lgan xodimlarga nisbatan besh yildan ortiq ish stajiga ega bo’lgan xodimlarda 65,6% (+26,5%) ni, aksincha, muloqotga kirishishga qiynalish 34,4 % (-26,5%) tashkil qildi. Ko’rinib turibdiki, sud psixolog xodimi faoliyati ish staji va tajribasining ortib borishi bilan bog‘liq omil hisoblanadi. “B” omil bo’yicha “mantiqiy fikrlash” darajasi besh yil stajga ega bo’lganlarga nisbatan besh yildan ortiq ish stajiga ega bo’lgan xodim 54,1% ni (+7,8%), “zaif fikrlash darajasi” esa besh yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo’lgan sud psixolog xodimlarda 53,6% ni (-7,8%) ko’rsatdi. Lekin bu omil bo’yicha besh yil va besh yildan ko’p ish stajiga ega bo’lgan xodimlar ko’rsatkichlari o’rtasidagi farq oralig‘i (±7,8) keskin tafovut qilmaganligini ko’rishimiz mumkin. “Mantiqiy fikrlash” qobiliyati sud psixolog xodimi faoliyati uchun muhim jihat hisoblanib, bu qobiliyat yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunda bevosita intellektual rivojlanish jarayonning roli beqiyosdir. “Barqarorlik” va “beqarorlik” omillari bo’yicha ham besh yildan ortiq 70,5%, beqarorlik esa besh yilgacha 68,3% ni (±38,8) tashkil etdi. Bundan ma’lum bo’ldiki, barqaror ijtimoiy munosabatlar yillar davomida taraqqiy qiladi. Keyingi mezon, ya’ni, “optimizm” va “pessimizm” omili bo’yicha besh yilgacha optimizm 39,01% ni, “pessimizm” esa besh yilgacha ish tajribasiga ega bo’lgan sud psixolog xodimlarda 60,09 % ni tashkil etdi. Optimizm, ya’ni yuqori kayfiyatda atrofdagilar bilan munosabatga kirishish 5 dan ortiq ish tajribasiga ega bo’lgan sud psixolog xodimlarda ustun bo’lsa, pessimizm – ya’ni kayfiyatdagi o’zgarishlar, shaxsiy pragmatik kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi uzilishlar besh yilgacha ish tajribasiga ega bo’lgan psixologlarda yuqori o’rin egallashi aniqlandi (±16,6%).

“K” omili bo’yicha “ijodiy tafakkuri rivojlanganlik darajasi” besh yilgacha 34,1 % ni, realistlar esa 65,9 % ni tashkil qildi. Bundan ko’rinib turibdiki, muloqot qilish davomida besh yilgacha realistik tafakkur besh yildan ortiq ish stajiga ega bo’lganlarda esa voqealarga kreativ yondashish, erkin munosabat bildira olish va tahlil qilish kabi sifatlar rivojlanar ekan.

Keyingi omil bo’yicha “O’zini nazorat qila olish” omili besh yilgacha 19 nafar shaxsda 46,3 % ni, “O’zini nazorat qilishda qiynalish” esa besh yildan ortiq stajlilarda 45 respondent ishtirokida 73,8 % da namoyon bo’ldi. So’nggi omil bo’yicha tahlil qilinganda “o’ziga yo’nalganlik” besh yildan ortiqish stajiga ega bo’lgan 28 nafar respondent ishtirokida 45,9%ni “o’zgalarga yo’nalganlik” 23 nafar respondent bilan besh yilgacha 56,1%ni tashkil qildi. Unga ko’ra kommunikasion muomala jarayonida o’ziga bo’lgan munosabatning ustunligi besh yildan ortiq vaqt ichida to’liq shakllanadi, ungacha esa o’zgalarga, ya’ni ijtimoiy muhitga e’tibor bevosita ustunlik qiladi. Ushbu tahlillar 1-jadvalda yanada aniqroq o’z aksini topgan.

Demak, o’rganilgan empirik natijalar asosida qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta’sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko’rinishda bo’lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo’lgan muammolarni bartaraf etish bo’yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko’rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Demak, o’rganilgan empirik natijalar asosida qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta’sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko’rinishda bo’lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo’lgan muammolarni bartaraf etish bo’yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko’rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O‘.O‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA ADAPTATSION PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Ramazonov Jaxongir Djalolovich
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rajabova Sadoqat Xoliq qizi
Osiyo xalqaro universiteti, 1-kurs magistranti

Bugungi globallashuv jarayoni butun dunyo bo‘ylab yuqori cho‘qqiga chiqgan bir paytda, axborotlarning ochiqligi va ommaviy kommunikatsiyaning kuchayishi natijasida, odamlar orasida xilma-xil fikrlashni olib kelmoqda. Bunday vaziyat ijtimoiy fikr va munosabatga ega bo‘lmagan insonni xatoga yo‘l qo‘yishiga sabab bo‘lishi mumkin. Zamonaviy pedagogika va psixologiyaning vazifasi mustaqil fikrlaydigan va izchil samarali faoliyat yuritadigan barkamol shaxsni tarbilashdir. Hozirgi zamonda insonning aqliy intelektual darajasini uning bilimlari qay darajada ko‘p egallanganligi, xotirasidagi ma’lumotlarning ko‘pligi bilan emas, balki tanqidiy fikrlash orqali zarur bilimlarni ajratish, ularni tahlil qila olish so‘ngra ulardan foydalanib mustaqil yechimga kela olishi bilan aniqlanadi.

Talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ularda o‘ziga nisbatan ishonch, mustaqil, ongli nuqtai nazarga ega munosabatlarning shakllanishini nazarda tutadi. Bunday ko‘nikma orqali har bir talaba yoshlar ta’lim olayotgan bilimning ishonchli, samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Tanqidiy fikrlash - bu mavjud bo‘lgan fikrlarni asoslashga imkon beradigan obyektiv va ijtimoiy tan olingan fikrlash va mulohaza qilish usullari (isbot, dalil, tahlil, mezon va boshqalar) qo‘llaniladigan, ochiq muammoli vaziyat to‘g‘risida maxsus tashkil etilgan fikrlash, ijtimoiy nutq muhitida ko‘rish, yechimlar va ularni baholay olishdir. Talabalar muammoli vaziyatga kirar ekan, ular tahlil qilish, tanqid qilish, me’yorlash kabi aqliy harakatlarni amalga oshiradi. O‘qituvchi birinchi navbatda ta’lim oluvchini bu jarayonga jalb eta olishi, unga o‘z fikrini yoritishda zarur shart-sharoit va muhit yaratib berishi lozim. Yechilishi kerak bo‘lgan

muammo yoki fikr o‘qituvchi tomonidan yoritib berilganidan so‘ng talabalar ishni tahlil qilishdan boshlashadi. Tahlilda yechimini toppish kerak bo‘lgan muammolar belgilab olinadi. G‘oyalarni, gipotezalarni shakllantirish, qidiruv harakatlarini rejalashtirishdan muammoni yechishga qadar bo‘lgan mulohazalar rejalashtiriladi. Jamoatchilik muhokamasi (ya’ni ular guruh bo‘lib izlanayotgan bo‘lsalar) tanqid qilish va o‘z ishlarining natijalarini baholash orqali topilgan yechimning qonuniyligini isbotlab berish va aytilayotgan yechimni boshqalar fikridan nimasi bilan ustun ekanligini taqqoslab, fikr asoslab beriladi. Muammolarni qanday hal qilish haqida mulohaza yuritish, mezonlarni tahlil qilish, yechimlarni isbotlash va baholash, muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan talabalar o‘sishini ta’minlaydi.

Talabalarda tnqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hozirda dolzarb muammolardan biri. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish turli omillar tufayli qiyin bo‘lishi mumkin. Ushbu jarayonda duch keladigan umumiy muammolardan ba’zilari:

“Aniq ko‘rsatma yo‘qligi”: Tanqidiy fikrlash ko‘pincha aniq o‘rgatilgandan ko‘ra taxmin qilinadi. Ko‘pgina ta’lim tizimlari tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan ko‘ra ko‘proq eslab o‘rganish yoki yodlashga e’tibor beradi. Shu o‘rinda buyuk mutafakkirlarimiz Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sinolar ta’kidlaganlaridek, bolaning mustaqil tanqidiy fikrlashi jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlari biror-bir manbadan tayyor holda olingan bilimlar bilan qiyoslanganda kata afzallikga ega. To‘liqroq va tezroq rivojlangan bu bilimlar o‘quvchilar e’tiqodiga, ular tafakkuri hamda faol amaliy-tanqidiy fikrlashi quroliga aylanadi.

“Ma’lumotlarning haddan tashqari ko‘pligi”: Cheklangan vaqt oralig‘ida katta hajmdagi ma’lumotlarni qamrab olish bosimi o‘qituvchilarni tanqidiy fikrlashni osonlashtirishdan ko‘ra ma’lumot yetkazib berishni birinchi o‘ringa qo‘yishiga olib kelishi mumkin. Bu talabalarning material bilan chuqur shug‘ullanishi va tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarining etishmasligiga olib kelishi mumkin.

“Standartlashtirilgan test”: Standartlashtirilgan testlarga urg‘u berish sirt darajasida o‘rganishni rag‘batlantirishi va tanqidiy fikrlashni to‘xtatishi mumkin. Talabalar muammoni hal qilish va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘rniga imtihonlarni yaxshi bajarish uchun faktlar va formulalarni yodlashga e’tibor berishlari mumkin.

“Kognitiv tarafkashliklar”: Talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatiga to‘sqinlik qiluvchi oldindan o‘ylangan tushunchalar yoki noto‘g‘ri qarashlar bo‘lishi mumkin. Bu noto‘g‘ri qarashlar tasdiqlovchi tarafkashlikni o‘z ichiga olishi mumkin, bu erda talabalar o‘zlarining mavjud e’tiqodlarini tasdiqlovchi ma’lumotni izlaydilar va ular dastlabki ma’lumotlarga juda ko‘p tayanadi. Ya’ni, guruh liderlari tomonidan aytilgan fikrlarga qo‘shilishadi. Ular bir-birining aytilgan fikrlariga tayanishadi keng doirada fikrlashmaydi.

“Texnologik chalg‘ituvchi omillar”: Bugungi raqamli asrda talabalar doimo turli manbalardan olingan ma’lumotlar bilan ta’minlangan, bu esa diqqatning qisqarishiga va uzoq vaqt davomida murakkab muammolarga diqqatni jamlashda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Har qanday mavzuda ma’lumotlarning ko‘pligi ularni chalg‘itishi mumkin.

“Passiv ta’lim muhitlari”: Ma’ruzaga asoslangan o‘qitishning an’anaviy usullari ko‘pincha passiv ta’limga yordam beradi, bunda talabalar o‘quv jarayonining faol ishtirokchilari emas, balki axborotni qabul qiluvchilardir. Muhokama, munozara va muammoni yechish kabi faol ta’lim strategiyalari tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘proq yordam beradi. Zamonaviy noan’anaviy darslar tashkil qilinishi tanqidiy fikrlash uchun zamin hozirlaydi.

“Turli nuqtai nazarlarga cheklangan ta’sir qilish”: Turli nuqtai nazarlar va tajribalarga ta’sir qilish tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Biroq, talabalar

geografik joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy holati va ta’lim resurslari kabi omillar tufayli turli nuqtai nazarlarga ta’sir qilishda cheklangan bo‘lishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘qitish strategiyalari, baholash usullari va ta’lim muassasalarida izlanish va ochiq fikrlash madaniyatini rivojlantirishni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Talabalarga turli kontekstlarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini qo‘llash imkoniyatini berish va ularning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun konstruktiv fikr-mulohazalarni olish juda muhimdir. Ta’lim jarayonida talabalar bilan ta’lim beruvchi erkin muloqot jarayonini yarata olishi lozim. Shunda har bir ta’lim oluvchi tortinmasdan o‘ z fikrini bildira oladi. Guruh bilan ishlashda ularni guruh ichida uruhlarga bo‘lib dars jarayonini tashkil etib tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlardan foydalanilsa ular bu jarayonda g‘olib bo‘lish uchun ko‘proq izlanishadi va guruhdagi har bir talaba bu jarayonda ishtirok etishi ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.

D. Kluster o‘zining «Tanqidiy fikrlash nima?» maqolasida tanqidiy fikrlashning quyidagi parametrlarini aniqlagan:

1. Tanqidiy fikrlash mustaqil fikrlashdir.

2. Umumlashtirishga imkon beruvchi tafakkurga ega bo‘lish.

3. Tanqidiy fikrlash muammoli vaziyatlarni hal qilish va baholash qobiliyatini namoyish etish.

4. Tanqidiy fikrlash ishonarli dalillarga ega bo‘lib, bayonot berishda dalillarni keltira olish.

5. Tanqidiy fikrlash ijtimoiy fikrlash, ijtimoiy tafakkurga ega bo‘lish.

D. Klusterning fikridan kelib kelib chiqib yondashsak, talabalarda mustaqil fikrlash, har qanday muammoli vaziyatda masalani har tomonlama o‘ylab, izlanib hal qilish va holatni baholay olish, ushbu jarayonda ilmiy dalillar keltirib o‘z fikrini isbotlab berish ko‘nikmalari bo‘lsagina tanqidiy fikrlash ularda rivojlanishi mumkin.

Y. Koreshnikova o‘zining tadqiqi natijalaridan so‘ng talabalar tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda, ularga quyidagi komponentlar kiradi:

- o‘qitishning konstruktivistik turi;
- faol ta’lim usullari;
– tashkiliy shakllar (umumiy, immersion, infuzion, aralash);
- o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalari (predmet-mantiqiy va tashkiliy kasbiy kompetentsiya) deb aytib o‘tgan. U bu xulosalarni bir nechta universitetlarda tadqiqotlar olib borgandan so‘ng keldi va bu fikrlarga biz universitet shart sharoitlaridan kelib chiqib ushbu xulosalarga keldik deb aytib o‘tgan maqolasida.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning ma’ruzalarida “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” deb aytib o‘tgan edilar. Tanqidiy fikrlash har bir kasb egasi uchun kerak. Shunday ekan bugungi kunda yosh avlodni tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lmasliklari ular uchun bir kamchiliklikdir. Chunki tanqidiy fikrlab har bir ishni har tomonlama muhokama qila oladigan kasb egasi o‘z ishining ustasidir. Shunday ekan talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarni bartaraf etib, har tomonlama yetuk salohiyatli kadrlar yetishib chiqishiga o‘z hissamizni qo‘shish bizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanova R. “Pedagogika tarixi”. – T.: “O‘qituvchi”, 1996.
2. Клустер Д. Что такое критическое мышление? // Критическое мышление и новые виды грамотности. М.: СГЛ, 2005. С. 5-13.
3. Корешникова Ю. Н. Организатсионные и педагогические условия развития критического мышления у студентов вузов. Дисс.Москва. 2021.
4. Mirziyoyev Sh.M mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017-yil 14-yanvar.

SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINI O’TKAZISHGA QO‘YILGAN TALABLAR TAHLILI

Dehqonboyev Shohjahon Oybek og‘li
Buxoro davlat universiteti
psixologiya va sotsiologiya kafedrasi magistranti

Kirish. Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bilan bir qatorda, o’sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, ertangi kuni, jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida ham kishini quvontiradigan darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda. O’zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko’tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustuvor yo’nalishiga aylandi.

O’zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan avlodni shakllantirishdan iborat.

Oliy ta’lim muassasalarining ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ta’lim to’g‘risidagi qonun hujjatlari, qonun osti hujjatlari jumladan farmonlar, farmoyishlar, qarorlar va buyruqlar kabi tashkiliy huquqiy hujjatlar qo’llanilmoqda.

Huquqshunoslik amaliyoti tarixidan ma’lum bo’lishicha, ilk marta 1810 yilda Napoleon “jinoyat kodeksi”ga o’z xatti-harakatlarini boshqara olish yoki boshqara olmaslik layoqatini aniqlash tushunchasini kiritdi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchining o’z xatti-harakatlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini aniqlashga doir tibbiy tushunchalar ham kiritila boshlandi.

Rossiyada 1864 yilda jinoyat ishlari bo’yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertiza o’tkazish zarurligi to’g‘risidagi kodeks qo’shilgan edi. Ushbu psixiatrik ekspertiza tarkibida psixologik ekspertiza o’tkazish ham ko’zda tutilgan. Shu vaqtdan e’tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o’tkazila boshlandi.

Asrimizning o’rtalariga kelib, eksperimental psixologiya sohasi bo’yicha erishilgan yutuqlardan sud amaliyotida ham foydalanila boshlandi. Ushbu yo’nalish bo’yicha

laboratoriyalar tashkil etilib, ularda jinoyatchi shaxs xulqi o'zgarishlari, fiziologik affekt holati va shu kabilar o'rganila boshlandi.

1922 yilda Rossiya Federatsiyasida birinchi marta jinoyat protsessual kodeksi qabul qilindi. Asrimizning boshlarida sobiq ittifoqning bir qator shaharlarida jinoyatchi shaxsini o'rganish bo'yicha markazlar ochilib, ularda sud psixologik ishlari olib borila boshladi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, psixologik ekspertiza xizmati yana rivojlana boshladi. Psixologik ekspertiza sohasining rivojlanib borishi natijasida asta-sekin uning vazifasi, tergov va sud jarayoniga aralashuv chegarasi aniqlashib bordi. Bugunga kelib psixologik ekspertizaning vazifasi, o'rganuvchi sohasi xususidagi anglashilmovchilik, tushunchovchiliklar barham topdi.

O'zbekistonda XX asrning 70-80-yillaridan boshlab, psixologiya, huquqshunoslik psixologiyasi, kriminal psixologiya fanlari muayyan darajada rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu sohadagi o'zgarishlar yanada yaqqol sezila boshladi. Qonunchiligimiz asosi rivojlangan dunyo mamlakatlari tajribasidan foydalanilgan holda xalqaro talablar asosida qayta ko'rib chiqilib, yangilandi va takomillashtirildi. Sud ekspertizalari va shu jumladan, sud psixologik ekspertizasiga nisbatan yangicha yondashuvlar yuzaga keldi.

Sud-psixologik ekspertizasini o'tkazish

Sud psixologik ekspertizasi O'zbekiston Respublikai JPKning tegishli moddasiga binoan tergovchi tomonidan chiqarilgan qarorga ko'ra tayinlanadi. Sudda esa ko'rilayotgan ishda psixologik mazmundagi vaziyatlarning mavjudligi haqida va ularning tergov jarayonida o'z yechimini topmaganligiga shubha tug'ilgan holatlarda sudya tomonidan chiqarilgan qarorga binoan sud psixologik ekspertizasi tayinlanadi. Bu xildagi protsessual hujjatlarda ekspertizadan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxs, uning sodir etgan jinoiy xatti-harakati haqidagi qisqacha bayonnoma hamda ushbu sodir etilgan jinoiy xatti-harakatda psixologik mazmundagi holatlarning mavjudligiga asoslanib, sud psixologik ekspertizasini tayinlash zarurligi to'g'risidagi fikr aks etgan bo'lishi lozim. Shuningdek, ushbu hujjatda ekspert aniqlanib, uning oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan savollar qo'yilishi kerak.

Jinoyat protsessual qonun talablariga ko'ra, tergovchi tayinlangan barcha ekspertizalarda, jumladan, sud psixologik ekspertizasi o'tkazish jarayonida ham qatnashish huquqiga ega. Biroq qonunni inkor qilmagan holda, bizning nazarimizda, tergovchining sud psixologik ekspertizasida qatnashishini har doim ham maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Chunki ayrim hollarda psixologik eksperiment o'tkazish jarayonida tergovchining qatnashishi sinaluvchi uchun teskari ta'sir qilishi, ya'ni uning ko'nglidagi fikr-mulohazalarini ochiq-oydin ayta olmasligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ayblanuvchi o'z jinoyatini tergov jarayonida tan olmagan bo'lsa, psixologik ekspertiza jarayonida jinoyatni sodir etganligini bo'yniga olishi mumkin. Bunday vaziyatda ekspert ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini tan olganligini ta'kidlab, jinoyatning sodir etilish holatlarini ekspertiza xulosasida ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Bizning nazarimizda, psixologik ekspertizaning bunday vaziyatlarni yoritib berishi ko'rilayotgan ishning muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, unutmaslik kerakki, psixologik ekspert ushbu xulosalarni faqat o'rganilayotgan ayblanuvchiga nisbatangina berishi zarur. Agarda ekspertiza uchun qo'shimcha ma'lumotlar olinishi lozim bo'lsa, ekspert-psixolog boshqa mutaxassislarni ham ekspertizaga taklif qilish huquqiga ega. Sudda sud psixologik ekspertizasini o'tkazish dastlabki tergov jarayonida o'tkaziladigan psixologik ekspertizaga qaraganda bir qator o'ziga xosliklarga egadir. Xususan, sudda ekspert-psixolog jinoyat ishiga taalluqli bo'lgan holatlar

bo'yicha, ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini isbotlash jarayonida, uni so'roq qilishda va hokazolarda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashadi. U psixologik tadqiqot jarayoniga zarur boshqa kishilarni taklif etishi va ish yuzasidan yangi daliliy ko'rsatmalarni talab qilishi ham mumkin.

Sud psixologik ekspertizasini tayinlashdagi muhim jihatlardan biri ekspert tanlashdir. Shuning uchun biz quyida psixolog ekspertlar tanlash masalasi bo'yicha batafsilroq fikr yuritamiz.

1. Ekspert komissiyasi tarkibi kamida uchta mutaxassisdan iborat bo'lishi lozim. Chunki mutaxassislar hamkor va hamfikr bo'lib birgalikda ishlashadi, buning natijasida ekspertizadagi xatoliklarning oldi olinadi.
2. Psixologik ekspertiza o'tkazishga 5 yildan kam bo'lmagan mehnat stajiga ega bo'lgan psixologlar, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining psixologiya kafedrasida ishlayotgan xodimlar yoki ilmiy tadqiqot institutlarining psixolog ilmiy xodimlari jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir.
3. Ekspert komissiyasi tarkibida huquqshunoslik psixologiyasi bo'yicha mutaxassis xodim hamda huquqshunos bo'lishi shart. Chunki, oliy o'quv yurtlari psixologiya bakalavriat yo'nalishini tugatgan psixologlar ko'pincha ekspertizaning huquqiy asoslariga, protsessual mohiyatiga taalluqli bo'lgan huquqiy tushunchalarni yetarlicha bilmasliklari mumkin.
4. Katta yoshdagi shaxsni sud psixologik ekspertizasidan o'tkazishga umumiy va yuridik psixologiya mutaxassislarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Voyaga yetmagan yoshlarni sud-psixolog mutaxassisi bilan birgalikda bolalar psixologiyasi mutaxassisi, keksa yoshdagi kishilarni esa gerontopsixologiya yo'nalishidagi mutaxassislar ishtirokida sud-psixologiya ekspertizasidan o'tkazish lozim.

Psixologik-psixiatrik kompleks ekspertizasini o'tkazishda komissiya tarkibiga umumiy psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, sud patopsixologiyasi mutaxassislari va psixiatrlar kirgani ma'qul.

Tibbiy-psixologik ekspertiza komissiyasi tarkibiga esa yuqoridagi mutaxassislardan tashqari sinaluvchining kasalligi bo'yicha (agar u mavjud bo'lsa) nevropatolog, logoped, seksopatolog, okulist va boshqa mutaxassislarning qatnashishi ayni muddaodir.

Psixolog-texnik ekspertizalar injenerlik, mehnat psixologiyasi mutaxassislari va albatta, texnik mutaxassis ishtirokida o'tkazilishi shart.

Sud psixologik ekspertizasining bosqichlari. Sud psixologik ekspertizasi bir qator bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Ekspertlarning jinoyatni isbotlash maqsadida o'tkazilgan jarayonidagi ishtiroki;
2. Tadqiqotni o'tkazish;
3. Xulosa uchun ahamiyatli bo'lgan vaziyatlarni oydinlashtirish;
4. Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish va xulosani bayon etish;
5. Ekspertlarni so'roq qilish.

Ekspert psixolog vazifasi nuqtai nazaridan ekspertizani ishga doir materialni o'rganishdan boshlanadi. Shuningdek, taqdim qilingan ish bo'yicha maxsus adabiyotlar bilan tanishish va metodika tanlash jarayoni ham amalga oshiriladi. So'ngra dastlabki asosiy eksperiment o'tkaziladi. Eksperiment natijalarini qayta ishlash va uni asoslash, xulosa qilish hamda uni sud yoki tergovga taqdim qilish ham psixolog-ekspertning vazifasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bogdanov V.M. Psixologicheskie osobennosti professionalnogo mishleniya rabotnikov ugolovnogo roziska. Omsk. 1994.
2. Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi (1-qism). Darslik. - Toshkent: TDYuI, 2009.
3. R.Qobilov, A.A. Otajonov va boshqalar Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik.– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
4. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Darslik. Usmonaliyev M, Bakunov -T., "Nasaf" 2012.

Elektron ta'lim resurslari:

1. http: www.Iib.psixology.msu.ru
2. http: www.Iib.psixology.ru
3. http: www.Iib.psixology.rin.ru

O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK ILMIY – AMALIY MASALALARI

Maxmudov Obloqul Toxirovich

Toshkent viloyati Chinoz tuman 2-son kasb-hunar maktabi direktori

Ma'lumki, har bir davlat va jamiyatning kelajak istiqboli o'sib kelayotgan yosh avlodlarning intellektual imkoniyati, qiziqishi hamda ularning kasbiy munosiblik darajasi bilan belgilanishi tabiiydir. Qolaversa, shaxsning kasbiy shakllanishi bu - komillik sari qo'yilgan birinchi qadamdir. Zamonaviy psixologik bilimlarga ko'ra, shaxsning aqliy qobiliyatlari, kognitiv imkoniyatlari, layoqatlari va intilishlariga ko'ra, biror kasb bilan tanishishi, kelajakda shu kasbning yetuk mutaxassisi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bois ham, o'quvchilarni kasb olami bilan erta tanishtirish, ularning qiziqishlari va kasbiy yo'nalganligini psixodiagnostik tashxis etish ishlari, nafaqat zamonaviy psixologiya fani oldida turgan dolzarb muammo balki, umumta'lim maktab rahbarlari va maktab amaliyotchi psixologlari oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.

Tadqiqotchi T.Bedarevaning aytishicha, kasb-hunarga yo'naltirish – bu har bir shaxsning shaxsiy fazilatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning kasb tanlashiga ta'sir qilish jarayonidir. Ko'plab psixolog olimlar o'z asarlarida, kasbni to'g'ri tanlash insonning o'z hayotida muvaffaqqiyat qozonishi, ijtimoiy muhitda o'zining barcha qobiliyatlarini to'la namoyon etishi uchun asos ekanligini alohida aytib o'tganlar. Misol uchun,F.Galton, A.Kershenshtayner, G.Myunsterberg, P.Blonskiy, Y. Sokolnikov kabi olimlar, mazkur muammoni ilk bor ilm ommaisga taqdim etgan mualliflar sanalishadi. Ana shu g'oyalardan kelib chiqqan holda, barcha rivojlanib kelayotgan mamlakatlar, o'z farzandlariga o'zining milliy an'analari asosida, ta'lim-tarbiya berish hamda kasb-hunar tanlashga oid muammolarini hal etish yo'llarini izlamoqda.

Butun jahon umumta'lim maktablari konsepsiyasida ko'ra, har bir o'quvchini qaysidir kasb turi bilan tanishtirish va vazifada bolaning psixofiziologik xususiyatlarini, qobiliyatini, bilimini aniqlash zarurati qat'iy belgilab qo'yilgan. Mazkur ishlarni amalga oshirish har bir maktablarda turli yo'llar bilan amalga oshirilmoqda. Qolaversa, ushbu masalada hozirga qadar ko'plab psixodiagnostik testlar va metodikalar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ular orqali

o‘quvchilarning iqtidori va qaysidir kasbga munosibligi tashxis qilinmoqda. Jumladan, G.Ayzenk, Ya.Strelyau, Dj.Golland, A.Bine, T.Simon, B.Filips, Ye.Klimov tomonidan ishlab chiqilgan, kasbiy yo‘nalganlikni aniqlash, kasb va shaxs tiplari, kasbiy profilni aniqlash kabi psixodiagnostik vositalar shular jumlasidandir.

Hozirgi zamon psixologlaridan M.A.Bendyukovning ilmiy qarashlariga ko‘ra, maktab muhitida o‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash va kasbiy munosibligini aniqlash ishlarida, quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq ish sanaladi:

– O‘quvchining xulq-atvorini va individual tipologik xususiyatlarini aniqlash;

– Har bir o‘quvchilarga xos nerv sistemasining individual o‘ziga xosligini aniqlash;

– Qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar, kasbiy niyatlar haqida ma’lumot olish;

– O‘quvchilarning qadriyatlari yo‘nalishini aniqlash. Ushbu tasniflashga muvofiq, kasbga tayyorlash va yo‘naltirish faqatgina bir xususiyat bilan emas, qator psixologik sifatlar bilan ham o‘lchanishini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, kasb psixologiyasi bo‘yicha chop etilgan ayrim manbalarda yozilishicha, o‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash va kasbga yo‘naltirish ishlari quyidagilarni maqsad etishi lozim:

1.Kasb haqida umumiy tushuncha berish, mutaxassisliklar olamiga sayohat qilish orqali, bolaning kasbiy bilimini shakllantirish;

2. Malakali kishilar e’zozlanishini, o‘z mahorati orqali moddiy va ma’naviy boyliklarga erishish mumkinligi haqqida ma’lumot berish;

3. Kasb orqali davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, kelajak istiqbollari va taraqqiyot yo‘llari haqida tushuncha berish;

4. Kasbiy mehnatning ijodiy xarakteri bilan o‘quvchilarni tanishtirish;

5. Kasbiy karera haqida ma’lumot berish;

6. Yaxshi kasb tanlash – bu moddiy va ma’naviy boylik manbai ekanligi haqida tushuncha berish. Demak, ushbu vazifani amalga oshirish orqali, o‘quvchilarda mehnat va kasbiy faoliyat haqida yangicha tasavvurlar paydo bo‘lib, ularning o‘quv motivlari va hayotiy qadriyatlarida katta o‘zgarishlar kechar ekan. Ayrim psixolog tadqiqotchilar, kasb tanlashga ta’sir etuvchi omillar haqida to‘xtalib o‘tar ekan, ular ichida motivlar guruhiga ko‘proq e’tibor qaratadilar. Psixolog Ye.K.Klimovaning so‘zlariga ko‘ra, o‘quvchilarning kasb tanlashiga sabab bo‘luvchi motivlar guruhi quyidagilardan iborat:

– Umumiy motivatsiya;

– Kasbning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi motivlar;

– Kognitiv motivlar;

– Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasbni tanlash motivi;

– Obro‘ga, shon-sharafga intilish;

– Boshqalarning maslahati. Mazkur ilmiy g‘oyadan shuni anglash mumkinki, kasbga tayyorlov va kasbga yo‘naltirish masalasi nafaqat umupsixologik jihatlarni balki, ijtimoiy - psixologik omillarni ham qamrab olar ekan. Hozirgi kunda, mahalliy psixologiyada kasb tanlash motivlarini aniqlashning ko‘plab psixodaignostik usullari mavjud bo‘lib, ulardan xalq ta’limi tizimida bosqichma-bosqich foydalanib kelinmoqda. Biroq, mazkur ishlar muammoni hal qilish uchun yetarlicha emas. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, maktab bitiruvchilari o‘z xohish-istaklarini aniqlamay turib, o‘z kelajak yo‘llarini mustaqil belgilashga hissa qo‘sha olmaydilar.

Tom ma’noda, kasbiy tanlash va kasbga yo‘naltirish masalasi, o‘quvchilarning xulq-atvor sifatlarini tashxis etish ishlari bilan ham uzviy bog‘liq sanalib, bu borada ham ayrim psixolog tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini hisobga olish, maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xuddi shu

masalada fikr bildirgan P.Muchinskiyning yozishicha, o‘quvchilarning xulq-atvor sifatlari quyidagi to‘rtta ko‘rsatkich bilan ham baholanishi kerak:

– Jamoaga va boshqa odamlarga munosabat – hurmat hissi, tolerantlik;

– Mehnatga munosabat – mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik, muvaffaqqiyatga moyillik;

– Narsalarga munosabat – ehtiyotkorlik, tejamkorlik, puxtalik yoki ehtiyosizlik, ixtiyoriy yoki beixtiyor;

– O‘z - o‘ziga bo‘lgan munosabat – bu o‘zini sevish, mas’uliyatlilik, mag‘rurlik, shon-shuhratga havas qilish istagi va hokazo.

Umuman olganda, kasbga yo‘naltirish jarayonida dastlab, o‘quvchilarning qobiliyatini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, qobiliyat - bu shaxsning biror bir obyektga qiziqishi, biror faoliyatni muvaffaqqiyatli bajara olish imkoniyatidir. Odatda, agar o‘quvchi topshiriqni bajarishga moyil bo‘lsa, o‘quvchi uni bajarishni cho‘zib o‘tirmaydi. Chunki, qobiliyatlikning asosiy shartlaridan biri bu - yangi bilim va ko‘nikmalarni tez va sifatli o‘zlashtirish, tajriba to‘plashga intilish, o‘z imkoniyatlarini anglash va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бедарева Т., Грецов А. 100 популярных профессий. Психология успешной карьеры для старшеклассников и студентов. - Спб, 2008. – С.11-12.
2. Бендюков М. А. Ступени карьеры: азбука профориентации. - СанктПетербург: Речь, 2006. – 236 с.
3. Гурова Е. В. Профориентационная работа в школе: методическое пособие. - Москва: Просвещение, 2007. – 95 с.
4. Климова Е.К. Психология успеха. Тренинг личностного и профессионалного развития: учебно-методическое пособие — Спб: Речь, 2013. –С.46.
5. Мучински П. Психология, профессия, карера. - Спб, 2004. –С.63.

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA LIDERLIK MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ILMIY AN’ANALARI

Aktamov Shohzod Ravshan o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti psixologiya kafedrasi tayanch doktoranti

Zamonaviy jamiyat va madaniyat nuqtai - nazaridan qaraganda, lider inson o‘zining yangi g‘oyalari, maqsad va manfaatlari bilan, boshqalardan alohida ajralib turadi. Liderlik - bu guruh a’zolari faoliyati va ularning o‘zaro aloqasi natijasida vujudga keladigan, shaxsga xos qator tashkiliy xususiyatlar yig‘indisidir. Liderlikni faqat bir shaxs harakati bilan tavsiflash mumkin emas. Shuning uchun, liderlik sifatlari guruhlarning dinamik jarayonlariga tegishli hodisa sanaladi. Tadqiqotchi K.T.Bazarovaning aytishicha, ishbilarmonlik, yetakchilik kabi sifatlar avvalambor, jamiyat sohalaridagi raqobatining kuchayishi va boshqaruv xodimlarining ish faoliyatiga qo‘yiladigan talablarning ortishi sharoitida yuzaga keladi. Ya’ni, liderlikning zamirida o‘ziga xos psixologik qobiliyatlar, individual-psixologik sifatlar, kasbiy kompetensiyalar, ijtimoiy-psixologik sifatlar, asab tizimining o‘ziga xos xususiyatlari kabilar mujassamdir. Keng ma’noda esa, liderlik sifati ko‘p qirrali faoliyatdir. Uni tushuntirishda ikkita asosiy yo‘nalish ajratiladi deb ta’kidlaydi xorij tadqiqotchisi D.K.Dayl:

– Liderlik bu – aniq vazifalarga e’tibor qaratish ya’ni, yangi motivatsiya, tashkilotchilik, ko‘rsatma berish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va uni ijrosini ta’minlash, ish hajmini to‘g‘ri taqsimlash va hokazo;

– Liderlik bu – jamoani saqlab qolishga va uni rivojlantirishga intilish, o‘z qo‘l ostidagilarga e’tibor berish, o‘ziga ishonch, jamoasini rag‘batlantira olish, kishilarni o‘z shaxsiy maqsadlariga erishishiga ko‘maklashish, o‘z ishidan qoniqish, o‘zini o‘zi anglash, o‘ziga ishonch, muammolarni nostandart o‘ylash va hal qilishda faol ishtirok etish, shaxsiy munosabatlarda o‘zaro hurmat va samimiylikka amal qilish kabi sifatlar majmuidir.

Aytish joizki, psixologiya fani sohalariga tegishli ko‘plab tadqiqotlarda, “liderlik” fenomeni masalasida ko‘plab ilmiy yondashuvlar, konsepsiyalar, ilmiy modellar ilmiy ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda liderlik va lider shaxslar xarakteristikasini tavsiflovchi, ko‘plab ahamiyatga molik ma’lumotlar keltirilgan. Biroq, mahalliy tadqiqotlarda liderlik sifatlari shakllanishini asoslovchi, ayniqsa talabalik davrida liderlik sifatlari shakllanishining psixologik jihatlari borasida deyarli tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Shu bois ham, liderlik - bu guruhiy faoliyatda maksimal ta’sirga erishish uchun, psixologik ta’sirning barcha mexanizmlari va usullarini o‘zida birlashtirgan individual harakatlar majmuidir. Mutaxassis P.Yu.Semenuxinning so‘zlariga ko‘ra, liderlik shaxs – bu o‘ziga xos funksiyalarni tashuvchi shuningdek, mehnat jamoalarida rasmiy munosabatlarni tartibga soluvchi subyektdir. Demak, muallifning ushbu qarashlariga ko‘ra, yetakchi insonlarning o‘ziga xos sifatlarini o‘rganishda ijtimoiy, iqtisodiy, ma’muriy, psixologik, sotsiologik omillarning ta’siri bilan o‘rganish, maqsadga muvofiqdir. Aslida, liderlik tushunchasini tavsiflashda yoki unga aloqador ma’lumotlarni tahlil etishda, fanlararo integratsiya holatini hisobga olish lozim. Chunki, ushbu tushuncha zamirida inson faoliyati va uning imkoniyatini baholovchi ko‘plab xarakterologik xususiyatlar aks etgan. Haqiqatdan ham, ko‘plab psixologik adabiyotlarda rahbar va lider tushunchasining tavsifi borasida bahsbop mulohazalar mavjud. Ya’ni rahbar va lider o‘rtasidagi farqlar nimada? Rahbarning liderdan farqi shuki, unda qonuniy vakolat bor, ya’ni vazifa berish va jazolash, rag‘batlantirish, lider esa, bunday vakolatdan holi shaxslar hisoblanadi.

Tom ma’noda aytganda, rahbar so‘zining ma’nosi “qo‘ldan yetaklovchi” degan mazmunni anglatib, bunday shaxs ko‘plab rasmiy vakolatga ega hisoblanadi. Va boshqaruv faoliyatida rahbar qisman vazifalarini bajaradi. Uning qo‘l ostidagi xodimlari esa, muntazam ravishda berilgan topshiriqlar va vazifalarni bajarib boradilar. Uning asosiy funksiyasi vazifalarni nazorat va taqsimlashdan iboratdir. Rahbar barcha uchun shuningdek, tashkilot uchun ham mas’ul shaxs sanaladi. Rahbar shaxsning lider shaxsdan mavqe’i tubdan farq qilib, uning faoliyati qator afzalliklarga ega sanaladi. Lider garchi, ushbu afzalliklarga ega bo‘lmasada, uning harakatlari, jamoadagi faolliklari oxir-oqibat rahbar maqomiga ega bo‘lishga sabab bo‘ladi. Boshqacha aytganda, lider shaxslar rahbar shaxs uchun yordamchi subyektlar sanalib, ular norasmiy ravishda rahbarning ko‘plab vazifalarini amalga oshirishda faol bo‘lishadi.

Ayrim manbalarda lider shaxsning o‘ziga xos rasmiy vakolatlari haqida ham fikrlar mavjud. Lider - bu nafaqat bo‘yruq berish, balki homiylik qilish, norasmiy rahbarlik qilish, rag‘batlantirish kabi funksiyalarni amalga oshira oluvchi va shunga qobiliyatli shaxsdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, liderlik taqsimlangan vazifalarni bajarishda boshqalardan faolroq, boshqalarni bajarishga undovchi yoki ularni yetaklovchi, guruh harakatlarini muvofiqlashtirib boruvchi shaxsdir. Fanda liderlik sifatlarini tushuntiruvchi xislatlar nazariyasi, kognitiv nazariya, chegaraviy rollar yondoshuvi, tizimli yondoshuv va sintetik yondoshuv kabi ilmiy yo‘nalishlar mavjud. Quyida ushbu nazariya va yondashuvlarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tishga harakat

qilamiz. Xislatlar nazariyasiga muvofiq, lider shaxs boshqalardan ustun qobiliyatli, uzoqni ko‘ra oluvchi, muloqotchan, murakkab sharoitlarga tez moslasha oladigan, har qanday yangiliklarni optimistik qabul qiluvchi shaxsdir. Ya’ni lider inson kognitiv faol shaxsdir. A.N.Zankovskiyning fikricha, kognitiv nazariyaga ko‘ra, lider inson bu - diqqatini yaxshi taqsimlay oluvchi, yaxshi xotiraga ega, ijtimoiy sezgir, ijtimoiy aloqalar hamda munosabatlarni tez idrok qila oluvchi, tafakkur ko‘lami keng, kreativ fikrlovchi, qaror qabul qilishda tezkor, tassavvuri keng ko‘lamli shaxsdir.

Yuqoridagi ilmiy qarashlardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, lider shaxs – bu guruhiy munosabatlarni tashkillashtiruvchi va uni boshqaruvchi shaxsdir. Uning asosiy maqsadi, guruhda ishni to‘g‘ri tashkil etish, atrofdagilarni boshqara olish va o‘zaro ijobiy guruhiy munosabatlarni o‘rganishga qaratilishi lozim. Shu orqali psixologiyada, lider shaxsning ta’sirchanlik xususiyati, ijtimoiy-psixologik fazilatlari, emotsional hamda ijtimoiy intellekti ilmiy-uslubiy jihatdan to‘g‘ri tashxis etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Базарова К.Т. Лидерские качества руководителя как социально-психологический феномен / К.Т. Базарова // Современный кадровый менеджмент. Вып.6. М.: ИПК госслужбы, 2007. – С.5-41.

2. Дайл Д. К. Трансформирующее действительность лидерство / Д. Дайл, Дж. Канджеми, К. Ковальски // Психология. Журнал высшей школы экономики. 2004. Т. 1. - № 1. – С.96 -109.

3. Семенухин П.Ю. Психологические особенности самоактуализирующейся личности лидера / П.Ю. Семенухин // Сибирский педагогический журнал. №11. - Новосибирск, 2007. – С.354 -360.

4. Bass B.M. From Transactional to Transformational Leadership, Learning to share the vision / B.M. Bass // Organisational Dynamics.(Scientific symposium data)) 2007.– PP.30-31.

5. Занковский А.Н. Организационное лидерство и корпоративная культура как функции лидерского поведения Сб. статей «Психологические исследования проблем профессиональной деятельности». М.: Издат. центр ЕАОИ, 2008. – С.28-48.

OILADA O‘SMIRLIK DAVRIDAGI EGOISTLIKNING IJTIMOIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Gadoyeva Munira Muxammedovna

BVPYMO‘MM "Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari" kafedrasi katta o‘qituvchisi

Oila jamiyat hayotini olg‘a suruvchi, uning yanada yuksak bosqichlarga ko‘tarib, ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab etishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas`ul bo‘lgan g‘oyat muhim boshlang‘ich guruhdir. Oila erkaklar va ayollarning to‘la teng huquqligi, oila uchun bab-baravar javobgarligi asosida ko‘riladi.

Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogik yutuqlari bilan tanishtirish, ularning mustahkamligini ta`minlash vositalaridan biridir. Ikkinchi tomondan esa, bu o‘z navbatida, bolalarning tarbiyasida tegishli shakl va metodlarni takomillashtirish yo‘llaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-

onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar, tarbiya metodlari bilan qurollantirish nihoyatda zarur. Gap shundaki, jamiyatimizdagi har bir to‘laqonli shaxs bolalarning tarbiyachisi bo‘lishi, yangi insonni har tomonlama kamol toptiruvchi barcha holatlarda, shart-sharoitlarda ishtirok etish lozim.

O‘smirlik davri insonni bolalikdan - yoshlikka o‘tuvchi va o‘z navbatida boshqa davrlardan o‘zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o‘qish paytlariga to‘g‘ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davr oralig‘ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

O‘smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o‘tish davri», «og‘ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «og‘irligi», «keskinligi», «murakkabligi» nimalar bilan asoslanadi?

O‘smirlik davrining og‘ir, murakkab davr ekanligi ko‘plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o‘zgaradi. Bu davrda o‘smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan turli xil an’analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi “bola”emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o‘z-o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan bo‘lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo‘nalganligi qaytadan shakllanadi, o‘z-o‘zini anglashi, baholashi, qadriyatlari o‘zgaradi. Uning uchun o‘z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi. Ya’ni unda egoizm holati kuzatiladi. Egoizm – *sotsiotsentrizm (xudbin yoki sahovatlilik);*

O‘zini yaxshi ko‘rish - o‘ziga ishonch. Bu tendensiya - o‘ziga ishonch, mustaqillik, ishchanlik, yuqori ko‘rsatkichi esa egoistlikni ifodalaydi

Giperprotektsiya – ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e’tibori bo‘lib, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e’tiborni ayamasliklarida namoyon bo‘ladi. Ota-ona bu ishni hayot tarziga aylantiradi, ya’ni ona uchun ham, ota uchun ham bola tarbiyasi hayotining mazmun-muddaosiga aylanadi.

Giperprotektsiya – ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko‘r-ko‘rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to‘siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka qaratilgan harakatlar. Bolasi uchun “jonini jabborga beruvchilar” odatda o‘zlari bilmagan holda farzandlariga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda ishga toqati yo‘q, ko‘pchilikning ichida o‘zini tuta olmaydigan, hayotning past-balandliklarida o‘zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo‘lib qoladi. Ayniqsa, bola o‘smirlik yoshiga etganda, erka, tantiq bo‘lgani uchun do‘stlari va tengqurlari davrasida ham hamma aytganlari bo‘lishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladi, lekin ikkinchi tomondan, aslida unda bunday sifatlar bo‘lmaydi. Gap shundaki, bunday holatlarda ota-ona zurriyodi timsolida ilgari o‘z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini ro‘yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo‘ladi, lekin bola ko‘p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi.

Bola o‘smirlik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, hadeb ta’qib qilavermaslikni da’vo qila boshlaydi. Ota-onaning farzand oldidagi obro‘si, kerakligi darajasi

pastlay boshlaydi. Bu davrga kelib ota ham, ona ham o‘zining farzandiga nisbatan munosabatlarini o‘zgartirishga majbur bo‘ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo‘lishga intilishlar paydo bo‘ladi. Bu davr ota-onaning bolasida paydo bo‘layotgan o‘zgarishlarga, yoshga oid yangiliklarga qanchalik fahm va farosat bilan, sabr-qanoat bilan turib berishlarini sinovdan o‘tkazadi. Sinovdan yaxshi o‘tgan ota-onaning bolasi keyingi bosqichga eson-omon yaxshilik bilan, ochiq ziddiyatlarsiz o‘tib oladi, aks holda o‘smirlik davrining o‘ziga xos ziddiyatlari girdobida ota-ona – bola munosabatlari jiddiy yomonlashadi, ayrim bolalar uydan ketib qolish holatlarigacha boradi.

O‘zbekistonda muayyan ijtimoiy-psixologik muammo tadqiq etilganda, gender tafovutlarga e’tibor berish tobora an’anaga aylanib bormoqda. Lekin alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda psihxloglardan tashqari, faylasuflar, sotsiologlar, tarixchilar, siyosatshunoslar, huquqshunoslar ham bu muammoni chetlab o‘tmaganlar. Jamiyat va oila ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni va roliga bag‘ishlangan qator anjumanlar, monografik tadqiqotlar, dissertatsiyalar aynan shu muammoga bag‘ishlangandir. Masalan, yosh tadqiqotchi *O.Abdusattorova* (2007)ning dissertatsion izlanishi bu borada alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda o‘smir yoshli o‘g‘il va qiz bolalardagi gender tasavvurlarga bog‘liq jinsiy identifikatsiyani aniqlash va bunda oila muhitining rolini asoslash uchun ijtimoiy psixologiyada qo‘llanilgan qator ishonchli metodikalardan foydalanilgan va empirik izlanish ham ota-onalar, hamda ularning o‘smir yoshli farzandlari o‘rtasida o‘tkazgan

Bolaga nisbatan haddan ziyod mehribonlik (*giperprotektsiya*), e’tibor ko‘rsatilgan oilada bola “Meni sevishadi va men kerakman, ular meni deb yashashadi”, degan tasavvur mavjud bo‘ladi. Bunday oilada bolalar o‘zining borligidan, tug‘ilganligidan mag‘rurlanib yashaydi va shuning uchun har qanday tilak va xohish amalga oshishiga ishonadi. Odatda bunday bolaning tug‘ilishini ota-ona uzoq vaqt kutgan bo‘ladi va buni ular hadeb bolaga eslataveradi, shuning uchun ham bola juda egoist bo‘lib ulg‘ayadi, ota-onasining nochorligi to‘g‘risidagi tasavvur o‘zining ko‘p narsalarga qodirligi bilan uyg‘unlashadi. Tantiq bolada o‘zi to‘g‘risida go‘yoki o‘ta iqtidorli ekanligi fikri ustuvor bo‘ladi, chunki ota-ona uning ayrim, ahamiyatsiz yutuqlarini ham osmonga ko‘taradi.

Yagona farzandning sibling maqomi to‘ng‘ichnikiga yaqin. Ota-onaning umidlari va orzu-havaslarini bilib katta bo‘lgan bola ko‘p sohada, ayniqsa, intellektual sohada katta muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin, lekin odatda juda o‘zini yaxshi ko‘radigan, egoist bo‘lib qolishadi. Ular jamiyatda ham xato qilib qo‘yishdan qo‘rqmaydi, muvaffiqiyat sari dalil yuradi, lekin har doim ham unga erisholmaydi, chunki odamlar bilan kirishimli emas. Shuning uchun o‘zbeklarda “yagona farzand – farzand emas”, degan gaplar bor, ular ota-onaning kuyib-pishib, unga barcha imkoniyatlarni yaratib, yaxshi ko‘rayotganligining qadriga etmaydi. Bu kelgusida ham boshqa insonlarga nisbatan munosabatda o‘z aksini topadi, keksayib qolgan ota-onaga to‘ng‘ich farzand qanchalik mehribon bo‘lsa, yagona farzand buning aksi bo‘lib, otasi va onasi vafotidan keyin ham ulardan xafa bo‘lib yuradi, “nega meni tashlab ketishdi?”, deb. Shuning uchun yaxshi oila uchun kamida ikkita farzandning bo‘lishi va ular o‘rtasida yaxshi o‘zaro munosabatlarning qaror topishi shaxs uchun ham, oila va jamiyat uchun ham foydalidir.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta’kidlab o‘tish lozimki o‘smirlik davri bolalikdan katta yoshga o‘tish davri bo‘lib, shaxs rivojlanishning intensiv davri hisoblanadi.

Oilada o‘smir yoshidagi farzandga bolalikdan beriladigan tarbiya sharoitlari, tarbiya uslublari sog‘lom psixologik muhitga asoslanishi lozim. Bolalarga nisbatan zulm, zo‘ravonlik,

qo‘rqitish, moddiy va ma’naviy yetishmovchilik o‘zini past baholash hissiyotlarini mustahkamlaydi hamda norozilik munosabatlarini shakllantiradi. Shuningdek, egoistlik, qaysarlik, tajanglik, tajovuzkorlik, o‘z hissiyotlariga o‘ta beriluvchanlik, xususiyatlarining qaror topishiga olib kelishi mumkin. Ota-onalar o‘rtasidagi nizolar ham o‘smirda ruhiy kechinmalar keltirib chiqaradi. Agar ota-onalar o‘z bolalarida faqat zaif jihatlarni ko‘rsalar va doimiy ravishda bunga shama qilsalar, bu zaifliklar mustahkamlanib borib, shaxs xarakteriga yetakchi bo‘lib qolishi mumkin. O‘qituvchilar tomonidan hurmatsizlik, adolatsizliklar ham o‘z-o‘zini past baholashga olib kelib,kattalarga nisbatan ishonchning pasayishiga turtki bo‘ladi. O‘smirlik yoshi odamning shaxs sifatida kamol topishida yuksak darajadagi murakkablik va qarama-qarshilikka boy, ota-ona, tarbiyachi va pedagoglardan qattiq mashaqqat, tinimsiz mehnat talab etadigan davr.

Shuning uchun oilada farzand egoistligi bilan emas balki, jo‘shqin enegiya, bilishga chanqoqlik, haqiqatni izlashga intiluvchanligi bilan yanada go‘zaldir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. Mirziyoyev Oila va xotin qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtishga oid qo‘shimcha chora -tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-208-son
2. Shoumarov G‘. B, Shoumarov Sh. B, “Muhabbat va oila” T.:ibin Sino 1994. 120-бет.
3. O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari” (Respublika ilmiy amaliy anjuman ma’ruzalarining qisqacha bayoni) T.: 1993.
4. Д.Фонтенел «Пролемы переходного возраста”.
5. (пер.санел – М. РОСМЭН, 1998 Подростковый конфлин) С.Е.Кожарская. Минск: Красико-Принт,2006.
6. (пер.санел – М. РОСМЭН, 1998 Подростковый конфлин) С.Е.Кожарская. Минск: Красико-Принт,2006.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF THE ATTENTION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Po‘latova Madina Shavkatovna
Lecturer of the Department of Psychology and sociology, Bukhara State University
Khamidova Sitora Bobir qizi
Psychology and sociology course 2 year student

As the Republic of Uzbekistan continues to strengthen its independence year after year, the backbone of this country,its future, depends on the fact that today’s generation grows up to be a competent mature person with an educated, educated healthy spirituality. The science of psychology and its methods play an important role in improving the psyche, feelings of a person, independent participation in the process of education and upbringing, internal experiences, the effectiveness of self-formation as an active person. Since the process of education and upbringing is instilled in the child from youth, so that the future generation, growing up, cannot find its place in every aspect of social life, in order for it to be a harmonious generation, whose knowledge and profession benefit our neighborhood, city and country, all participants in the educational and educational process should work hard together. One of the pressing issues is the

fact that the teacher can focus the attention of students in the implementation of educational activities. Today, a teacher is obliged to be an active participant in order to be able to provide students with good knowledge, organize the course process well and be able to fully carry out his task, be a connoisseur of his profession and organize the course process.

For example,the gradual increase in vocabulary in a child leads to the acquisition of the grammatical construction of the language,and the multiple repetition of certain behaviors and behaviors ends with the formation of certain skills,habits, strict characteristics in an individual. To the most general laws of the development of the child's psyche,firstly, the integration of consistency,that is,the initial diffuse psychic States of the child,to the stable psychic qualities of the individual,to the integrated worldview of certain-certain views on certain phenomena;secondly, the uneven development of certain processes, functions and qualities in the child's personality; thirdly, some The integration of the child's psyche is clearly manifested,for example,in the formation of observability on the basis of a complete perception of individual objects and phenomena,and hard work on the basis of the loving fulfillment of certain labor tasks.

The unevenness of the development of the psyche can occur at all periods of life. For example, in preschool age, especially speech, interest in knowledge in adolescence, logical (logical) thinking in early youth, etc., intensively develop.According to the determination of a number of psychologists,the main internal driving forces in the development of the child's psyche are primarily the following:

* old, that is, conflicts between the opportunities already achieved and the new needs;
* conflicts between old and new forms of behavior;
* conflict between the meaning of real life and its forms of reflection in the child's mind

Let's briefly dwell on the listed contradictions and give examples.

A child who has just given birth will have orienting reactions to new triggers. On the physiological basis of these,qualities such as curiosity,interest in knowing, the desire to add everything known to oneself within the framework of personal activity develop later.The behavior and behavior of the child,usually initially imitative in nature,means that he copies the behavior and behavior of adults.Thus, the psychic development of the child is the improvement of the processes and characteristics that exist in the individual.also on their basis is the formation of new,more elevated qualities and properties. Attention is an important and necessary condition for the effectiveness of all types of human activity, first of all, labor and educational activities. The attention of students is one of the main conditions for the successful organization of the educational process. About the role of attention in education, The Great Russian pedagogue K.D.Ushinsky"... attention is such a door through which all that is in the soul of a person from the outside world enters through this door," he wrote. It is understandable that teaching children to keep this door open is a work of primary importance. There are special features of attention: stability of attention, concentration, dynamics of performance from this sentence.

Attention in children begins to develop very early. Even if no symptoms of attention appear in one to two-week-old babies, from a little later, that is, from the child's one-month period, the symptoms of voluntary attention begin to be evident/ that means that during the child's one-month period, his attention begins to be involuntarily attracted by all sorts of strong triggers (such as hard sound, excessive light). Two-to three-month-old children, on the other hand, begin to be snappy (preying on the sound of snoring). Bright (shiny) colored things also involuntarily begin to attract the attention of children of this age. The more colorful the object in

the child's eyes, the more attention the child pays to it. The attention of my child of pre-kindergarten education age is characterized by being extremely unstable. For example, if you give a child a new toy he will begin to see the toy very interested. But at the same time, when you show another toy, you throw the first toy and plunder it into the second. The instability of the attention of children of flat age is due to the weakness of braking processes in them yet from the point of view of Physiology. The braking process cannot stop the excitation process from spreading widely. That's why my little one's attention keeps getting distracted from one thing to another. The extremely unstable attention of children in early childhood is also associated with a very small number of living experiences. Since everything seems new to children, connect your attention from one thing to another is often distracted. The child is also distracted by the fact that the object in front of his eyes itself seems very interesting to the child. In children of early childhood, the division of attention is very weak, and the scale is narrow. Children of this age can focus only on something that is clearly visible to their eyes. The role of speech in the development of children's attention in early childhood is very large. The fact that the child's tongue comes out and begins to occupy speech, in addition to communicating with older people, also gives the opportunity to fulfill their instructions. As we have already said, young children are very fond of looking after their adult, interfering with the labor of connecting as much as possible. Your elders willingly fulfill their requests and assignments, perform simple self-service chores with interest, try to look after their father's household chores. That's all, it requires a certain level of concentration and focus on a specific goal. This provides the basis for the development of voluntary attention in children. From kindergarten age, children begin to develop voluntary attention. However, involuntary attention prevails in young kindergarten children. New-new interests that appear Day by day in kindergarten children of a small age, the variety of game activities gradually improve involuntary attention in them. In kindergarten, situations such as obedience to the procedure required by the team, unconditional fulfillment of the rules of the game, endurance of the tasks of the senior, diligence develop an optional type of attention in children of kindergarten age. The role of the game in the development of voluntary attention in children is very large. Because during different games, children gather their attention in one place and promote a certain goal with their own initiatives. They themselves independently choose the direction of the game based on what rules. In order not to deviate from the rules of the game, they seek to adapt their actions to the rules of the game and also monitor the actions of their fellow participants in the game. In such games, involuntary attention is actively involved, as well as voluntary attention, consequently, creating conditions for the game of calming. It should also be borne in mind that voluntary attention is associated with willpower, which is why often children cannot independently organize this type of attention on their own. In the early stages, it is necessary to develop an optional type of attention by asking various questions and assignments. In children of kindergarten age, certain features of attention, namely the strength and stability of attention, also begin to gain content and rise. We can know this from the fact that you can not have children (in particular, medium and large groups of children) sit on one job for a long time, play some games for hours without getting bored, sit with endurance in educational activities.

The Burdon test can be used to test the attention of elementary students. The purpose of this methodology is to measure the concentration and stability of attention.A special blank consisting of letters (numbers, figures) dialed into rows in a random (irregular) way is presented to the testers. Newspaper text can be used. The observer will be given the instruction to draw

over the letter or sign indicated in the instruction, examining the text or blank in rows. The results of the observation are calculated by the number of abandoned, over or underlined letters, the number of characters considered and the time spent. An important indicator: the quality and tempo of the task is the number of rows and errors processed every 60 seconds interval. Also aimed at assessing the educational motivation of elementary students N.G.The methodology proposed by Luskanova is also aimed at determining the emotional reaction of children to educational motivation, attitude towards school, the situation with reading.

The following questions have taken their place in this methodology: do you like school or don't like it much? Do you wake up in the morning and always happily come to school or often want to stay at home? Would you go to school if the teacher said that those who want tomorrow may come and those who want it may not come? Do you like not having a lesson? Would you like your homework to be gone? Would you only want a break at school? Do you tell your parents a lot at the school Judge? Would you like another more loving teacher to replace your teacher? Do you have a lot of comrades in class? Do you like your classmates? This questionnaire can be applied individually as well as in a group. Each method, each didactic game has its own place and effect, of course. The only difference is that a skilled educator needs to know when and to which students the master of his work applies these techniques.

Empirical analysis: we selected 60 elementary students as subjects of our study. Of these, 30 were 2nd graders and the other half were 4th graders. Commenting on why we chose exactly 2nd and 4th graders, we wanted to explore the attention of children who have formed a slight adaptation to reading activities and are much more adapted to school, as well as other processes related to reading activities. The result is annotated in Table 1 below:

Results analysis from Burdon's" Corrector test " methodology

Concentration of attention	High	Medial	Medial	Low	Too low
2 nd grade	3 (10%)	8 (26,6%)	10 (33%)	4(13%)	5(16,6%)
4 th grade	6(20%)	10 (33%)	8 (26,6%)	3(10%)	3(10%)

Analysis of the results obtained shows that the focus characteristics in Grades 2, especially the concentration of attention, are slightly lower than in Grade 4 students. As the main reason for this, the age feature, the presence of game activities in students of the 2nd grade, side by side with reading activities, as well as a low time indicator for students of the 4th grade so that they form a better adaptation to the school, therefore, the process of attention in them recorded a slightly lower result. To develop their attention in students, we want to cite the following as a practical recommendation: before working with the "attention exercise" whiteboard, the teacher will tell the students one by one about the class equipment. For example: a loud whiteboard says at the end of the curtain, The Beast, The Flower, the painting,the ceiling and the like-while the readers focus on the whiteboard. In our opinion, this method is much more effective. As a result of our assessment, we observed that elementary students pay more attention to the volume and the fun of pronunciation. We think that this exercise will provide support for students to prepare themselves to receive a new piece of information from the teacher. Also, the" Find the difference " visual method. Through this method, it was found that elementary school students during the implementation of this method also carefully try to find the difference of 2 images, and not cause the strain of the child's mental activity, both from the mental side and as a didactic game. The "observability" method. In this method, children are given the task of

remembering and fully describing the path from home to school.This task is performed by a small school-age B.Classmates fill the shortcomings of the participating child. In this game, the child's visual memory and attention continuity are revealed.

In place of the conclusion, attention is of great importance in the field of Education. Because all processes such as thinking, storage in memory, perception occur due to attention. Successful mastering of reading material in the lesson is determined, first of all, carefully. In the study , the pedagogical-psychological factors of the development of the attention of primary students and methods of their influence are studied in detail, as well as the role of scientific methodologies in the development of attention in the group of students of a small school age. The results of this research work and the developed training program will be applied to the educational process of Bukhara State University and the pedagogical and psychological service process of regional secondary schools. *The practical significance of the results of the study is explained by the fact that from the data obtained it serves to theoretically enrich the educational process in a general secondary educational institution, in the process of developing the attention of primary students, in determining the individual psychological characteristics of students of a small school age, scientific ideas for the formation of the child's*

It would be advisable to use the methods mentioned above to develop the attention of elementary students.

List of used literature:

1. Qodirov B.R, Qodirov K.B 'Kasbiy tashhis metodikalari to'plami. Toshkent-2003 yil.
2. Xaydarov F.I, Xalilova N.I 'Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi' Toshkent-2006 yil.
3. Davletshin M.G va boshqalar, Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T-2004 yil.

SURUNKALI SOMATIK KASALLIKLAR BILAN XASTALANGAN BEMORLAR PSIXOLOGIYASI

Axmadov Nazirjon Rahmat o'g'li
BuxDU Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi o'qituvchisi
Saksonova Mastura Sayotovna
Buxoro davlat universiteti talabasi

Surunkali kasallik bir necha yillardan beri davom etadigan va kundalik faoliyatni jiddiy cheklaydigan patologik holatlardir. Ularni nazorat qilish mumkin, ammo to'liq davolab bo'lmaydi. Ko'pgina kasalliklar o'z-o'zidan tuzalmaydi va umuman davolanmaydi. Ba'zilari yurak xastaligi va qon tomirlari kabi darhol hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin. Boshqalari esa vaqt o'tishi bilan to'xtab qolishadi va diabet kabi intensiv davolanishga muhtoj. Surunkali kasalliklarning aksariyati inson hayoti davomida saqlanib qoladi, lekin har doim ham o'limga sabab bo'lmaydi, masalan, artrit. Ba'zida surunkali charchoq va asabiylashish-jiddiy kasalliklarning yagona alomati bo'ladi. Yurak kasalligi, saraton va diabet kabi surunkali kasalliklar Qo'shma Shtatlarda o'lim va nogironlikning asosiy sabablari hisoblanadi. Ko'pgina surunkali kasalliklar xavfli xatti-harakatlarning qisqa ro'yxatidan kelib chiqadi:

- Tamaki iste'moli
- Noto'g'ri ovqatlanish
- Jismoniy harakatsizlik
- Spirtli ichimliklarni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish

Umumiy surunkali kasalliklar orasida diabet, funksional oshqozon-ichak buzilishi, ekzema, artrit, astma, surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi, genetik kasalliklar, gepatit C va orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi kabi ba’zi virusli kasalliklar mavjud. Bu umr bo‘yi davom etadigan kasalliklar, chunki u o‘lim bilan yakunlanadi.

Tibbiyotda surunkali holatlar o‘tkir bo‘lganlardan ajralib turadi. O‘tkir holat tananing bir qismiga ta’sir qiladi va davolashning iloji bor. Surunkali holat esa, aksincha, odatda tananing bir nechta sohasiga ta’sir qiladi, davolanishga to‘liq javob bermaydi va uzoq vaqt davom etadi.

Dunyo bo‘ylab o‘limlarning 63 foizi surunkali kasalliklardan. Surunkali kasalliklar o‘limning asosiy sababini tashkil qiladi va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti har yili 38 million o‘limni yuqumli bo‘lmagan kasalliklar bilan bog‘laydi. Qo‘shma Shtatlarda kattalarning taxminan 40 foizi kamida 2 ta surunkali holatga ega. Ikki yoki undan ortiq surunkali kasalliklar bilan yashash-multimorbidlik deb ataladi.

Surunkali kasalliklar 2 ta guruhga bo‘linadi. Yuqumli bo‘lgan va yuqumli bo‘lmagan. Saraton, ekzema, qandli diabet kabilar yuqumli bo‘lmagan, OITS, OITV, surunkali o‘pka kasalliklari esa yuqumli bo‘lgan surunkali kasalliklar deb nomlanadi.

Yuqumli bo‘lmagan surunkali kasalliklardan biri ekzema bilan tanishib chiqamiz.

Ekzema – qichishish, quruq teri, toshmalar, pufakchalar va teri infeksiyalariga olib keladigan yallig‘lanishli teri kasalliklari guruhining nomi. Ekzemaning 7 xil turi mavjud: atopik dermatit, kontakt dermatit, dishidrotik eczema, nummular ekzema, seboreik dermotit va staz dermatit. Yengil teri uchun ekzema qizil, yallig‘langan teri sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. To‘q rangli teri uchun eczema jigarrang, binafsha yoki kulrangda namoyon bo‘lishi mumkin. Terining qichishi ekzemaning eng keng tarqalgan alomatidir.

31 milliondan ortiq amerikaliklar ekzemaning bir turiga ega. Egzema bolalik, o‘smirlik yoki kattalik davrida boshlanishi mumkin va u yengildan og‘irgacha bo‘lishi mumkin. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda ekzema tug‘ilgandan keyingi birinchi haftalar va oylarda paydo bo‘lishi mumkin. Ekzema bilan og‘rigan yosh bolalarda juda quruq teri dog‘lari paydo bo‘lishi mumkin, haddan tashqari chizish tufayli pufakchalar va teri infektsiyalariga olib kelishi mumkin bo‘lgan qichima teri. Kattalar ham ekzemaga duch kelishi mumkin va kattalar ekzemasi odatda 20 yoshda yoki 50 yoshdan oshganida rivojlanadi. Og‘ir ekzema ko‘p kunlar yoki hatto bir necha hafta davom etishi mumkin bo‘lgan alevlenme davrlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Og‘ir ekzema terining qichishi va toshmalaridan tashqari qo‘shimcha asoratlar bilan birga keladi va davolanmasa, kasalxonaga yotqizilishi mumkin. Og‘ir ekzemasi bo‘lgan odamlar, shuningdek, oziq-ovqat allergiyasi va astma uchun yuqori xavf ostida bo‘ladi. Ba’zida ekzema psoriaz kabi boshqa teri kasalliklari bilan aralashib ketadi, shuning uchun tashxis qo‘yish juda muhimdir. Dermatolog yoki boshqa malakali sog‘liqni saqlash mutaxassisi, shuningdek, davolanish usullari bo‘yicha mutaxassis bilimga ega bo‘ladi va ular ko‘pincha simptomlarni boshqarish rejangizni ishlab chiqishda va kelajakdagi alevlenmelarni to‘xtatishda bebaho sherik bo‘ladi.

Ekzemaning "asosiy" sababi yo‘q. Darhaqiqat, ekzemaning etti turi mavjud va ularning har biri kamida bitta sababga ega, agar ko‘p bo‘lmasa. Eng keng tarqalgan sabablardan ba’zilari ekzemaning oilaviy tarixi, ma’lum ekologik omillar va stresslarga duchor bo‘lishdir. Haddan tashqari faol immunitet tizimi: Atopik dermatit, ekzemaning eng keng tarqalgan turi, teri to‘sig‘ining quruq va qichishiga olib keladigan haddan tashqari faol immunitet tizimidan kelib chiqadi. Bu holat tananing har qanday qismida paydo bo‘lishi mumkin va turli xil belgilarga ega. Ekzemaning kelib chiqish sabablari sifatida quyidagilarni olsak bo‘ladi:

Genetika: Ekzemaning potentsial genetik komponenti ham mavjud bo‘lib, u teridagi namlikni saqlab turishga yordam beradigan "filaggrin" deb ataladigan oqsilni o‘z ichiga oladi; filagrin etishmovchiligi quruqroq, qichiydigan teriga olib kelishi mumkin. Agar sizning oila a’zolaringiz atopik dermatit va boshqa ba’zi ekzema turlari bilan og‘rigan bo‘lsa, siz xavf ostida bo‘lishingiz mumkin.

Atrof-muhit: Oilada ekzema bilan og‘rigan ko‘plab uy-ro‘zg‘or buyumlari ham potentsial atrof-muhitni tirnash xususiyati beruvchi va ekzema alangasiga olib keladigan allergik reaktsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Stress: Hissiy stress ham ekzemaning kuchayishini qo‘zg‘atishi mumkin, ammo nima uchun aniq ma’lum emas. Ba’zi odamlarda ekzema alomatlari va alevlenmeleri "stress" ni his qilganda yomonlashadi. Boshqalar ekzema borligini bilib, stressga duchor bo‘lishlari mumkin va bu ularning terisini yoqishi mumkin. Ekzema uchun ma’lum davo yo‘q. Ammo simptomlarni boshqarish va/yoki kamaytirishga yordam beradigan muolajalar mavjud.

Yana bir surunkali kasalliklardan biri altsgeymer kasalligi hisoblanadi. Bu kasallik vaqt o‘tishi bilan kuchayib boruvchi miya buzilishi. Bu miyadagi o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi, bu esa ma’lum proteinlarning to‘planishiga olib keladi. Altsgeymer kasalligi miyaning qisaqarishiga olib keladi. Xotira, fikrlash, xatti-harakatlar va ijtimoiy ko‘nikmalarning asta-sekin pasayishi kasallik belgilari hisoblanadi. Kasalliklning dastlabki belgilari yaqinda sodir bo‘lgan voqealarni yoki suhbatlarni unutishni o‘z ichiga oladi. Vaqt o‘tishi bilan u jiddiy xotira muammolari va kundalik vazifalarni bajarish qobiliyatini yo‘qotadi. Altsgeymer kasalligini davolaydigan davo yo‘q. Murakkab bosqichlarda miya funktsiyasining jiddiy yo‘qolishi suvsizlanish, noto‘g‘ri ovqatlanish yoki infektsiyaga olib kelishi mumkin.

Altsgeymer kasalligi aniq sabablari to‘liq tushunilmagan. Ammo asosiy darajada miya oqsillari odatdagidek ishlamaydi. Bu neyronlar deb ataladigan miya hujayralarining ishini buzadi va bir qator hodisalarni keltirib chiqaradi. Neyronlar shikastlanadi va bir-biri bilan aloqani yo‘qotadi. Ular oxir-oqibat o‘lishadi.

Qandli diabet surunkali kasalligi. Qandli diabet, qand kasalligi — organizmda insulin tanqisligi va moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Qand kasalligi sharq xalq tabobat tarixida juda qadimdan ma’lum. Abu Ali ibn Sino bu dardga alohida e’tibor beradi. "Suv qanday ichilgan bo‘lsa, shu holda chiqadi", deb yozadi u. Bemorning ko‘p suv ichishi boshqa kasalliklarni ham keltirib chiqaradi va bemor juda ozib ketadi. Davolarga to‘xtab tabib: "Bemorga sovuq mizojli suyuqliklar ichir, sovuqjomga sol, nordon ayron ichir, mevalar ber, yalpiz damlab ichir, ya’ni bemorni ho‘lla, sovut", deydi. Bu — kasallik odam badanida issiqlikning oshib ketishi tufayli paydo bo‘lishini bildiradi. Qand kasalligi tarixiy tibbiy manbalarga ko‘ra, nasliy bo‘lishi ham mumkin.

Qandli diabetda qonda qand moddasi keskin ko‘payib, siydik bilan chikib turadi (tarkibida qand moddasi bo‘ladi), tashnalik, ozib ketish, quvvatsizlik, badan qichishishi va boshqalar alomatlar kuzatiladi.

Kasallikning irsiy yoki hayotda orttirilgan, shuningdek, insulinga bog‘liq (diabetning 1turi) va insulinga bog‘liq bo‘lmagan (diabetning 2turi) turi farq qilinadi.

Diabetning 1-turi ko‘pincha o‘smirlik yoshida uchraydi. Bunda bemor organizmida me’da osti bezi hujayralari insulin ishlab chiqara olmaydi va ularni davolashda qand miqdorini pasaytirish maqsadida insulin preparatlari qo‘llanadi.

Qandli diabetning 2-turida me’da osti bezi orolcha hujayralaridan insulin ishlab chiqarish saqlanib qoladi, bunda qon tarkibidagi insulin miqdori me’yorida yoki undan sal yuqoriroq bo‘ladi.

Biroq, to‘qimalarning insulinga nisbatan sezgirligi keskin pasayishi tufayli to‘qimalar tomonidan glyukozani o‘zlashtirish hamda foydalanish kamayadi va u qon tarkibida to‘planib qoladi, natijada qonda qand ko‘payib, siydik bilan chiqib turadi, bemor juda semirib ketadi.

Qandli diabet — bir umrlik kasallik, uni butun hayot davomida davolash zarur. To‘la-to‘kis davolanmaydigan va qon tarkibidagi glyukoza miqdori uzoq vaqt yuqori saqlanadigan bemorlarda Qandli diabetning tomir asoratlari — diabetga xos angiopatiyalar (makro va mikroangiopatiyalar) namoyon bo‘ladi.

Saraton, yurak kasalligi yoki diabet kabi surunkali kasalliklar sizni ruhiy salomatlik holatiga olib kelishi yoki rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Yurak xurujidan so‘ng, saraton tashxisi qo‘yilgandan keyin yoki og‘riq kabi surunkali holatni boshqarishga urinayotganda xafa bo‘lish yoki tushkunlikka tushish odatiy holdir. Siz nima qilishingiz mumkinligi haqida yangi cheklovlarga duch kelishingiz va davolanish natijalari va kelajak haqida tashvishlanishingiz yoki tashvishlanishingiz mumkin. Yangi voqelikka moslashish va tashxis bilan birga keladigan o‘zgarishlar va davom etayotgan davolanishga dosh berish qiyin bo‘lishi mumkin. Yurish yoki bog‘dorchilik kabi sevimli mashg‘ulotlarni qilish qiyinroq bo‘lishi mumkin.Vaqtinchalik qayg‘u hissi kutiladi, ammo bu va boshqa alomatlar bir necha haftadan ko‘proq davom etsa, sizda depressiya bo‘lishi mumkin. Depressiya sizning kundalik hayotingizni davom ettirish va oilangiz, do‘stlaringiz, ishingiz va dam olishdan zavqlanish qobiliyatingizga ta’sir qiladi. Depressiyaning sog‘liqqa ta’siri kayfiyatdan tashqariga chiqadi: Depressiya jiddiy tibbiy kasallik bo‘lib, ko‘plab alomatlarga, shu jumladan jismoniy alomatlarga ega. Depressiyaning ba’zi belgilari:

- Doimiy qayg‘uli, tashvishli yoki "bo‘sh" kayfiyat
- Umidsizlik yoki pessimistik his qilish
- Achchiqlanish, osongina xafa bo‘lish yoki bezovtalanish
- O‘zini aybdor, qadrsiz yoki yordamsiz his qilish
- Xobbi va mashg‘ulotlarga qiziqish yoki zavqni yo‘qotish
- Energiyaning pasayishi, charchoq yoki "sekinlik" hissi
- Diqqatni jamlash, eslash yoki qaror qabul qilishda qiyinchilik
- Uxlashda qiyinchilik, erta tongda uyg‘onish yoki ortiqcha uxlash
- Ishtahaning yoki vaznning o‘zgarishi

Aniq jismoniy sababsiz og‘riqlar yoki og‘riqlar, bosh og‘rig‘i, kramplar yoki ovqat hazm qilish muammolari, hatto davolanish bilan ham osonlashmaydi.

O‘z joniga qasd qilishga urinishlar yoki o‘lim yoki o‘z joniga qasd qilish haqidagi fikrlarSog‘lom odamlarda depressiya xavfini oshiradigan bir xil omillar boshqa tibbiy kasalliklarga chalingan odamlarda ham xavfni oshiradi, ayniqsa bu kasalliklar surunkali (uzoq davom etadigan yoki doimiy) bo‘lsa. Ushbu xavf omillariga shaxsiy yoki oilaviy depressiya tarixi yoki o‘z joniga qasd qilish natijasida vafot etgan oila a’zolari kiradi.Biroq, depressiya uchun ba’zi xavf omillari boshqa kasallik bilan bevosita bog‘liq. Masalan, Parkinson kasalligi va insult kabi holatlar miyada o‘zgarishlarga olib keladi. Ba’zi hollarda bu o‘zgarishlar depressiyada bevosita rol o‘ynashi mumkin. Kasallik bilan bog‘liq tashvish va stress ham depressiya belgilarini qo‘zg‘atishi mumkin.

Surunkali kasallik va og‘riq bilan yashash ko‘p jihatdan qiyin bo‘lishi mumkin. Bu sizning energiya darajangizga, hissiy holatingizga, tashqi ko‘rinishingizga, moliyaviy ahvolingizga, ijtimoiy faoliyatingizga va hatto mustaqilligingizga ta’sir qilishi mumkin. Har qanday holatda ham, hayotimizni qanday boshdan kechirayotganimiz ruhiy va hissiy holatimizga bog‘liq. Agar biz surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (KOAH), saraton yoki surunkali og‘riq kabi surunkali kasalliklardan azob chekayotgan bo‘lsak, juda ko‘p noaniqlik va qo‘rquv mavjud. Psixologik davolanish bizga ushbu qiyinchiliklarni engish va depressiya va tashvish kabi keyingi kasalliklarga olib kelishining oldini olishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arrieta Ó., Angulo LP, Núñez-Valencia C., Dorantes-Gallareta Y., Macedo EO, Martinez-López D., va boshqalar (2013). Kichkina hujayrali bo‘lmagan o‘pka saratoni bilan og‘rigan bemorlarda hayot sifati, davolanishga rioya qilish va prognoz bo‘yicha depressiya va tashvish assotsiatsiyasi . Annal. Surg. Onkol. 20 , 1941–1948 yillar. 10.1245/s10434-012-2793-5 [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]
2. Ó., Angulo LP, Núñez-Valencia C., Dorantes-Gallareta Y., Macedo EO, Martinez-López D., va boshqalar (2013). Kichkina hujayrali bo‘lmagan o‘pka saratoni bilan og‘rigan bemorlarda hayot sifati, davolanishga rioya qilish va prognoz bo‘yicha depressiya va tashvish assotsiatsiyasi .
3. Xaydarov F.I. Xalilova N.I Umumiy psixologiya . – T.:TDPU 2010
4. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. – T.Fan.2003
5. Umarov B.M. Psixologiya.T.2012\
6. G‘oziyev E.G‘. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent Universitet, 1997
7. Ibodullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent, 2012

MOTIVATSIYA VA MOTIVLARNI O‘RGANISHNING IJTIMOIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Elov Ziyodullo Sattorovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti, Psixologiya fanlari doktori (DSc)
Mardonova Marjona Orif qizi
Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakultet talabasi

Kirish. Psixologik adabiyotlarda va psixologiyaga oid manbalarda motiv va motivatsiya masalasi ko‘p bora ko‘tarilgan bo‘lsa-da, batafsil yoritilmagan. Biroq, adabiyotlarda psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida motiv va motivatsiya tushunchasi turlicha talqin qilingan.

Eng keng tarqalgan ta’riflarga ko‘ra, motiv bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig‘indisidan iboratdir.

Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta’rif beriladi:

A.Maslouning ta’kidlashicha, motiv bu ehtiyojlar yig‘indisi hisoblanadi. S.L.Rubinshteynning fikricha, motiv bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi demakdir. A.N.Leontov esa motivni insonni faoliyatga yo‘nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo‘zg‘atadigan voqelik deb hisoblaydi.

Motivatsiya keng ma’noda inson hayotining murakkab ko‘p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi. Motivatsiya insonni faoliyatga undashning murakkab, ko‘p darajali tizimi bo‘lib, u o‘zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomoniga e’tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya, boshqaruv va xulq-atvorga taqsimlaydilar. R.S.Vaysman shaxs motivatsion sohasidan tizimli munosabatlarning juda qiziq tasnifini keltiradi. Ammo ajratilgan munosabatlar qatorini boshqaruv, tartiblashtirilganlik va shu kabi munosabatlar bilan to‘ldirish mumkin bo‘ladi. Qolaversa, R.S.Vaysman motivatsion o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi tizim hosil qiluvchi asosiy munosabatni ajratmagan, bir turdagi va har xil turdagi motivatsion hodisalarni bir-biridan farqlamagan.

Chet el olimlarining motivatsiya sohasidagi tadqiqotlari orasida G.Olportning motivlar funksional avtonomiyasi nazariyasi alohida o‘rin egallaydi. Bu nazariyada motivlar transformasiyasi, tizimli rivojlanishi jarayon sifatida talqin etiladi. G.Olport o‘z konsepsiyasida tizimlarning umumiy nazariyasi g‘oyalaridan, ayniqsa, ochiq tizimlar haqidagi g‘oyadan keng foydalangan. Olimning fikricha, shunday motivlar borki, ular yarim yopiq tizimlarning tabiatiga monand faoliyat ko‘rsatadi va rivojlanadi, ya’ni funksional avtonomiyaga ega. G.Olport tomonidan shaxs motivlarining ochiq tizimlar sifatida tahlil etilishi, shaxs va shaxs motivlari taraqqiyoti chegarasiz jarayon ekanligini ta’kidlash uchun imkoniyat beradi.

Ko‘pchilik psixologlar fikricha, motivatsiya muammosi shaxs psixologiyasining markaziy muammosidir. Shaxs psixolog tuzilishining butunligi, xulq-atvor va uni harakatga keltiruvchi kuchlar o‘rtasidagi aloqadorlik motivatsiya muammosini o‘rganishda tizimli yondashuvni qo‘llash uchun keng imkoniyat yaratib yeradi. Xorij psixologlaridan neofreydistlar hisoblanmish A.Adler, K.Yung kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan motiv va motivatsiya borasidagi nazariyalarga asosiy e’tiborni qaratamiz. A.Adlerning fikricha, insonni harakatga undovchi asosiy kuch uning faoliyati maqsadini aniqlovchi, ularga erishish yo‘llari manbai hisoblanadi.

Geshtalt psixologiya maktabi namoyondalari uchun motivatsiya o‘ziga xos talqinga ega bo‘lib, uning mohiyatini eksperimental tarzda o‘rganishga nisbatan intilish yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. K.Levin (1890-1947) motivlarni eksperimental o‘rganish metodikasini ishlab chiqib, ularni mutlaqo mustaqil holat sharoitida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshtalt psixologiya maktabining namoyondalariga obraz tushunchasi qanchalik o‘ta ahamiyatli bo‘lsa, K.Levinning maydon nazariyasi uchun motiv kategoriyasi xuddi shunday muhim ahamiyat kasb etadi. Obraz va motiv o‘zaro aloqasiz hukm surishi ta’kidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli ma’noviy mazmuni esa inkor qilinadi. K.Levin motivni quyidagicha ifodalaydi: motiv - muayyan muvaffaqiyatli mikrointervalda shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlaridan kelib chiquvchi voqelikdir.

Rus psixologlari orasida motivlar ierarxiyasi masalasi A.N.Leontev, L.I.Bojovich va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. A.N.Leontev XX-asrning 40-yillarida maktabgacha yosh davrida shaxs shakllana boshlashini ta’kidlar ekan, bu jarayon bolada motivlar ierarxiyasi tarkib topishi bilan bog‘liqligini uqtirgan edi. A.N.Leontev fikricha, sub’ektning tashqi olam bilan birga munosabatlari kengayib borgan sayin motivlarning o‘zaro solishtirilishi yuz beradi, buning oqibatida esa ular o‘rtasida ierarxik munosabatlar shakllanadi.

Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta’sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida o‘zlashtirish, bilimlarni egallash va o‘rganishni amalga oshirishni ta’minlash uchun o‘quvchilarda o‘quv motivlari mavjud bo‘lishi shart. Bilish motivlari shaxsning (subyektning) gnesologik maqsad qo‘yish sari, ya’ni belgilangan maqsadni qaror toptirishga, bilim va ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltiriladi. Odatda bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, tashqi va ichki nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi.

"O‘quv jarayoni" nomli izlanishlarida Bruner o‘quvchining real, yetarli darajada uzoq davom etadigan o‘qish jarayoni tufayli tug‘iladigan amaliy va nazariy muammolarni izohlashga harakat qiladi. Bruner o‘qishni motivatsiyalash, yoki o‘qish jarayoniga nisbatan o‘quvchilarning moyilligini orttiruvchi omillar haqida emas, balki uning bilan birga, o‘quvchining motivlari haqida ham fikr yuritadi. Ta’lim berishda rag‘batlantirish va jazolashning roli haqida juda ko‘p yozilgan, lekin “yangilikni ochish”da qiziqishning, ichki kechinmalarning ahamiyati haqida juda kam gapirilgan. Agar biz pedagog sifatida bolalarni borgan sari kattaroq o‘quv mavzularini egallashga o‘rgatishni istasak, aftidan, o‘quv dasturini puxta maydalab o‘rganishda ko‘proq ichki “rag‘batlantirishni” qo‘llashimiz lozim.

Murakkab o‘quv materialini o‘zlashtirishda ichki motivning moyillik uyg‘otuvchi kuch sifatidagi ahamiyati haqida Bruner shunday deb yozadi: “Shubhasiz, masalan, mavzu o‘rganilishi jihatidan qanchalik davomli va materiali jihatidan keng bo‘lsa, o‘quvchi shunchalik ko‘p intellektual “rag‘batlantirish” olishi kerakki, ana shunda u keyingi mavzuni yetarli qiziqish bilan o‘rganishga kirishadi. O‘quvchi uchun materialni u qadar chuqur tushunmaslik, deylik, navbatdagi sinfga ko‘chish singari tashqi jihatlar rag‘batlantirish bo‘lib xizmat qilgan hollarda, navbatdagi bilimlarni egallash uchun bo‘lgan intilish bola sinfdan-sinfga ko‘chishni tark etganda, ya’ni maktabni tugatganda to‘xtaydi”.

O‘quvchining ta’limini motivatsiyalash va diagnostika qilish haqida fikr yuritgan olimlar G.Levald (1985) va G.Rozenfeldlarning fikricha, bu ish amalga oshiriladigan vaziyatni ham hisobga olish kerak, chunki bu ta’lim motivasion diagnostikasi uchun muhimdir. G.Levald (1985) ta’lim diagnostikasi vaziyatni, yo‘nalishni hisobga oladigan yoki tabiiy sharoitga mos bo‘lishi lozim,-deydi. Masalan, rag‘batlantiruvchi material haqiqiy hayotga mos kelishi lozim, chunki sun’iy shart-sharoit, muhit shaxsiy xususiyatlarning yuzaga chiqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quv motivlari - bu o‘quvchilarni o‘quv faoliyatining turli tomonlariga yo‘naltirishdir. Masalan, o‘quvchining o‘zi o‘rganayotgan ob’ekt bilan bajaradigan ishiga qaratilgan bo‘lsa, ularni bilish motivlari deb atash mumkin. Agar o‘quv faoliyati o‘quv jarayonida turli kishilar bilan to‘g‘ri muloqot qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ijtimoiy motivlar namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, ba’zan o‘quvchilarda bilish jarayoni, qolganlarida esa boshqalar bilan muloqot o‘qish faoliyatini motivlashtirib turadi. A.K.Markova motivlarni 2 ta katta guruhlarga ajratgan:

Psixologlar tomonidan o‘quv motivatsiyasining salbiy va ijobiy tomonlari mavjudligi ta’kidlab o‘tilgan. Salbiy motivlar o‘quvchi tomonidan agar u o‘qimasa, ko‘ngilsizlik, noqulayliklar va noaniqliklarni vujudga kelishi bilan bog‘liq holda anglangan undovchilardir. Ijobiy motivlar o‘qish bilan bog‘liq ijtimoiy ahamiyatga ega burchni bajarish, muvaffaqiyat qozonish, bilim egallashning yangi usullarini o‘zlashtirib olish, atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o‘rnatishda o‘z aksini topadi. Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra, har qanday faoliyat

muayyan motivlar ta’sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida o‘zlashtirish, bilimlarni egallash va o‘rganishni amalga oshirishni ta’minlash uchun o‘quvchilarda o‘quv motivlari mavjud bo‘lishi shart.

P.M.Yakobson ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan ijobiy yoki salbiy motivlarni tashqi motivlar deb, ta’lim jarayoniga singdirilgan motivlarni esa ichki motivlar deb hisoblaydi. Ammo, bir qator zamonaviy tadqiqot mualliflari, mazkur motivlarning o‘qish sharoiti uchun ahamiyatini tushunishdan kelib chiqqan holda, o‘qishning ijtimoiy motivlariga nisbatan “tashqi” degan terminni ishlatishdan qochadilar. Masalan, A.K.Markova bilish motivlari ichida keng ta’limiy (yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan), o‘quv-bilim (bilim olish usullarini egallashga yo‘naltirilgan) motivlarni farqlaydilar.

L.N.Bojovich ta’kidlashicha, o‘qish motivlari bolaning asosiy munosabatlari bilan, uning ehtiyojlari va intilishlari bilan ichki aloqada bo‘ladi. Aynan shu tufayli ular yetarli majburlash kuchiga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, biz shaxs motivasion sohasi haqidagi turli qarashlar, ularda tizimli yondashuv g‘oyalarining aks etishi masalasini ko‘rib chiqdik. Mazkur qarashlar motivatsiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarning ajralmas qismiga aylandi. Ko‘rsatib o‘tilganidek, psixolog olimlar tomonidan motivasion soha tizimliligiga oid turli jihatlarni qayd qilinmoqda. Ayni damda motivasion mexanizmlar haqidagi tizimli yondashuvga asoslangan tasavvurlar turli yo‘nalishlarda tadqiq etilmoqda. Biroq, tadqiqotlarning barchasini bir yo‘nalish - motivasion hodisalar o‘rtasidagi ma’no hosil qiluvchi aloqa va munosabatlarni tadqiq etish atrofida birlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova “Umumiy psixologiya” Toshkent-2009
2. E.G‘oziyev “Umumiy psixologiya” Toshkent-2006
3. Sh.R.Barotov “Ta’limdagi psixologik xizmat” Buxoro-2007
4. Z.T.Nishanova “ Psixologik xizmat” Toshkent-2007
5. Petrovskiy “Umumiy psixologiya” Toshkent-2016
6. Z.S.Elov. Talabalarni bilish faoliyatiga motivlashtirishning psixologik va pedagogik asoslari. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. 2024. 181-187
7. М.Ю.Ропиев., З.С.Элов. Идентификация жараёни шахс ижтимоийлашуви муаммосининг психологияда ўрганилиши. Science and Education 4 2023 (10), 387-392

JAMIYATDA PSIXOLOGIYA VA PSIXOLOGIK XIZMATNING O‘RNI

Kurbonova Dilfuza Samiyevna

Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti Psixologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Psixologiya — insonning ruhiy faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, xislatlar to‘g‘risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriyalar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya,

pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo‘lmish ong va o‘z-o‘zini anglashni tadqiq etadi.

Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Yunon shifokorlari Gippokrat, Erasistrat psixikaning organi miya ekanligini bilganlar va inson jonini koinotning ashyoviy bo‘lagi sifatida talqin qilganlar. Ularning g‘oyalari Platonning jon abadiyligi to‘g‘risidagi ta’limotiga qarama-qarshi qo‘yilgan. Aristotel „Jon to‘g‘risida“gi asarida psixologik tushunchalar tizimini ishlab chiqdi.

O‘rta asrlarda psixikaga nisbatan har xil ko‘rinishdagi g‘ayritabiiy qarashlar hukmronlik qildi. Shu tufayli psixologik bilimlar rivojlanmay qoldi. Ammo ba’zi faylasuflar va shifokorlar (Ibn Sino va boshqalar) asarlarida bu sohada olg‘a qadam qo‘yildi. Inson xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qadimgi qo‘lyozmalar, yodgorliklarda o‘z aksini topa boshladi. Turli mamlakatlarda va shaharlarda tuzilgan akademiyalarda (Xorazm, Samarqand, Kiyev, Moskva va boshqa shaharlarda) psixologiya yuzasidan tinglovchilarga saboq berilgan.

Yevropada uyg‘onish davrida Leonardo da Vinchi, X.Vives kabilar psixologiya rivojiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. XVIII asrga kelib M.V.Lomonosov, A.N.Radishchev, T. Gobbs, B. Spinoza, G.S.Skovoroda, G. Leybnits. J. Lokk, K.A.Gelvetsii, A. Golbax, D. Didrolar psixologiyada bir talay kashfiyot qildilar, uni amaliy ma’lumotlar bilan boyitdilar. Psixologiya XIX asrning 2-yarmiga kelib mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Nemis olimi V. Vundt Leypsigda 1879-yil dastlabki eksperimental laboratoriyani jihozlashga erishdi.

Psixologiyaning taraqqiyotida, umuman, XIX asrdagi eksperimentlar alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrda psixologik real voqelikni o‘rganish uchun metodlar majmuasi qo‘llana boshlandi: kuzatish, laboratoriya eksperimenti, tabiiy eksperiment, faoliyat natijasini tahlil qilish, ruhiy jarayonlarni modellashtirish genetik metodi, test, ekspert baholash, intervyu, anketa, so‘rovnoma, tarjimai hol va hokazolar. XIX asr oxiri—XX asr boshlarida qator psixologik ilmiy maktablar, yo‘nalishlar vujudga keldi: bixeviorizm, geshtalt-psixologiya, personalizm, freydizm va hokazolar. Psixologiyaning rivojiga I.M. Sechenov (psixikaning reflektor tabiati), I.Pavlov (oliy nerv faoliyati) ta’limotlari muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Rossiyada V.M.Bexterev eksperimental laboratoriya (Qozon, 1885), Harkov universiteti va N.N.Langening Odessadagi labaratoriyasi, G.Chelpanovning Kiyevdagi, S.Korsakovning Moskvadagi, keyinchalik V.M.Bexterev, A. Lazurskiy, A. Nechayevlarning Peterburgdagi, V. Chijning Yuryev (Tartu, Estoniya)dagi eksperimental laboratoriyalari psixologiya taraqqiyotiga alohida ta’sir o‘tkazdi. 1912-yil Moskva universitetida Psixologiya instituti ochildi. Shu yilda I.A.Sikorskiy tomonidan Kiyevda jahonda birinchi marta Bolalar psixologiyasi instituti tashkil qilindi. XX asrning 1-yarmida Rossiyada K.N.Kornilov, Blonskiy va boshqalar dialektikaga asoslangan ilmiy psixologiyani yaratishga kirishdilar.

Hozirgi zamon psixologiyasi ko‘p tarmoqli psixologik bilimlar tizimidan iborat fan hisoblanib, o‘zining tadqiqot predmetiga ega bo‘lgan ko‘plab sohalardan tashkil topgan: umumiy psixologiya, aviatsiya psixologiyasi, harbiy psixologiya, differensial psixologiya, psixofiziologiya, muhandislik psixologiyasi, kosmik psixologiya, huquq psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, neyropsixologiya, patopsixologiya, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, sport psixologiyasi, maxsus psixologiya, ijodiyot psixologiyasi, menejment psixologiyasi, marketing psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiyasi, tashkiliy psixologiya, din psixologiyasi, oila psixologiyasi, psixologiya tarixi, genetik psixologiya, amaliy psixologiya, eksperimental psixologiya, kasb psixologiyasi, psixolingvistika, siyosiy psixologiya va boshqa

psixologiyaning tarmoqlarga ajralishining asosiy sababi uning tarkibida tatbiqiy sohalar vujudga kelishidir. Psixologiya sanoatda, jamiyat boshqaruvida, ta'lim tizimida, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, transport, radio, televideniye va boshqa tuzilmalarda muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok qilmoqda. Psixologiya erishgan yutuqlari shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ularni harakatga keltirishda alohida ahamiyat kasb qilmoqda hamda shu asnoda mehnat samaradorligini oshirishga ta'sir o'tkazmoqda. Zamonaviy psixologiyada elektron-hisoblash texnikasi, elektr va kimyoviy vositalar yordami bilan psixikani chuqur o'rganish kabilar qo'llanilmoqda. Psixologiyada o'zini o'zi kuzatish (introspeksiya) metodi atrofida keskin bahslar davom etmoqda. Ba'zi yo'nalishdagi psixologlar uni tadqiqot o'tkazishning asosiy metodi deb ta'kidlasalar, boshqalari esa uning cheklanganligini e'tirof qiladilar, buning o'rniga obyektiv metodlardan foydalanishni tavsiya etadilar. Obyektiv metodlar tufayli psixikaning moddiy negizi aniklangan, inson ichki munosabatlari bilan subyektiv holatlar sababiy bog'liqligi yakka shaxsda, jamoada namoyon bo'lishi dalillangan. Jahon hamjamiyatida AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Shveysariya mamlakatlarida ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida, universitetlarda psixologik izlanishlar keng ko'lamda olib borilmoqda.

O'zbekistonda psixologiya 1928-yildan e'tiboran hozirgi Milliy universitetda fan sifatida o'qitila boshlandi. 1929-yil Xalq maorifi komissarligi qoshida psixologiya laboratoriyasi ochildi. Keyinchalik pedagogika institutlarida psixologiyaning bir necha sohalari bo'yicha talabalarga bilim berila boshlandi. XX asrning 2-yarmida M. Vohidov, M. Davletshin singari mahalliy kadrlar yetishib chiqdi. Hozirgi davrda psixologiya fanlari doktorlari V. Tokareva, E. G'oziyev, B. Qodirov, G'. Shoumarov, R. Gaynutdinov, V. Karimova, Sh. Barotov, A. Jabborov, R. Sunnatovalar psixologiyaning umumiy psixologiya, pedagogik va yosh psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya sohalari bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar. Psixolog mutaxassislar tayyorlash va tadqiqot ishlari O'zbekiston milliy universiteti, SamDU, Farg'ona universiteti, Qarshi universiteti, Termiz universiteti bazalarida yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda psixologik xizmat joriy qilingan va uning tarmog'i tobora kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyundagi "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-sonli qarorida ham psixologik xizmatning maqsad va vazifalari qonuniy jihatdan belgilab qo'yildi. Hamda mazkur qarorning 1-ilovasida quyidagilar haqida so'z boradi:

Psixologik xizmatning maqsadi o'quvchilarning ma'naviy va aqliy rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida shakllanishi, faol ijtimoiy moslashuvi va ularning yosh davrlari bo'yicha rivojlanishida salomatligini muhofaza qilish, uzluksiz ta'lim jarayonida o'zligini anglashi, individual psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Shuningdek, psixologik xizmatning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish ishlarini sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish;

o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga ko'maklashish;

turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy rivojlanishida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

o‘quvchilar ta’lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash, jamoa a’zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

iste’dodli va iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o‘rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog‘ining salbiy ta’siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish;

pedagog xodimlar, o‘quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko‘maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta’minlash.

Bugungi globallashuv davrida jamiyatda psixologik xizmatlarning ahamiyati beqiyos katta bo‘ldi. Har tomonlama mukammal shaxslarning psixologik aurasi jamiyatdagi boshqa insonlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Bu aura psixologning xizmatisiz amalga oshmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://lex.uz/docs/-4417140
2. Vohidov M., Maktabgacha tarbiya psixologiyasi, T., 1970;
3. Davletshin M., Qobiliyat va uning diagnostikasi, T., 1979;
4. Tokareva V., Talaba shaxsining axloqiy rivojlanish psixologiyasi, T., 1989;
5. G‘oziyev E., Psixologiya fani XXI ayerda, T., 2002;
6. G‘oziyev E., Psixologiya, T., 2003;
7. Qodirov B., Layoqat psixologiyasi, T., 1989;
8. Shoumarov G‘., Oila psixologiyasi, T., 2000;
9. Karimova V., Ijtimoiy psixologiya, T., 1994.

TURLI MUASSASALAR VA MAHALLALARDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISH SIFATI

Kamolova Sabrina Habibovna

Buxoro Davlat Universiteti Psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

So‘nggi yillarda jahon psixologiyasida psixologik xizmatni tashkil etish muammosini o‘rganishga alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgacha psixologik tadqiqotlarda pedagog psixolog-shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo‘lidan kelgan barcha ishlarni qilishi, ijtimoiy-psixologik xizmat va uning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda psixologik xizmatni tashkil etishning turli usullari va zamonaviy texnologiyalarini ifodalovchi zamonaviy psixologik mexanizmlarni qo‘llash hamda joriy etish masalasining muhimligiga e’tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda psixologik xizmatni tashkil etish personallardagi muammolarni bartaraf etish kabi holatlar dolzarb muammolar sifatida

qaralmoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borilayotgan qator nazariy-ilmiy va amaliy – uslubiy ishlar psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo‘lmoqda. Ayni paytda psixologik xizmat tizimining bugungi holati va amaliy faoliyat yo‘nalishlarini har tomonlama, chuqur tahlil qiluvchi va shu tahlillar asosida psixologik xizmatning istiqbollarini ochib beruvchi maxsus tadqiqotlarning taqchilligi nihoyatda dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Tabiiyki, mazkur muammoni bartaraf etish uchun mamlakatimizda psixologik xizmatning joriy etilishi, bugungi holati va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollarini o‘rganishga, tahlil qilishga va izohlashga bag‘ishlangan psixologik va ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning olib borilishi davr taqozosidir. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi ta'lim muassasalarida, mehnat jamoalarida bo‘lajak kadrlarni har jihatdan tayyorlash bilan bog‘liq psixologik tadqiqotlarning ilmiy-tashkiliy jihatlariga va ayniqsa, ijtimoiy - psixologik muhofaza imkoniyatlarini tadqiq qilishga oid maxsus o‘tkazilgan tadqiqotlarnig sust ekanligi; ijtimoiy psixologiya, psixologik konsultatsiya fanlarining zamonaviy yo‘nalishlari fanlarida bugungi psixologik xizmat tatbiqini qamrab oluvchi vazifalarning aniq va batafsil belgilanmaganligini, ta'lim va mehnat muassasalarida tashkil etilgan psixologik xizmat tajribalari misolida o‘quvchi va ishchi xodimlar muvaffaqiyatli – faoliyatni ta'minlashdagi ijtimoiy psixologik muhofaza imkoniyatlarini o‘rganish va kamol toptirish bilan bog‘liq bugungi O‘zbekistonning o‘z istiqlol va istiqbol yo‘li, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti talablariga javob beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi kabilarni bugungi kunda dolzarb muammolardan biri sifatida qayd etish mumkin. Psixologik xizmatning muvaffaqiyatlli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy - psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni G.M.Andreeva, M.G.Davletshin,Yu.M.Zabrodin, D.Karnegi, V.M.Karimova, B.D.Parigin, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev va boshqalar olib borishgan.

Mahallada psixologik xizmat borasida hanuzgacha aniq va mukammal tarzda ishlab chiqilgan va rasmiy tarzda tan olingan yagona ilmiy yo‘nalish yoki konsepsiyaning qabul qilinmaganligi ayon bo‘lsa-da, ilg‘or g‘arb psixologlari, Markaziy Hamdo‘stlik Davlatlari psixologlari hamda O‘zbekiston psixologlari tomonidan olib borilgan va olib borilayotgan tadqiqotlar mavjudki, ular qaysidir jihati bilan psixologik xizmat modeli, mohiyati, ahamiyati, va ijtimoiy istiqbollari haqidagi ilmiy- amaliy tasavvurlarimizni shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Vengriyalik psixologlar Balint va M.Muraning tadqiqotlarida psixologik xizmat vazifasini aniqlashga qaratilgan shaxslarning o‘z ishidan qoniqishini ta'minlash va o‘z ishidan (ya'ni o‘z faoliyatidan) qoniqmaslik holatini bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatiladi. Shuningdek, bu olimlarning ilmiy talqinicha, har bir ishchi-xodimning o‘z ishidan qoniqishi uning kayfiyatini, faolligini ta'minlasa, ishdan qoniqmaslik esa korxonada yuz beruvchi ayrim favqulodda baxtsiz hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Darhaqiqat, bugungi kunda deyarli barcha korxonalarda baxtsiz hodisalar juda ko‘p uchramoqda. Uni kamaytirish va oldini olish esa, hamisha ham muvaffaqiyatli hal qilinayotgani yo‘q. Buning uchun esa, muammoning ijtimoiy psixologik ildizlari haqida chuqurroq o‘ylansa, yuzlab, balki minglab odamlar hayoti, salomatligi va ijtimoiy-ruhiy mavqei saqlab qolinishi mumkin. Bu o‘rinda aytish mumkinki, psixologik xizmatning tashkil etilishi eng birinchi navbatda korxonalarda yuz beruvchi baxtsiz hodisalardan saqlanish-himoyalanish vositasi sifatida o‘ta muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Afsuski, bunday xizmatni tashkil etish juda ko‘pgina mehnat muassasalarida xozirgacha ijtimoiy muammo bo‘lib kelmoqda.

Bugungi psixologiya-fani va ijtimoiy taraqqiyoti an’analari bilan bog‘liq insonning amaliy psixologiyasini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to‘g‘ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a’zolariga psixologik xizmat ko‘rsatish muqarrarligini talab qiladi. Bu borada iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o‘zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim. Psixologik xizmat metodologiyasi esa ko‘proq birinichi yo‘nalish psixologik ijtimoy psixologiya” asoslari zaminida tarkib toptiriladi.

Olimlar psixologik xizmatni yanada rivojlantirish uchun turlicha metodlar va metodologiyalarni yaratib kelmoqdalar. K.K.Platonovning psixologik xizmat bilan bog‘liq ijtimoiy psixologiya metodologiyasini yaratishdagi xizmati shundaki, ijtimoiy-psixologik individuallik muammosini inson individual olami namoyon bo‘lishining eng yuqori darajasi sifatida tadqiq qildi va psixologik xizmat mohiyatini tasavvur qilish uchun muhim bo‘lgan shaxsni nafaqat o‘zining,balki bu individual xususiyatlaning ijtimoiy mazmuni o‘zini-o‘zi adekvat baholash va rivojlantirishga asoslangan shart-sharoitlarni yaratish billan kamol toptirish muqarrarligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Professorlar E.G‘oziyev, I.Tursunov, J.Ikromovlarning “XX asr va shaxs kamoloti” mavzusidagi ma’lumotlarida ham psixologik xizmat ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etuvchi individ, shaxs va subyekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e’tibor berish zarurligi uqtiriladi:

-inson rivojlanishining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omilari);

-insonning o‘ziga taalluqli, asosiy tafsilotlar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, e’tiqod bosqichlari barqarorlashuvi va involyutsiya;

-inson yaxlit tuzilishining asosiy tarkiblari, ularning o‘zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta’sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi

Mahallada psixologik xizmatning ijtimoiy psixologik muammo sifatida o‘rganilishi O‘zbekistonda muayyan darajadagi psixologik bilimlarining bevosita amaliyotda qo‘llanilishi va mahallada istiqomat qiluvchi har bir shaxsning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik istiqbollari ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, insonni bilish va uning tashqi (real) hamda ichki (ideal) olamiga adekvat ta’sir ko‘rsatish va shu ta’sirlar orqali uni boshqarish mumkinligi aniq bo‘lsada, bu darajada turli xil ijtimoiy, iqdisodiy, ma’naviy va individual psixologik manfaatlar mushtarakligiga ham alohida e’tibor berishga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda har bir insonning shakllanishi unga hizmat ko‘rsatuvchi tizimlarning to‘laqonli ilmiy-amaliy salohiyatiga bevosita bog‘liqdir. Shu ma’noda psixologik xizmat metodologiyasi o‘zining shakllanishi va tuzilishiga ko‘ra faqat insonga va uning betakror shaxs sifatidagi ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga bevosita xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shu boisdan psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib muayyan darajadagi dolzarblik kasb etmoqda.

Darhaqiqat, har bir insonning o‘z individual olamida sodir etilayotgan barcha ma’naviy va ruhiy kechinmalarini u yashab yurgan jamiyat istiqbollariga mos tarzda tadqiq qilmay turib shaxs va faoliyat, shaxs va jamiyat, shaxs va individuallik o‘rtasidagi ijtimoiy mutanosiblikni ta’minlab bo‘lmaydi. Zero, psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinayotgan ijtimoiy psixologik himoya falasafasi ham shuni taqozo etmoqda.

Bugungi psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomonlari barchaga ma’qul va manzur bo‘lgan. Lekin psixologik xizmatning keng targ‘ibot qilinishi uchun yuqoridan maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi psixologlarning

nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tadbiq etish ishiga birmuncha to‘sqinlik qilib kelar edi. 1990-yillarga kelib mustaqillik, erk, o‘zlikni anglash hislari hukmron bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko‘zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat tadbiqining keng quloch yoyishi uchun ham o‘ziga xos zamin hozirlandi. Bu esa O‘zbekiston uchun xarakterli bo‘lgan psixologik xizmat rivojlantirilishining navbatdagi amaliyotchi-psixologlar tayyorlash bosqichiga o‘tishni muqarrar qilib qo‘ydi. Chunki maktabdagi ijtimoiy-psixlogik iqlimni tahlil qila oluvchi malakali amaliyotchi-psixologlar tayyorlamay turib, O‘zbekistonda psixologik xizmat tatbiqini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo‘lmas ekan. Shunga muvofiq dastavval Toshkentda, so‘ngra Buxoroda, keyinchalik Navoiy, Andijon, Samarqand va boshqa viloyatlarda umumta’lim maktablari uchun “Amaliyotchi-psixologlar” mutaxassisligi bo‘yicha qayta tayyorlov kurslari ochildi va bu kurslarni muvaffaqiyatli tugatganlar Respublikamizning talaygina maktablarida psixologik xizmat tashkilotchisi, targ‘ibotchisi va tadqiqotchisi samarali ish olib bormoqdalar. Psixologik xizmat qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilsa, insonlarda uchraydigan turli ruhiy holatlar ham shunchalik oson korreksiya qilinadi. Insonlar o‘z hayotida uchraydigan muammolarni bartaraf qilishni o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A Biznining bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash,mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.T.: ,,O‘zbekiston’’,2005.96-bet.
2. Andreeeva G.M.Sotsialnaya psixologiya.Uchebnik.-M.:Aspekt Press,1999.376-bet.
3. G‘oziyev E.G‘ Umumiy psixologiya.Toshkent.2007.1-2-kitob.
4. G‘oziyev E.G‘,Toshimov R.Menejment psixologiyasi.T-2002
5. G‘oziyev E.G Muomala psixologiysi.T-2001
6. Karimova V.M . Mustaqil fikrlash .-T.:Universitet,2002.-96-bet
7. Karimova V.M.Mustaqil fikrlash.-T.:Sharq.2000.-112-bet
8. Karimova V.M,Sunnatova ,,Mustaqil fikrlash’’o‘quv qo‘lanmasi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tark etish uslubiyoti.-T.:Sharq, 2000.-16-bet
9. Mayers D.Sotsialanaya psixologiya perev.S angl.-SPB.:,,Piter’’,199-bet

ESHITISHIDA NUQSONI BOR BO‘LGAN O‘SMIRLAR HISSIY VA IRODAVIY SIFATLARINING KORRELLYATSIYASI

Sattarova Gulnora Ikromovna
Qarshi davlat universiteti dotsenti
Primova Shaxzoda Shomurodovna
Qarshi davlat universiteti Psixologiya yo‘nalishi magistranti

Hissiy-irodaviy sifatlar - insonning fikrlash jarayoniga asoslangan qarorlar qabul qilish va shu qarorga muvofiq o‘z fikri va harakatlarini yo‘naltirish qobiliyatidir. Bundan tashqari, iroda psixologiyasida o‘rganilishi jihatdan eng murakkab sanalgan tushunchalardan biridir. Shu boisdan, irodaviy sifatlar ilmiy manbaalarda mustaqil psixik jarayon sifatida ham, boshqa asosiy psixik hodisalarning tarkibiy qismi sifatida shuningdek, xatti-harakatlarni mustaqil asosda nazorat qilishning o‘ziga xos qobiliyati sifatida ham talqin etiladi.

Tom ma’noda esa, hissiy-irodaviy sifatlar - faol qaror qabul qilish jarayoni sifatida, atrof-muhitdagi qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga sezgir javob beruvchi ichki kuch hisoblanadi. Bundan tashqari, iroda ba’zan insonning motivatsion harakatlarida, ba’zan qaror qabul qilish uslubida hamda oliy maqsad va istaklari mazmunida namoyon bo‘ladi. Mazkur qarashlardan farqli o‘laroq, E.A.Kedyarova iroda fenomenini tushuntirishda uch muhim jihat mazmuniga alohida to‘xtalib o‘tadi.Ya’ni harakatni tanlash, harakatni boshlash va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish shular jumlasidandir. Boshqa bir olim, Ye.I Rogovning.yozishicha, hissiy-irodaviy sifatlar bu - motivatsiya kuchi bilan belgilanadigan, xohish va istaklar bilan xarakterlanadigan mustaqil kuchdir. Mazkur yondashuvlarga muvofiq, ta’sir qilish kuchi –irodani harakatga keltirish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, hissiy-irodaviy kechinmalar tashqi ta’sirlar ostida paydo bo‘lib, keyinchalik irodaviy sifatlar tomonidan nazorat qilinadi. Shuning uchun zaif istaklar uchun kuch sarf qilinmaydi va ular muddat o‘tib o‘z-o‘zidan unitilib ketadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda bir qator metodika va so‘rovnomalar tanlab olingan. Jumladan, Kettellning “Shaxsning ko‘p omilli xususiyatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi, S.R. Panteleev va V.V.Stolinning “Subyektiv lokus nazorat xususiyatlari” so‘rovnomasi hamda G.S. Nikiforov tomonidan yaratilgan “Emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish” so‘rovnomalaridan foydalanilgan. Mazkur metodikalar sinaluvchi haqida qimmatli ma’lumotlarni qo’lga kiritish imkonini beradi. Metodikalar tatbiqidan olingan natijalar asosida jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarning hissiy-irodaviy sifatlari bilan shaxslilik xususiyatlari o‘rtasida korrellyatsion aloqadorlikni psixologik jihatdan baholashga harakat qildik va individual-psixologik xususiyatlari o‘rtasidagi aloqadorlikni korrellyatsion jarayon orqali tekshirdik.

Quyida jadvalda eshitishda nuqsoni bor o‘smirlarning shaxsning ko‘p omilli xususiyatlari, emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish va subyektiv lokus nazorat so‘rovnomalarining o‘zaro aloqasi keltirilgan.

Muloqotga moyillik shkalasi emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish, faoliyatda o‘zini nazorat qilish, eksternal lokus nazorat va internal lokus nazorat shkalalari bilan, hissiy barqaror-beqaror shkalasi emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish, faoliyatda o‘zini nazorat qilish, ijtimoylashuvda o‘zini nazorat qilish, eksternal lokus nazorat va internal lokus nazorat shkalalari bilan, hukmronlikka intilish-tobelik shkalasi ijtimoylashuvda o‘zini nazorat qilish, eksternal lokus nazorat shkalalari bilan, ijtimoiy yetuklik-onglilik shkalasi faoliyatda o‘zini nazorat qilish, ijtimoylashuvda o‘zini nazorat qilish va internal lokus nazorat shkalalari bilan, dadillik-tortinchoqlik shkalasi emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish, faoliyatda o‘zini nazorat qilish, ijtimoylashuvda o‘zini nazorat qilish bilan ilobiy aloqadorlik hosil qilgan. Ishonuvchanlik-shubhalanish shkalasi emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish, faoliyatda o‘zini nazorat qilish, ijtimoylashuvda o‘zini nazorat qilish, eksternal lokus nazorat va internal lokus nazorat shkalalari bilan, o‘ziga ishonch-ishonmaslik shkalasi emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish, faoliyatda o‘zini nazorat qilish, eksternal lokus nazorat shkalalari bilan, mustaqillik-tobelik shkalasi emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish, faoliyatda o‘zini nazorat qilish, eksternal lokus nazorat shkalalari bilan, o‘zini nazorat qilish-ta’sirchanlik shkalasi ijtimoylashuvda o‘zini nazorat qilish, eksternal lokus nazorat shkalalari bilan, zo‘riqish-bo‘shashish shkalasi emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish, faoliyatda o‘zini nazorat qilish, ijtimoylashuvda o‘zini nazorat qilish va internal lokus nazorat kabi shkalalar bilan ijobiy darajada bog‘langan.

1-jadval

Shaxsning ko‘p omilli xususiyatlari, emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish va subyektiv lokus nazorat so‘rovnomalari o‘rtasidagi korrellyatlar (K.Pirsonning r-korrellyatsiya statistik mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	Emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish	Faoliyatda o‘zini nazorat qilish	Ijtimoiylashuvda o‘zini nazorat qilish	Eksternal lokus nazorat	Internal lokus nazorat
Muloqotga moyillik	**0,662****	**0,482***	**-0,456***	**0,585****	**0,523****
Hissiy barqaror-beqaror	**0,465***	**0,447***	**0,446***	**0,667****	**0,567****
Hukmronlikka intilish-tobelik	**-0,223**	**0,587****	**0,479***	**-0,483***	**-0,639****
Ijtimoiy yetuklik-onglilik	**0,276**	**0,457***	**0,464***	**-0,123**	**0,446***
Dadillik-tortinchoqlik	**0,447***	**0,458***	**0,441***	**-0,465***	**-0,184**
Ishonuvchanlik-shubhalanish	**0,480***	**0,476***	**-0,459***	**0,447***	**-0,435***
O‘ziga ishonch-ishonmaslik	**0,535****	**0,468***	**0,557****	**0,429***	**0,430***
Mustaqillik-tobelik	**0,441***	**0,467***	**0,194**	**0,583****	**-0,420***
O‘zini nazorat qilish-ta’sirchanlik	**-0,445***	**0,130**	**0,529****	**-0,424***	**0,175**
Zo‘riqish-bo‘shashish	**0,463***	**0,446***	**0,697****	**-0,489***	**0,430***

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish nuqsonli o‘smirlarni o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida uchraydigan turli to‘siq va qiyinchiliklarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslikka, kutilmagan vaziyatlarda o‘zini boshqara olish uquvini ham tarkib toptira boradi. Ammo irodaviy sifatlarning barchasini ham asab tizimi xususiyatlari bilan o‘zaro musbat aloqadorlikda deb bo‘lmaydi. Muloqotga moyillik shkalasi ijtimoylashuvda o‘zini nazorat qilish, hukmronlikka intilish-tobelik shkalasi ijtimoylashuvda o‘zini nazorat qilish, eksternal lokus nazorat shkalalar, ijtimoiy yetuklik-onglilik shkalasi eksternal lokus nazorat, dadillik-tortinchoqlik shkalasi eksternal lokus nazorat va internal lokus nazorat shkalalari bilan, ishonuvchanlik-shubhalanish shkalasi ijtimoylashuvda o‘zini nazorat qilish, mustaqillik-tobelik shkalasi internal lokus nazorat shkalalari o‘zini nazorat qilish-ta’sirchanlik shkalasi emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish, zo‘riqish-bo‘shashish shkalasi eksternal lokus nazorat shkalalari o‘rtasida manfiy aloqadorlik kuzatildi. Ko‘pgina nuqsonli o‘smirlarda shaxslararo munosabat jarayonida emotsional zo‘riqish vujudga keladi. Bunday emotsional zo‘riqish o‘smirning psixik xolatiga jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Bunday zo‘riqish ijtimoiy va dizintegratsion komponentlarga bog‘liq. Natijada o‘smirlarda o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. O‘zi haqidagi mavjud fikrlar bugun unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelmaydi, o‘smir ichdan asabiylashadi va o‘zi holatidagi salbiy fikr tushkunlik xolatini boshdan kechiradi, ular ba’zan o‘zlarining tabbiiy ehtiyojlarini qondirishdan bo‘lak narsani ko‘ra olmaydilar imkoniyati cheklangan bolalarni ular ishtiyoqlarini qondiradigan ehtiyojlarini oldindan ko‘ra bilishga o‘rgatish zarur.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, jismoniy rivojlanishida ya’ni, eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirish muammosi nafaqat jismoniy

kamolotni balki, aqliy kamolotni talab etuvchi sohalardan biridir. Hozirgi o‘zgarishlar va zamonaviy jamiyat nuqtai-nazardan qaraganda, jismoniy rivojlanishda ortda qolgan o‘smirlarning ijtimoiy shakllanishi nafaqat jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega balki, o‘zlari uchun hayotiy qiyin vaziyatlarni hal etish uchun o‘ta muhim hisoblanadi. Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bor o‘smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik jihatlari shuni namoyon qildiki, irodaviy faollik xususiyatlari sanaladigan tashqi va ichki qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi shart-sharoit va holatlarni aniqlashda namoyon bo‘luvchi barqaror shaxslilik qirralarini yuksaltirishga ahamiyat qaratish asosiy mezonlardan biri sanalar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ильин Е. П. Психология воли / Е.П. Ильин. - М.: Питер, 2000. – 288 с.
2. Кедярова Е.А. Волевая регуляция как фактор деятельности студентов // Известия Иркутского Государственного Университета. Серия: психология. 2012. № 1. С.40 - 46.
3. Психология развития личности: учебное пособие / Е. А. Кедярова, М. Ю. Уварова ; М-во образования и науки Российской Федерации, Федеральное гос. бюджетное образовательное учреждение высш. проф. образования "Иркутский гос. ун-т", Фак. психологии. - Ижевск : Изд-во ИГУ, 2012. - 177 с.
4. Рогов Е.И. Эмоции и воля. Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, М.:- 1999.-240с.
5. Саттарова Г.И. Шахс иродавий ҳаракатлари мотивацияси Узлуксиз таълим. Илмий услубий журнал. №4. Т:-2009.- 77-80 б.

JISMONIY RIVOJLANISHDA NUQSONI BO‘LGAN O‘SMIRLARDA HISSIY-IRODAVIY SIFATLARNI BELGILOVCHI FAKTORLAR

Sattarova Gulnora Ikromovna
Qarshi davlat universiteti dotsenti

Psixologiya fanida insonning ixtiyoriy harakatlari “iroda” fenomeni bilan tavsiflanib, hozirga qadar ushbu tushuncha borasida ko‘plab ilg‘or yondashuv hamda ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Mazmunan iroda inson faoliyatining o‘ziga xos shakli sanalib, u hayotiy maqsadlarni belgilash hamda xatti-harakatlarni to‘g‘ri tashkil etish kabi funksiyalar uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

Irodaviy sifatlarni tadqiq etish bir yoqlama yondashuvni emas balki, psixologiyaning sohalari aro ma’lumotlar integratsiyasiga tayanishi lozim. Chunki, hissiy-irodaviy sifatlar faqat ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlar bilan xarakterlanib qolmasdan, u hissiy o‘z-o‘zini boshqarish va nazorat qila olish ko‘nikmalari bilan uzviy bog‘liq sanaladi. Aksariyat psixologik adabiyotlarda bunday mulohazalarning aksini uchratish mumkin. Y.O.Smirnova boshqalardan farqli o‘laroq, irodaviy sifatlarni quyi instinktiv xatti-harakatlarni bostiruvchi “aqliy kuch” deb ta’riflaydi. Ya’ni u bir vaqtning o‘zida organizm uchun maxsus dvigatel (motor) vazifasini o‘tashini ham ta’kidlaydi. Keltirib o‘tilgan ushbu ta’rifdan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, irodaviy sifatlar insonni biror faoliyatga undovchi yoki uni tormozlovchi aqliy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqalardan farqli ravishda, Y.A.Sergienkoning ta’rificha, iroda bu-voqelikni subyektga ong darajasida aks ettiruvchi hamda faoliyatni nazorat qiluvchi psixikaning tipik xususiyatidir. Ya’ni

inson har qanday muvaffaqiyat yoki oliy maqsadlarga irodaviy sifatlar orqali erishadi. Shu bilan birga, iroda insonni atrof-muhit bilan aloqasini ta'minlovchi psixologik jarayondir. Demak, irodaviy sifatlar maqsad qilingan harakatlar asosida shakllanib, maqsadddan tashqari harakatlarni to'xtatish holati bilan ham xarakterlanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlarning mazmunidan kelib chiqib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1.Inson ehtiyojlari iroda orqali tarbiyalanadi va uning nazorati ostida bo'ladi.

2.Irodaviy sifatlar shunday tuzilmaki, ular doim qo'llab-quvvatlashga muhtojdir va o'z mazmunida ko'plab psixologik komponentlarni birlashtirgan fenomenologik tushunchadir.

3. Bizningcha, irodaviy sifatlar niyatlarni amalga oshirishni nazorat qiluvchi, uni tartibga soluvchi va kundalik ishlarning davomiyligini ta'minlovchi ichki regulyatsion kechinmadir.

Hissiy-irodaviy sifatlar o'zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog'liq bo'ladi. Hissiy-irodaviy sifatlar odamda sodir bo'layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo'lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo'zg'ovchilardan aniq bo'lib ajraladi, ba'zilari bir-birlari bilan qo'shilib ketadi va paydo bo'lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada taassurot uyg'otib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma'lum qo'zg'atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo'ladi. Hissiy-irodaviy sifatlarning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning impressiv tomoni deb ataladi.

Quyida keltiriladigan jadvallarda jismoniy rivojlanishda nuqsoni bor bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini belgilab beruvchi psixologik indikatorlar mazmuni keltiriladi. Birinchi jadvalda tayanch harakatida nuqsoni bo'lgan o'smirlarning koping indikator, shaxs irodaviy sifatlari va subyektiv lokus nazorat so'rovnomalari faktorizatsiyalari keltirilgan.

1-jadval

Koping indikator, shaxs irodaviy sifatlari va subyektiv lokus nazorat xususiyatlari so'rovnomalari faktorizatsiyalari

Shkalalar	Faktorlar	
	1	2
Irodaviy mas'uliyatlilik		0,783
Jur'atlilik	0,590	
Matonatlilik	0,567	
Qat'iylik		0,591
G'ayratlilik		0,750
Muammoni yechish		0,653
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish		0,637
Muammodan qochish	0,675	
Samimiylik (Tanqidiy tafakkur)		0,578
Eksternal lokus nazorat	0,712	
Internal lokus nazorat		0,776
Samimiylik	0,584	

Tadqiqotdan olingan natijalar jismoniy rivojlanishda nuqsoni bor bo‘lgan ya’ni, tayanch harakatida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlarini belgilab beruvchi asosiy omillar quyidagi natijalarni namoyon qilgan (1-jadval). Birinchi faktorga kirgan ta’kidlar: jur’atlilik (0.590), matonatlilik (0.567), muammodan qochish (0.675), eksternal lokus nazorat (0.712) va samimiylik (0.584). Ushbu faktorni (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko‘ra), shartli ravishda: o‘zini boshqarish deb nomladik.

Ikkinchi faktordan quyidagi mulohazalar o‘rin oldi: irodaviy mas’uliyatlilik (0.783), qat’iylik (0.591), g‘ayratlilik (0.750), muammoni yechish (0.653), ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish (0.637), samimiylik (tanqidiy tafakkur) (0.578) va internal lokus nazorat (0.776). Ushbu faktorni esa (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko‘ra), shartli ravishda: o‘quv faoliyatida o‘zini nazorat qilish shkalasi deb nomladik.

Hissiy-irodaviy sifatlar inson uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Belgilangan vazifalarni hal qilish va o‘z maqsadlarini belgilash;

Topshiriqlarni rejalashtirish, resurslar va zaxiralardan foydalanish;

Tashqi sharoitlar va faoliyat uchun ichki old shartlarni tashkil etish;

Axborotni qayta ishlash va atrof-muhit bilan o‘zaro aloqalar uchun mustaqil qarorlar qabul qilish;

Faoliyat jarayonida xabarlar, qoidalar, tamoyillar va harakat mezonlariga amal qilish;

Rejalarni amalga oshirishda, turli psixik omillarni muvofiqlashtirish;

Retseptor va afferent va efferent yo‘llar funksiyalarini tartibga solish;

Faoliyatni kuzatish va uning natijalarini baholash;

Hayotiy vaziyatlar va tashqi muhit talablariga insonning faolligini ta’minlash va hokazo.

Bunda, maqsadga muvofiqlik, alohida xususiyat hisoblanib, u insonning ongli va faol harakatlari, maqsadga eirishishga bo‘lgan istaklari hamda hayotiy strategiyalari kabilar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayrim psixologik adabiyotlarda, irodaviy fazilatlar tasnifining o‘ziga xos turlari keltirilgan bo‘lib, ular orqali butun bir inson faoliyatining ixtiyoriylik tabiatini tushunib olish mumkin.

Rus olimi Y.P.Ilinning so‘zlariga ko‘ra, hissiy-irodaviy sifatlarning mazmuniga to‘xtalishdan oldin, uning turlarini ajratib o‘tish muhim vazifa sanaladi. Chunki, ular aynan psixik faoliyatning qaysi bo‘g‘inlarida qatnashadi yoki inson uchun nimani ta’minlab beradi degan savolni yuzaga keltirishi tabiiy. Demak, irodaviy fazilatlar shaxs indiviual va guruhiy faoliyatini nazorat qiluvchi psixologik unsurlardan hisoblanadi.

Navbatdagi keltirilgan jadvalda jismoniy rivojlanishda ya’ni, tayanch harakatida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini aks ettiruvchi emotsional intellekt va emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish so‘rovnomalari bo‘ycha olingan natijalari qayd etilgan (2-jadval).

2-jadval

Emotsional intellekt va emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish so‘rovnomalari faktorizatsiyasi

Shkalalar	Faktorlar	
	1	2
O‘z his-tuyg‘ularini anglash	0,798	
O‘z his-tuyg‘ularini boshqarish	0,580	
Boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash		0,535

Boshqalarning his-tuyg‘ularini boshqarish		0,595
Emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati		0,594
Emotsional intellektning shaxslararo jihati	0,736	
Emotsional intellektning integral ko‘rsatkichi		0,650
Emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish	0,576	
Muloqotda o‘zini nazorat qilish	0,695	
Ijtimoiylashuvda o‘zini nazorat qilish		0,751

Matetmatik-statistik mezonlardan biri sanalgan faktorli analiz yordamida tayanch harakatida nuqsoni bor o‘smir o‘smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini tashkil etuvchi asosiy shkalalar birinchi va ikkinchi shkalalarga ajralgan. Birinchi faktorga kirgan ta’kidlar: o‘z his-tuyg‘ularini anglash (0.798), o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish (0.580), emotsional intellektning shaxslararo jihati (0.736), emtosional holatlarda o‘zini nazorat qilish (0.576) va muloqotda o‘zini nazorat qilish (0.695). Ushbu faktorni (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko‘ra), shartli ravishda: emotsional barqarorlik deb nomladik.

Ikkinchi faktordan quyidagi mulohazalar o‘rin oldi: boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash (0.535), boshqalarning his-tuyg‘ularini boshqarish (0.595), emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati (0.594), emotsional intellektning integral ko‘rsatkichi (0,650) va ijtimoiylashuvda o‘zini nazorat qilish (0.751). Ushbu faktorni esa (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko‘ra), shartli ravishda: emotsional ekspressivlik shkalasi deb nomlashni lozim topdik.

Yuqorida tahlil etilgan amaliy tahliliy ma’lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, hissiy-irodaviy sifatlar bu shunchaki oddiy xususiyatlar emas, balki ular o‘z mazmunida ko‘plab psixologik komponentlarni birlashtirgan fenomenologik tushunchadir.

Xulosa qilib aytganda, hissiy-irodaviy sifatlarni o‘rganishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ya’ni shaxsning bilimlari, afzalliklari, e’tiqodi, ehtiyojlari va qaror qabul qilish qobiliyati va boshqalar. Chunki, inson biror ishni amalga oshirishni niyat qilsa, ana shu vazifani amalga oshirishga kirishishning o‘zi, ixtiyoriy harakatlarga o‘tishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bir so‘z bilan aytganda, irodaviy sifatlar niyatlarni amalga oshirishni nazorat qiluvchi, uni tartibga soluvchi va ishning davomiyligini ta’minlovchi psixologik jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ильин Е.П. Психология воли. 2-е изд. -СПб.: Питер:- 2009. – 368 с.
2. Sattarova G.I.“Jismoniy rivojanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar hissiy-irodaviy sohalarining rivojlanishi” Monografiya “Qarshi davlat universiteti” nashriyoti” Qarshi sh. 2023 160b.
3. Сергиенко, Хлевная, Киселева: Эмоциональный интеллект ребенка и здравый смысл его родителей Малыш, 2021 г.ISBN: 978-5-17-122021-1
Страниц: 256
4. Е. О. Смирнова Психология и педагогика игры. Учебное пособие для СПО Москва «Юрайт» 2019. 224 С

3-SHO‘BA.
UYUSHMAGAN YOSHLARGA PSIXOLOGIK XIZMATNI KO‘RSATISH USULLARI

OILADA YOSHLARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZI TO‘G‘RISIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHI MUAMMOSINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Saidov Azamat Ismoilovich
Samarqand davlat chet tillar instituti Magistratura bo‘limi boshlig‘i,
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Jahonda aholining psixologik sog‘lig‘i, jismoniy salomatligi, sog‘lom hayot kechirish darajasini oshirish, zararli odatlardan voz kechish, sog‘lom turmush tarzini aholining kundalik hayot tarziga aylantirish texnologiyalari amaliyotga tadbiq etilmoqda. Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotganiga qaramay, ular o‘rtasida nosog‘lom turmush tarzini kechirish, jumladan, tamaki chekish, spirtli ichimliklarga berilish illatlarining ortib borayotganligi oilada yoshlarning sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Sog‘lom turmush tarzini barqaror qadriyat sifatida shakllantirish, yosh avlodning salomatlikka ongli munosabatini tarkib toptirish, tibbiyot, pedagogika hamda psixologiya sohasidagi yirik loyihalarni tadbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda shahar aholisi, ayniqsa megapolislar aholisi sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishning yangi modellarini yaratish, yoshlarni turli tibbiy va ijtimoiy tahdidlar, zararli illatlar, xususan, narkomaniya, toksikomaniya, alkogolizm, OIV, OITS kasalliklaridan himoya qilish, yoshlarning tibbiy-ma’naviy savodxonligini oshirish, sanitariya va gigiyena qoidalariga to‘liq rioya qilish, jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni tiklashga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, aholi, ayniqsa yoshlar ongida sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvur va tushunchalarni oilada shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, ularning sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlarini uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosida shakllantirishning psixologik mexanizmlarini falsafiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy yondashuv asosida takomillashtirish tizimini ishlab chiqish, barkamol avlodni tarbiyalashda ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini e’tiborga olgan holda, oilada yoshlarning sog‘lom psixologik turmush tarzi to‘g‘risidagi tassavvurlarini shakllantirishda mahalla, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini yanada kuchaytirish psixologiya fani oldidagi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralib, bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Respublikamizda 5 yoshgacha bolalar, tug‘ish yoshidagi va homilador ayollar, nogironligi bo‘lganlar, qon-tomir, onkologik, endokrin kabi kasalliklarga moyilligi bo‘lgan fuqarolar bilan ishlashning alohida tizimini joriy etish” ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu borada oilada yoshlarning sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik mezon va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish, oilada yoshlarning sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik, hududiy, etnopsixologik omillarini o‘rganish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholi ongida sog‘lom turmush tarziga oid ijtimoiy-psixologik tasavvur va ustanovkalarni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni oilada joriy qilishning psixologik imkoniyatlari kengaytiriladi.

Sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlarni tushunib yetish uchun tasavvurlar psixologiyasi to‘g‘risidagi g‘oya va qarashlarga murojaat etishga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra, quyida tasavvurlarning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.

Ijtimoiy tasavvurlarni o‘rganish dolzarb vazifadir, chunki ularning dinamikasi va transformatsiyasi madaniyatdagi o‘zgarishlarni tushunish imkonini beradi. Ijtimoiy tasavvurlar o‘z navbatida u yoki bu guruh a’zolarining muloqoti jarayonida shakllanadi.

Ijtimoiy tasavvurlar nazariyasiga ko‘ra, tasavvurlar obyekti turli darajadagi diskurslar (shaxslararo, ommaviy axborot vositalari, madaniy kommunikatsiya) predmeti bo‘lgan sotsiokognitiv “burtib” chiqqan obyektdir.

Shunga ko‘ra, ijtimoiy tasavvurlarni timsol tarzida tahlil etuvchi interaksionizm ko‘proq sotsiologiyaga tortsa, ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi esa bir qator ijtimoiy fenomenlar: g‘oya, jamoaviy tasavvurlar va xotiralar, individual va jamoaviy “Men”ning ijtimoiy madaniy konstruksiyasi kabilarga murojaat etuvchi psixologik statusga da’vogarlik qila oladi.

Ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi va ijtimoiy bilimlar modeli ularning tuzilishi, kommunikativ, interaktiv jarayonlarda namoyon bo‘lishi va taqsimlanishini ishlab chiqadi, ijtimoiy amaliyotdagi bilimlar va tajribalarning funksiyalarni tavsiflaydi.

Ijtimoiy tasavvur tushunchasini fanga Serj Moskvisi tomonidan o‘tgan asrning 60-yillarida Fransiya aholisi o‘rtasida psixoanaliz g‘oyalarining ommalashishiga nisbatan munosabatiga bag‘ishlangan ishida o‘rtaga tashlanadi va u keng ko‘lamda qo‘llanila boshlanadi. Dastlab bu yo‘nalish ilmiy bilimning ijtimoiy ko‘rinishlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan edi. Ammo, keyinroq ushbu nazariyaning tushuntiruvchi doirasi kengaydi va hozirgi kunda u ijtimoiy tajriba haqidagi ta’limot, uning tuzilishi, va ijtimoiy amaliyotda to‘liq dinamikasi va rolini o‘rganuvchi soha sifatida idrok etilmoqda.

Tarixan bu nazariya Emil Dyurkgeym sotsiologiyasida ijtimoiy va jamoaviy tasavvurlarni chegaralashdan kelib chiqadi. U birinchilardan bo‘lib, bizning tilimiz, an’analarimiz va institutlarimiz tuzilmasida jamoaviy tasavvurlarning muhim roliga va ushbu tasavvurlar to‘plamining qanchalik individual fikrda ijtimoiy fikrning qo‘shimcha ravishda tarkib topishiga e’tiborini qaratgan.

XIX asrning 1960 - yillaridan buyon ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi Fransiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya va Lotin Amerikasida yetakchi paradigma bo‘lib kelmoqda. 80-yillarning o‘rtalarida esa bu yo‘nalishga qiziqish Britaniya orollarida, keyinroq esa Fransiya, AQSh, Kanada, Avstraliyada ham yuzaga keldi va shu masala yuzasidan akademik disskussiyalar avj oldi.

Ijtimoiy tasavvurlar tuzilmasini ajratishda esa tadqiqotchilar J.K.Abrikning ijtimoiy tasavvurlar guruh tasavvurlari barqarorligini ta’minlovchi (yadro) qismi hamda guruhning dunyodagi o‘zgarishlarga moslashuviga olib keluvchi doimiy o‘zgaruvchi periferik qismidan tashkil topadi. Tasavvurlar tuzilmasi attityudning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lib, yadro barqaror bo‘lib qoladi, periferik qism esa o‘zgaradi.

Hozirgi zamon sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi qarashlar rivojiga nazar tashlaydigan bo‘lsak tarixiy ma’lumotlar 1832 yilga- Amerikalik tibbiyotchi Silvester Grexemga (1794-1851) borib taqaladi. Silvester Grexem xristianlikka kuchli e’tiqodi bo‘lganligi uchun Angliyadan Amerikaga ko‘chib borgan xristianlarga vegetarianlik bo‘yicha ma’ruzalar o‘qiydi. Sababi, xristianlikning ba’zi udumlariga ko‘ra, hayvonlar go‘shtini, jumladan, tuxumni ham iste’mol qilish gunoh hisoblanar edi. O‘sha davrda Amerikaning Filadelfiya shtatida vabo kasalligi keng

tarqalib, ko‘pchilik bu kasallikdan o‘lib ketayotgan edi. Grexem kuzatib ko‘radiki, uning maslahati bilan vegeterianlikka rioya etayotganlardan hech kim vabo bilan og‘rimaydi. Shunda u vegetariancha ovqatlanish organizmning himoya kuchlarini oshiradi, degan qarorga keladi va bu fikrni keng targ‘ibot, tashviqot qilishni davom ettiradi.

Shu zaylda sog‘lik masalasida noan’anaviy fikrlovchi kishilar, aniqrog‘i, tibbiyotchilar ko‘payib, ular ichida sog‘lom turmush tarzi sohasida jahonshumul ishlar qilgan fidoyilar va olimlar yetishib chiqadilar. Amerikada - Govard Xey, Djennings, Trol, Tilden, Djekson, Gerbert Shelton, Pol Bregg, Alisa Cheyz, Yaponiyada - Kotsudzo Nishi, Jorj Ozava, Imamura Motoo, Germaniyada - Maks Gerzon, Isroilda - Mixael Goren, Rossiyada - Yuriy Nikolaev, Aleksandr Mikulin, A.N.Kokosov, Nadejda Semenova va boshqalar shular jumlasidandir.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, sog‘lom turmush tarziga o‘tgan kishilarning ko‘pchiligi o‘zlari og‘ir dardlarga duchor bo‘lib, ularning ayrimlari rasmiy tabobat tomonidan davolab bo‘lmasligi tan olingan kishilar bo‘lganlar. Lekin, ular dard oldida tiz cho‘kib o‘tirmasdan, o‘zlarining hayotlari uchun o‘zlari kurashganlar. Masalan, Govard Xey - buyrak shamollashi, Pol Bregg - o‘pka sili, Kotsudzo Nishi - ichak sili, Maks Gerzon - migren, Mixael Goren - buyrak sili, Aleksandr Mikulin - yurak infarkti, Nadejda Semenova - poliartrit, Luiza Xey - bachadon raki bilan og‘rib, faqatgina turmush tarzlarini sog‘lomlashtirishlari hisobiga og‘ir dardlardan xalos bo‘lganlar.

Sog‘lom turmush tarzining bu fidoyilari fikr va qarashlarini rasmiy tabobatning eng nomdor vakillari, akademiklar Yuriy Lisitsin, Nikolay Amosov, Fedr Uglov, Evgeniy Chazov, G. I. Saregorodsev, Galina Shatalova va shular singari ko‘pgina olimlar qo‘llab-quvvatlaganlar hamda ularning takliflarini o‘z turmushlarida qo‘llaganlar.

Akademik Yu. Lisitsin uzoq yillardagi ilmiy izlanishlar hamda bu sohadagi mavjud fikr va mulohazalarni umumlashtirib, kishilar sog‘ligi 50-55% ularning turmush tarziga, 20-25% irsiy omillarga, 15-20% atrof-muhitga bog‘liq, tibbiy xizmat esa kishilar sog‘ligini atigi 8-10% gina ta’minlay olishi mumkin, degan qarorga keladi.

Sog‘lom turmush haqidagi dastlabki qarashlar yurtimizda Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoga borib taqaladi. Zardushtiylik dinidagi eng asosiy g‘oya “ezgu amal, ezgu so‘z va ezgu fikr” hozirgi kunda ham shaxs kamolotida, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ma’naviy asos bo‘lmoqda.

Zardushtiylik dinidagi marosimlarda axloqiy va jismoniy tarbiya ham birga berilgan, shuningdek ezgulik, bunyodkorlik, yaxshilik kabi sog‘lom g‘oyalarni o‘zida mujassam etishga harakat qilgan. Jamiyatda ezgu g‘oyalar ulug‘langan, mehribonlik, vatanparvarlik, ma’rifatparparvarlik kabilar g‘oyalar egasi xalq ichida ham yaxshi e’tiborga sazovor bo‘lgan, insonlarga isnod keltiruvchi o‘g‘irlik, talonchilik, o‘zgalar moliga ko‘z olaytirish kabi boshqa illatlar qoralangan.

Sog‘lom turmush haqidagi qarashlar keyingi davrlarda islom dinidagi g‘oyalar bilan yanada boyib borishini ko‘rishimiz mumkin. Ezgulik g‘oyalarini islom dinida dunyo va diniy ishlarni biri ikkinchisidan ustin qo‘yilmaydi. Bu esa sog‘lom muhitni rivojlanishiga olib keladi. Bohovuddin Naqshband nomi bilan bog‘liq: “Dil ba yoru dast ba kor” – jumlasining ma’nosi shuki, diling Allohda bo‘lsin qo‘ling mehnatda, bunda “inson iymonli pok bo‘lishga o‘z mehnati bilan halol luqma asosida kun kechirishga undaydi. Bunday ezgu g‘oyalar hozirgi kungacha o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q.

Ilmiy tajribalarning ko‘rsatishicha, faylasuflar, etnogroflar, tarixchilar, sotsiologlar, psixologlar va pedagoglar tomonidan sog‘lom turmush tarzi muammosining falsafiy jihatlari,

sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni, jamiyatga tarbiyaviy ta’siri, aholi o‘rtasida, ayniqsa yoshlarda sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ularga ko‘ra, turmush tarzi tarixan tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy omillar bilan belgilanadigan kundalik hayot tarzi bo‘lib, shu asosda shakllangan munosabatlar, an’analar va urf-odatlardan iboratdir deyiladi.

G‘arb davlatlari olimlaridan R.Banton, S.Germann, G.Makdonald, A.Skrivenlarning so‘nggi o‘n yillikdagi tadqiqotlari inson salomatligini muhofaza qilish psixologiyasini targ‘ib qilish, uning targ‘ibotini nazariy-amaliy xulosalar va bilimlar asosiga qurilishini ta’minlash, shuningdek, mavjud sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.F.Georgievskiy, P.L.Dribinskiy, A.D.Dubachay, T.V.Kamenskaya, A.D.Karabasheva, Ye.A.Mensh, G.P.Novikova, Ye.A.Pipko, G.M.Populo, O.A.Plaskina va boshqalar tomonidan yoshlarni sog‘lom turmush tarzi asosida tarbiyalash, ularda sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirish masalalari ilmiy psixologik-pedagogik jihatdan asoslangan.

Ayrim bir rus olimlari masalan, T.F.Akbashev, B.A.Klassov insonning ma’naviy salomatligini uch omil birligida ya’ni ijtimoiy, intelektual va reproduktiv sog‘lik bilan to‘ldiradilar.

Ularning fikricha, intellektual sog‘lik fikrlash, axborotlarni qabul qilish va uni yetkazishda o‘z aksini topsa, ijtimoiy sog‘lik, insonni ijtimoiy faolligida jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, kasbiy kamolotida o‘z ifodasini topadi. Reproduktiv sog‘lik esa ota-onalar bilan bo‘lgan aloqada, oilaviy munosabatlar, jinsiy madaniyat, farzand ko‘rish va uni tarbiyalash bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarda namoyon bo‘ladi.

Salomatlik, sog‘lom turmush tarzi muammosi bo‘yicha shug‘ullanuvchi tadqiqotchilardan R.Ayzman ham shaxs salomatligiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganar ekan, uning quyidagi darajalarini ajratib ko‘rsatadi:

- jismoniy, ya’ni genetik, biokimyoviy, metabolik, morfologik, funksional;
- ruhiy, ya’ni missiy, aqliy, shaxsiy;
- ijtimoiy-ma’naviy yoki axloqiy.

Shaxsning salomatlikka bo‘lgan munosabatining kognitiv, xulq-atvor va hissiy tarkibiy qismlari G.S.Nikiforovning fikricha, soglikni saqlash yoki aksincha holatlarga moyillikdan iborat shaxsiy sifat tarzida kurib chiqilishi mumkin. Ko‘pchilikda, salomatlikka e’tiborli bo‘lish masalasida, jiddiy qarama-qarshiliklar yashiringan. Ilmiy dalillarga murojaat qilinmagan holda ham, sog‘likning qadriyat sifatida ifodalanishi ongimizda yetarli darajada yuqori. Biroq, sog‘likni saqlashga (sog‘lom turmush tarzi) munosabatda, ta’sirchan, xulq-atvor tarkibiy qismining jiddiyligi sog‘lik to‘g‘risida bilim hajmiga yoki uning zaiflashishiga hissiy reaksiyalarning kuchiga mutlaqo mos kelmaydi. Aksariyat odamlarning sog‘likni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan faoliyati hissiy munosabat intensivligiga mos kelmaydi. Bu nafaqat sog‘lom odamlar uchun, balki allaqachon jiddiy kasalliklarga duchor bo‘lganlar uchun ham xosdir.

Sog‘lom turmush tarzini falsafiy-ma’naviy, psixologik mezonlarini quyidagicha ta’riflash mumkin:

- oilada, ta’lim maskanlari va jamoat joylarida yosh qizlar va ayollarning kiyinishlariga alohida e’tiborni qaratish;

- oilada va jamoat joylarida yoshlarning muomala madaniyatini shakllantirishda sog‘lom turmush borasidagi xalqimizning o‘ziga xos an’analari va qadriyatlarini, otalar va momolar o‘gitlarini alohida sog‘lom ma’naviyatli oilalar tajribasini ibrat omili sifatida keng targ‘ib etish;

- yoshlarni sportga, jumladan, oilaviy sportga ijobiy munosabatini shakllantirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar, oilaviy sportchilar an’analaridan foydalanish;

- oila a’zolarida, birinchi navbatda yoshlar orasida hayot mohiyatini anglash, umr qadriyatini e’zozlash, hayotiy faoliyatni oqilona tashkil etish madaniyatini shakllantirish;

- islom falsafasidagi orastalik va ozodalik tamoyillarini omma orasida targ‘ib etish orqali suv, havo, yer va suv qadriyatlari borasida ijtimoiy fikrni shakllantirish. Umuman, salomatlik falsafasining shakllanishi sog‘lom va xalqchil marosimlar, urf-odatlar va milliy doimiy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq.

Kishilarning turmush tarziga mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar ma’lum darajada sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kundalik hayot faoliyatida ularning axloqiy-estetik qarashlari, xulqi, muomalasi, hayotiy turmush tasavvurlari, ularning ichki dunyosiga, e’tiqodiga singib ketadi va turmush tarziga, fikrlash tarziga aylanadi. Turmush tarzining eng muhim ijtimoiy tomoni jamiyat a’zolarining ijtimoiy mehnati, o‘zaro munosabatlar, oila, kundalik turmushidagi faolligi, kishilarning jismoniy va ma’naviy imkoniyatlarini atrofdagi tabiiy va ijtimoiy muhit bilan qay tarzda namoyon bo‘lishidadir. Bundan tashqari oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali jamiyatimiz a’zolarini, ayniqsa, yoshlarni milliy vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalariga, shu bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Manbalarda qayd etilishicha, sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlar – bu kundalik turmushni muayyan qonuniyatlar asosida tashkil etish, salomatlikni saqlash va uni mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzi bo‘lib, shu turmush tarzining qanday bo‘lishi, o‘z hayotini qay yo‘sinda va shaklda tashkil etishga bog‘liq hisoblanadi, buning uchun esa har bir inson sog‘lom turmush tarzi tushunchasi va tasavvurlariga, ma’naviyatiga, dunyoqarashiga ega bo‘lishi talab etiladi. Shu o‘rinda shaxsning o‘z salomatligiga bo‘lgan munosabati muhim komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Aytish mumkinki, mazkur masala jamiyat o‘z kuchi bilan salomatlik muammolarini hal etishga ojiz ekanini anglay boshlashi natijasida vujudga keladi. Shundan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, “Xavf-xatar omillari” kasallik va o‘lim bilan bog‘liq bo‘ladi, demakki uni o‘rganish va baholash ham psixologiyaga ham tibbiyotga dahldordir.

Shu ma’noda, psixologiya aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlarning shakllanishida inson fe’li, xulq-atvori va turli psixologik holatlari nuqtai nazaridan o‘rganganda: u asosan, har birimiz guyoki sirdek tuyulgan ruhiyatimizning o‘zimizni sog‘-salomat, beshikast va tetik his qilishimizga aloqador qanday jihatlari borligini, uni boshqarish orqali o‘z boyligimiz – salomatligimizni saqlash borasida qo‘limizda qanday imkoniyatlar mavjudligini va sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlarning shakllanishi - har birimizga o‘z ruhiy holatimizni boshqarishda, ongu-shuurimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni vaqtida ilg‘ash orqali uni mo‘tadil tutish, o‘zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish yo‘llarini, profilaktikani o‘rganadigan fan hamda foydali amaliyot sifatida tobora hayotimizga kirib kelmoqda.

Yuqoridagilardan xulosaga kelish mumkinki, yoshlarda sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tavsavvurlarning shakllanishi bo‘yicha turli fan sohalari yo‘nalishida ko‘plab konsepsiyalar, nazariyalar, yo‘nalishlar, qarashlar, yondashuvlar, turli jabhalar va jihatlar mavjudligi kuzatiladi. Ammo unutmaslik lozimki, sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi

tasavvurlar shakllanishi uchun shaxsning ular haqidagi tushuncha va tasavvurlari, ularning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ананьев В.А. Основы психологии здоровья. Книга 1. Концептуальные основы психологии здоровья. – СПб.: Речь, 2006. – 79 бет.

2. Ананьев В.А. Психология здоровья. - СПб., 2006. – 214 бет.

3. Березовская Р.А. Отношение к здоровью // Здоровая личность / Под ред. Г.С. Никифорова. - СПб.: Речь, 2013. – Б. 214-244.

4. Лисицын Ю.П. Общественное здоровье и здравоохранение: Учебник для вузов. - М.: ГЭОТАР-МЕД,2002. - 160 бет.

5. Карамян М.Х. Шахснинг саломатликка қадрият сифатидаги муносабатининг ижтимоий-психологик детерминatsiяси. Психология фанлари доктори (dsc) диссертatsiяси. 2019 -76 бет.

6. Ismailovich A. S. PROBLEMS OF IMPROVING PSYCHOLOGY OF HEALTHY LIFESTYLE OF UZBEK FAMILY //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 1. – C. 313-318.

7. Ismoilovich, S. A. SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF THE FORMATION OF THE PSYCHOLOGY OF A HEALTHY LIFESTYLE OF FAMILIES.

8. A zamat, S. (2022). On The Basis Of National Values To Raise A Healthy Generation In The Family. *Journal of Positive School Psychology*, *6*(10), 2417-2420.

9.Saidov A. SOCIAL PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF A CULTURE OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 867-871.

SHAXSNING PULGA BO‘LGAN MUNOSABATINI SHAKLLANTIRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Omonov Sherali Ibroxim o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Odamlar hayotida pulning paydo bo‘lishi katta yutuq deb hisoblanadi. Ushbu yuqori intellektual ixtiro insoniyatga mehnat taqsimoti, kooperatsiya va kapital fenomeniga asoslangan iqtisodiy sivilizatsiyaning yangi bosqichiga o‘tishga imkon berdi.

Iqtisodiy kategoriyaga amal qiluvchi har bir mamlakat rivojlanishining asosiy vositalaridan biri pul bo‘lib, bozor iqtisodiga o‘tish va unda ish yuritishda uning o‘rni va ahamiyati yanada oshib boradi. Iqtisodiy funktsiyalardan tashqari, pul odamlarning ruhiyatiga ta’sir qiladi, uning kognitiv va xulq-atvorining ma’lum tarkibiy qismlarini o‘zgartiradi. Psixologik nuqtai nazardan, pul — bu odamlarning ongida mavjud bo‘lgan ma’lum bir vakillik, ramz bo‘lib, ularga og‘zaki, hissiy jihatdan rang-barang va taniqli tasvir shaklida subyektiv shaxsiy ma’no beradi.

Pul psixologiyasi odamlarning psixologik jihatlari va moliyaviy xulq-atvori o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadigan muhim yo‘nalishdir. Ushbu munosabatlarni tushunish moliyaviy farovonlikka erishish va shaxsiy moliyani muvaffaqiyatli boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Pulga bo‘lgan munosabatimiz turli omillar ta’siri ostida shakllanadi, jumladan:

1. **Oilaviy tarbiya va ta’lim:** biz ko‘pincha birinchi moliyaviy e’tiqodlarimiz va odatlarimizni oiladan o‘zlashtiramiz. Bunga pulni idrok etish, qarzga nisbatan munosabat, moliyaviy mustaqillik qiymatini tushunish va boshqalar. Ta’lim esa bizning moliyaviy bilim va ko‘nikmalarimizni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

2. **Madaniy va ijtimoiy omillar:** ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar, masalan, moddiy muvaffaqiyatga intilish, iste’mol madaniyati, ijtimoiy taqqoslash va maqom ramzlari bizning pul va iste’molchilarning xatti-harakatlariga bo‘lgan munosabatimizga ta’sir qilishi mumkin.

3. **Shaxsiy e’tiqod va qadriyatlar:** bizning shaxsiy qadriyatlarimiz, e’tiqodlarimiz va maqsadlarimiz pulga qanday munosabatda bo‘lishimizga ham ta’sir qiladi. Masalan, ba’zi odamlar xavfsizlik va barqarorlikni qadrlashlari mumkin, shuning uchun ular tabiatni muhofaza qilish va saqlashga moyil, boshqalari esa o‘sishga va moddiy muvaffaqiyatga erishishga intilishlari mumkin.

4. **Hissiy va psixologik omillar**: qo‘rquv, ochko‘zlik, qoniqish va norozilik kabi his-tuyg‘ularimiz moliyaviy xatti-harakatlarimiz va qarorlarimizga ta’sir qilishi mumkin. O‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati, stress darajasi va o‘ziga bo‘lgan ishonch kabi psixologik jihatlar ham moliyaviy qarorlarimizga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

5. **Hayotdagi tajribalar va voqealar:** o‘tmishdagi tajribalar, shu jumladan moliyaviy yutuqlar va muvaffaqiyatsizliklar, shuningdek, turmush qurish, farzand ko‘rish, ishdan bo‘shatish yoki pensiya kabi hayotiy voqealar bizning pulga bo‘lgan munosabatimizni va moliyaviy masalalardagi xatti-harakatlarimizni o‘zgartirishi mumkin.

6. **Ijtimoiy muhit va ta’sir:** ijtimoiy me’yorlar, stereotiplar va umidlar ham pulga bo‘lgan munosabatimizga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, iste’molchilik madaniyati va ijtimoiy taqqoslash iste’molni rag‘batlantirishi va moliyaviy qarorlarga ta’sir qilishi mumkin.

7. **O‘z-o‘zini hurmat qilish va ishonch darajasi:** o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘ziga ishonch darajasi pulga bo‘lgan munosabatga ham ta’sir qilishi mumkin. O‘zini yuqori baholaydigan va o‘ziga ishongan odamlar xavfli moliyaviy qarorlar qabul qilish ehtimoli ko‘proq, o‘zini past baholaydigan odamlar esa ko‘proq konservativ bo‘lishi mumkin.

Bu omillarning barchasi birgalikda pulga bo‘lgan munosabatimizni shakllantiradi va moliyaviy maqsadlarimiz, odatlarimiz va qarorlarimizni belgilaydi. Ushbu omillardan ongli ravishda xabardor bo‘lish o‘zimizni va moliyaviy motivlarimizni yaxshiroq tushunishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida ko‘proq o‘ylangan va ongli moliyaviy qarorlar qabul qilishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Горчакова О.Ю., Ларионова А.В., Обуховская В.Б., Козлова Н.В. Исследование экономического поведения личности: связь психологических особенностей и монетарных установок // Психолог. 2021. № 5. С. 18 - 35.

2. V.M. Karimova, O.E. Hayitov, N.Sh. Umarova, Sh.I. Omonov Iqtisodiy psixologiya. Darslik. Farg‘ona: 2024. 134 b.

3. Omonov Sh.I. O‘zbekistonda reklama idrok qiluvchilar shaxsining etnopsixologik xususiyatlari: Psixol. fan. bo‘yicha fals. d-ri (PhD)... dis.: 19.00.05. – T., 2022.

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA ZAMONAVIY YOSHLARDA INTELLEKTUAL KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ostanov Shuxrat Sharifovich
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Hamroyev Jasurbek Umedovich
Buxoro davlat universiteti, psixologiya mutaxassisligi magistranti

Sun'iy intellekt yordamida zamonaviy yoshlarda intellektual ko'nikmalarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari texnologiya, ta'lim va inson rivojlanishining ajoyib kesishishini anglatadi. Bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda sun'iy intellektning ta'lim sharoitlariga qo'shilishi yoshlarning muhim bilim qobiliyatlarini o'rganish va egallash usullarini inqilob qildi.

Sun'iy intellekt o'zining ilg'or algoritmlari va mashinani o'rganish qobiliyatlari bilan ta'lim tajribalarini individual ehtiyojlar va o'rganish uslublariga moslashtirish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va shaxsiy fikr-mulohazalarni taqdim etish orqali SI yoshlarga zamonaviy dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu jarayonning ijtimoiy-psixologik jihatlari bir xil darajada muhimdir. Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish yoshlarning ijtimoiylashuvi va hissiy farovonligiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Interfaol va qiziqarli o'quv muhitini yaratish orqali SI motivatsiya, jalb qilish va o'z-o'zini samaradorligini oshirishi, o'rganish va intellektual o'sishga ijobiy munosabatni rivojlantirishi mumkin.

Bundan tashqari, sun'iy intellektning zamonaviy yoshlarda intellektual ko'nikmalarni shakllantirishga ta'siri sinfdan tashqarida. Yoshlar hayotlarining turli jabhalarida SI bilan ishlaydigan texnologiyalar bilan o'zaro aloqada bo'lib, ular raqamli asrning murakkabliklarini boshqarish uchun muhim bo'lgan raqamli savodxonlik va moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

SI adaptiv ta'limni rivojlantirishga yordam beradi, unda adaptiv o'rganishda ma'lumotlar qazib olish, aqlli o'qitish tizimlari, o'quv tahlillari va real vaqtda tahlil qo'llaniladi. Adaptiv ta'lim talabalar ta'lim engillashtirish uchun adaptiv ta'lim tizimiga test, ta'lim, ta'lim va amaliyot barcha jihatlarini o'z ichiga urinishlar. Adaptiv ta'lim tizimi talabalarning o'quv xatti-harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashi, talabalar qobiliyatlarini tahlil qilish asosida talabalar uchun maqbul o'quv yo'lini rejalashtirishi va o'quv tarkibini onlayn o'qitish videolari sifatida surish orqali yopiq tsiklli o'quv jarayonini yakunlashi mumkin. Sinfni o'rganishdan keyin duch kelgan va hal qilinmaydigan ba'zi muammolar mavjud, SI tomonidan taqdim etilgan inson-kompyuter o'zaro ta'siri texnologiyasi o'qituvchilarga talabalar uchun onlayn savollarga javob berishda yordam berishi mumkin.

Bu 2023 yil va albatta, bizning loyihalarimiz uchun ensiklopediyaning bir necha sahifasini nusxalash uchun maktab kutubxonasi tashqarisida navbatda turishimiz kerak bo'lgan paytlar uzoq vaqt o'tdi. SIning hozirgi raqamli ta'lim tizimi bilan birlashishi ta'limning yangi g'oyasini keltirib chiqardi. Ta'limning klassik an'anaviy usullari mobil raqamli kurslardan tortib onlayn ma'lumotnomalar va virtual sinflarga qadar ta'limdagi sun'iy intellekt tomonidan butunlay o'zgartirildi.

Sun’iy intellekt va ular bilan ishlaydigan turli xil texnologik dasturlar bugungi kunda nafaqat yoshlarning bilim qobiliyatlarini shakllantirishga, balki rivojlanishiga ham hissa qo‘shmoqda.

Turli sohalarda intellektual ko‘nikmalarni oshirishda SIni muvaffaqiyatli amalga oshirishning bir nechta misollari mavjud.

1. Duolingo: Duolingo-bu individual ta’lim uslublari va taraqqiyotiga asoslangan darslarni shaxsiylashtirish uchun SI algoritmlaridan foydalanadigan mashhur til o‘rganish platformasi. Platforma foydalanuvchilarga til ko‘nikmalarini samarali yaxshilashga yordam beradigan interaktiv mashqlar, Real vaqtda fikr-mulohazalar va shaxsiy tavsiyalarni taqdim etadi.

2. IBM Uotson: IBM Uotson-bu turli xil dasturlarda, shu jumladan sog‘liqni saqlash va ta’limda ishlatilgan SI tizimi. Sog‘liqni saqlash sohasida Uotson tibbiy ma’lumotlarni tahlil qilish, tashxis qo‘yish va davolash usullarini tavsiya qilish uchun ishlatilgan. Ta’limda Uotson shaxsiylashtirilgan o‘quv tajribalarini yaratish va talabalarning ishlashi haqida tushuncha berish uchun ishlatilgan.

3. CogniFit: CogniFit-bu xotira, e’tibor va muammolarni hal qilish kabi bilim qobiliyatlarini baholash va takomillashtirish uchun sun’iy intellektdan foydalanadigan kognitiv trening platformasi. Platforma individual kognitiv kuchli va zSIf tomonlarga asoslangan shaxsiy miya mashqlari mashqlarini taklif etadi, bu foydalanuvchilarga vaqt o‘tishi bilan intellektual qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

4. Grammarly: Grammarly foydalanuvchilar grammatika, tinish, uslubi va ohangi haqida Real vaqt teskari aloqa bilan ta’minlash, ularning yozuv malakasini oshirish yordam beradi, bir SI-quvvatlanadi yozish yordamchisi hisoblanadi. Platforma matnni tahlil qilish va aniqlik va muvofiqlikni oshirish bo‘yicha takliflar berish uchun tabiiy tilni qayta ishlash algoritmlaridan foydalanadi.

5. DeepMind AlphaGo: Deepmind’s AlphaGo-bu koinotdagi atomlarga qaraganda ko‘proq mumkin bo‘lgan harakatlarga ega bo‘lgan murakkab stol o‘yini go o‘yinida ajoyib muvaffaqiyatlarga erishgan SI tizimi. AlphaGo-ning ilg‘or algoritmlari va chuqur neyron tarmoqlari yuqori strategik fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini namoyish etib, intellektual ko‘nikmalarni oshirishda sun’iy intellektning imkoniyatlarini namoyish etdi.

2016 yilda AlphaGo go jahon chempioni Li Sedolni (Boroviec, 2016) go o‘yinida 4:1 yuqori ball bilan mag‘lub etganidan so‘ng, SI bo‘yicha tadqiqotlar dunyo e’tiborini tobora ko‘proq jalb qilmoqda.

Ushbu misollar til o‘rganish, kognitiv trening, yozishga yordam berish, strategik fikrlash va qaror qabul qilish kabi sohalarda intellektual ko‘nikmalarni oshirish uchun sun’iy intellektni samarali amalga oshirishning turli usullarini ta’kidlaydi. SI texnologiyasi rivojlanishda davom etar ekan, biz intellektual rivojlanish va ta’lim natijalarini optimallashtirish uchun sun’iy intellektdan foydalanadigan qo‘shimcha yangiliklar va ilovalarni kutishimiz mumkin.

U erda SI va o‘smirlarning kognitiv qobiliyatlarini oshirish o‘rtasida tadqiqot integratsiyasini amalga oshirgan ba’zi psixolog. Ulardan ba’zilari Anjela Dakvort. Dakvort-grit, qat’iyatlilik va yutuqlar psixologiyasi bo‘yicha ishi bilan tanilgan taniqli psixolog. U o‘z tadqiqotida sun’iy intellektga alohida e’tibor qaratmagan bo‘lsa-da, uning intellektual ko‘nikmalarni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan omillar bo‘yicha ishi SI yoshlarda o‘rganish va ko‘nikmalarni egallashni qanday qo‘llab-quvvatlashi haqida qimmatli tushunchalarni berishi mumkin.

Iordaniya Shapiro. Shapironing ishi texnologiyaning, shu jumladan sun'iy intellektning ta'lim va bola rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi. Uning "yangi bolalik: bolalarni bog'langan dunyoda gullab-yashnashi uchun tarbiyalash" kitobida texnologiya, shu jumladan sun'iy intellekt zamonaviy yoshlarning intellektual qobiliyatlari va kognitiv rivojlanishini qanday shakllantirishi mumkinligi muhokama qilinadi.

Ta'lim siyosati va islohotlari bo'yicha mutaxassis Pasi Sahlberg ta'lim amaliyotini shakllantirish va yosh o'quvchilarda intellektual ko'nikmalarni tarbiyalashda texnologiyaning, shu jumladan sun'iy intellektning roli haqida yozgan. O'z-o'zidan psixolog bo'lmasa-da, Sahlbergning ta'lim innovatsiyalari bo'yicha tadqiqotlari va yozuvlari zamonaviy yoshlarda intellektual ko'nikmalarni oshirish uchun sun'iy intellektdan foydalanishning psixologik jihatlari haqida qimmatli tushunchalarni taklif qilishi mumkin.

Kognitiv qobiliyatlarni yaxshilashda sun'iy intellektning samaradorligi bo'yicha tadqiqot natijalari turli tadqiqotlar bo'yicha istiqbolli natijalarni ko'rsatdi. Bu erda ba'zi asosiy topilmalar:

1. Shaxsiylashtirilgan ta'lim: SI bilan ishlaydigan ta'lim platformalari shaxsiy tavsiyalar va fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun individual ta'lim naqshlari, afzalliklari va kuchli tomonlarini tahlil qilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalari kognitiv qobiliyatlarning yaxshilanishiga, shu jumladan tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va xotirani saqlashga olib kelishi mumkin.

2. Adaptiv ta'lim: SI algoritmlari tarkib va qiyinchilik darajalarini talabaning ishlashiga qarab moslashtirishi mumkin, bu esa ularga tegishli darajada e'tiroz bildirilishini ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, adaptiv ta'lim tizimlari murakkab tushunchalarni chuqurroq jalb qilish va o'zlashtirishga yordam berish orqali kognitiv ko'nikmalarni oshirishi mumkin.

3. Ma'lumotlarga asoslangan tushunchalar: SI talabalarning bilim qobiliyatlarini yaxshilash tendentsiyalari, naqshlari va sohalarini aniqlash uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi mumkin. Ma'lumotlarga asoslangan tushunchalarni taqdim etish orqali o'qituvchilar aniq bilim zSIf tomonlarini hal qilish va umumiy ta'lim natijalarini yaxshilash uchun ta'lim olishlari mumkin.

4. Gamifikatsiya: SI bilan ishlaydigan o'quv o'yinlari va simulyatsiyalari talabalarni muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va ijodkorlik kabi bilim qobiliyatlarini targ'ib qiluvchi interaktiv va immersiv o'quv tajribalariga jalb qilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, gamified o'quv muhiti kognitiv qobiliyat va motivatsiyani oshirishi mumkin.

5. Virtual reallik: sun'iy intellektga asoslangan virtual haqiqat (VR) texnologiyalari fazoviy fikrlash, e'tibor va xotira kabi kognitiv funksiyalarni rag'batlantiradigan real va immersiv o'quv muhitini yaratishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, VR-ga asoslangan ta'lim tajribalari amaliy, tajriba o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish orqali kognitiv qobiliyatlarni oshirishi mumkin.

Xulosa. Sun'iy intellekt yordamida zamonaviy yoshlarda intellektual ko'nikmalarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari murakkab va rivojlanayotgan landshaftni taqdim etadi. Texnologiya tez sur'atlar bilan rivojlanib borar ekan, SI vositalari va platformalarining ta'lim sharoitlariga qo'shilishi yoshlarning bilim qobiliyatlarini qanday rivojlantirishini inqilob qilish imkoniyatiga ega.

SI shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini, moslashuvchan aloqa mexanizmlarini va yoshlarning intellektual qobiliyatlarini oshirishi mumkin bo'lgan katta miqdordagi ma'lumotlarga kirishni taklif qilishi mumkin. Biroq, ushbu integratsiyaning ijtimoiy-psixologik

oqibatlarini ko‘rib chiqish juda muhimdir. SI tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ko‘nikmalarni rivojlantirish yosh odamlarda yaxlit o‘sish va farovonlikni ta’minlash uchun motivatsiya, o‘zini o‘zi boshqarish, hamkorlik va axloqiy mulohazalar kabi omillarni diqqat bilan ko‘rib chiqish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Goel, A. K., & Polepeddi, L. (2016). Jill Watson: A Virtual Teaching Assistant for Online Education. Georgia Tech Library.
2. Borowiec, S. (2016). AlphaGo seals 4-1 victory over Go grandmaster Lee Sedol Technology. The Guardian.
3. CUI, L., & LI, J. (2019). Study on Data Fields Grading Category Labeling for ERP Practical Skills Intelligent Assessment System. DEStech Transactions on Computer Science and Engineering.
4. Cui, W., Xue, Z., & ThSI, K. P. (2019). Performance Comparison of an SI-Based Adaptive Learning System in China. Proceedings 2018 Chinese Automation Congress, CAC 2018.
5. Jiahui H. Salmiza S. Yufei L. “A Review on Artificial Intelligence in Education” Academic Journal of Interdisciplinary Studies May 3, 2021.

INTELLEKTNING SHAXSIY RIVOJLANISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Meyliyev Alpon Norqizil o‘g‘li
Toshkent shahar Aniq va Ijtimoiy fanlar universiteti Psixologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Intellekt boshqa psixologik tushunchalarga qaraganda ko‘proq bahs va tanqidlarga sabab bo‘lgan psixologik xususiyat hisoblanadi. Intellektni aniqlashga urinayotganda psixologlar bir qancha qarama-qarshi fikrlarni ilgari surishadi. 1921- yilda "Ta’lim psixologiyasi" jurnalida intellekt bo‘yicha konferensiya o‘tkaziladi. Konferensiyada yetakchi amerikalik psixologlar ishtirok etadi. V.Shtren intellektni ma’lum bir umumiy psixologik qobiliyat deb ta’riflaydi. Intellektni shaxsning yangi yashash sharoitlariga moslashuv omili deb hisoblagan. L.Polanyi esa intellektni bilim olishning o‘ziga xos psixologik turi sifatida ta’riflaydi. Piajening fikriga ko‘ra, intellekt shaxsning atrof muhitga moslashuvchanligida asosiy muvozanatni saqlovchi individual psixologik xususiyat deya ta’riflaydi. M.K.Akimovaning fikricha, intellekt shaxs intellektual faoliyatining asosini tashkil qiladi. Shaxsdagi muammoli vaziyatlarni hal etishda ham intellektual faoliyat yetakchi ahamiyat kasb etadi. E.A.Golubova bu nazariyani qullab quvvatlaydi faoliyat o‘z-o‘zini tartibga solishning intellektual samaradorligi deydi. Shunday qilib intellektning asosiy ta’rifini quyidagicha berishimiz mumkin. Shaxsning yangi sharoitlarga moslashuvining umumiy muvaffaqiyatini belgilaydigan qobiliyat intellektdir. Intellekt-idrok mexanizmi ichki harakat rejasidagi ("ongda") muammoni hal qilishda namoyon bo‘ladi. Tompson intellektni faqat soddalashtirilgan mavhum tushunchadir deb hisoblaydi va bir qator xulq-atvor xususiyatlarini umumlashtiradi. Intellektni o‘rganish bo‘yicha bir qator testlar va metodikalar ishlab chiqildi. Dastlabki intellekt testlar Bine va Simon tomonidan ishlab chiqildi.

Intellektni insonning umumiy tushunish, tahlil qilish, bilimlarni qo‘llash, muammolarni hal qilish, o‘rganish va yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyati deb ta’riflash mumkin. Bu

kognitiv faoliyatning turli tomonlarini o‘z ichiga olgan murakkab tushunchadir. Keling intellektning asosiy jihatlarini ko‘rib chiqaylik:

Kognitiv qobiliyatlar: Bu fikrlash, idrok etish, diqqat, xotira, mavhum fikrlash, o‘rganish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Kognitiv qobiliyatlar insonning ma’lumotni tushunish va qo‘llash qobiliyatini belgilaydi.

Ijodiy fikrlash: Intellekt, shuningdek, ijodiy fikrlash bilan bog‘liq bo‘lib, u sizga yangi g‘oyalarni yaratish, muammolarni innovatsion usullarda hal qilish, turli tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rish va o‘zingizni ijodiy ifoda etish imkonini beradi.

Muammoni hal qilish qobiliyati: Intellektual qobiliyat muammolarni tahlil qilish, ularning mohiyatini aniqlash, yechim strategiyasini ishlab chiqish va maqsadlarga erishish uchun samarali usullarni qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Moslashuvchanlik intellektual faoliyatning yangi sharoitlarga moslashish, tez o‘rganish va vaziyatga qarab o‘z xatti-harakatlarini o‘zgartirish qobiliyatini anglatadi.

Ijtimoiy intellekt: Bu jihat boshqalar bilan muloqot qilish, empatiya, boshqa odamlarning his-tuyg‘ulari va motivlarini tushunish, nizolarni hal qilish va munosabatlarni o‘rnatish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Insonning intellektual qobiliyatlari uning shaxsiyatini shakllantirishda, qadriyatlari, e’tiqodlari, xatti-harakatlari va boshqalar bilan munosabatlariga ta’sir qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Qadriyatlar va e’tiqodlar: Intellektual faoliyat shaxslarda ko‘pincha ongliroq va chuqurroq qadriyatlar va e’tiqodlarga ega. Ularni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega, bu ularga axloqiy va ijtimoiy muammolarni yanada mazmunli ko‘rib chiqish imkonini beradi. Intellektual faoliyat shaxsning xatti-harakati va tanlovini belgilaydigan e’tiqodlarni shakllantirishga yordam beradi.

Xulq-atvor intellektual faoliyat shaxsning qaror qabul qilish va xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Yuqori intellektga ega bo‘lgan shaxslar o‘z-o‘zini nazorat qilish, mazmunli harakatlar qilish va turli vaziyatlarda moslashishga moyil bo‘lishi mumkin. Ular o‘z harakatlarining oqibatlarini yaxshiroq tushunishlari va shaxsiy va professional maqsadlarga erishishga intilishlari mumkin.

Boshqalar bilan munosabatlar: Intellektual qobiliyatlar, shuningdek, insonning boshqalar bilan quradigan munosabatlarining turlari va sifatiga ta’sir qilishi mumkin. Intellekti yuqori shaxslar ko‘pincha ko‘proq ma’lumotli, ochiq ko‘ngil va har xil turdagi shaxslar bilan umumiy til topishga qodir. Ular mojarolarni boshqarishda yaxshiroq shuningdek, bag‘rikengroq va empatik bo‘lishi mumkin.

O‘z-o‘zini rivojlantirish: Intellekti yuqori shaxslar ko‘pincha o‘zini doimiy ravishda takomillashtirish va rivojlanishga intiladi. Ular o‘qish yangi g‘oyalar va tushunchalarni o‘rganishga ko‘proq qiziqish bildirishi mumkin, bu ularning shaxsiy o‘sishiga o‘ziga xos ta’sir etadi.

Ammo shuni ta’kidlash kerakki, intellekt shaxsning shaxsiyatini belgilaydigan yagona psixologik omil emas. Emotsional intellekt, tajriba, atrof-muhit, ta’lim va shaxsiy qadriyatlar kabi boshqa jihatlar ham shaxsiyatning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Biroq intellekt shaxsning atrofdagi dunyoga moslashishi, shaxsiy va professional maqsadlariga erishish qobiliyatiga ta’sir qiluvchi asosiy psixologik omil bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shaxsning shakllanishida intellektning rolini ko‘rib chiqish uning umumiy rivojlanishi va tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabati uchun shaxsning

kognitiv qobiliyatlari muhimligini ta’kidlaydi. Intellektual qobiliyatlar qadriyatlar, e’tiqodlar, xatti-harakatlar va boshqa shaxslar bilan munosabatlarning shakllanishiga ko‘p ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yuqori darajadagi intellekt hayotning murakkab tomonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu esa shaxsning qadriyatlari va e’tiqodlari shakllanishiga ta’sir qiladi. Rivojlangan kognitiv qobiliyatlar tufayli shaxs ongli xulq-atvorni shakllantiradigan va ongli qarorlar qabul qiladigan atrofni dunyoni idrok etish va tahlil imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari intellekti yuqori shaxslar ko‘pincha moslashuvchan xulq-atvor va boshqalar bilan muloqot qilish uchun samarali yechim va strategiyalarni namoyish etadilar. Ularning muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyati kasbiy va shaxsiy sohalarda muvaffaqiyatli munosabatlarni rivojlantirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, intellekt nafaqat kognitiv qobiliyatlarni, balki umuman shaxsiy rivojlanishni ham belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ammo shuni ta’kidlash joizki, shaxsiyat ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi va intellekt ulardan faqat bittasidir. Emotsional intellekt ijtimoiy ko‘nikmalar va shaxsiy qadriyatlarni rivojlantirish har bir shaxsning o‘ziga xos shaxsiyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Генетический — интеллект определяется как следствие усложняющейся адаптации к требованиям окружающей среды в естественных условиях взаимодействия человека с окружающим миром (Чарлсворз У.Р.; Пиаже Ж.).
2. Процессуально-деятельностный — интеллект рассматривается как особая форма человеческой деятельности (Рубинштейн С.Л.; Брушлинский А.В.; Венгер Л.А.; Талызина Н.Ф.; Тихомиров О.К.; Абульханова-Славская К.А. и др.).
3. Образовательный — интеллект как продукт целенаправленного обучения (Стаатс А.; Фишер К.; Фейерштейн Р.; Менчинская Н.А.; Калмыкова З.И.; Берулава Г.А. и др.).
4. Информационный — интеллект определяется как совокупность элементарных процессов переработки информации (Айзенк Г.; Хант Э.; Стернберг Р. и др.).
5. Феноменологический — интеллект как особая форма содержания сознания (Келер В.; Дункер К.; Мейли Р., Вертгеймер М.; Глезер Р.; Кэмпион Дж. и др.).
6. Структурно-уровневый — интеллект как система разноуровневых познавательных процессов (Ананьев Б.Г.; Степанова Е.И.; Величковский Б.М. и др.).

O‘SPIRINLARDAGI IJTIMOIY FOBIYA RIVOJLANISHINI KORREKSIYALASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Ro‘ziyev Umar Muzaffarovich
Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti

Jumladan, taniqli psixolog A.Kerpov tomonidan ishlab chiqilgan “Refleksiya darajalarini aniqlash” metodikasi bo‘yicha olingan ma’lumotlarga ko‘ra, vaziyatli refleksiya retrospektiv refleksiya hamda perspektiv refleksiya darajalari nisbatan kam miqdorda namoyon etilgan o‘spirin - yoshlar hisobga olinib ushbu guruhga kirivchi o‘spirinlar uchun

alohida trening mashg‘ulotlari dasturi tuzildi. Xuddi shunday tarzda G.S.Nikifirov, V.K.Vasilov, S.V.Firsova tomonidan ishlab chiqilgan “Emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish” metodikasi hamda V.M.Chumakov tomonidan taklif etilgan “Shaxs irodaviy sifatlarni o‘rganish” metodikasi talablari bo‘yicha o‘zini o‘zi nazorat qilish ko‘rsatkichlari quyi darajada shakllangan o‘spirin – yoshlar uchun ham maxsus yo‘naltirilgan trening dasturlari ishlab chiqildi va amaliyotda qo‘llanildi. Ushbu dasturlarni qo‘llashda psixologlar kuchidan foydalanildi.

Endi, bevosita o‘spirinlarda ijtimoiy fobiya, ijtimoiy fobiya omillarini korreksiyalash dasturining tuzilishi, metodologik asoslari va mohiyati bilan qisqacha tanishtirib o‘tamiz.

Demak, shaxsning ijtimoiy fobiya jarayoni bu shaxsdagi murakkab, dinamizm darajasi yuqori bo‘lgan, tashqi ta’sirlarga nisbatan nihoyatda sezgir tizimlardan biridir. Bu holat unga shakllantiruvchi ta’sirni o‘tkazish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratadi. Shakllantiruvchi yondashuv ilmiy tadqiqotning amaliy ahamiyatini ham oshirishi shubhasiz. Buning uchun tadqiqotimizning diagnostik bosqichi natijalariga ko‘ra, ijtimoiy fobiya ko‘rsatkichi yuqori darajani tashkil etgan o‘spirinlar uchun rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar tizimi ishlab chiqildi hamda o‘tkazildi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘spirin-yoshlarda ijtimoiy fobiya xususiyatlari hamda uni tashkil etuvchi komponentlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi trening shaklidagi mashg‘ulotlarni ishlab chiqish, ularning samaradorlik darajasini tekshirib, amaliyotga tadbiq etishdan iborat.

Ma’lumki, trening – o‘qitishning alohida shakllaridan biri sifatida uzluksiz kechinmalarni boshdan o‘tkazishga asoslanib, an’anaviy tarzda bilimlarni uzatish psixologik maslahat hamda psixoterapiyadan farq qiluvchi shaxslararo o‘zaro hamkorlik tajribasini anglab yetish jarayonini qamrab oladi. Ba’zida bu atamaning ma’nosini ochib berish uchun “eksperimental ta’lim” iborasi qo‘llaniladi. Bunday shakldagi ta’lim jarayonida ishtirokchilar faqatgina voqelik haqida o‘ylash va “u bilan qanday amallarni bajarish” haqida mulohaza yuritish bilan cheklanib qolmasdan, balki uzluksiz ravishda uning mohiyatini anglab boradilar.

Bugungi kunda hamma uchun umumiy qabul qilingan “trening” tushunchasi yo‘q, shuning uchun bo‘lsa kerak, psixologik amaliyotda uning ma’nosini anglatuvchi ko‘plab metod, shakl va uni anglatib beruvchi manba hamda vositalar kabi tushunchalar kelib chiqadi.

Trening termini (ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, train, training) ko‘plab ma’nolarga ya’ni: o‘qitmoq, tarbiyalamoq, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma’nolarga ega. Xuddi shunday ko‘p ma’nolilik treningning ilmiy talqiniga ham mos keladi.

Trening insonlarda mavjud bo‘lgan xulq-atvori va faoliyatini boshqaruv modelini qayta dasturlash vositasidir.

Trening shuningdek shaxs faolligini oshirish uchun, kasbiy bilimlarini oshirish, ko‘nikmalarini yaxshilashga yo‘naltirilgan, yoki shaxslarning maqsadli faoliyati talablariga mos keluvchi attityudlar modifikatsiyasi va jamoatning ijtimoiy xulq-atvorini tuzatish uchun zarurdir.

Psixologiya tarixida trening o‘qitishning eng keng tarqalgan shakli faol ijtimoiy-psixologik treninglardir. L.A.Petrovskaya ijtimoiy psixologik treningga ta’rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: «Trening - shaxslararo munosabatlardagi bilimlar, ijtimoiy ustanovkalar, ko‘nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgandir», shuningdek «Muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir».

Quyidagi trening davomida har bir bo‘lim bo‘yicha qilinadigan ishlar, mashg‘ulotlarning mazmunini aniqlashtirishga harakat qildik.

O‘spirinlarda ijtimoiy tashvish va ijtimoiy fobiyani davolash

Trening 1	(ota-onalar ishtirok) Guruh uchun asosiy qoidalar Ijtimoiy tashvishga sabab bo‘lgan holatlar Ijtimoiy tashvishning kognitiv-xulq-atvor modeli Davolash dasturi haqida umumiy ma’lumot monitoringi. Uy vazifasi: Monitoring va davolash maqsadlarini belgilash
Trening 2	(ota-onalar ishtiroki) O‘z-o‘zini kuzatishni ko‘rib chiqing Xavotirning uch komponentli modeli Ijtimoiy tashvishlarni uchta komponentga ajratish: umumiy foydalanish vaziyati Davolash uchun taxminlar Detektivlarga aylanish: uchta komponentni o‘rganish Uy vazifasi: hayotiy maqsadlar
3-trening	o‘z-o‘zini nazorat qilish, maqsadlar va tashvish modelini ko‘rib chiqish Nazorat buzilishlari: avtomatik fikrlarga kirish Ratsional Treningni ko‘rib chiqish Uy vazifasi
4-trening	uy vazifasini ko‘rib chiqish Kognitiv qayta qurish uchun to‘rt qadam Terapevtlarning kognitiv qayta qurishdagi roli Muammoni hal qilish uchun qadamlar Ko‘rib chiqish Uy vazifasi
5-trening	uy vazifasini ko‘rib chiqish Psixologlar ijtimoiy ko‘nikmalarni modellashtiradilar Ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish: zaif tomonlarni aniqlash va takomillashtirish Ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish: talabchanlik Trening va uy vazifasini ko‘rib chiqish
Trening 6	uy vazifasini ko‘rib chiqish Ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish: ko‘nikmalarni shakllantirish bosqichlarini ko‘rib chiqish va diqqatni jamlash perspektiv olish Guruh rolini o‘ynash: kafeteryada suhbatlashish Ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish: ko‘proq qat’iyatlilik uy vazifasi
Trening 7	Trening haqida umumiy ma’lumot va ko‘nikmalarini sharh sanaga qoplangan: bilim qayta qurish, muammoni hal qilish, ijtimoiy ko‘nikmalar Davolash asoslari: simulyastiya qilingan ta’sirlar Taxminlarni baholash: "hozir qanchalik yaxshi bo‘lishim kerak?” Ota-onangiz bilan nima qilish kerak: qo‘llab-quvvatlashga qanday kirish va bo‘lish tushunilgan Uy vazifasi

Trening 8	(ota-onalar ishtiroki) Uy vazifasini ko‘rib chiqish Kutishlarni ko‘rib chiqish: "hozirgacha nima o‘zgarishi kerak edi?” Davolashning asoslari: simulyastiya qilingan va seans orasidagi ta’sirlar Rol o‘ynash: istiqbolli olish ota-onalar va o‘smirlar rollarni almashtiradilar Qo‘llab-quvvatlash: murabbiylar jamoasi Uy vazifasi
9-14 treninglari	uy vazifasini ko‘rib chiqish Simulyastiya qilingan ta’sir №1 Simulyastiya qilingan ta’sir №2 Uy vazifasi: shaxsiy ierarxiya elementlari uchun tayinlangan trening orasidagi ta’sir
Trening 15 yoki 19	(ota-onalar ishtirok: oxirgi majlisida keyingi) Monitoring Ta’sir qilish: har bir guruh a’zosi barcha ta’sirga qaratilgan ota-onalar rioya Kutishlar va kelajakdagi rejalar; uy vazifasi
Self-Monitoring va ta’sir topshiriq treninglar 16-20	Sharh Yakuniy ta’sirlar va relapsning oldini olish Yakunlash

1-mashg‘ulot. «Salomlashish»

Maqsad: Beg‘araz do‘stona munosabatlarga erishish, guruh a’zolari o‘rtasida taranglikni yumshatish, ijobiy emotsional muhitni yaratish.

Guruh a’zolari davra bo‘lib o‘tirib oladilar.

Boshlovchi ko‘rsatmasi: «Hozir hammamiz o‘rnimizdan turib bir-birimiz bilan qo‘l berishib ko‘rishamiz. Qani kim bir daqiqa ichida guruhning ko‘pchilik a’zolari bilan salomlashib chiqishi mumkin». Biron bir kishi bilan 2-3 marta ko‘rishsangiz ham mayli. Bu mashq bajarilgandan keyin davrada turadi va boshlovchi guruhga savol beradi. «Qani diqqat bilan qarangchi, hamma bir-biri bilan ko‘rishib chiqdimi? Agarda kimda-kim biron kishi bilan ko‘rishishni esidan chiqargan bo‘lsa ko‘rishib olishi mumkin».

2-mashg‘ulot. «Mendagi kuchli xususiyatlar»

Maqsad: Insonning o‘zi haqida ijobiy fikrlashiga yordam berish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish.

Har bir qatnashuvchi o‘zining eng kuchli xususiyatlari: nimani yoqtirish, qadrlashi haqida, ichki erkinlikni yaxshi his etish uchun nima qilishi haqida hammaga so‘zlab beradi.

Ko‘rsatma: Qanday xususiyatlar sizda yo‘q sizga xos emas, lekin ularni bo‘lishini xohlaysiz?

Siz so‘zlaringizni qo‘shtirnoqqa olmasdan, ya’ni kimdir so‘zini ta’kidlamasdan «balki», «agar», «yoki» so‘zlarini qo‘llamasdan, keskin, to‘g‘ridan-to‘g‘ri fikr bildirishingiz kerak. Buning uchun sizga 3 daqiqa beriladi.

Tinglovchilar tushunmagan so‘zlarni qaytarishni, tushuntirib berishini iltimos qilishlari mumkin, lekin o‘z fikrlarini bildirishlari mumkin emas.

Ko‘pchilik vaqtni jim turib o‘tkazish mumkin. Sizning kuchli xususiyatlarni bayon qilishingiz shart emas, bunga o‘zingizni ishonchingiz etarlidir. Qatnashuvchilarga tayyorgarlik uchun 3 daqiqa vaqt beriladi, so‘ngra birinchi odamga boshlashga ruhsat beriladi. 3 daqiqa o‘tishi bilan rahbar signal chalib birinchi qatnashuvchining vaqti tugashini bildiradi. Navbat ikkinchi qatnashuvchiga beriladi, uning ixtiyoriga ham 3 daqiqa vaqt beriladi, shu tariqa hamma qatnashuvchilarga navbat beriladi.

Shuning uchun ham bu mashq - bajarilishi davomida qatnashuvchi o‘zining kamchiligi, xatolari, sust xususiyatlari haqida gapirmasligiga e’tibor berish kerak, ya’ni o‘zini tanqid qilish, o‘zini yomonlashga barham berishi mmkin.

Demak, ijtimoiy psixologik trening – odamlarda psixoterapevtik hamda psixokorreksion ta’sir ko‘rsatish nazariyasi va amaliyoti bo‘lib, uning vositasida individning shaxs sifatida taraqqiyoti, turlicha hayotiy vaziyatlarga, shaxslararo munosabatlarga moslashuvchanligi ta’minlanadi, trening vositasida insonning muloqot doirasidagi kompetentligi oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тревожное фобическое расстройство детского возраста/ И. А. Хрущ. – Мн. БГМУ, 2004.

2. Психологик консулътация ва психокоррекстия дарслик.У.М.Рўзиев -2021

3. Рузиев У.М. Симптомы социальной фобии человека. // Вестник интегративной психологии. -Ярославль: 2022 Выпуск 24 289ст-292ст

4. Рузиев У.М. Социальные фобии: причины возникновения и влияния на поведение человека, диагноз и психокоррекция. // Вестник интегративной психологии - Ярославль: 2022 Выпуск 26 ст 192-197

5. Ro‘ziyev U.M. Xavotirli bolalar, ijtimoiy fobiya namoyon etilishining o‘ziga xos xususiyatlari. // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 y №6) -Buxoro: B. 337-344.

6. Ro‘ziyev U.M. O‘spirinlarda ijtimoiy fobiya rivojlanishi bilan bog‘liq holatlarning diagnostikasi va psixokorreksiyasi. // № 4, 2022 “Psixologiya ilmiy jurnali” -Buxoro: B.125-132.

7. Рузиев У.М. Социальные фобии: причины возникновения и влияния на поведение человека, диагноз и психокоррекция. // Вестник интегративной психологии - Ярославль: 2022 Выпуск 26 ст 192-197

O‘QUVCHILARDA SANOGEN TAFAKKUR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nasirdinova Soliha Ravshanbek qizi

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi assistenti

Jahon ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma’naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida yuqori saviyaga ega mutaxassislarni, mehnat bozorida raqobatbardosh va innovatsion ta’lim muxitida hamkorlikdagi faoliyatga qodir pedagogik kadrlarni tarbiyalash

muammosini yanada dolzarblashtirmoqda. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari rivojlanish yo‘lini tanlagan Yangi O‘zbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan. Bunda oliy ta’lim muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb muammo hisoblanadi.

“Tafakkur (arab. - fikrlash, aqliy bilish) - predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o‘rtasida ichki, zaruriy aloqalar, qonuniy bog‘lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi”. Mamlakatimiz olimlari tomonidan tafakkur va uning ko‘rinishlari (ijodiy, mantiqiy, badiiy-estetik, axloqiy, ekologik, mustaqillik, tarixiy)ga doir bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, biroq umumta’lim maktabi o‘quvchilarida sog‘lom tafakkurni rivojlantirish muammosi alohida tadqiq etilmagan. Ehtimol, mazkur holat sog‘lom fikr yuritish tafakkurning barcha shakllariga taalluqli, deb qarash nuqtayi nazari bilan bog‘liqdir. Respublikamizda sog‘lom tafakkur masalasining pedagogik jihatlarini tadqiq etishga urinish S.Ataxonova tomonidan nashr ettirilgan maqolalarda o‘z ifodasini topgan. Biroq tadqiqotchi tomonidan “sog‘lom tafakkur” tushunchasiga berilgan ta’rif va tavsiflar ancha bahstalab ekanligini qayd etib o‘tish joiz. Masalan, tadqiqotchining “Tafakkur innovatsion ta’lim dasturida” nomli maqolasida sog‘lom tafakkur ilmiy-pedagogik ta’rifga ko‘ra, quyidagi bir necha muhim bo‘g‘inlar - sog‘lom tafakkur tushunchasi; zarur ijtimoiy muhit tushunchasi; pedagogik maqsad va natija tushunchasi; sog‘lom turmush va turmush tarzi tushunchasi kabilardan iborat bo‘lishi qayd etib o‘tilgan. Mazkur bo‘g‘inlar sog‘lom tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berish imkonini bermaydi. Shu bilan birga, maqola so‘ngida xulosa sifatida “sog‘lom tafakkur” tushunchasiga berilgan ta’rifni boshlang‘ich asos sifatida qabul qilish mumkin: sog‘lom tafakkur kishilarning o‘z salomatligi (jismoniy, ma’naviy-ruhiy - ta’kid bizniki)ni asrashga yo‘naltirilgan o‘ylari, ongi, shuuri, hissiyotlari, axloqi, estetik qarashlari, g‘oyalari, sa’y-harakatlari va ular natijasi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Sanogen tafakkur muammosi vatanimiz va qator xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ular asosan sanogen tafakkurning mohiyati, tabiati va uni rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida asosan muammoning nazariy-falsafiy, ijtimoiy va psixologik jihatlari keng miqyosda o‘rganilgan. Mualliflar o‘z asarlarida sanogen tafakkurning individual shakllariga, uning elementlarini shakllantirishning o‘ziga xos usullariga e’tibor berishadi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida o‘z xatti-harakatlarini, his-tuyg‘ularini, kayfiyatini nazorat qilishi kerak. Buning uchun u o‘zini chuqurroq anglashi lozim. Har bir inson nafaqat o‘zining his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilishi, balki muayyan qoidalarga muvofiq fikrlash tarzini ham nazorat qila olishi kerak. Mazkur holat bilan bog‘liqlikda pedagog-psixolog olimlar fikrlashning ikkita turini ajratib ko‘rsatishadi: sanogen va patogen fikrlash.

Sanogen tafakkur (lotincha: “sanus” – sog‘lom va yunon tilida – “genezis” - rivojlanish) his-hayajon, ichki kechinmalar, fikrlarni va emotsiyalarni boshqaruvchi, sog‘lomlashtiruvchi tafakkur. Patogen fikrlash bu insonning salomatligiga zarar yetkazuvchi salbiy qarashlar yig‘indisi bo‘lib, u shaxsning o‘z-o‘zi va shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladigan

emotsional beqarorlik va ichki nizolar bilan izohlanadi. Sanogen tafakkurning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan professor Yu.M.Orlov insonning ruhiy salomatligi masalasiga to‘xtalib, quyidagi fikrni bildirib o‘tadi: “Sanogen tafakkur yuritish hayot falsafasining, ong va tana salomatligining eng ishonchli yo‘llaridan biridir. Ushbu metodika yangi hissiy-aqliy odatlarni yuqori darajada o‘zlashtirishga imkon beradi, o‘tmishdagi patogen fikrlash tajribasini to‘playdi. Sanogen tafakkur inson ongini sog‘lomlashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Ya’ni, insonning hayotiy faoliyati davomida yuzaga kelgan inqirozli holatlarini ruhiy qo‘llab-quvvatlash yordamida, hissiy-emotsional o‘z-o‘ziga ta’sir ko‘rsatish orqali bartaraf etish usuli”.

Rus akademigi I.P.Pavlov ta’biri bilan aytganda - fikrlash tufayli inson «borliqning hokimiga» aylangan bo‘lsa, xayvonlar abadiy «tabiat quli» bo‘lib qolaverdilar. Shuning uchun tafakkur voqelikni bavosita, so‘z yordami bilan umumlashgan tarzda aks ettirish jarayoni hisoblanadi. Atrof-muhitdagi hodisaning tashqi ifodasi sezgi, idrok, tasavvur prosesslarida yorqin, obrazli tarzda, turli alomatlari, fazoviy joylashishi va harakatida aks etadi. Tafakkurda esa inson ularning murakkab bog‘lanishlarini anglab yetadi. Tafakkur – inson psixik faoliyatining yuksak formasi bo‘lib, inson tajribasida, sezgi, idrok va tasavvur asosida vujudga kelgan va taraqqiy qilib boradi. J.Piajening qarashlariga ko‘ra, shaxsning rivojlanish davrlaridan 3-davr ya’ni rasman operasiya davri (11-15 yoshni) aynan o‘smir yoshli o‘quvchining komillikka, mustaqillikka, keng tafakkur yuritishga o‘tish bosqichidir. Komillikni shakllantirishda avvalo, sanogen tafakkurni rivojlantirish masalasi qo‘yiladi. Komillik-o‘quvchini o‘z salomatligini asrash va o‘z faoliyatini jamiyat ravnaqi, ezgulik sari yo‘naltirish, shuningdek zamonaviy hayotda mavjud bo‘lgan turli tibbiy, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy tahdidlardan o‘zini muhofaza qilish bilimi va malakalari majmuasidan iboratdir.

K.Rodjersning ta’kidlashicha, insonning barcha harakatlari qandaydir bir umumlashtiruvchi motiv asosida yuzaga keladi va amalga oshiriladi. Mazkur motivni u faollashuvga moyillik va rag‘bat- deb ataydi. Rus psixolog olimi P.Ya.Galperinning fikriga ko‘ra, tafakkur bu oriyentirlash - tadqiqot faoliyati, oriyentirovka jarayoni, ya’ni oriyentirovka - bu jarayon, oriyentirovka - faoliyatidir. Olim psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda sub’yektning tafakkurga oriyentirovka qilish jarayonini o‘rganishdan iborat deb tushuntiradi.

A.V.Petrovskiyning qarashlaridan ma’lumki, shaxsning taraqqiy etishi, sog‘lom bo‘lishi, sanogen tafakkurining rivojlanishida interindivid (faoliyatda shaxslarning sub’yektiv munosabatlari) shaxslararo munosabatlarning ta’siri muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda metaindivid ya’ni (atrofdagi kishilarning “hissasi”) ijtimoiy muhit katta ta’sir ko‘rsatadi. L.C.Vigotskiy shaxsning ijtimoiy hayotida tafakkurning ahamiyatini: “Tafakkur hissiy bilish endi yetarli bo‘lmay qolgan yoki hatto ojizlik qilib qolgan joyda boshlanadi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavvurlarning bilish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarini davom ettiradi va rivojlantiradi” – degan qarashlar bilan izohlagan

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimbayeva Sh.“O‘smirlar o‘quv faoliyatida xavotirlanish namayon bo‘lishining psixologik xususiyatlari” nom dis T.: 2012,- B.149.

2. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Изд-во Смысл; Изд-во Эксмо, 2005. –С.665.

3. Гальперин П.Я., Психологии творческого мышления// Вопросы психологии. Г.1982 – № 5

4. Davletshin M.G., Abduraxmonov F.R. “Qadimgi Sharq mamlakatlarida psixologik fikr taraqqiyoti”. – T.: 1995. –B.26.

5. Шибутани Т. Социальная психология. М.: Феникс, 2002. – С.544.

6. Эллис А. Гуманистическая психотерапия: Рационально-эмоциональный подход/Пер.с англ.-СПб.:Изд-во Сова; М.: Изд-во ЭКСМО-Пресс, 2002. – С.272.

7. Моросанова В.И. Индивидуальная саморегуляция и характер человека // Вопр. псисол. –М, 2007,- С 59-68.

SHARQ OLIMLARINING AXLOQIY ME’YOR BORASIDAGI FIKRLARI HAMDA O‘SMIRLIK DAVRIDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

O‘tamurodov Samandar G‘ulom o‘g‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxasisligi 2-bosqich magistranti

Inson xulqida jamiyatda qabul qilingan me’yor va mezonlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, ijtimoiy taraqqiyot omillaridan biriga aylangandir. Ushbu me’yor va mezonlar nafaqat ijtimoiy barqarorlikka, balki individning o‘zini ham ruhiy barqarorlik va taraqqiyoti uchun zarurdir. Jamiyatda axloqiy ma’naviy madaniy xulq ko‘rinshlari shakllanish, ushbu talablar darajasidan og‘ish masalalari qadimdan allomalarimiz tomonidan alohida e’tibor berib kelingan.

Axloqiy me’yorlardan og‘ish muammolari, Abu Nasr al Forobiyning «Baxtga erishuv yo‘lini ko‘rsatuvchi kitob”, “Baxtga erishuv haqida”, “Davlat arbobining hikmatlari”, “Fozil odamlar shahri” singari asarlarida ko‘tarilgan. Alloma o‘z qarashlarida fazilatga juda katta o‘rin beradi. Arastuga o‘xshab, u ham fazilatlarni ikki qismga fozoil nutqiya aql-idrokka asoslangan fazilatlar va fazoil xulqiya xulqiy fazilatlarga ajratadi hamda ularning o‘rtalik xususiyatlarini ta’kidlab o‘tadi. Buyuk vatandoshimizning fikricha, insonga uni go‘zal amallar qilish uchun yo‘naltiradigan odat mahsuli bo‘lmish yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda me’yor qay darajada saqlangani bilan bog‘lanadi.

Yana bir sharq allomasi Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida insonlar va xalqlarning ijobiy yoki salbiy urf-odatlari, xulq-atvorining shakllanishida tabiiy muhitning hamda jug‘rofiy omillarning ahamiyatini ko‘rsatib berdi. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari asosan “Axloq ilmiga doir risola», “Burch to‘g‘risida risola”, “Nafsni pokiza tutish to‘g‘risida risola”, “Adolat haqida kitob”, “Turar joylardagi tadbirlar” singari asarlarida va o‘z zamondoshlari bilan olib borgan munozara-yozishmalarida o‘z aksini topgan.

Yusuf Xos Hojib tomonidan inson xulq atvoriga nisbatan o‘ziga xos yondashuvda yaxshi xulq ham, yomon xulq ham, ikki xil bo‘lishi mumkin: tug‘ma va ijtimoiy muhit natijasida shakllangan xulq. Yusuf Xos Hojib axloqiy-falsafiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z qadrini yo‘qotmagan, chunki u umuminsoniy, ma’naviy negizlarni o‘rgatadi. Allomaning o‘gitlariga tayangan holda biz ham yosh avlodni shunday ruhda tarbiyalashimiz lozim. Zero, jamiyatda axloq odob yo‘qolsa jamiyatda ma’naviy jihatdan kambag‘al insonlar ommasi vujudga keladi. Xitoy faylasufi Syunzaq va qadimgi yunon faylasufi Aflotun insonda buzg‘unchilik sari undovchi xususiyatlar mavjud ekanligi ta’kidlaganlar.

Insondagi destruktiv xulq tabiati xozirga qadar psixologiya fanida xali yaxshi o‘rganilmagan muammolardan biri sanaladi. Bu muammoning shakllanishi XX asrda paydo bo‘lgan. Bu boradagi psixologik yondashuv shaxsning og‘ishgan xulqidagi alohida ko‘rinishlarini ijtimoiy psixologik tafovutini ajratishga asoslangan.

Destruktiv xulqning barcha ko‘rinishlarida insonning ma’lum bir ximoya reaksiyalari sifatida yuzaga kelsada biroq nerv sistemasida buzilishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Destruktiv xulq bolalikdagi salbiy emosional kechinmalar, ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yetarli darajada mehr muhabbatga ega bo‘lmaganligi, nasliy omillar bo‘lishi ham mumkin.

Bundan tashqari quyidagi sabablar ham alohida e’tibor talab qiladi:

•Psixik sog‘lomlik holati hayot davomida qo‘zg‘ovchi omillar ta’sirida o‘zgarib turishi mumkin;

•Jismoniy sog‘lomlik holati hayot davomida keskin yomonlashish mumkin. Natijada inson hech qanday qonun qoidalarga bo‘ysunishni xohlamay qoladi;

•Kasbiy sohada muvaffaqiyatsizliklar. Bu holatlarda inson o‘zining noto‘kisligini , qo‘yilgan talablarga javob bera olmasligini his etadi. Natijada o‘z o‘ziga baho berish darajasi pasayadi, ijtimoiy mavqeini yo‘qotadi, o‘ziga bildirilgan e’tirozlarni adolatsiz deb qabul qiladi.

•Maishiy moddiy muammolar;

•Alkogol yoki narkotik moddalarni iste’mol qilish.

O‘smirni turmush sharoiti (jismoniy va ruhiy kamchiliklari, yetimlik va hokazo). Ko‘pchilik holatlarda o‘smir o‘z “shaxs” strukturasini boshqa muhitda topmoqchi bo‘ladi. Atrofdagilarni nasihatlari uni battar jahlini chiqaradi, o‘zlarini o‘ta “bilimli” qilib ko‘rsatib, e’tiborini jalb qiladi. Ozg‘in, past bo‘ylik o‘g‘il o‘smirlar, rivojlanishida orqada qolgan o‘smirlalr, atrofdagilarga kichkina, moslashmagan bo‘lib ko‘rinadi. Va shu muhtojlikni sezgan holda, himoyada agressivlikni namoyon qiladi. Bunday xulq o‘z-o‘ziga ishonmaslik, atrofdagilarga shafqatsizlarcha muomala qilishga olib keladi.

Bunday muammolar o‘smirni rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. O‘sib kelayotgan organizm tashqi tushunmovchiliklar bilan atrof muhitni har xil his etadi. Deviant tipdagi o‘smirlar o‘z atroflaridagi normal tipdagilar bilan munosababatlarda ularga salbiy ta’sir qilishadilar.

O‘smirlarning bir qismi ishlashni, o‘qishni xohlamay, yaxshi hayot kechirishni, ko‘p pul, hatto oltin, tilla bo‘lishini xohlaydilar. Boshqalar o‘z xohishini, “onaga sovg‘a qilish”, “uni himoya qilish” bilan ifoda etadilar. Lekin boshqa tamondan badjahillikni, jinoyatga qo‘l urushlarni namoyon qiladi. Bochkaryova G.G.ning nazariy tadqiqotlarida muloqotni bayoni, savol-javoblar usullari ishlatiladi.

Shaxsning kamol topishida va uning xulqiga ijtimoiy va biologik omillarning ta’sir kuchi hamisha bir xil bo‘lavermaydi. Inson ruhiy xususiyatlarining rivojlanishi, hayotda o‘z o‘rnini topa olish, uning Vatan, xalqning ravnaqi yo‘lida og‘ishmay, e’tiqod bilan xizmat qilish, iymonli bo‘lishi, insonni shaxs darajasiga ko‘taradi. Bunday sifatlarning ro‘yobga chiqishi tarbiyaga bog‘liq bo‘ladi.

Demak, ta’lim – tarbiya muassasalaridan tashqari tarbiyaviy ta’sirlar, ya’ni kundalik ijtimoiy voqeliklarning shaxsga ko‘rsatayotgan ta’siri, ularni ijtimoiy psixologik, ilmiy, nazariy va amaliy o‘rganishga ehtiyoj ortib bormoqda. Ijtimoiy hayotning turli jabhalari shaxsga ayniqsa o‘smirlarga, albatta o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kamolova, S. (2022). Bilimli yoshlar, tarbiya ishi, tashkilot va psixologik asoslar. Pedagogik-psixologik va zamonaviy ta’lim jurnali, 2 (2).
2. Камолова, Ш. Ў., & Мунарова, Р. (2010). Уровни совершенство личности. Исследователь научный журнал.–Қозоғистон, 5(49), 100-105.
3. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
4. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
5. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
6. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san’atiga qo‘shgan hissasi. // “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.
7. http://genderi.org/

АКМЕОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ТВОРЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ

Даукеева Айдын Оралбаевна
Нукусский государственный педагогический институт
PhD, доцент кафедры психологии

Развитие личности происходит в процессе деятельности. Как известно, личность развивается и проявляет свою сущность в деятельности, формируясь в ней, приобретая творческие свойства и качества и в то же время, оказывая преобразующее воздействие на саму деятельность.

Но в начале любой деятельности должны лежать мотивы, побуждающие личность к деятельности. Пока субъект не осознает, хотя бы в общих чертах, основные цели и у него не будут сформированы мотивы, он не может осуществлять эту деятельность. Мотив влияет на характер деятельности: определяет энергию, меру усилий, степень добросовестности, уровень активности в движении к результату, психологическое состояние субъекта. Следовательно, эффективность деятельности напрямую зависит от того, какие ценности побуждают человека, какова мотивация его труда. Мотив деятельности является внешним выражением потребности, которая, в свою очередь является пусковым механизмом деятельности. В нашем исследовании нас интересует профессиональная (в частности педагогическая деятельность), поэтому направленность акмеологической компетентностиименно на профессиональную деятельность и является одним из механизмов, побуждающих будущего учителя к совершенствованию в этой деятельности. С.Л.Рубинштейн под направленностью личности понимал некоторые динамические тенденции, которые в качестве мотивов определяют человеческую деятельность, сами, в свою очередь, определяясь ее целями и задачами. Направленность включает два взаимосвязанных момента: предметное содержание, обозначающее определенный предмет

направленности; напряжение, определяющее источник направленности.

А.Н.Леонтьев, развивая идеи С.Л.Рубинштейна, ядром личности называл систему относительно устойчивых, иерархизированных мотивов как основных побудителей деятельности. Одни мотивы (смыслообразующие), побуждая к деятельности, придают ей личностный смысл и определенную направленность, другие играют роль побудительных факторов. Распределение функций смысло-образования и побуждения между мотивами одной деятельности позволяет понять главные отношения, характеризующие мотивационную сферу личности, т.е. увидеть иерархию мотивов.

Труд эффективен лишь при наличии смысла деятельности. Смысл - это основание для оценки человеком значимости профессиональной деятельности лично для себя. Зрелой личности свойственен постоянный поиск смысла жизни, труда. Ценностные ориентации, идеалы превращаются в смыслы для конкретного человека лишь будучи индивидуально эмоционально окрашенными. Совокупность смыслов (смысла жизни, смысла профессии) образуют систему личных духовных ценностей человека, его индивидуальное профессиональное кредо. Помимо помощи в определении смысла профессии будущему учителю музыки необходимо дать установку на постоянный поиск все новых смыслов в своей профессии. По нашему мнению, именно направленность на профессию обеспечивает стремление будущего учителя к достижению *акмеологической компетентности.* Следует изложить точку зрения А.А.Деркача, который считает, что настоящий профессионализм не может возникнуть у человека, занимающегося только одной избранной деятельностью. Высокий профессионализм, хотя и не возможен без развития у человека специальных способностей, выработанных в условиях конкретной деятельности, а также соответствующих знаний и умений, но важнейшим условием его достижения является и мощное развитие у индивида общих способностей и превращение общечеловеческих ценностей в его собственные ценности, что означает нравственную воспитанность личности.

По нашему мнению акмеологическая компетентность будущего учителя определяется нами как единство теоретической и практической готовности и способности будущего учителя квалифицированно осуществлять профессиональную деятельность. Данное понятие раскрывается через совокупность профессиональных умений, реализация которых обеспечивает соответствующий им уровень результативности деятельности специалиста в процессе решения профессиональных задач. Исходя из сказанного, можно выделить следующие элементы акмеологической компетентности:

- специальная и профессиональная компетентность в области преподавае- мого предмета;
- методическая компетентность в области способов формирования знаний и умений учащихся;
- психологическая компетентность в сфере общения;
- аутопсихологическая компетентность в области самоанализа.

Профессионализм будущего учителя сочетает в себе педагогическую, психологическую, исследовательскую компетентность, основанную на умении самостоятельно обобщать и систематизировать полученные знания. Педагогическая деятельность синтезирует в себе весь комплекс педагогических и специальных знаний, взаимообусловленность поставленной задачи и средств ее разрешения. Именно специфичность деятельности будущего учителя, ее многоплановость и многопрофильности

требует от студента большой и кропотливой работы по овладению профессиональными знаниями и умениями и для того, чтобы этот процесс был успешен, необходима устойчивая мотивация на профессию.

В связи с этим, будущему учителю, необходимо осознать собственные профессионально значимые личностные особенности, с тем, чтобы адекватно и активно проявить их в учебной, а затем профессиональной деятельности. Поскольку самоактуализация может осуществляться и как спонтанный, и как управляемый процесс, необходимо вооружить студентов знанием как этим процессом управлять - через самопознание к самопроявлению. При управляемости используется деятельностный подход, поскольку присутствуют все ее компоненты: цель (профессиональное саморазвитие); мотивы (достижение успеха в учебной и профессиональной деятельности); способы достижения цели (обучение); результаты (приобретение опыта профессионального саморазвития).

Таким образом, профессиональная самоактуализация выступает как механизм акмеологической компетентности будущего учителя, направленный на осознание своих собственных профессионально значимых особенностей и активное проявление их в процессе профессиональной подготовки, а затем и в профессиональной деятельности.

Список использованной литературы:

1.Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. -М.: Просвещение, 1977.-304 с.

2. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М., 1996. - 308 с.

3.Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. -М.: Педагогика, 1976.-416 с.

4. Леонтьев А.А. Деятельность и общение //Вопросы философии. -1979.-№1.-С.121-132.

5. Деркач А.А. Методолого-прикладные основы акмеологических исследований. - М., 1999. - 392 с.

ВЛИЯНИЯ ЛИЧНОСТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ НА РАЗВИТИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СТРЕССА

А. Даукеева

Кафедра Психологии НДПИ им. Ажинияза PhD, доцент

Х. Сайдахметова

2-я степень магистрант педагогики и психологии

В научных исследованиях, посвященных проблемам стресса, непрерывно растет интерес к изучению вопросов взаимосвязи личностных особенностей с характером стрессовых реакций, их типом и интенсивностью.

Известно, что реакция человека на экстремальные воздействия, восприятие и оценка этого воздействия как вредного, нежелательного фактора обусловливаются не столько врожденными, биологически закрепленными механизмами, сколько всем комплексом свойств индивида, сформировавшихся в процессе развития и деятельности данной личности в определенной среде. От этих свойств личности зависит тип индивидуально-психологической реактивности данного человека в той или иной

ситуации, характер доминирующих поведенческих реакций в условиях психологического стресса.

Накоплено немало ценных наблюдений о роли человеческой индивидуальности в результативности выполнения разных задач в стресс-ситуациях. Установлено, что на одно и то же стресс-воздействие разные индивиды реагируют не одинаково по степени подверженности воздействию и по типу наблюдаемого эффекта. Тип реагирования и направленность поведения в этих условиях существенно зависит от индивидуальных особенностей личности. Роль интеллектуальной деятельности в развитии психологического стресса и эмоций находит все большее признание.

В серии исследований под руководством Р.Лазаруса была убедительно показана определяющая роль интеллектуальной оценки в возникновении и снижении стрессовых реакций. Один и тот же стимул (фильм) вызовет или не вызовет стрессовую реакцию в зависимости от того, какова ориентация зрителя по отношению к отображаемому событию. Если события в фильме рассматриваются как неопасные, то стресса не возникает. Если же они истолковываются как опасные и зритель при этом не занимает беспристрастной позиции наблюдателя, тогда возникает стресс. Ценность полученных результатов определяется не только тем фактом, что на оценку опасности стимула можно влиять, но и то, что "интеллектуальные оценки лежат в основе возникновения стресса...".

Значение интеллектуальных особенностей и, в более широком плане, личностных качеств индивида, (мотивационнопотребностных, волевых, темпераментальных и др.) в возникновении, развитии и проявлении психологического стресса в настоящее время не вызывает сомнения у исследователей. И в то же время именно особенности взаимосвязи характеристик эмоциональной реактивности и личности, роль личностной детерминации в развитии стресса являются наименее изученными вопросами и привлекают к себе повышенное внимание.

Отмечается интерес к врожденным, генетическим детерминированным биологическим факторам, обусловливающим психологическую индивидуальность человека, особенно в связи с проблемой деятельности человека-оператора в сложных, экстремальных, стрессогенных условиях. Именно в таких ситуациях выявляется способность к формированию реакций, адекватных условиям деятельности, определяется устойчивость к стрессогенному воздействию. Эта способность проявляется в скорости первичного приспособления организма к влиянию возникших стрессовых условий, в длительном поддержании компенсаторных реакций на эти условия, что обусловливается силой нервной системы, и в адекватной перемене образа действий, что определяется свойством подвижности нервных процессов.

Одним из способов адекватной адаптации к стресс-ситуации может являться обучение новому навыку, устраняющему конфликт, "рассогласование". Другой формой реакции может быть активное, волевое подавление воспринятой информации, "неприятие" ее в личностном плане (то есть психологическая защита личности). Адаптация к психологическому стрессу, ее продолжительность, определяется фактором психологической выносливости (устойчивости) личности. Формой психологической защиты, а следовательно и формой ответного поведенческого реагирования, может являться полное или частичное отключение от реальности обстановки с психологической реактивностью или "смещением активности".

Формы ответного реагирования вырабатываются личностью через процессы оценки, предвидения, решения, приспособления. Они различаются по скорости и продолжительности развития и находятся в зависимости от индивидуальных психологических и нейрофизиологических характеристик личности. Всем этим и определяется индивидуальный характер психологического реагирования разных индивидов а стандартных эмоционально-стрессовых ситуациях.

С позиции оценки оперативной способности человека в эмоционально-дезорганизующей ситуации (то есть в условиях "острого" психологического стресса) огромное значение принадлежит способности данного человека осуществлять сложные, специализированные виды деятельности вопреки таким эмоциогенным помехам. Это определяется типологической характеристикой личности, способностью ее к эмоциональной изоляции от всего "вне контекстуального", к подавлению возникающих психологических помех, к устойчивости по отношению к различным ситуационным изменениям. По существу это уже является проявлением психологической адаптации к змоционально- стрессорному воздействию. Но продолжительность данной фазы может чрезвычайно резко различаться в зависимости от личностей, психологической ориентации, функциональных особенностей нервной системы индивидов, характера самого воздействия. Поэтому между первым и вторым этапами развития эмоционально-стрессовой реакции в ее психологическом содержании нет четкой грани, а состояние психической дезадаптации, то есть третий этап эмоционально-стрессовой реакции, может при определенных условиях развиваться непосредственно за стресовоздействием как следствие острого психологического стресса. В этом и состоит отличие эмоции от эмоционального (психологического) стресса.

Состояние психической дезадаптации может быть также следствием сильных положительных эмоций, хотя такие случая гораздо более редки, чем психологическая дезадаптация от воздействия негативных эмоции.

"Таким образом, - делает заключение В.А.Бодров, - особенности проявления психологического стресса определяются экстремальностью воздействия. Но само понятие экстремальности должно определяться не в физических параметрах внешнего стимула, а в психологических, пока еще не поддающихся квантификации категориях предела личностной психической адаптации к этому воздействию". Проблема личностной детерминации уровня психологического стресса явилась предметом ряда исследований. Основанием для специального изучения этой проблемы послужили данные о личностной дифференциации в зависимости от степени выраженности и, особенно, устойчивости уровня психофизиологической активации или психической напряженности в условиях сложной деятельности. Многими исследователями отмечалось, что специфичность реагирования в стрессе обуславливается не только характером внешней стимуляции, но и психологическими особенностями субъекта. Исследователь этой проблемы Р.Лазарус пишет: "вследствие индивидуальных различий в психологической конституции отдельных личностей любая попытка объяснить характер стрессовой реакции, основываясь только на анализе угрожающего стимула, была бы тщетной".

Он также отметил, что определение неблагоприятности стимула, условий, событий требует, чтобы это воздействие соотносилось со структурой и функцией того объекта (ткань, орган, индивид, личность), на который оно направлено. Применительно к

психологическому стрессу степень вредности или неблагоприятности стимула также зависит от характера психологической структуры личности.

Список использованной литературы:

1. Э. Миронов Стресс.- Москва Санкт-Петербург, 2003.- стр 10

2. Чирков Ю.Г Стресс без стресса. - М.: РИС, 1988.-стр 176

3.Бодров В.А. Информационный стресс: Учебное пособие для вузов. - М. 2000. - стр 352.

HARBIY XIZMATCHILARGA PSIXOLOGIK XIZMATDA QO‘LLANADIGAN KORREKSION TRENING DASTUR

To‘ymurodov Abdurahmon Shuhrat og‘li

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi tayanch doktoranti

Biz bilamizki, alohida olingan shaxs muammosini ko‘plab fanlar o‘rganadi. Psixologiya, xususan harbiy psixologiya ham shunday fanlar sirasiga kiradi. Har qanday faoliyatda, jumladan, harbiy faoliyatda kishilarning psixologik xususiyatlari katta rol o‘ynaydi. Faoliyatga tirik mavjudotning (jumladan, insonning ham) o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida atrof-muhit bilan bo‘ladigan o‘zaro ta’sirlashuv jarayoni sifatida qaraladi yoki boshqacha qilib aytganda, insonning moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratishga yo‘naltirilgan, yakunlangan xatti-harakatlar tizimiga faoliyat deyiladi.

Uning maqsad, motiv va vositalari faoliyatning ichki tashkil qiluvchilari hisoblanadi. Shuning uchun ham aynan faoliyat shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi ta’sirlashuvning asosi hisoblanadi. Tashqi muhitning ta’siri shaxsning mohiyatini tashkil etadi. Ma’lumki, shaxs faoliyatdagina rivojlanadi va o‘zini namoyon qiladi.

Harbiy jamoa faoliyatining ishonchliligi va samardorligi haqida shuni aytish mumkinki, u inoqlik, o‘zaro bir-birini tushunish, o‘zaro munosabat ko‘nikmalari kabilarga bog‘liq. Kelishmovchilik, bir-biriga nisbatan shubha, umumiy ishdagi har bir kishining o‘rni va rolini noto‘g‘ri tushunish kabilar jamoaviy faoliyat samaradorligini pasaytiradi.

Harbiy faoliyat o‘ziga xos o‘zaro munosabatlar (qat’iyatlik, subordinatsiya), shuningdek, insonlarning katta kuch sarflashlari bilan xarakterlanadi.

Harbiy psixologlar qanday yordam berishadi.

Harbiy psixologlar o‘z bemorlarini turli xil tashvishlar va buzilishlar uchun baholaydilar va davolashadi. Harbiy psixologlar odatda davolaydigan shartlarga quyidagilar kiradi

- Qayg‘u
- Shikastlanishdan keyingi stress buzilishi (TSSB)
- Moddadan foydalanish
- O‘z joniga qasd qilish fikri
- G‘azabni boshqarish
- Stressni boshqarish

Harbiy psixologlar insonning harbiy karyerasining har bir bosqichida asosiy rol o‘ynashi mumkin. Misol uchun, armiya psixologi ishga yollangan odam bilan uchrashishi mumkin, u

hatto o‘z karyerasini boshlashga ruxsat berilmasdan turib, yollangan kishi o‘zi boshlamoqchi bo‘lgan hayot turini boshqarish uchun etarlicha barqaror yoki yo‘qligini aniqlashi mumkin.

Harbiy psixologlar askarni joylashtirish paytida ham yordam berishi mumkin. Ular chet elga sayohat qilish natijasida boshdan kechirgan tashvishlar, jangovar stress va oilaviy muhim voqealar, masalan, tug‘ilgan kunlar, bayramlar, maktab o‘yinlari va boshqalarni o‘tkazib yuborish tufayli ruhiy tushkunlik bilan yordam berishi mumkin.

Askar uyga qaytganida, ular ruhiy tushkunlik yoki travmadan keyingi stress buzilishi (PTSD) ni boshdan kechirishlari mumkin. Harbiy psixolog turli xil davolash usullarini taklif qilishi mumkin, masalan, kognitiv xatti-harakatlar terapiyasi (CBT) va / yoki dori. Yangi dori-darmonlarni boshlash yoki to‘xtatishdan oldin har doim shifokor bilan maslahatlashing.

Harbiy psixologlar yordam beradigan boshqa usullar

Harbiy psixologlar harbiylarga bemorlarni davolashdan tashqari boshqa yo‘llar bilan ham yordam berishlari mumkin. Ba’zilar askarlar bajaradigan missiyalar bo‘yicha tadqiqot olib boradi yoki tahlil qiladi. Ular hayotni saqlab qoladigan tartiblarni yaratishga yordam berish uchun tinchlikni saqlash va insonparvarlik usullarini o‘rganishlari mumkin.

Harbiy psixologlar taktik psixologiya deb ataladigan narsani ham o‘rganishlari mumkin. Taktik psixologiya - bu askarlarning jang paytida qo‘llaydigan taktikasini o‘rganadigan fan. Xususan, asosiy e’tibor odatda askarlarning dushmanni muzlatib qo‘yishiga yoki dushmanning hujum qilish istagini yoki qobiliyatini kamaytiradigan har qanday boshqa faoliyatda qatnashishiga olib keladigan harakatlariga qaratiladi.

Harbiy psixologlar foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan yana bir soha - bu kasbiy psixologiya sohasida. Harbiy psixologlar harbiylarga ko‘proq xilma-xillikka erishishda yordam berishi mumkin, shu bilan birga irqiy yoki jinsiy kamsitish va tajovuz holatlarini kamaytirishi mumkin. Misol uchun, harbiy psixologlar harbiy xizmatdagi ayollarga ba’zan dushman bo‘lgan ish joylarida mazmunli martaba olib borishda yordam berishlari mumkin.

Kasbiy psixologiyani targ‘ib qilish uchun harbiy psixologlar, shuningdek, giyohvandlikka duchor bo‘lishi mumkin bo‘lgan askarlarni, shuningdek, jangda yarador bo‘lganlarni reabilitatsiya qilishda yordam berishi mumkin.

RATSIONAL PSIXOTERAPIYA- usulining mohiyati shundaki, mutaxassis mijozning ongiga murojaat qilib, uni ishontiradi va atrofdagi haqiqatga, vaziyatga, voqealarga to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi. Ekstremal vaziyatda, inson hayotini keskin o‘zgartirib yuborgan voqea sodir bo‘lgan taqdirda, bilish jarayonlari buziladi va his-tuyg‘ular ta’siri ostida bo‘lgan kishi nima sodir bo‘lganligi haqida noto‘g‘ri xulosalar chiqarishi mumkin.

PSIXOLOGIK BRIFING - ekstremal vaziyatni yoki psixologik travmani boshdan kechirgan odam bilan bir martalik, yarim tizimli psixologik suhbat. Ko‘pgina hollarda, brifingning maqsadi jabrlanuvchiga u bilan sodir bo‘lgan voqeani tushuntirish va uning nuqtai nazarini tinglash orqali unga etkazilgan psixologik zararni kamaytirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avezov O.R.. Экстренная психологическая помош в экстремалних ситуациях. Вестник интегративной психологии 4 (№. 21), 32-39.

2. A.Sotib-Oldiev «Harbiy pedagogika» Sharq nashriyoti, Toshkent 2009 y.

3. Avezov O.R. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies.

TALABALARDA ILMIY TADQIQOTCHILIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI

Raxmatullaev Farhod Baxtiyor o‘g‘li
O‘zMU “Umumiy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Ma’lumki, zamonaviy ta’limning maqsadi - bu nafaqat bo‘lajak mutaxassislarni malakasini yangi, ilg‘or, innovatsion bilimlar bilan oshirish, balki ularda bo‘lajak kasbiga oid ma’lumotlarni mustaqil ravishda topa olish va ularni tahlil qila olish shuningdek, maxsus bilimlardan oqilona foydalana olishga o‘rgatishdir. Raqobatbardosh kadrlar deganda biz, jamiyatning istalgan sohasida samarali ishlay oladigan, kutilmagan vaziyatlarga tez moslasha oladigan, ijodiy fazilatlari shakllangan yetuk shaxsni tushunamiz. Raqobatbardosh, yetuk shaxslarni shakllantirish uchun, bo‘lajak mutaxassislarni ilmiy izlanishga, mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishga tayyorlash ishlari, hozirgi oliy ta’lim oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Tadqiqotchi B.Ye.Yesipov psixologik mazmunga ko‘ra, talabalarning o‘quv va ilmiy-tadqiqot faoliyati - mantiqiy, intuitiv, evristik fikrlashni aks ettiruvchi hamda intellektual tarkibiy qismlarini birlashtirishga asoslangan, ijodiy o‘zini o‘zi anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi sifatlar bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, uslubiy, intellektual, ijodiy kompetensiyalar bir tomondan, talabalarning kundalik intellektual va ijodiy faoliyatini ta’minlaydigan zarur shartlardan biri bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, bu ilmiy tadqiqotchilikka asoslangan bilimlarning natijasidir.

I.P. Pidkasistiyning aytishicha, ilmiy-tadqiqot faoliyati – bu darslarda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etishning samarali usullaridan biridir. Mazkur jarayon davomida talabalarda muammolarni aniqlash, turli manbalardan ma’lumot to‘plash, muammoni kuzatish, tajriba o‘tkazish, tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash, ilgari surilgan farazlarni muhokama qilish hamda bilimlarni umumlashtirish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Aynan shu holat, talabalarda tizimli fikrlay olish, muammoni hal qilish kompetensiyasi, axborot va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, muhim asoslardan biri sanaladi. Darhaqiqat, ilmiy-tadqiqot ishlari davomida talabalarda kasbiy qiziqish, o‘z ishining natijalari uchun mas’uliyat, o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi fazilatlar rivojlanadi. Ular ilk bor me’yoriy-metodik, ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni o‘rganadilar. Xuddi shu masalada fikr bildirgan A.G.Kyazovaning yozishicha, talabalarda ilmiy tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirish ishlari quyidagilarga asoslanishi kerak:

– O‘z ustida mustaqil ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z oldiga maqsad qo‘ya olish, rejalashtirish, belgilangan vazifalarga erisha olish, ishning borishini tahlil qilish, o‘z ishini tanqid qila bilish;

– Bilishga qaratilgan motivatsiyani rivojlantirish, o‘z bilimini kengaytirish, real muammoni o‘rganish;

– O‘quv jarayonini ilmiy tadqiqot elementlari bilan to‘ldirish;

– Umumiy va kasbiy bilimlarning chuqur egallash;

– Mehnatsevarlik, maqsadlilik, faollik, vijdonlilik, o‘z fikrini himoya qila olish va hokazo. Demak, ushbu ilmiy yondashuvga muvofiq, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini o‘quv jarayoniga joriy etish, tadqiqotlar olib borish faoliyati samaradorligini yanada oshiradi.

Mohiyatan, insonning o‘zini rivojlantirish qobiliyati bu – uning tanqidiy kuzatishi natijasidir. Shu bois ham, o‘quv jarayonida tanqidiy fikrlash samarali sanalib, u talaba tasavvurida yangi elementlarni yaratadi va ularni ijtimoiy ijod subyektiga aylantiradi.

Pedagog I.F.Xarlamovning so‘zlariga ko‘ra, talabalarda ilmiy tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirish va uning bosqichlari quyidagilarda o‘z aksini topadi:

– 1-bosqich: talabalarda o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish, refleksiv va empatik qobiliyatlarni rivojlantirish, ularga o‘zini tuta olish texnikasini o‘rgatish; qadriyatli-motivatsion va ilmiy tadqiqotga bo‘lgan ehtiyojini qo‘llab-quvvatlash;

– 2-bosqich: talabalar shaxsida subyektiv ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ya’ni o‘z-o‘zi ijodiy va innovatsion anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini o‘zi rivojlantirish;

– 3-bosqich: talabalarning kasbiy o‘zini o‘zi belgilash bilan bog‘liq qobiliyatini, kasbiy ilmiy madaniyatini ro‘yobga chiqarish;

– 4-bosqich: o‘quv va ilmiy faoliyatda o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalashning shaxsiy modellarini amaliy tadbiq etish. Qayd etilgan sifatlar, talabalarda ilmiy dunyoqarash, ichki madaniyat, faollik va mustaqillik kabi xususiyatlar rivojlanishini ta’minlovchi psixologik asoslardir.

B.T.Lixachevning so‘zlariga ko‘ra, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari tizimini tashkil etish va rivojlantirishning asosiy vazifalari:

– O‘quv fanlari va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari integratsiyasini ta’minlash;

– O‘qitish jarayonida talabalarni ijodiy, ilmiy va pedagogik mehnatga tayyorlash;

– Talaba yoshlarning shaxsiy ijodiy qobiliyatlarini o‘rganish va uni yangilash;

– Talabalarni ilmiy faoliyatga bo‘lgan ishtiroki natijalarini oshirish;

– Ilmiy-pedagogik faoliyatga qiziquvchi iqtidorli yoshlarni saralash;

– talabalarning ilmiy tadqiqot qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish. Bizningcha, talabalarni ilmiy tadqiqotchilikka o‘rgatishning ilmiy -uslubiy jihatlari, quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

– O‘quv jarayonidagi ilmiy-tadqiqot ishlari;

– O‘quv jarayonini to‘ldiradigan ilmiy-tadqiqot ishlari;

– Ta’lim jarayoniga parallel ravishda ilmiy-tadqiqot ishlari.

– Diplom ishlari;

– Individual tadqiqot ishlari;

– Amaliyotda bajariladigan ishlar;

– Mavzular bo‘yicha ilmiy konspektlarni bajarish;

– Ilmiy to‘garaklar;

– Talabalarning ilmiy jamiyati;

– Seminarlar, konferensiyalar, simpoziumlar, ilmiy va tadqiqot tanlovlarida faol ishtirok etish. Ana shu ishlar tufayli, talabalarda ilmiy tadqiqotchilik madaniyati, olingan empirik natijalarni modellashtirish va tahlil qila olish ko‘nikmalari tez rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak soha egalarida ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirish nafaqat, ijodiy kompetensiyalarning shakllanishiga zamin yaratadi balki, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga tegishli shaxsiy, kasbiy, intelllektual xususiyatlarning yuzaga chiqishiga keng xizmat qilar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Үесипов Б.П. Самостоятельная работа учащихся в процессе обучения / Б.П.Есипов. М.: Логос, 2002. – 284 с.
2. Князева А. Г. Принципы развития творческого потенциала студентов в условиях университетского образования // Вестник ВГУ. Серия: Проблемы высшего образования. - 2019. - №1. - С.46-49.
3. Лихачев Б.Т. Л65 Философия воспитания: спец. курс / Б.Т. Лихачев. – Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2010. – С.85.
4. Педагогика. Харламов И.Ф. Учебник. Опубликовано в Литература. 29 Сен 2013. – С.56.
5. Пидкасистый П.И. Самостоятельная деятельность учащихся в обучении: Единство и особенности овладения учащимися знаниями и методами самостоятельной познавательной деятельности. / П.И.Пидкасистый, В.И.Коротяев. М.: Педагогика, 2012. – 183 с.

TALABALARNI KREATIVLIGINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ostanov Shuhrat Sharifovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti
Oripova Maftuna Umid qizi
Buxdu 2-kurs magistranti

XXI asr axborotlar oqimi davrida ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan ta’lim-tarbiya sohasiga ham ko‘plab yangiliklar kirib kelmoqda. Ushbu yangiliklar bilan bir qatorda ularni yorituvchi yangi tushunchalar ham bizning ilmiy tilimizda qo‘llanilishi kuzatilmoqda. Jumladan pedagogika, ya’ni ta’lim-tarbiya sohasida keyingi 20-yil ichida quyidagi tushunchalar keng qo‘llanilmoqda va bizning ilmiy tilimiz iste’molida keng ishlatiomoqda: pedagogik texnologiya, ilg‘or texnologiya, ilg‘or tajribalar, innovatsiya va innovatika, pedagogik neologiya, praksiologiya, aksiologiya, innovatsiya va innovator, interaktivlik, strategiyalar, gumanistik pedagogika, liberalizatsiya, ta’limda axborot kommunikatsion texnologiyalar, tarbiya jarayonida texnologiyalar,. Biz shular orasida “kreativlik” tushunchasiga alohida to‘xtab o‘tmoqchimiz. Bu tushuncha so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya jarayonlarida ma’lum darajada qo‘llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va ma’nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning hakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tatqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa bunday izlanishlar psixologiya sohasida keng rivojlangan. A.Y. Agafonov, Y. Lotman, V. Rudnev, G.S. Batishev, M.M. Baxtin, D.B. Bogoyavlenskaya, V.M. Vil’chek, V. Dil’tey, V.N. Drujinin, D.A. Leont’ev, A.Maslou, A.A. Melik-Pashaev, I. Meyerson, A.Y. Ponomarev, M. Rorbax, S.L. Rubinshteyn, V. Frankl, R. Yakobson singari olimlar shular jumlasidandir.

Asosiy qism. Jamiyatdagi zamonaviy o‘zgarishlar ta’lim jarayonini doimiy takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ta’lim muassasasining vazifasi yuqori texnologiyalar va yangi muammolar dunyosida hayotga har tomonlama tayyor shaxsni shakllantirishdir. Bugungi kunda ijodkorlikdan faol foydalanadigan, jamiyat va texnologiyalardagi barcha o‘zgarishlarga tezkorlik bilan javob bera oladigan o‘qituvchilarga talab yuqori. Oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchisi

talabaning potensialini ishga solishi kerak, bu har bir talabaning yutuqlarini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishga, uning individual ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga yordam beradi. Talabani ijodiy kreativ fikrlashga o‘rgatish uchun o‘qituvchi o‘zi mahoratga ega bo‘lishi kerak. Shunda u talabaning aqliy faoliyatini boshqarishi, undagi ijodiy faollikni rag‘batlantirishi mumkin bo‘ladi. Mavjud o‘quv dasturlari va bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga yondashuvlarni tubdan o‘zgartish zarur, shunda o‘qituvchilar o‘zlari ham kreativ fikrlashni o‘rganadilar. Shuning uchun tayyorgarlik jarayonida asosiy e’tiborni nafaqat o‘quv materialini taqdim etishga, balki talaba, bo‘lajak o‘qituvchi kreativlikni rivojlantiradigan sharoitlarni shakllantirishga qaratish kerak. Ta’lim tizimida subyekt-subyekt munosabatlari birinchi o‘ringa chiqishi kerak. Mavjud pedagogik texnologiyalarni jiddiy islohot qilmasdan, rivojlantirmasdan bu masalalarni hal etib bo‘lmaydi. Kreativlikni samarali rivojlantirishga qaratilgan ta’lim texnologiyalari fikrlash jarayonlarini rag‘batlantiradi, ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatini shakllantiradi va o‘z xulosalarini chiqaradi. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishni quyidagi pedagogik metodlar va texnologiyalar yordamida amalga oshirish mumkin. Ularning ajralmas xususiyatlari orasida quyidagilar mavjud: ijodkorning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va amalga oshirish; ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy tendensiyalariga mos ravishda shakllangan tizimli harakatlar to‘plami.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi”.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P. Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. Ta’limdagi hozirgi sharoit texnika oliy o‘quv yurtlarida bakalavrlarni tayyorlash jarayoniga o‘zining yangi talablarini qo‘yishi bilan tavsiflanadi. Bu talablar olingan maxsus bilimlarning o‘zi, bitiruvchini raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishi uchun yetarli bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda. Shaxsning individualligini yorqin ko‘rsatib bera oladigan va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qila oladigan salohiyatlarini rivojlantirish talab etilmoqda. Bular hozirgi vaqtda, oliy o‘quv yurtlarida bakalavrlarni o‘qitishda asos qilib oladigan, o‘quv jarayonini yangilashni boshqaruvini ta’minlovchi bir necha asosiy me’yoriy hujjatlarda o‘z aksini topmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak bakalavrlarni tayyorlash jarayonida o‘qitiladigan fan doirasida yuqorida keltirilgan muammolar o‘ziga xos ahamiyat etadi. Ular nafaqat amaliyotda, o‘z bilim, malaka, ko‘nikmalarini qo‘llay biladilar, balkim, kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarda o‘ziga xos texnik yechim va nostandart qarorlarni qabul qilishi bilan ajralib turishlari kerak.

Kreativlik uchun to‘siq bo‘lishi mumkin bo‘lgan omillar. Biz ko‘p hollarda, ijodiy fikrlashdan qochishga urinamiz, pirovardida esa, boshi berk ko‘chaga kirib qoladi. Bunday to‘sqinlik qiluvchi omillarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

1. Qoidalarga bir tomonlama amal qilish.
2. Amaliylikka haddan tashqari berilish.
3. O‘yin-bu ish emas (aqliy o‘yin ijodni rag‘batlantiradi).
4. Men “jiddiy” insonman.
5. Xilma-xillikdan qochish.
6. “Xato qilish yomon!”.
7. “Men ijodiy shaxs emasman”.

Jamoa bo‘lib ishlashdagi kreativlik. Masalalar yechimini olishda jamoa bo‘lib ishlash ko‘proq qo‘llaniladi. Jamoa bo‘lib ishlashda kreativlik qanday ko‘rinishda namoyon bo‘ladi? Jamoaviy ijodiy muhitni shakllantirishda. Turli yosh, jins va soha vakillarini o‘ziga qarab olgan, uncha katta bo‘lmagan, guruhlar samaraliroq sanaladi. Biroq, ma’lumki, jamoa bo‘lib ishlashning o‘ziga xos yutuqlari va kamchiliklari mavjud bo‘lib, yutuqlariga quyidagilar kiradi:

• Ko‘pchilik ko‘p miqdordagi bilim zaxiralariga ega bo‘lishi;

• G‘oyalarni amalga oshiruvchilarning o‘zlari, uni ishlab chiqarishda ishtirok etsa, g‘oyalarni tushunish, qabul qilish oson bo‘lishi;

• Izlanuvchanlik maydonining kengligi;

• Tavakkal qilishlarni jiddiy baholay olish imkoniyati;

• G‘oyani yana rivojlantirishning guruh uchun yengil kechishi.

Jamoa bo‘lib ishlashning o‘ziga xos kamchiliklariga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

• Guruhning ijodiy natijaga kelishi uchun ko‘p vaqt sarflanishi;

• Ishtirokchilar ko‘pchilik oldida o‘z g‘oyalarini bayon qilishga tortinishlari;

• Guruh tomonidan bo‘lgan “bosimning” g‘ayri oddiy g‘oyalarni o‘rtaga tashlanishiga xalaqit berishi;

• Guruh yetakchiligini qo‘lga kiritgan shaxsning o‘z fikrini o‘tkazishga bo‘lgan intilishi;

• Haqiqatan innovatsion g‘oyalarning murosasozlik tufayli qadrsizlanishi yoki umuman rad etilishi.

Yuqorida ta’kidlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun turli-tuman usul va texnikalar o‘ylab topilgan. G‘oyalarni topish jarayoni. Odatda, yangi g‘oyalarni maqsadli yo‘naltirilgan holda izlash quyidagi bosqichlarni qamrab olishi kerak:

1. Mavzuni, izlanish yo‘nalishini aniqlash.

• Tahlil (material to‘plash, izlanish ko‘lami, o‘z-o‘zini tahlil qilish, tashqi muhit tahlil, vaziyatlarni taqqoslash)

• Qo‘yilgan masalani shakllantirish (asosiy tushunchalarni almashtirish, istiqbolni kengaytirish, so‘zlar o‘rniga obrazlarni tanlash, “Nimaga?” degan savolga javob topishga urinish, mavzuga bo‘lgan talablar)

2. G‘oyalar oqimini ochish.

• Xalaqit beruvchi to‘siqlarni yengib o‘tish;

• G‘oyalar to‘plamini topish;

• G‘oyalarni takomillashtirish yoki o‘zgartirish.

3. Eng yaxshi g‘oyalarni identifikatsiyalash.

• Tanlov;

• Aniqlashtirilgan g‘oyalarni qayta ishlash;
• Baholash;
• Hujjatlashtirish;
• Afzal yo‘nalishlarni belgilab olish;
4. G‘oyani amalga tatbiq etish.

Shaxsning ijodiy motivatsiyani qo‘llaganligi - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o‘z kamolotiga intilishdir. Kreativlik bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyatidir. Demak, bu tushunchani biz bemalol pedagogning individual qobiliyatiga kirita olamiz.

Xulosa. Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e’tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilmayotgan bo‘lsa ham bu tushunchani ma’lum darajada pedagogik iste’molga kiritishga doir harakatlar ko‘zga tashlanmoqda. Manbalarda kreativlik ijod bilan bog‘liq holda o‘rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog‘liq holda tahlil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zR Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

2. Рындак В. Г. Педагогика креативности: монография / В. Г. Рындак. - М.: Издательский дом “Университетская книга”, 2012. С.- 284.

3. Кречетников К. Г. Проектирование креативной образователной среды на основе информационных технологий в вузе. Монография / К. Г. Кречетников. – М. : Госкоорцентр, 2002. С.- 296.

4. Каримова М.Н. Проблемы и перспективы преподавания предмета “Технология” в общеобразовательных школах // Вестник Академии наук и образования. 2019. №2-2 (56).

5. Ибрагимова Г.Н. Формирование культуры креативного мышления у будущих учителей в системе непрерывного образования // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2014. №2.

TA’LIM TIZIMIDAGI RAHBAR KADRLARNING BOSHQARUV FAOLIYATI VA UNING MAZMUNI

Turaxonov Abdukarim Eshkuziyevich
Surxondaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, PhD, dotsent.

Zamonaviy psixologiya va uning bugungi yutuqlari, xalq ta’limi tizimidagi rahbar kadrlarning boshqaruv mahorati va harakatlarining samaradorligini yana bir bor tekshirish zaruriyatini. Qolaversa, hozirgi kunda ta’lim tizimining modellarini qayta ko‘rib chiqish, kasbiy kompetentsiya muammolarini o‘rganish, ta’lim rahbari faoliyatiga qo‘yiladigan asosiy talablarni o‘zgartirish vazifasi o‘ta dolzrab vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator yoshlar ta’lim-tarbiyasiga oid islohotlar tufayli, yurtimiz kelajagi uchun

yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'kidlash joizki, xalq ta'limi tizimidagi rahbarlarga xos eng muhim ijtimoiy-psixologik xususiyat bu – boshqaruvga bo'lgan kompetentlik sanalib, u orqali davlat va davlat ravnaq topadi shuningdek, yangicha yashash va yangicha hayot tarzi amalga oshiriladi. Ushbu dolzarb vazifalar ta'lim sohasidagi rahbar shaxslar faoliyati bilan uzviy bog'liq sanalib, uni ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish o'ta ahamiyatli hisoblanadi. Qolaversa, zamonaviy rahbar va uning boshqaruv uslubi, davlat xizmatidagi rahbar shaxslarga xos xarakterologik xususiyatlar, novator rahbarga quyiladigan talablar, samarador boshqaruv tizimi, tashabbuskor rahbar kabi masalalarga bag'ishlangan yangi mahalliy psixologik tadqiqotlar, rahbar kadrlar sohasini qayta isloh qilish, jamiyat boshqaruvini modernizatsiya qilish ishlarida ilg'or g'oyalar sifatida xizmat qilishi tabiiydir. Hozirga qadar boshqaruvda rahbar imkoniyatlari va muvaffaqqiyatli rahbar masalalariga oid xarizmatik, transformatsion, o'zgaruvchan yetakchilik, tuzatuvchan yetakchilik kabi yondoshuvlar mavjud bo'lib, ularda innovatsion rahbar xulq-atvoriga xos ko'plab ijtimoiy – psixologik xususiyatlar majmui tavsiflangan. Biroq, biz maqsadimizga mos ayrim tadqiqotlar mazmuniga e'tibor qaratmoqchimiz.

V.G.Gryazeva-Dobishinskayaning aytishicha, ta'lim tizimidagi rahbarlar faoliyati, hozirgi ijtimoiy-psixologiya uchun, yangi tadqiqot g'oyasi sanalib, uni ilk bor tadqiq etgan olimlar sifatida Dj.Kadjemi, D.S.Dayl, E.Y.Lesser, T.L.Tomas, A.G.Vas, R.L.Daft, E.D.Sheyn hamda D.K.Xarres kabilarni tan olish mumkin. Mualliflar asosan, ta'lim rahbarlarining jamiyat o'zgarishlariga bo'lgan munosabati va yangiliklarga moslasha olish qobiliyati masalalariga ko'proq e'tibor qaratishgan.

P.S.Gluxova namunali rahbar faoliyatining o'ziga xosliklari borasida tadqiqotlar olib borib, unga shunday ta'rif beradi: "innovatsion rahbar tashkilotdagi o'zgarishlarni to'liq qo'llab-quvvatlaydi, tashqi sodir bo'layotgan o'zgarishlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olib, ishni bajarishda o'z jasoratini namoyish etadi. Shuningdek, boshqalar tomonidan berilgan taklif va mulohazalarni qabul qiluvchi, ularni qayta ishlovchi shaxsdir. olishga tayyorligiga jasorat va ishonchni namoyish etadi. Demak, bunday rahbarlar qaysi soha bo'lmasin doim yangilikni istovchi, uni qo'llab-quvvatlovchi, novator shaxslardir. Yuqoridagi fikrlardan farqli o'laroq, innovatsiya moyil rahbarlar oldindan strategiyalar tuzuvchi va ularni o'z vaqtida qo'llay oluvchi kishilardir. N.V.Gorodnikova aytishicha, yangiliklar va o'zgarishlarni yaratadigan rahbarlar ijtimoiy faoldir. Ular zarurat tug'ilishidan oldin harakat qilib ulguradilar. Ya'ni, ular kimdandir g'oya yoki yordam kutib o'tirishmaydi. Shuning uchun ham, ularning faoliyati muvaffaqqiyatli yakunlanadi. Mazkur mulohazalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, rahbar faoliyatining samaradorligi bu undagi intuitsiya qilish qobiliyati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Intutsiya bu – oldindan biror yangilik yoki yutuq imkoniyatlarini ko'ra olish qobiliyati sanaladi.

R.L.Daftning tadqiqotlarida keltirilishicha, ilg'or ta'lim rahbari bu – g'ayri oddiy harakat qiluvchi, nosantdart fikrlovchi, yorqin ishlarga qodir, yangi madaniyatga tez moslasha oluvchi, ijodkorlikni qo'llab – quvvatlovchi, boshqalarni muvaffaqqiyat sari yetaklovchi shaxsdir. Demak, zamonaviy ta'lim rahbari uchun nostandart fikrlash, harakat qilish muhim sanalib, u muvaffaqqiyatni ta'minlovchi psixologik shart-sharoitlardan biri hisoblanadi. I.V.Konevning so'zlariga ko'ra, innovatsion ishlarni tashkil qilish uchun, avvalambor ta'lim tizimidagi rahbar shaxsida quyidagi qobiliyatlar shart hisoblanadi:

– Har qanday tashqi o'zgarishlarga tezkor javob berish qobiliyati;

– Boshqaruv tizimini soddalashtira olish;

– Vazifalarni amalga oshirish vaqtini qisqartira olish;

– Qo‘l ostidagilarning takliflari va tavsiyalariga e’tiborli bo‘lish;

– Guruhning barcha ishtirokchilari o‘rtasida iliq munosabatlar o‘rnata olish;

– Eng iste’dodli o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularga kognitiv ko‘mak berish qobiliyatiga ega bo‘lishi va hokazo. Mazkur keltirilgan tasniflar mazmunidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, bo‘lajak rahbar kadrlar shaxsida vaziyatlarni tez idrok qilish, qo‘l ostidagi xodimlarni boshqara olish, iste’dodli xodimlarni ajrata olish kabi qobiliyatlar shakllangan bo‘lishi lozim sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, ilg‘or boshqaruv kompetensiyasiga ega umumo‘rta ta’lim tashkilotlari rahbarlariga xos qator ijtimoiy-psixologik xususiyatlar tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, altruizm, tolerantlik, kasbiy kompetensiya, psixologik kompetensiya, intellekt, sotsial intellekt, emotsional intellekt kabilar qayd etilib, ularni ijtimoiy - psixologik jihatdan amaliy o‘rganish, nafaqat fan uchun balki, jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun ham qator imonkiyatlar olib kelishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. В.Г.Грязева-Добшинская Инновационное лидерство: социально- психологическая программа для менеджеров / В.Г. Грязева-Добшинская // Социалная психология творчества – 2007: сборник научных трудов. – Челябинск: ЮУрГУ, 2007. – С. 200 – 207.

2. Глухов П.С. Управленческие ориентации и стили лидерства менеджеров организаций с разной степеню инновационного развития / П.С. Глухов // Вестник ЮУрГУ. – Серия «Психология». – 2010. – Вып. 9. – С.74 – 78.

3. Городникова Н.В. Индикаторы инновационной деятелности: 2014: статистический сборник / Н.В. Городникова, Л.М. Гохберг, И.А. Кузнецова и другие. – М.: НИУ «ВШЭ», 2014. – 472 с.

4. Дафт Р.Л. Уроки лидерства / Р.Л. Дафт. – М.: Эксмо, 2006. – 480 с.

5. Конев И.В. Инновационная готовност персонала организации: диагностика и пути повышения: Автореферат дис. на соискание ученой степ, канд. социол. наук. Белгород, 2001. – 25 с.

6. Инновационный менеджмент/ под ред. Л.Н. Оголевой. М: Инфра-М, 2001. – 238 с.

PSIXOLOGIYADA XARAKTER VA SHAXSIYAT MUAMMOSI

Hakimova Fazolat Xoshimovna

Buxdu psixologiya va sotsiologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Axmedova MadinaShuxratjonovna

Buxdu amaliy psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan” deb ma’naviyatni yuksaltirish bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida aytib o‘tganlar. Bugungi kunda yurtimizda milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy qadriyatlarga sodiq yoshlarni tarbiyalash dolzarb bo‘lib kelmoqda. Buning uchun har bir inson o‘z shaxsini mukammal bilishi va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olishi

muhimdir. Jamiyatimizda insonlar dunyoqarashi kengaytirish va ularning muammolariga yechim topishda psixologlarning hissasi kattadir.

Zamonaviy psixologiyada shaxs shakllanishi va rivojlanishi muammosiga qaratilgan ishlarni tadqiq qilish , shaxs va uning jamiyat bilan munosabatlarida muvaffaqqiyatli hamkorlik, inson shaxsining ma'naviy barkamolligi, hayotiy qiyinchilik va krizislarda adekvat yechim topa olish psixologik tomondan chuqur tahlil qilinadi. Bu borada psixologiyada inson xarakteri va shaxsiyati uning bajargan ishlarida aks etishi ta'kidlanadi.

Biz odatda xarakter va shaxsiyatni bir xil narsa deb hisoblaymiz, ammo ular butunlay farq qiladi. Xarakter va shaxsiyat bir-biriga ta'sir qilsa-da, xarakter bizning qadriyatlarimizga ishora qiladi va shaxsiyat o'zimizni qanday tutishimizni tasvirlaydi. Bu farqlardan o'zimizni xabardor qilish, nima uchun biz shunday ekanligimizni tushunishimizga yordam beradi.

"Xarakter insonning axloqiy va etikaviy fazilatlarini bildiradi. U o'z xatti-harakatlarini alohida yo'llar bilan boshqara oladigan e'tiqod va axloqiy tamoyillardan iborat. Shaxsiyat - bu odamning xulq-atvori va harakatlari orqali namoyon bo'ladigan jismoniy, psixologik, va ijtimoiy jihatlarining yig'indisidir ", deydi Tara M.Lally, PhD, Okean universiteti tibbiyot markazining psixiatriya bo'limining nazoratchi psixologi.

Xo'sh, Xarakter va Shaxsiyat o'rtasidagi asosiy farqlar qaysilar?

Xarakter : Bu bizning shaxsiy e'tiqodlarimiz va qadriyatlarimizga ishora qiladi - ikkalasi ham bizning shaxsiyatimizni shakllantiradi. Hayotiy tajribamiz xarakterlarimizni ham shakllantiradi, ichki fazilatlarimiz va axloqimizni ochib beradi.

Shaxsiyat : bizning temperamentimiz va xatti-harakatlarimizga ishora qiladi. Bizning shaxsiyatimiz fe'l-atvorimizni shakllantiradi va shaxslararo munosabatlar ko'pincha kimningdir shaxsiy xususiyatlarini yo'q qilishga yordam beradi.

Xarakter va shaxsiyatni nima o'xshash qiladi?

Ikkalasi ham insonning shaxs sifatida kimligini aks ettiradi va atrof-muhit omillariga ta'sir qiladi. Bu konstruksiyalar shaxsning shaxsiyatini tashkil qiladi va fikrlash shakllari, xatti-harakatlari va harakatlarida muhim rol o'ynaydi. O'zingizga va boshqalarga nisbatan kimligingizni tushunishda shaxsiyat ham, xarakter ham ajralmasdir.

Xarakter o'ziga xos axloqiy o'lchovni anglatadi. Xarakterning shakllanishi o'z-o'zini baholash jarayonini o'z ichiga oladi, bunda odamlar o'zlarini qanday bo'lishini (haqiqiy o'zini) tasvirlashlari bilan ular qanday bo'lishni xohlayotganlarini (ideal o'zini) va bo'lishdan qo'rqqanlarini (qo'rqinchli o'zini) solishtiradilar. 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlarda bu o'z-o'zini tavsiflash umumiy tuzilishga ega va yoshga bog'liqligi aniqlandi. Ushbu tavsiflarning yarmiga yaqini hech bo'lmaganda ma'naviy mazmunga ega. O'z-o'zini hurmat qilish va rivojlanish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik statistik jihatdan ahamiyatli bo'lmasa-da, yuqori darajadagi shaxslar o'zlarining axloqiy xatti-harakatlari haqida o'z-o'zini tanqid qilish ehtimoli ko'proq edi. O'z-o'zini tanqid qilish, o'z navbatida, o'z-o'zini hurmat qilishning biroz pastroq bo'lish ehtimolini oshirdi.

Shaxsiyat - bu insonning hayotga o'ziga xos moslashuvini o'z ichiga olgan doimiy xususiyatlar va xatti-harakatlar, jumladan, asosiy xususiyatlar, qiziqishlar, intilishlar, qadriyatlar, o'zini o'zi anglash, qobiliyatlar va hissiy kechinmalaridir. Shaxsning misollarini boshqa odamlarning xususiyatlarini qanday tasvirlashda topish mumkin. Masalan, "Uning shaxsi saxiy, g'amxo'r va bir oz mukammallik tarafdori" yoki "Ular sodiq va do'stlarini himoya qiladilar".

"Shaxs" so'zi lotincha persona so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ijrochilar tomonidan rol o'ynash yoki o'z shaxsiyatini yashirish uchun kiyiladigan teatr niqobini bildiradi.

Shaxsning ko‘plab ta’riflari mavjud bo‘lsa-da, ko‘pchilik odamlarning xatti-harakatlarini bashorat qilish va tushuntirishga yordam beradigan xatti-harakatlar va xususiyatlar namunasi va yig‘indisi nazarda tutiladi.

Shaxsiyat va xarakterni qanday bir-biridan ajratish kerak. Shaxsiyatni o‘qish oson va biz hammamiz bu borada mutaxassismiz. Biz odamlarni kulgili, ekstrovert , baquvvat, optimistik , o‘ziga ishongan, shuningdek, o‘ta jiddiy, dangasa, salbiy va uyatchan deb baholaymiz - agar ular bilan birinchi uchrashganda bo‘lmasa, keyin ko‘p o‘tmay. Garchi bu turdagi xususiyatlar mavjudligini tasdiqlash uchun bizga bir nechta o‘zaro ta’sir kerak bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, biz ular borligiga qaror qilganimizda, biz odatda xulosalarimizni asoslash uchun yetarli ma’lumotlarni to‘playmiz.

Boshqa tomondan, xarakterni topish uchun ko‘proq vaqt ketadi. U faqat o‘ziga xos va ko‘pincha kamdan-kam hollarda o‘zini namoyon qiladigan xususiyatlarni, halollik, fazilat va mehribonlik kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ajablanarlisi shundaki, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, shaxsiyat xususiyatlari asosan irsiyat bilan belgilanadi va asosan o‘zgarmasdir. Boshqa tomondan, xarakterning eng muhim belgilari ko‘proq moslashuvchan, ammo shuni ta’kidlash kerakki, katta kuch sarflamasdan emas. Xarakter xususiyatlari, shaxsiy xususiyatlardan farqli o‘laroq, e’tiqodlarga asoslanadi (masalan, halollik va boshqalarga yaxshi munosabatda bo‘lish muhimmi yoki yo‘q) va e’tiqodlarni o‘zgartirish mumkin bo‘lsa-da, bu ko‘pchilik tushunganidan ancha qiyin.

Insonning hayotimizdagi muhim rollarga (xodim, do‘st, sevgilisi, turmush o‘rtog‘i) muvofiqligi to‘g‘risida mulohazalarni shakllantirishdagi muammo shundaki, biz hammamiz jozibali shaxsiy xususiyatlarni kuzatish va ulardan ijobiy xarakter xususiyatlarining mavjudligini ishlab chiqarish uchun g‘ayrioddiy moyillikka egamiz, ya’ni, agar kimdir ochiqko‘ngil, o‘ziga ishongan va qiziqarli bo‘lsa, biz ularni halol, axloqiy va mehribon deb o‘ylashimiz mumkin).

Biz ongsiz ravishda ikkita asosiy sababga ko‘ra shaxsiyatni xarakterga bog‘lashga moyilmiz: biz o‘zimizga yoqqan odamlarni yoqtirishni xohlaymiz va insonning xarakterini baholashning eng ishonchli usuli - bu mashaqqatli va vaqt talab qiluvchi. (Aslida biz odamlarni xarakterlari haqida ishonchli xulosalar chiqarish uchun xarakterli vaziyatlarda kuzatishimiz kerak. Masalan, agar kimdir osonlikcha yolg‘on gapirayotganini kuzatsak, biz hatto bir misolda ham ular shunday qilganiga amin bo‘lishimiz mumkin. O‘tmishda va kelajakda ham shunday qiladi, chunki kelajakdagi xatti-harakatlarning eng yaxshi bashoratchisi o‘tmishdagi xatti-harakatlardir.)

Buning sababi, bizni osonlikcha yolg‘on gapirish yoki haqiqatni aytish kabi narsalarni qilishga undaydigan e’tiqodlar bizda doimo mavjud. Vaziyat ularni kuzatilishi mumkin bo‘lgan harakatlarga undaydigan tarzda qo‘zg‘atmaguncha, ular "harakatsiz" qolishlari mumkin, lekin ular kamdan-kam hollarda ataylab yashirinadi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: vaziyat ularni to‘liq namoyon etishini kutmasdan, bunday e’tiqodlarni ko‘rishning bir yo‘li bormi?

Bir so‘z bilan aytganda - ha. Siz xarakterini ochmoqchi bo‘lgan odamlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri gaplashish orqali emas, balki siz o‘z xarakterini ochmoqchi bo‘lgan odamlarni biladigan odamlar bilan gaplashish orqali. Shuning uchun, masalan, dono istiqbolli ish beruvchilar har doim ma’lumotnomalarni chaqirishadi.

Biroq, biz qilganimizdan so‘ng, bo‘lajak xodimlar ular haqida yaxshi gapirishlarini kutishgan ma’lumotnomalarni taqdim etishlaridir. Demak, hiyla-nayrang, eng to‘g‘ri mulohazalarini halollik bilan ochib berishga majburlash uchun mo‘ljallangan odamning murojaatlari bo‘yicha savollar berishdir.

Nima muhimroq, xarakter yoki shaxsiyat?

Xarakter - bu shaxsiyatning jihati. Bu ish, ijtimoiy doiralar, faollik va jinoyatchilik kabi hayotning asosiy qismlariga ta'sir qilishi mumkin. Bu sizning hayotingizdagi ko'plab tanlovlaringizni belgilashi mumkin. Bu shaxsiy maqsadlar va munosabatlarning natijasini aniqlashda ham muhim bo'lishi mumkin. Xarakterni sizning mohiyatingiz sifatida ko'rish mumkin, sizning shaxsingiz esa bu mohiyatni qanday ifodalashdir. Shu nuqtai nazardan, ular o'zaro bog'liqdir.

Umuman olganda, shaxsiyat va xarakter o'rtasidagi farq shundan iboratki: Shaxsiyat sizning tashqi tomondan kim ekanligingizni yoki dunyoda qanday ekanligingizni ko'rsatadi, xarakter sizning ichingizdagi narsalarni ochib beradi. Bular insonning munosabati va xulq-atvoriga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, ko'pchilik bu ikkisi o'rtasida osongina chalkashib ketishadi.

Yuqoridagi fikrlarni ko'rib chiqqandan so'ng, shaxsiyat xarakterdan farq qiladi, chunki shaxsiyat tashqi qobiqni aks ettiradi, xarakter esa ichki shaxsni ko'rsatadi. Agar siz o'zingizning shaxsiyatingiz va fe'l-atvoringizni birlashtirsangiz, natijada siz haqiqatda kimligingiz ma'lum bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy Taraqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz ".- Toshkent, "Uzbekiston", 2019 y
2. Sh.M.Mirziyoyev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir"-Toshkent, "Uzbekiston" , 2018 y
3. E. G'.G'oziyev "Umumiy psixologiya"- Toshkent, "Uzbekiston", 2010 y
4. Sh.R. Barotov "Psixologik xizmat" – Toshkent, "Uzbekiston", 20https://www.verywellmind.com/how-are-character-and-personality-different-764453418 y
5. A.V.Petrovskiy "Umumiy Psixologiya" – Toshkent "Uzbekiston" 1992 y
6. https://www.verywellmind.com/how-are-character-and-personality-different-7644534
7. https://testbook.com/key-differences/difference-between-personality-and-character

JADID ABTURAUF FITRATNING SHAXS KAMOLOTIDAGI IJTIMOIY QARASHLARI

Ahmadova Zebiniso Shavkatovna
Buxoro innovatsiyalar universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qomusiy olim davlat va jamoat arbobi, Abdurauf Fitrat amirlik hududida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni faqat qog'ozga tushiribgina qolmasdan, ularga faol siyosatchi, sifatida o'z munosabatini bildirib kelgan. Mamlakatning ijtimoyi-siyosiy hayotida yuz bergan voqea-hodisalarni xolis baholab, o'zining ilmiy maqolalari, risola va asarlarida keng tadqiq qilib borgan.

Samarqandlik jadidlar tomonidan 1917-yilning 15-aprelidan boshlab "Hurriyat" gazetasi chiqa boshlaydi. Gazetaning 1918-yilgi 27-sonidan to oxirgi 87-sonigacha Abdurauf Fitrat muharrirlik vazifasini bajargan.

"Hurriyat" gazetasida Abdurauf Fitratning "Bir o'zbek yigitining tilidan" (o'sha gazeta, 18-avgust) badihasi nashr qilingan bo'lib, unda Vatan bosh-oyog'i yalang, tanasida adadsiz

qamchi izlari, ko‘ksidagi yaralaridan qon toma-yotgan holsiz, darmonsiz ayol timsolida tasvirlangan. Bu timsol, bu xayol “o‘zbek yigiti”ni tushida ham, o‘ngida ham ta’qib qilgan. O‘zbek yigiti “g‘amli ona — muqaddas Turon”dan ayrilmoqni o‘zi uchun o‘lim, uning uchun o‘lmoqni esa tiriklik hisoblagan va uni uni qutqarishga qasam ichgan: “Ustimga ilonlar emas, shaytonlar qo‘shini kelsa, oyog‘imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa, yana sen sari choparman. Dunyoning butun balolari boshimga to‘kilsa, zulm cho‘lining temir tikonlari ko‘zlarimg‘a kirsa, yana seni qutqaraman. Men sening uchun tirildim, sening uchun yasharman, sening uchun o‘lurman!.. O‘lim sening o‘liming istaganlarga, nafrat seni ko‘mgani kelganlarga!”

Boshqa bir maqolasida esa “sharafi talangan, nomus-e’tibori, imon-vijdoni oyoq osti bo‘lgan, yurti ulog‘i, o‘chog‘i yot qo‘llarga tushgan” avlod nomidan sohibqiron Amir Temurdan panoh so‘ragan.

Shu gazetaning 1917-yil 49-sonida “Xabarlar” ruknida 25-oktabrda Qishki saroyning egallanishi va Muvaqqat hukumatning qamoqqa olinishi munosabati bilan Fitratning “Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi - bolshevik balosi!” degan qaydini ko‘rish mumkin. Mutafakkir so‘ngroq bu voqeani “Yurt qayg‘usi” sifatida baholadi.

1917-yil 15-noyabrda Lenin va Stalin imzo chekkan “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi”dagi “millatlarning o‘z taqdirlarini o‘zlari belgilash huquqi”, “barcha milliy va milliy-diniy imtiyozlar va cheklanishlarni man etish” haqidagi bayonot bir chetda qolib ketdi. Turkistonning 98 foizini tashkil etuvchi 10 million musulmonlarning xohish-irodasi bilan hech kim hisoblashmadi. Aksincha, “musulmonlarni o‘lka oliy inqilobiy organiga kiritish” mumkin emas deb topildi. Mana shunday bir sharoitda 26-noyabrda Qo‘qonda o‘lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi ochildi. Unda o‘lkaning turli shaharlaridan 203 vakil ishtirok etdi. Muhimi shundaki, yig‘in milliy va diniy cheklashlardan holi bo‘ldi. Hay’atga saylanganlar orasida yevropaliklar ham bor edi. 27-noyabr kechda qurultoy tarixiy qaror qabul qilib, Turkiston muxtoriyatini tuzgan. Fitrat Turkiston muxtoriyatini yuksak e’tirof etib, u e’lon qilingan 27-noyabr tunini “milliy laylatulqadrimiz” deb atadi: “Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik. Qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi. Og‘zimiz qoplandi. Yerimiz bosildi. Molimiz talandi. Sharafimiz yemuruldi. Nomusimiz g‘asb qilindi. Insonligimiz oyog‘lar ostig‘a olindi. To‘zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyrug‘ga bo‘yunsunduk. Butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik. Yolg‘iz bir fikrni bermaduk, yoshunturduk, imonlarimizga o‘rab saqladuk. Bu -Turkiston muxtoriyati!

Mahkama eshiklaridan yig‘lab qaytganda, yoruqsiz, turmalarda yotganda, yirtg‘uch jandarmaning tepkusi bilan yiqilg‘anda, yurtlarimiz yondurulg‘onda, dindoshlarimiz osilg‘onda ongimiz yo‘qoldi. Miyamiz buzuldi. Ko‘zimiz yog‘dusiz qoldi. Biror narsani ko‘rolmadik. Shul chog‘da tushkun ruhimizni ko‘tarmak uchun, shul qop-qorong‘u dunyoning uzoq bir yerinda oydin bir yulduz yalqillab turar edi. Biror narsaga o‘tmagan ko‘zimiz shuni ko‘rar edi. Ul nima edi?- Turkiston muxtoriyati!”

“Hurriyat” gazetasida Fitratning Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bag‘ishlangan maqolalari ham chop etib borilgan. Uning “Buxoro ulamosi” maqolasida ulamolarning jamiyatni boshqarishdagi o‘rni, harakatlari, ularning mamlakatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan munosabatlari va qarashlari, shu bilan birga o‘zining rahbarligida jadidlarning talabi bilan amir tomonidan qozikalon Burhoniddin, rais Abdullaxo‘ja Sadur va mufti Askar Masnaf maxdumlarning qatl ettirilgani, ularning o‘rniga esa Muhammad Sharif maxdumning - qozikalon va Abduhamid maxdumning - rais etib tayinlanganligi haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

“Hurriyat” gazetasining 1918-yilgi 62-sonida “Buxoroning holi” maqolasi chop etilgan bo‘lib, unda amirlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ta’rif bergan holda, jadidlarni jiddiy harakatga chorlab, shunday yozgan: “Endi Buxoro yoshlari uchun lozimdirkim “bayonnoma – hamma bunga ko‘mak etmak” shiorini miyalaridan chiqarg‘aylar. Buxoro inqilobini istar esalar, inqilobchilarga yarashur harakatlar qilg‘aylar. Yaxshi so‘zlar bilan, tavozelar bilan, yolvorishlar bilan Buxoro hukumatini yo‘lga kelturmak bo‘lmas. Zolimlarning bir tabiati bordir: “Qochganga - quvar, quvganga - qochar”. Zolimlarning shu tabiatlarini, shu “ahvoli - ruhiyalari”ni ko‘zda tutmayin harakat qilaturganlar xato yo‘ldadirlar, zarar ko‘rarlar. Qo‘rqmayin, tortinmayin keskinroq harakat qilmoq kerak”.

Shu gazetaning 75-sonida e’lon qilingan “Buxoroda inqilob” nomli maqolasi esa keyinchalik A. Fitrat tomonidan yozilishi rejalashtirilgan risolaning boshlang‘ich bobidir. “Hurriyat” gazetasini chop etish taqiqlanganligi sababli ushbu risola oxiriga yetkazilmagan va keyinchalik ham alohida shaklda yoki boshqa vaqtli nashrlarda e’lon qilinmagan. Bu maqolada A.Fitrat 1917-yil 7-aprelda e’lon qilingan amir manifesti, unga nisbatan Buxoro ulamolari va yoshlarining turli xil munosabatlari natijasida amirlikda yuzaga kelgan qaltis vaziyatni yoritib, tahlil qilishga harakat qiladi va shunday yozadi: “Dunyo hodisalar o‘chog‘idir” – demishlar, bu to‘g‘ri so‘z. 28 fevralda Russiyada hurriyat bo‘ldi. Imperator Nikolay II taxtdan tushirildi. Konsul Miller Kogondan Buxoroga kelib, “Naminol” hovlisida o‘tirdi. Xalq og‘ziga yangi bir so‘z tushib qoldi: “Buxoroda hurriyat bo‘lar ekan. Buni yoshlar bilagi bilan rus konsulxonasi qilar ekan”. Aprelning 7-sida amirimiz birinchi bayonnoma chiqardilar. Aprelning 8-sida Buxoro yoshlari boydoq chiqarib muborakbod qildilar. Mullalardan bir jamoa chiqib, shul boydoq chiqorg‘onlarni kofir deb o‘ldirmoqchi bo‘ldilar. Hukumat amri bilan yoshlarning birini tutib, 75 tayoq urdilar. Aprelning 9-sida qo‘shbegi odamlari yoshlarning uylarini bosdilar. Topganlarini keltirib, “obxona” degan rutubatli bir mahbusda qamadilar va ikkitasini yana hukumat amri bilan 75 tayoq urdilar. Yoshlar qochib Kogonga chiqdilar. Abdulhamidxon raislikdan tushdi. Masnad maxdum rais bo‘lib ketdi. Samarqanddan rus soldatlari kelib, obxonadagi yoshlarni qutqardi.

Mana shular bir-ikki haftada bo‘lib o‘tgan hodisalar. Har biri bir ma’no. Men aniq bilamanki, shul ishlarning haqiqat hikmatlarindan ruslar bilan yoshlar va Buxoro beklarindan boshqa kimsa xabardor bo‘lmadi. Buxoro xalqi na mullabachchalari, na sahroyilari, na kosiblari bu qorong‘i voqealardan biror narsa anglayolmadilar. To‘g‘ridir: har yonga yugurdilar, istamaymiz, o‘ldiramiz, g‘azo qilamiz, dedilar. Nimani istamadilar, kimni o‘ldirmoqchi bo‘ldilar, kimning g‘azosiga chiqdilar? Bularni anglaganlari yo‘q! Mana bu risolani shularni anglatmoq uchun qo‘shimcha oldim. Negakim, tilagim xalqga haqiqatni anglatmoqdir.

Haqiqatni butun ochib anglatmak uchun bu risolani 3 bo‘lakka tartib etdim:1.Buxoroning holi;

2.Fitna soatlari;

3. Yoshlarning tilaklari.

Shu bilan risola yakunlanmasdan qolib ketgan. Risolaning “Buxoroning holi”, - deb nomlangan birinchi qismi bo‘yicha ayrim maqolalar chop etilgan. Biroq “Fitna soatlari”, - deb nomlangan - ikkinchi, “Yoshlarning tilaklari”, - deb nomlangan uchinchi qismi hech qaerda e’lon qilinmagan.

“Ulug‘ Turkiston” gazetasining 1918 yil may oyida chop etilgan 98-sonida e’lon qilingan “Buxoro yoshlari to‘g‘risida” nomli maqolasi F. Kolesov voqealaridan keyin Yosh buxoroliklar boshiga tushgan musibatlar va ushbu harakat a’zolarining tarqalishga majbur bo‘lganliklari oqibatida tashkilotning bo‘linib ketishi haqida ma’lumot beradi.

Muhojirlikdagi jamiyat a’zolarinig taqdiri xususida A. Fitrat quyidagilarni xotirlaydi: “Buxorodan yolg‘iz jonlarini olib qochgan 200 dan ziyod jamiyat a’zolari Samarqandga kelgach, hollari yomonlashdi. Och va yalong‘och qoldilar va hatto ba’zilari tilanchilik qilurga majbur bo‘ldilar. Hollarini so‘ragan bo‘lmadi. Raislariga buyuk bir e’timod ko‘rsatib, sabr ila o‘tirdilar”. Fayzulla Xo‘jayev Ijroiya komitetning 4 a’zosini olib, Toshkentga jamiyat a’zolari ehtiyoji uchun yordam so‘rab, F. Kolesov huzuriga ketadi. 1-2 kundan so‘ng, Samarqandga qaytib kelgan F. Xo‘jayevning 4 a’zosidan ikkitasi jamiyat a’zoligidan chiqib ketgani ma’lum bo‘ladi. A. Fitrat bu holatdan hayratga tushganlarini e’tirof etib, so‘ngra F. Xo‘jayev yoshlar ehtiyoji uchun Kolesovdan 10000 so‘m olgani, jamiyat a’zolaridan 40 kishini Toshkentga olib ketish uchun saylab qo‘ygani, qolganlarga 50 so‘mdan “aqcha” berib, uning “Har kim o‘zining chorasini ko‘rsin”, - degan so‘zlarini qayd etib o‘tadi.

Yana Toshkentga qaytib ketgan F. Xo‘jayev 3-4 kundan so‘ng bir partiyadoshini yuborib, 40 kishini Toshkentga chaqirtiradi. Maqoladagi ma’lumotlarga qaraganda, Toshkentga keltirilgan 40 kishini bir necha kun vagonlarda saqlagandan so‘ng bir kvartiraga tiqib qo‘yadilar.

Komitetdan katta pul evaziga har bir kishi uchun yarim qadoqdan non hamda juda ham kam miqdorda choy va qand berilgan. Buning natijasida jamiyat a’zolari orasida norozilik holatlari kelib chiqqanini A. Fitrat quyidagicha izohlaydi: “Zulm isyonning onasidir”. Zulmga qarshi isyon chiqarmoq odam bolalarining tarbiyatlarinda bordir. Fayzulla Xo‘janing bu harakatlarindan mamnun qolmag‘an a’zolar orasinda ba’zi so‘zlar, shikoyatlar chiqa boshlamish. Shul asnoda ba’zilari komissar Kolesov tarafindan Fayzulla Xo‘jaga berilgan aqchaning 10000 tugul 30000 ekanini sezmishlar. Ochlar orasinda e’tirozlar ko‘payib ketmish”. Maqolada bu e’tirozlardan keyin F. Xo‘jayev jamiyat a’zolariga kundalik nonlarini ham bermay qo‘ygani, ochlikdan “dod” - deb kelganlarga: “O‘z orangizdan e’tirozchilarni chiqarsangizlar non olib berarmiz, yo‘qsa yo‘q” - deb javob bergani va bu taklif bilan yangi bir ixtilof va nizoga sabab bo‘lganini aytib o‘tadi.

Fitratning yozishicha, Samarqanddagi yoshlarning ahvoli Toshkentdagilarnikidanda yomonroq bo‘lib, ular ochlikdan o‘lim to‘shagiga tushadilar. Bu holatni F. Xo‘jayevga yetkazish uchun Toshkentga kelgan muallim Ato afandi Toshkentdagi yoshlarning qo‘rqinchli hollarini ko‘rib, F. Xo‘jayevdan butun umidini uzadi va komissar Obidovga murojaat qiladi. Ahvolni o‘nglatib, Toshkentdagi jamiyat a’zolariga yer topib beradi va ularni oziq-ovqat bilan ta’minlaydi.

Ushbu vaziyatdan so‘ng F. Xo‘jayev iste’foga chiqariladi, jamiyat yangi bir idora hay’atini saylaydi. Muallim Ato afandi o‘z yonidan 300 so‘m berib, Samarqandda qolgan harakat a’zolarini ham Toshkentga keltiradi hamda ularni joy va oziq-ovqat bilan ta’minlaydi. Fitratning yozishicha, eski hay’at idorasida 10 kishi bo‘lib, F. Xo‘jayev iste’foga chiqarilgach, uning ikki a’zosi yangi hay’at idorasiga o‘tadi, to‘rttasi shu harakatga sherik bo‘ladi, bir nafar a’zosi esa o‘z ixtiyori bilan yangi jamiyatga muxolif bo‘lib qoladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, A. Fitratning “Buxoro yoshlari to‘g‘risida” nomli maqolasi “Ulug‘ Turkiston” gazetasining 94-sonida e’lon qilingan “Turkiston va Buxoro hodisalari” nomli maqolaga izoh sifatida yozilgan bo‘lib, unda muallif maqolada berilgan bir-biriga zid jumlalarni ko‘rsatib, bu maqola F. Xo‘jayev tomonidan emas, balki ahvoldan butunlay xabarsiz kishi tomonidan yozilganini ta’kidlab, bunday maqolafurushlarga qarata; “O‘zlarining mantiqsiz maqolalari bilan chorasi mumkin bo‘lmagan ixtilolarga sabab bo‘lmasliklarini” iltimos qiladi.

Abdurauf Fitratning davriy nashrlarda chop etilgan maqola va risolalari bilan tanishib chiqib shuni anglash mumkinki, u mamlakatning ijtimoiy-siyosiy xayotida yuz bergan voqea-

hodisalarni doimo xolis baholagan va haqiqatni yoritishga harakat qilgan. Shu bilan birga, o‘z davrining yetuk olimi, siyosatchi, jamoat va davlat arbobi sifatida o‘zining qarashlari bilan munosabat bildirib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fitrat. Bir o‘zbek yigitining tilidan // “Hurriyat” gazetasi. 1917-yil 18 -avgust.
2.Fitrat. Yurt qayg‘usi // “Hurriyat” gazetasi. 1917-yil 31-oktabr.
3.Xabarlar // “Hurriyat” gazetasi. 1917-yil 7-noyabr.
4.Rajabov Q. Turkiston Muxtoriyati vazirlari hamda Milliy Majlis a’zolari hayoti va taqdiri. Toshkent. 2021. 11-12 betlar.
5.Fitrat. Muxtoriyat // “Hurriyat” gazetasi. 1917-yil 5-dekabr.
6.Fitrat. Buxoro ulamosi // “Hurriyat” gazetasi. 1917-yil 4-noyabr.
7.Fitrat. Buxoroning holi // “Hurriyat” gazetasi. 1918-yil 13-yanvar.
8.Abdurauf Fitrat. Tanlangan asar. 5 jildlik. III jild. Toshkent: Ma’naviyat, 2003. – 205.
9.Fitrat. Buxoro yoshlari to‘g‘risida. // Ulug‘ Turkiston, 1918-yil 30-may.

QO‘RIQLASH XIZMATI XODIMLARI KOMPETENTLIGINING O‘ZIGA XOSLIGI

Maxmudova Zulfiya Mexmonovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti
Samadova Nilufar Nodir qizi
BuxDU Oila psixologiyasi ta`lim yo‘nalishi talabasi

Jahonda yuqori malakali, raqobatdosh, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Jahonda qo‘riqlash xizmati xodimlari ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentligining psixologik jihatlarini o’rganish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish omillarini tadqiq etish, qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko’rsatkichlarini baholash, ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga mo’ljallangan maxsus tizimlashtirilgan psixologik usullar majmuini ishlab chiqish bo’yicha izlanishlar olib borilmoqda. Qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy faoliyatiga psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta’siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

Psixolog qo‘riqlash xizmati tizimida xizmat qilayotgan barsha xodimlar va harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy qo‘llab-quvvatlashning mutlaqo yangi vazifalari, shuningdek, xodimlarning umumiy dunyoqarashi, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, kasbiga sadoqat va yuqori mas’uliyat xislarini oshirish bilan bohlash vazifalarni belgilab beradi.

Xodimlarni axloqiy-ruhiy qo‘llab-quvvatlash psixodiagnostika, psixoprofilaktika va psixokorreksiya ishlarida amalga oshiriladi.

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o’rganish jarayonida bir nechta yo’nalishlarni ajratib ko’rsatish mumkin. Ko’pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni

istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo'naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko'nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlari G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko'rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o'qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya'ni ta'lim oluvchining ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.

Chunonchi, mehnat foliyatining barcha jihatlari uchun psixologik modul deb nomlanuvchi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar ishtirok etadi. Shuningdek, kompetentlik tuzilmasi faoliyatning ichki vositasi, ya'ni motiv, bilim, ko'nikma va malaka kabi elementlarni qarab chiqish uning jarayonli va natijali ko'rsatkichlarini hisobga olish haqidagi tasavvur paydo bo'ladi.

A.V.Xutorskiyning o'tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o'ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo'lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikka qo'yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta'kidlaydi.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko'nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya'ni insonlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish malaka va ko'nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo'nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo'lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to'laqonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta'kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o'ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg'un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo'luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi. Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi, faoliyatda qanaqadir turg'unlik bo'lishi uni muvaffaqiyatga erishishida to'siq bo'lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo'naltirilganlik, maqsadni qo'ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o'z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o'ziga xos bo'lgan me'yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo'llay olish tajribasi, ya'ni ko'nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o'zaro ta'sir holatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lish holatlarida o'zini-o'zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o'ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekpertizasi jarayonida o'z bilim, ko'nikma va malakalarni samarali qo'llash sud psixolog xodimidan o'zini-o'zi idora qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Pedagog A.A.Dunyushin shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish qobiliyati ekanligini ta'kidlaydi. Ko'rinib turibdiki, fikr muallifi quyidagi bir necha mulohazalar orqali aniqlashtirilgan:

a) kompetentlik aniq bir faoliyat sub'ekti tavsifi sifatida baholanishi mumkin;

b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyat maqsadi, tuzilishi va maxsus talablariga bog'liq;

c) kompetentlik hissiy-irodaviy sifatlar, shaxsning muloqotmandligi, intellektual salohiyati, shaxsning yo'naltirilganligi kompetentlikka asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, sud psixolog xodimlarining kommunikativ kompetentligiga aloqador bo'lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, sud psixolog xodimlari kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida tushunish lozim.

A.V.Raysev tomonidan kompetentlik tushunchasining mohiyatida quyidagi bosqichlar keltirilgan: intellektual, amaliy, qadriyatli-mo'ljalli va nutqli. Shundagina mutaxassis kompetentligi har doim faoliyat turiga bog'liq bo'lgan aniq holatda namoyon bo'ladi.

L.G.Semushina asarlarida talqin qilishicha, malaka past, o'rtacha va yuqori darajada bo'lganligi tufayli mutaxassis tomonidan biror bir kasb yoki mutaxassislikning egallaganlik darajasini beligab beradi, deb ta'kidlaydi. Olim bu yerda malakani kompetentlik tushunchasiga yaqinlashtirishga uringan.

N.S.Aulova olib borilgan nazariy tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy kompetentlikning quyidagi mezonlarini asos qilish kerakligini ko'rsatadi:

– shaxs refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o'z kasbiga mosligini baholash, refleksiv (o'z tushunchasi va hatti-harakatlarni anglash) harakatlarning shakllanganligi;

– asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operatsional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, metodlari va yo'llarini egallash;

– bilish faollik darajasining o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish usullarini qo'llash ko'nikmasi;

– kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchning shakllanganligi darajasi;

– samarali kasbiy faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;

– ularni o'z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo'llarini topishga intilish;

– anglashning faollik darajasi.

Bizningcha, muallifning mazkur ta’rifida o’ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e’tibor qaratadi.

Bugungi kunda jahonda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning quyidagi asosiy jihatlariga alohida ahamiyat beriladi:

a) ijtimoiy – o’ziga mas’uliyatni his etish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish va unda faol ishtirok etish qobiliyati, turli etnik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning jamiyat talablari bilan mosligi;

b) kommunikativ – turli tillardagi yozma va og‘zaki tarzda muloqot qila olish qobiliyatiga egalik;

c) ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;

d) kognitiv – doimiy ravishda ta’lim olish darajasini oshirishga intilish, o’zining imkoniyatini faollashtirish va amalga oshirishga bo’lgan ehtiyoj, ya’ni bilim va ko’nikmalarni mustaqil egallash, o’zini-o’zi rivojlantirish qobiliyati;

e) madaniyatlararo kompetensiyalar;

f) mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentlik;

j) maxsus – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o’z mehnati natijalarini baholash.

Yuqorida qayd etilgan ishlarda kompetentlik mezonlari umumilmiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va umumkasbiy bilimlar asosida talqin etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash kerakki, kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarni ijtimoiy-psixologik kompetentlik omili sifatida talqin qilish an’anasi ham mavjud.

Jumladan, psixologiya fanining fundamental asoslarini ochib bergan olimlardan E.F.Zeer va G.M.Romansevlarning metodologik xizmati shundaki, malaka insonning ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlariga qo’yiladigan ijtimoiy va kasbiy malakaviy talablar majmuasi ekanligini isbotlab berishganligidadir.

Shunday qilib, malaka ham kompetentlik kabi asosiy va kasbiy bo’lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko’pincha oddiy malakalar deb nomlash ham mumkin. Ilmiy adabiyotlarda asosiy malakalar sifatida quyidagilar kiritiladi:

– shaxsning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunksional bilimi, ko’nikmalari, individual xususiyalari;

– aniq kasblar guruhlari sohasidagi ishni bajarish uchun zarur bo’ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko’nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatlari va sifatlari;

– turli jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, ko’nikmalar, malakalar va qobiliyatlar.

Demak, o’rganilgan empirik natijalar asosida qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta’sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko’rinishda bo’lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo’lgan muammolarni bartaraf etish bo’yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko’rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

8. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
9. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
10. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
11. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
12. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
13. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
14. Olimov L.Ya., Bahronova M.O‘.O‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNING SHAKLLANISHI

Raxmatullaev Farhod Baxtiyor o‘g‘li
O‘zMU “Umumiy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Abdalimova Madina Shokir qizi
O‘zMU “Ijtimoiy fanlar” fakulteti 3 kurs talabasi

Ma’lumki, kommunikativ aloqa insonlar o‘rtasida axborot almashuv vositasi sanalib, u bolalik davrida perseptiv ko‘nikmalarning shakllanishi bilan tushuntiriladi. Psixik taraqqiyot qonuniyatlariga ko‘ra, maktabgacha yosh davri o‘ziga xos yosh bosqichi sanalib, unda bolada kognitiv, hissiy-emotsional, affektiv hamda kommunikativ sohalar intensiv ravishda rivojlana boshaydi. Ayniqsa, mazkur yoshda, tengdoshlar bilan qondiriladigan muloqot yetakchi ehtiyojga aylanadi. Bola o‘yin davomida, tengdoshlar va kattalar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatish orqali ijtimoiy tajriba hamda ijtimoiy munosabatlar tizimini o‘zlashtiradi. Bu esa o‘z-o‘zidan ijtimoiylashuv jarayonini harakatga keltiradi.

Ijtimoiylashish jarayonida esa, bola jamiyatda normal hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan e’tiqodlarni, ijtimoiy jihatdan tasdiqlangan xatti-harakatlarni o‘zida shakllantiradi. Biroq, muloqotdagi uzilishlar o‘yin faoliyatini amalga oshirishni ham, ijtimoiylashuv jarayonini ham murakkablashtiradi, bu holat bolaning aqliy rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Ana shu muammo hozirga qadar ko‘plab psixolog olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ qobiliyati va uning rivojlanishini o‘rganish borasida yaratilgan uslubiy vositalar, diagnostik metodikalar, eksperimental ishlanmalar hozirgi kunga kelib yangi-yangi uslubiy vositalarga zarurat sezmoqda. Qolaversa, ushbu masala bizning mahalliy tadqiqotlarimizda ham o‘rganilishi jihatdan dolzarb psixologik ishlar turkumi sifatida qaralmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning perseptiv-kommunikativ rivojlanishi muammosi borasidagi e'tiborga loyiq ilmiy izlanishlarni qator psixologlar A. Leontiyev, S. Rubinshteyn, M. Kagan, M.Lisina, D. Elkonin, A. Vallon, J.Piajlar ishlarida ko'rish mumkin. Bunda asosiy e'tibor muloqot va uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarga qaratilgan. Bundan farqli o'laroq, bolalarda kommunikativ qobiliyatlar rivojlanishning turli sohalar bilan o'zaro aloqasi va ta'siri, intellektual rivojlanish, hissiy kechinmalar, shaxslararo munosabatlar, vositachi faoliyat, shaxs sifatida shakllanish kabi masalalar bilan bog'lab o'rganish holatlari tadqiqotchilardan B.Ananyev, L.Vigotskiy, L.Bojovich, L.Venger, P.Xalperin, O.Gordeyeva, I.Dubrovin, L.Vygotskiy, A.Leontev, M. Lisina, B.Muxina, G.Andreyeva, A.Bodalev, Y.Kolominskiy, A.Leontiyev, B. Lomov, E.Smirnova, A.Usova kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida ko'rish mumkin.

Mamlakatimiz olimlari ham bu borada e'tiborga molik izlashlar olib borishgan. Bunda asosiy masala maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nimalarining shakllanishi, bola shaxsini tadqiq etishga doir amaliy metodikalar hamda bola shaxsida ijtimoiy xulq-atvor namunalarining shakllanishi, bolalarda assimetriya hissi va uning o'quv faoliyatiga ta'siri kabi masalalarga qaratilgan. Ayniqsa, serqirra ijodkor ustoz olimlardan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov, V.M.Karimovalar, yosh olimlardan P.S.Ergashev, D.I.Ilxamova, O'.B.Shamsiyev kabi tadqiqotchilarning izlanishlari e'tiborga loyiq sanaladi.

Psixologik mazmunga ko'ra, aloqa bog'lash qobiliyati bolaning aqliy rivojlanishi, idrok ko'lamining ortishi, ijtimoiylashishi hamda bo'lg'usi ta'lim faoliyatiga tayyorgarligi uchun zarur psixologik shartlardan sanaladi. Shuningdek, u shaxslararo munosabatlarda muammoli holatlarni yengishdagi eng asosiy omillardan biri sanaladi. Maktabgacha yosh davrida tengdoshlar bilan kechadigan muloqot qator muhim xususiyatlarga ega bo'lib, u kattalar bilan bo'ladigan aloqalardan farqli ravishda ajralib turadi.

Mazkur yosh davrida kechadigan muloqotda 9-10 baravar ko'proq ekspressiv mimik namoyishlar kuzatiladi, ular bolalardagi turli xil hissiy kechinmalarni ifodalaydi. Ya'ni zo'ravonlik, g'azablanish, quvonch, muloyimlik va hokazo hislar. Shuningdek, muloqotda bolalar tengdoshlarini ko'proq ma'qullashadi biroq, kattalar bilan muloqot qilishdan ko'ra, ular bilan ziddiyatga ko'proq kirishadi. Yana bir muhim ajralib turuvchi xususiyat - bu kommunikativ harakatlarning xilma-xilligidir. Komunikativ ko'nikmalar bolada idrok jarayoni rivojlanishini ta'minlashga keng xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda perseptiv -komunikativ qobiliyatlar o'sishining yana bir muhim xususiyati shuki, ularning nostandart va tartibga solinmaydigan harakatlaridir. Hatto eng kichkina bolalar ham xatti-harakatlarning muayyan shakllariga rioya qilishadi, keyin tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotda kutilmagan va o'ziga xos harakatlardan foydalanadilar. Ushbu harakatlarda bo'shashmaslik, tartibsizlik holatlarini ko'rish mumkin. Bolalar sakrashadi, g'alati harakatlarni bajarishadi yoki bir-birlariga taqlid qiladilar, yangi so'zlar va masalalar bilan tanishadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bunday harakatlari ya'ni, tartibga solinmagan xulqi insoniyatning dastlabki avlodlari harakatlariga o'xshatiladi. Bundan farqli ravishda xatti-harakatlarning xulq-atvor motivlari ham hisobga olinadi.

Bizningcha, motivlar bu - subyektning faoliyati va xulq-atvorini harakatlantiruvchi kuch. Psixologiyada uning tabiatini tushunishda yagona ta'rif yo'q.

A.N. Leontev fikricha, motiv faoliyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u idrok etilayotgan obyektning funksiyasi bilan bog'liq sanaladi.

M.I. Lisinaning ta’kidlashicha, muloqot uchun motivlar - bu sherikning fazilatlarini anglash jarayonida namoyon bo‘ladi va u muloqotga bo‘lgan ehtiyojni qondiradi. Muloqot motivlari zaruriyat bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, uni tushunish o‘z-o‘zidan ehtiyojning mazmunini ochishni taqozo etadi.

Bola muloqotining mazmuni bu undagi o‘ziga xos qiyofaning shakllanishi va tashqi dunyo bilan aloqalarni o‘rnatish bilan belgilanadi. Shuningdek, muloqotga bo‘lgan ehtiyojning asl mohiyati sherikni bilish orqali o‘z-o‘zini bilish va anglashdir. Demak, sherik bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, u bilan muloqot qilish motivini paydo qiladi, aynan subyektning o‘ziga xos xususiyati, uning shaxsini ochib berishga va o‘z-o‘zini anglashga yordam beradi. Biror qiziq masalalarda bolalar atrofdagi odamlarga murojaat qilishadi. Bunda ular o‘rtasida o‘zaro munosabatlar rivojlanib boradi, shu orqali bola boshqalarni aloqa davomida ko‘rsatgan sifatlari tomonidan taniydi.

N.YE.Boguslavskaya bolalarning o‘z tengdoshlari bilan muloqot qilishiga sabab bo‘ladigan uch sohani ajratadi. Ular quyidagilar:

Kognitiv soha;

Hissiy-emotsional soha;

Shaxsiy motivlar sohasi.

Bundan tashqari bolaning hayotiy faoliyatida uch guruh motivlar yashaydi va ular doim bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ammo bolalikning turli davrlarida ularning nisbiy roli o‘zgaradi hamda ulardan biri yetakchi o‘rinni egallaydi.

Birinchi guruh motivlar bolalarning faol faoliyatga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqadigan motivlar sanalib, ular maktabgacha yoshdagi bolalar orasida rolli o‘yinlarda namoyon bo‘ladi. Bola o‘yinga qatnashish uchun tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi, bunga tengdoshlarining fazilatlari sabab bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qiziqishlar tez rivojlanadi. Endi unda dunyo haqidagi yangi bilimlar va fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Ikkinchi guruhdagi motivlar hissiy kechinmalarning ijtimoiylashuvini ta’minlaydi.

Uchinchi toifaga shaxsiy motivlar kirib, u orqali bola tengdoshlari va o‘zining imkoniyatlarini taqqoslay boshlaydi. Ya’ni shaxsiy niyatning birinchi ko‘rinishi, tengdosh bilan aloqa qilish zarurati oydinlashadi. Bola shaxsiy motivlarining ikkinchi ko‘rinishga - uning fazilatlari kiritiladi. Bola o‘yin va muloqotda o‘z qobiliyati, bilimi va shaxsiy fazilatlarini namoyish etadi, boshqa bolalardan o‘z harakatlarini ma’qullashni talab qiladi.

Muloqot motivlari - bu bolaning tengdoshi bilan mos keladigan o‘ziga xos fazilatlaridir. Shaxsiy motivlarning ikkala ko‘rinishida ham tengdoshlar fazilatlari asosiy o‘rin egallaydi.

Ta’rifga ko‘ra, muloqot, murakkab va ko‘p qirrali faoliyat bo‘lib, u avlodlar tomonidan to‘plangan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish jarayoni sanaladi. Rivojlangan darajadagi kommunikativlik esa, psixologlar tomonidan erta yoshdagi kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanishi va bolaning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashish holati bilan tushuntiriladi.

I.L. Kolominskiy fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalar boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini o‘zlashtirishda o‘ta sezgir bo‘lishadi. Ya’ni tengdoshlari jamoasida o‘z shaxsini anglash va tushunish, boshqalarga nisbatan empatiya, aks ettirish, identifikatsiya qilish, do‘stona yordam berish istagi, quvonchini baham ko‘rish qobiliyati, adolat, halollik, odoblilik kabi qator shaxsiy fazilatlari shakllanadi. Bundan tashqari o‘z-o‘zini bilish va biror faoliyatga o‘zini yo‘naltirish qobiliyati shakllanadi.

Avvalambor, aloqa jarayoni bola hayotining birinchi kunidanoq uning psixologik rivojlanishiga asos bo‘ladigan muhim omillardan biridir.

Shunga o‘xshash holatni bola aqliy rivojlanishining turli jihatlarida ko‘rish mumkin ya’ni, biror narsaga bo‘lgan qiziqish ehtiyojida.

Ikkinchidan yuqoridagi jarayon bolaning hissiy ehtiyojlarida, ya’ni kattalarga bo‘lgan muhabbatining shakllanishida, nutq sohasida, bolaning o‘zini o‘zi anglash sohasida ham muhim sanaladi.

Bolalarda bir-birlari bilan aloqa qilish ehtiyoji uch yoshga to‘lgan davrda aniq namoyon bo‘la boradi. L. V. Chernetskaya tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, muloqotning erta boshlanishi bolalarning kelgusidagi rivojlanishini belgilaydi va u bolada atrofidagi odamlarga, o‘ziga, tashqi dunyoga bo‘lgan munosabat tuyg‘usini shakllantiradi. Agar bolada muloqot qilish qobiliyati erta shakllanmagan bo‘lsa, kelajakda u qator shaxslararo nizolarga duch kelishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning tengdoshlari o‘rtasidagi besh yillik (2-7 yosh) hayot davomida bir-birini almashtirib turadigan uchta aloqa shaklini ajratiladi. Ya’ni ular quyidagilar:

1.Bolalar va tengdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning hissiy va amaliy shakli (bola hayotining ikkinchi va to‘rtinchi yillari). Bunda bir-biri bilan aloqa qilish o‘yin jarayonida, darslarda, uy vazifalarini bajarishda yuzaga keladi. Bolalar e’tiborni o‘ziga jalb qilishni, o‘zlarini baholashni ko‘proq xohlashadi.

2.Bolalar va tengdoshlar (4-6 yosh) o‘rtasidagi vaziyatning ishbilarmonlik shakli;

3.Vaziyatdan tashqari holat ya’ni bolalar va tengdoshlar (6-7 yosh) o‘rtasidagi ishbilarmonlik shakli va hokazo.

Yuqorida keltirilgan tasniflar bolalarda namoyon bo‘luvchi kommunikativ ehtiyojlarning asosiy mazmunini tushuntirishga xizmat qiladi. Bolalardagi bir-biriga bo‘lgan murojat qilish ehtiyoji mashg‘ulotlar jarayonida paydo bo‘ladi ya’ni o‘yinlar, uy vazifalari va boshqalarda. Mashg‘ulotlardagi savollar, javoblar, tushuntirishlar hamda bir birlarini masxara qilish ko‘nikmalari tarbiya jarayonidagi e’tiborni oshirishni nazarda tutadi.Professor E.G‘.G‘oziyev fikricha, tengdoshlar o‘rtasidagi birinchi ajoyib farq bu juda yorqin hislarning namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot hislarining ortib borishi o‘zaro axborot almashishdagi xulqni hamda kattalar bilan o‘zaro munosabatlarni tartibga solib turadi.

Bolaning bog‘cha yoshidagi davrida o‘z qadr-qimmatini anglashi ham yuzaga kela boshlaydi. Bolalar bog‘chaga kelganda dastavval o‘z tengqurlarini sezmaslikka, payqamaslikka hapakat qiladilar. Keyinchalik, turli o‘yin va majburiy mashg‘ulotlar davomida bolalar jamoa-siga ko‘shilib, o‘z tengkurlarining hurmatini qozonishga harakat qiladilar, ya’ni boshqa bolalarga har tomonlama yaxshi ko‘rinishga intiladilar. Bog‘cha yoshidagi bolalar xatti-harakatlari motivlarining rivojlanishida axloqiy motivlarning roli nihoyatda kattadir. Xulosa qilib aytganda, bog‘chadagi hayot davomidagi bolada o‘rtoqlariga qiziqish ehtiyoji va minnatdorchilik hissini olishga bo‘lgan ehtiyojlar shakllanishi boshlanadi, ya’ni bu holat sheriklarini o‘ziga diqqat bilan qaratishga yoki yuqori darajadagi yorqinlikka erishish motivlari bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Леонтьев А.Н. Деятельность и общение // Вопросы философии, 1999, №1.- С. 15-21.

2. Лисина, М. И. Формирование личности ребенка в общении М. И. Лисина. - СПб.: ПИТЕР, 2009. - 209с.

3. Богуславская, Н. Е. Веселый этикет: развитие коммуникативных способностей ребенка. Екатеринбург: АРГО 2007. - 191 с.

4. Деревянко, Р.И. Особенности мотивов общения со взрослым и сверстниками у дошкольников: Дис. кандидат психологических наук. - М.: 2009 - 124с.

5. Коломинский, Я. Л., Панько, Е.А. Диагностика и коррекция психического развития дошкольника. - Минск, 1997. - 104с.

6. Чернецкая, Л. В. Развитие коммуникативных способностей у дошкольников: практическое руководство для педагогов и психологов дошкольных образовательных учреждений. - Ростов н/Д.: Феникс, 2005. - 256 с.: ил.

7. Ғозиев Э. Онтогенез психологияси. – Т.: Noshir, 2010. 360 б.

SHAXSDA YUZ BERUVCHI EMOTSIONAL ZO'RIQISHLARNI KELTIRIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH MEXANIZMLARI

Kozimova Nigora Abduqahorovna
Osiyo xalqaro universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Emotsional holatlar boshqa ruhiy jarayonlar singari miya faoliyatining natijasi yoki mahsuli bo'lib hisoblanadi. Emotsional holatlarning yuzaga kelishiga tabiatda va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, munosabatlar, aloqalar, taassurotlar asosiy sababchidir. O'zgarishlar o'z navbatida, birinchidan, shaxs hayoti va faoliyatining jadallashishi yoki pasayishiga, ikkinchidan, insondagi ayrim ehtiyojlarning paydo bo'lishiga yoki yo'qolishiga, uchinchidan, odam ichki organlari funksional holatlarining beqarorlashuviga olib keladi. His-tuyg'ular uchun eng xususiyatli fiziologik jarayonlar negizi sifatida shartsiz va shartli reflekslar xizmat qiladi va ularning muayyan tizimi bosh miya katta yarim sharlari po'stida yuzaga keladi hamda shu joyda mustahkamlanadi. Murakkab shartsiz reflekslar esa:1) yarim sharlarning po'stloq osti bo'shliqlari; 2) miyadagi ko'rish do'ngliklari; 3) nerv qo'zg'alishlarini miyaning yuqori bo'linmalaridan vegetativ tizimiga o'tkazib beruvchi markazlari orqali amalga oshiriladi. Shaxsda his-tuyg'ularning kechishi hamisha miya po'sti bilan po'stloqosti markazlarining birlikdagi (hamkorlikdagi) faoliyati natijasida ro'yobga chiqadi. Hozirgi zamonda "salomatlik" tushunchasi Butunjahon sog'likni saqlash tashkilotining tushunchasiga asosan, "organizmning to'liq jismoniy, ruhiy, jismoniy salomatligi bo'lib, nafaqat kasalliklarning bo'lmasligi, balki jismoniy nuqsonlarning ham bo'lmasligidir". Kasallik - inson hayot faoliyatining buzilishi bilan xarakterlanadigan holat bo'lib, organizmning vaqtincha yoki doimiy ish faoliyatining pasayishiga olib keladi. Albatta kasallikning kelib chiqishida organizm holati, yoshi, yo'ldosh kasalliklarning bor-yo'qligi, organizmga kasallik chaqiruvchi mikroorganizmlarning qancha miqdorda tushishi, irsiy moyillikning bo'lishi, organizmning reaktivligi muhim ahamiyatga ega. Albatta, uzoq-umr ko'rishning bir qancha shartlari bor, agarda odamzot shu shartlarga rioya qilsa, o'z oldiga qo'ygan oliy maqsad-uzoq umr ko'rishga zamin yaratadi. Ular quyidagilardan iborat: Noto'g'ri ovqatlanish. Salomatlikka salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri noto'g'ri, muvofiqlashmagan va tartibsiz ovqatlanish hisoblanib, organizm normal faoliyatining buzilishiga va turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda insonlar yashash tarzi o'zgarib ketayotgan bir jarayonda ularning ruhiyati ham o'zgarishlarga yuz tutyapti. Bulardan biri kamharakatlilik. Gipodinamiya - (yunoncha -

gipo-kam, past va dinamic-kuch) mushaklarining yetarli ishlamasligi, qisqarish kuchining kamayib ketishi bo'lib, odatda, doimo o'tirib ishlash, piyoda yurishni yig'ishtirib, transportda ketish, kamharakatlik, umuman, mushaklarga tushadigan og'irlikning kamayib qolishi tufayli kelib chiqadigan gipokineziya, ya'ni odam harakat faolligining kamayib ketishi bilan birga davom etadi.

Harakat va salomatlik. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish va kasalliklarning oldini olishning asosiy yo'li to'g'ri tashkil etilgan jismoniy faollikdir. Harakat natijasida odamning turli a'zo va tizilmalarining faoliyati me'yorlashadi, buzilgan faoliyatlari esa tiklanadi, aqliy va jismoniy mehnatga bo'lgan faolligi oshadi.

Zararli odatlar: alkogolizm - ichkilikbozlik, ayrim kishilarning o'z salomatligi va mehnat qobiliyatiga shuningdek, jamiyat farovonligiga zararyetkazadigan darajada, muntazam ravishda me'yoridan ortiqcha spirtli ichimliklar ichishi hisoblanadi. Tamaki chekish -kishi sog'lig'iga jiddiy putur yetkazadigan eng zararli odatlardan biridir. Nikotin markaziy va periferik nerv sistemasiga vaqtincha qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi, arterial qon bosimini oshiradi, mayda tomirlarni toraytiradi; nafasni tezlashtiradi, ovqat hazm qilish sistemasining shirasini ko'paytiradi. Nikotin bilan birga tamaki tutunidagi yonish mahsulotlari ham organizmni zaharlaydi. Shuning uchun chekmaydigan kishilarning chekilgan xonada bo'lishi ham zararlidir. Tarkibida yonish mahsuloti bo'lgan tutun nafasga olinganda arterial qondagi kislorodni kamaytirib yuboradi. U bronxlarning shilliq pardasiga ta'sir ko'rsatib surunkali bronxit va o'pka emfizemasiga sabab bo'ladi. Narkomaniya-(yunoncha-narke -karaxtlik va mania -telbalik, jahl, shod-xurramlik), bangilik, giyohvandlik-narkotik va narkotik ta'sirga ega moddalarni suiste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallikdir. Ushbu xastalik bilan og'rigan kishining jismoniy va ruhiy holati xumorini bosadigan narkotik modda iste'mol qilishiga bog'liq. Quyidagi ikki holatda narkotik moddalarga o'rganib qolish mumkin: Ruhiy-emotsional zo'riqishlar -hozirgi davrda kishilar salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Odam organizmining normal faoliyati, uning ruhiyati qay darajadaligiga bog'liq. Ruhiyat va kayfiyatdagi har qanday o'zgarishlar a'zo va sistemalarning faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Odamning ruhan ezilishi, ko'ngliga og'ir botadigan kechinmalar va hayotdagi turli salbiy voqealar zo'riqishlarga olib keladi. Ruhiy-emotsional zo'riqishlar natijasida odamlarda gipertoniya, stenokardiya va miokard infarkti, qolaversa, ruhiy kasalliklar, zararli odatlarga ruju qo'yish kelib chiqadi. Ayollarda esa ruhiy-emotsional zo'riqishlar ayniqsa, homiladorlik davrida, uning dastlabki 3-oyida o'ta xavfli asoratlarga sabab bo'lishi mumkin. Aholi turmushining yaxshilanishi, ijtimoiy sharoitning barqarorlashishi ruhiy-emotsional zo'riqishlarning oldini olishning asosiy shartlaridandir. Turmush tarzi -bu insonning aniq jamiyatda, muhitda ifodalangan hayot, mehnat, dam olish va hokazolarini o'z ichiga olgan tushunchadir. Uning tarkibiy qismlariga faqat ijtimoiy-siyosiy va ishlab chiqarish faoliyatigina emas, balki ishlab chiqarishdan tashqari vaqtdagi faolligi, ijtimoiy-madaniy faoliyati ham kiradi. Tibbiy faollik ham uning bir turidir. Turmushda odam turli xil salbiy taassurotlar, nojo'ya holatlar va sharoitlarga tushib qolishi mumkin. Bular esa, o'z navbatida, salomatlik va turmish tarzini sog'lomlashtirish haqida to'la bilimga ega bo'lishga majbur qiladi, aholining o'z salomatligiga bo'lgan munosabatlarini tarbiyalash va tibbiy bilimlarni targ'ib qilishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o'tilgan salomatlikka qarshi omillar haqida tushunchaga ega bo'lish, ularni bartaraf etish, har bir kishining bevosita o'ziga bog'liq. Buning uchun esa sog'lom turmush, uning tarkibiy qismlari nimalardan iboratliligi haqida aholi orasida tushuntirish ishlari olib borish lozim. Albatta pedagogik tarbiyaning asosiy maqsadi-nafaqat

yoshlarga tarbiya berish, balki ta’lim ham berishdan ham iboratdir. Turmush tarzining nosog‘lom bo’lishi ishsizlik, kam ta’minlanganlik, yetimlilik va boshqalar) yoshlar orasida kasalliklarning tez va keng tarqalishiga sabab bo’ladi. Yoshlar orasida surunkali kasalliklar ko’rsatkichlarining ko’payishi ular orasida tibbiy yordam ko’rsatishning keng tarmog‘li olib borish kerakligini ko’rsatib turibdi: har bir talaba o’z-o’ziga yordam, birinchi tibbiy yordamni tashkil etish, ekstremal holatlarda, favqulodda vaziyatlarda yordam ko’rsatishni bilishi kerak. Tabiiy, texnogen, ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar yoshlar, qolaversa aholi orasida turli darajadagi shikastlanish, jarohatlar, zaharlanish, yuqumli kasalliklarning ko’payishiga sabab bo’ladi. Bu holatda har bir kishidan tezlik bilan o’z-o’ziga va o’zaro yordam berish kerakligini talab etadi. Faqatgina aholining salomat va ma’lumotli bo’lishigina mamlakatning rivojlanishiga va mudofaasiga salmog‘li hissa qo’shadi. “Stress” inglizcha so’z bo’lib tanglik, zo’riqish, bosim degan ma’nolarni anglatadi. Oddiy tilda tushkunlikka tushish, deyiladi. Bu ba’zida oz fursat, ba’zida uzoq vaqt kechishi mumkin. Ikkala holatda ham insonga zarar yetkazadi. Ya’ni, aqliy faoliyatning susayishi, yurak urishi tezlashishi, qon tomirlari kengayishi, ichki kasalliklar - oshqozonda yallig‘lanishlar kelib chiqishiga sabab bo’ladi. Stressning salbiy tomonlaridan yana biri miyani tormozlab, ma’nosiz fikrlaydigan darajaga tushirib qo’yishi mumkin. Agar odam tez-tez tushkunlikni boshidan kechirsa, atrofdagilar bilan gaplasha olmaydigan holatga tushadi. Stress natijasida inson o’ziga past baho bera boshlaydi. Oqibatda o’zini yolg‘izdek, yaqinlariga keraksizdek his qiladi. Sekin - asta ruhiy tetiklik yo’qola boshlaydi. Stressning ilk belgilari qanday namoyon bo’ladi? Uning fiziologik va psixologik turlari mavjud. Bir narsadan qattiq qo’rqib ketish, kutilmaganda avtohalokat yoki tabiiyofatga uchrash, tanasidagi birorta kasallik oqibatini bilib qolish, to’satdan yaqin kishisini yo’qotish fiziologik stressni keltirib chiqaradi. Psixologik stress -insonning emotsional holati bilan bog‘liq. Bu ko’proq qaynona-kelin, er-xotin yoki ona va bola o’rtasidagi mojarolar tufayli kelib chiqadi. Har ikki holat insonni ham tashqi qiyofasiga, ham ichki dunyosiga ta’sir ko’rsatadi va albatta, asoratlari bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kozimova, N. A. (2023). Techniques and methods used in the process of psychological counseling. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 338-341.

2. Kozimova, N. A. (2023). PERSONALITY TYPES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 372-377.

3. Kozimova, N. A. (2023). Psixologik konsultatsiya bosqichlari. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, *1*(5), 90-95.

4. Kozimova, N. A., & Ulugova, S. M. (2022). Classification of a Group of Staff for Psychological Conseling and Referral to It. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, *7*, 175-177.

5. Kozimova, N. A. (2024). OTA-ONALIK PSIXOLOGIYASI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, *2*(1), 119-125.

6. Kozimova, N. A. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EMOTIONAL TENSION IN ADAPTATION TO STUDY ACTIVITY OF FIRST LEVEL STUDENTS. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, *2*(2), 311-317.

7. Kozimova, N. A. (2024). Psychological aspects of emotional stress in adaptation to educational activities. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 136-140.

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE DEFENSE MECHANISM OF TEENAGERS IN EXTREME SITUATIONS

Avezov Olmos Ravshanovich
Buxoro davlat pedagogika instituti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti,

The reforms implemented in our country in all spheres have raised the human factor to a higher level than ever before and directly connected his strength, perception, potential, psychological and spiritual perfection with development. Because of this, the problem of each person's perfection, self-knowledge, and understanding of others has become more urgent than ever.

After all, in this process, first of all, the principles of psychological protection of the individual in extreme situations serving to improve the educational system, its content and essence, are of great importance.

Bugungi kunda yoshlar va ularning kamoloti masalasi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki, aynan yoshlar jamiyatni rivojlanishiga xizmat qiluvchi, uning taraqqiyotini belgilab beruvchi qatlam hisoblanadi. Yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, ularni ijtimoiy faolligini oshirish borasida davlatimiz rahbari tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunning yoshlari har tomonlama yetuk, jamiyat ravnaqiga o‘zining munosib hissasini qo‘sha oladigan, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “... jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotgan...” yoshlar sifatida kamol topishi dolzarb masalalardan biridir. Davlatimiz oldida raqobatbardosh, har tomonlama, kreativ fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi belgilangan. Shunga qaramay, “guruch kurmaksiz bo‘lmagani”dek, barcha ham “faol yoshlar” toifasiga kirmaydi, jamiyatda “uyushmagan”, ijtimoiy faol bo‘lmagan yoshlar ham mavjud. Shu nuqtai nazardan olganda uyushmagan yoshlar bilan ishlash, ularni jamiyatga integratsiyasini ta’minlash bugungi kundagi muhim vazifalardandir. Shunday ekan, “uyushmagan yoshlarning psixologik qiyofasini” aniqlash ularga manzilli psixologik xizmatni tashkillashtirishning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Dastlab uyushmagan yoshlar kimlar ekanini aniqlab olsak. «Uyushmagan yoshlar» tushunchasi haqida so‘z borar ekan, ushbu ibora «uyushmagan» va «yoshlar» so‘zlari birikmasidan tashkil topgan. «Uyushmagan» so‘zining o‘zagi «uyushiq» bo‘lib, unga o‘zbek tilining izohli lug‘atida «uyushgan, jipslashgan, ahil», unga ma’nodosh bo‘lgan «uyushma» so‘ziga esa «bir maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilish uchun birlashgan kishilar yoki tashkilotlar birlashmasi» mazmunida izoh berilgan. Demak, mantiqan olib qaraganda, «uyushmagan» so‘zi «uyushiq» yoki «uyushma» so‘zlarining aksi, ya’ni antonimi bo‘lib, «jipslashmagan, ahil bo‘lmagan, muayyan bir maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilish uchun birlashmagan» ma’nolarini anglatadi. Shunday ekan, jamiyatning mazkur qatlami bilan ishlash, ularni ijtimoiy faolligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning “uyushmagan” qatlamga kirib qolishining sabablari turlichadir. Uyushmagan yoshlar o‘rtasidagi ma’naviy qashshoqlik, eng avvalo, moddiy ta’minotning hayotiy mezoniga aylanganligi, moliyaviy ehtiyojni yuqori darajaga qo‘yish, individualizm g‘oyalarining o‘sib borishi, pul topish maqsadida jinoyatdan ham tab tortmaslik, boqimandalik, jur’atsizlik, mas’uliyatdan qochish, hamma narsani menga davlat yoki ota-ona yaratib berishi lozim degan egoistik tasavvur paydo bo‘ladi. Aslida «Mas’uliyat shaxs ma’naviyatining muhim tarkibiy jihati, o‘zi anglab yetgan va to‘g‘ri deb bilgan borliq haqiqatiga amalda sadoqat saqlash, har bir xatti- harakatining oqibatini o‘ylab qadam qo‘yish. Inson erkin irodasi bilan O‘zini dunyodagi barcha mavjudot uchun mas’ul deb bilsa va har bir qadamini qo‘yishda ana shu mas’uliyatni his qilib tursa ayni shu shaxs haqiqiy ma’naviyat sohibidir». Shu bilan birga, ta’lim, kasbiy malaka, mehnat, madaniyat, demokratik qadriyatlarni anglash, ijtimoiy xamda falsafiy ong, din va e’tiqod, mafkura masalalarida yoshlar o‘rtasida turli kayfiyatlar, qarashlar, fikrlarning shakllanishi bu boradagi muammolarni hal etishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Uyushmagan yoshlar ijtimoiy faolligi va bandligini ta’minlashda quyidagi islohotlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, uyushmagan yoshlarning bilimi, ma’naviyati, intellektual salohiyati, odob-axloqi, zukkoligi, harakatchanligi, o‘zgarishlarga tayyorligi va ularni qabul qilish fazilatlari jamiyatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilaydi.

Ikkinchidan, jamiyatning, iqtisodiy takomili, ijtimoiy adolat mezonlari, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot darajasi, axborotlashtirish, barqarorlik omillari, jamiyat a’zolari orasida fuqarolik kelishuvining mavjudligi uyushmagan yoshlar qatlamini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, uyushmagan yoshlar ongida hukm surgan kayfiyat va orzular bevosita jamiyatning istiqboldagi taraqqiyot omillarini belgilashda alohida o‘rinni egallaydi. Chunki ayni shu qatlamning kayfiyati jamiyatdagi ko‘pgina ziddiyatli holatlar va noroziliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

To‘rtinchidan, uyushmagan yoshlar hayotida uchrab turadigan muammolarni hal etishda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: axloqiy poklik asosida umr kechirish, davlat qonunlariga so‘zsiz itoat etish; jamiyatdagi insonlar munosabatini adolat mezonlari asosida qurish; jamiyat a’zolari huquq va erkinliklarini tan olish, bunyodkorlikni hayotiy mezonga aylantirish va boshqalar shular jumlasidandir.

Uyushmagan yoshlarga psixologik xizmat ko‘rsatishda, ijtimoiy-qo‘llab-quvvatlashda uning psixologik qiyofasini aniqlash muhim o‘ringa ega. Dastlab psixologik qiyofa nima ekanligini aniqlashtirib olsak. Psixologik qiyofa – bu shaxs psixologik tavsifining majmui bo‘lib, uning muayyan vaziyatlarda ichki imkoniyatlarini safarbar etishi xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Psixologik qiyofani shakllantirishga oid bilimlarimiz bizga kasb tanlashda, insonlarning emotsional holatini tahlil qilishda, yolg‘on bilan rostni farqlashda yordam beradi. Shaxs psixologik qiyofasini yaratishning bir qacha mezonlari mavjud. Eng keng tarqalgan va samarali mezonlar quyidagilardir:

1) shaxs individual psixologik xususiyatlari (xarakter, temperament, qobiliyat, motivatsiya);

2) hissiy-irodaviy holatlar (emotsiyalar, irodaviy sifatlar, o‘zini-o‘zi nazorat qilish darajasi);

3) intellekt darajasi;

4) shaxslararo munosabatlarga kirishish darajasi;

5) o‘z-o‘ziga baho;

6) guruhga ta’sir etish qobiliyati.

Aynan mana shu mezonlar asosida shaxsning psixologik qiyofasi yaratilsa, unda zamonaviy shaxsning psixologik qiyofasi qanday bo‘lishi kerak. Bu savolga ham aynan mana shu mezonlar doirasida qator pedagog-psixologlarimiz o‘z muqobil variantlarini taqdim etgan ekanlar.

Yoshlar, shu jumladan uyushmagan yoshlarning psixologik qiyofasini tahlil qilar ekanmiz bevosita shaxs strukturasiga murojaat qilishimiz kerak. Jumladan, V.N.Voroninning fikricha, psixologik qiyofa kognitiv, ijtimoiy va motivatsion xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Uyushmagan yoshlarning kognitiv sohasini rivojlanishi virtual muloqot va ijtimoiy tarmoqlarga tobelikning ta’sirida o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lmoqda. Xususan, muloqot ko‘nikmasining pasayishiga, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni kamayishiga olib kelib, shaxsning jamiyatga moslashishini qiyinlashtirmoqda. Natijada yoshlarda ilmiy innovatsion tafakkurning o‘rniga rigid-stereotipik fikrlashning yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Mazkur holat esa uyushmagan yoshlarda kasb tanlash, jamiyatga moslashishni qiyinlashishiga olib kelmoqda.

Uyushmagan yoshlarning psixologik portretida affektiv soha ham muhim o‘ringa ega bo‘lib, ularda o‘ziga va hayotga ishonchsizlik, axborot muhitining ta’sirida hissiy noturg‘unlik, emotsional intellektning sustligi, kayfiyatning sustligi, depressiv kayfiyat bilan ajralib turadi. Uyushmagan yoshlarning hissiy sohasidagi noturg‘unlik, ularning xulq-atvorida ham, atrof muhitga, o‘ziga nisbatan emotsional munosabatida ham o‘z aksini topadi.

Uyushmagan yoshlarning motivatsion sohasida birinchi navbatda moddiylikning ustunligi bilan ajralib turadi. Ular ehtiyojlarda “o‘zligini anglash, ularni realizatsiyalash, o‘zini rivojlantirish” ehtiyoji passiv shaklda namoyon bo‘ladi. Natijada kasbiy, ijtimoiy faollikning pasayishi kuzatiladi. Uyushmagan yoshlarning qadriyatlar tizimida oila, kasbiy shakllanish, konstruktiv shaxslararo munosabatlar refleksiya qadriyat sifatida o‘zini ahamiyatini yo‘qota boshlaydi.

Uyushmagan yoshlarning psixologik qiyofasini tahlil qilish shaxs tuzilishining umumiy ko‘rinishini izohlashga olib keldi, ya’ni tabiiy va ijtimoiy muhit ta’sirida faoliyatning shakllanishi:

individual-psixologiyasi, dunyoqarashi, ijtimoiy-psixologiyasi (shaxs fazilatlari);

psixik jarayonlar, psixik xususiyatlari, psixik holatlar, psixikasi xosslari (individual-psixologik jabhalari);

ma’naviy-axloqiy qiyofasi, dunyoqapashi, qadriyatlari (dunyoqarash jihatlari:);

insonlar bilan munosabatlar, ijtimoiy mavqyei, ijtimoiy yo‘llari, ijtimoiy yo‘nalishlari (ijtimoiy psixologik jihatlari).

Uyushmagan yoshlarning psixologik qiyofasini tadqiq etilishiga doir materiallar tahlili mazkur tadqiqotning empirik jihatlarini yoritishda shaxs nazariyalari va shaxs tuzilmasiga doir qarashlar asosida yaqqol ilmiy natijalarni taqdim etadi. Uyushmagan yoshlarning psixologik qiyofasi turli jabhalarni o‘z ichiga oladi. Biz ilmiy izlanishlarimiz asosida psixologik qiyofaning shaxs yo‘nalganligi bilan bog‘liq jihatlarni tadqiq etishni maqsad qilib belgilab oldik. Shaxs yo‘nalganligi yoshlarning dunyo qarashi va qiziqishlari bilan bog‘liq. Shaxsning yo‘nalganligi ehtiyojlarga, ya’ni biror narsaga bo‘lgan ehtiyojni aks ettiruvchi holatlarga asoslanadi. Ehtiyojlar biologik (organizmning oziq-ovqat, havo, harakat, dam olish va hokazolarga bo‘lgan ehtiyojini aks ettiruvchi) va ijtimoiy turlarga ajratiladi. Ijtimoiy ehtiyojlar moddiy (kiyim-kechak, uy-joy

va boshqalar) va ma’naviy (kognitiv, axloqiy, estetik, ijodiy, shuningdek, muloqotga bo‘lgan ehtiyoj) ga bo‘linadi. Qondirilmagan ehtiyojlar xulq-atvor motivi bo‘lib, maqsad va mazmunni anglash darajasiga qarab turli shakllarni olishi mumkin: munosabat, harakat, istak, moyillik, intilish, e’tiqod, dunyoqarash. Natijada shaxsda bularning qay biri ustuvorligiga qarab, yo‘nalganlikning dinamik xususiyati namoyon bo‘la boshlaydi. Biz o‘z qarashlarimizni ilmiy asoslash uchun uchun Buxoro viloyati hududidagi uyushmagan yoshlar orasida V.Smekal va M.Kuchepalapning “Shaxs yo‘nalganligini aniqlash metodikasi”dan foydalandik. Mazkur metodika o‘zbek milliy muhitiga B.P.Qodirov vaK.B.Qodirovlar tomonidan moslashtirilgan.

1-jadval

Uyushmagan yoshlarda shaxs yo‘nalganligi darajasi (n=122)

O‘ziga yo‘nalganlik	Muloqotga yo‘nalganlik	Faoliyatga yo‘nalganlik
42,8%	38,8%	18,4%

Jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turganidek, uyushmagan yoshlardagi o‘ziga yo‘nalganlik 42,8%, muloqotga yo‘nalganlik 38,8%, faoliyatga yo‘nalganlik 18,4%ni tashkil etganligi aniqlangan. Yoshlar orasida o‘ziga yo‘nalganlikning ustuvor xarakterga ega ekanligi, ularda o‘z manfaatlarini ustun qo‘yish, egoistik ustanovkalarning yuqoriligini anglatadi. Biz ilmiy izlanishlarimizga ish bilan band bo‘lmagan yoshlarni jalb qilganligimiz nuqtai nazaridan mazkur holatni tahlil qilsak, ularda o‘zidan qoniqmaslik hissi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda uyushmagan yoshlar o‘z manfaatini ustun deb biladi va “ma’lum bir sababalarga” ko‘ra hech bir faoliyatni o‘ziga “munosib deb bilmaydi”. Natijada, men “qila olaman”, faqat atrofdagilar “meni qadrlamaydi”degan xulosalarga keladilar. Bu esa o‘zini “sevgani, o‘z manfaatini ustun bilgani” bilan “o‘zini biror ishga jalb qilib urintirmaslik” holatini keltirib chiqaradi. Shuni hisobiga, faollik o‘rnini passivlik egallay boshlaydi. Yoshlardagi o‘ziga yo‘nalganlik o‘z farovonligi uchun motivlarning ustunligi, shaxsiy ustunlik va obro‘-e’tiborga intilish bilan bog‘liq. Bunday yoshlar ko‘pincha o‘zi bilan, his-tuyg‘ulari va tajribalari bilan band bo‘lib, atrofidagi odamlarning ehtiyojlariga ozgina munosabatda bo‘ladi.

Navbatdagi mezon muloqotga yo‘nalganlikdir. Muloqot qilish, odamlar bilan suhbatlashish affilyatsiya ehtiyojlari hisobiga faollashadi. Muloqotda ham bunday yoshlar ko‘proq ijtimoiy-psixologik kompetentlikning yetishmasligi tufayli “virtual” usulni ma’qul ko‘radilar. Odatda muloqotdan “bo‘sh vaqtni to‘ldiruvchi vosita” sifatida foydalanadilar. Shu boisdan ham ko‘pincha muloqot konstruktiv yoki faol shaklda emas, aniq maqsadga yo‘naltirilmagan, shunchaki vaqtni o‘tkazishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Uyushmagan yoshlar xatti-harakatlari uning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji, hamkasblari bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolish istagi bilan belgilanadigan hollarda yuzaga keladi. Bunday odam birgalikdagi faoliyatga qiziqish bildiradi. Biroq yoshlarimiz uyushmagan toifaga kirishi shuni anglatadi-ki, ularda faoliyatga jalb etilishi kerak bo‘lgan vaqtni ham muloqotga sarflaydilar. Natijada muloqot faoliyatni “siqib chiqaradi”. Bu esa bevosita faollikni pasayishiga olib kelgan.

Ilmiy izlanishlarimizda eng past natija qayd etgan mezon “faoloiyatga yo‘nalganlikdir”. Mazkur mezonnning past qimmatga ega bo‘lishi tabiiy holatdir. Chunki, uyushmagan yoshlarning ijtimoiy passivligi, aniq maqsadlarni belgilab olmaganligi tufayli ular o‘z ustida ishlamaydi, kasbiy rivojlanishsh sari odimlamaydi. Mazkur mezon aslida faoliyatning o‘zi tomonidan yaratilgan motivlarning ustunligini, faoliyat jarayoniga ishtiyoqni, bilimga fidokorona intilishni, yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni aks ettiradi. Odatda, bunday kishi jamoa bilan hamkorlik qilishga intiladi va guruhning eng yuqori mahsuldorligiga erishadi va shuning uchun u

vazifani bajarish uchun foydali deb hisoblagan nuqtai nazar uchun bahslashishga harakat qiladi. Biroq, uyushmagan yoshlarning faoliyatga nisbatan passiv munosabati faoliyatga jalb bo‘lishni ham pasaytiradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, uyushmagan yoshlarning psixologik qiyofasini namoyon bo‘lishida shaxs yo‘nalganligi muhim o‘ringa ega. Mazkur yoshlar bilan manzilli psixologik xizmatni tashkillashtirishda ularning shaxs yo‘nalganligi strukturasi orqali korreksion ta’sir eta olish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, uyushmagan yoshlar muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar natijalarining tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: shaxsga yo‘nalganligi uyushmagan yoshlarga psixologik xizmat ko‘rsatishda muhim o‘ringa ega bo‘lib, qator omillar bilan korrelyasiyalangan, jumladan,

ahloqiy omillar, ya’ni tarbiyalanganlik orqali jamiyatga moslashish;

kognitiv omillar:, ya’ni insonlarni yaxshiroq bilib olish, dunyoqarashini kengaytirish, voqelikka nisbatan kognitiv munosabat bildirish yoki malaka orttirish istagi;

ijtimoiy omillar, ya’ni jamiyatning faol a’zosiga aylanish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanish istagi zamirida “jamiyat uchun foydali” shaxsga aylanish ehtiyoji qondiriladi;

shaxsiy “Men”ni himoyalash bilan bog‘liq jihatlar, ya’ni aybdorlik hissidan qutilish yoki shaxsiy muammolardan qochish istagi.

Keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, shaxs ta’lim-tarbiyasi masalasi murakkab jarayonlardan hisoblanadi. Shunga muvofiq, uyushmagan yoshlarni jamiyatga moslashishi uchun ijobiy shaxs sifatlarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratilishi o‘rinlidir. Buning uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- uyushmagan yoshlarda ijobiy ustanovkalarni shakllantirish;
- uyushmagan yoshlarda empatiya, ijtimoiy ma’suliyat, irodaviy sifatlarni shakllantirish mexanizmlarini yanada chuqurroq tadqiq etish;
- uyushmagan yoshlarda vaziyatga nisbatan ma’suliyat hissini tarkib toptirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi. 2020. - https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_197662

2. Воронин В.Н. Социально-психологические механизмы формирования организационной культуры: дис. ... д-р психол. наук: 19.00.05. М., 1999.

3. Исмоилов Т.И. Ўзбекистонда уюшмаган ёшларнинг ижтимоий фаоллиги. Т.: “Lesson press”, 2021. -136 б.

4. М.Имомназаров Миллий маънавиятимиз асослари. – Тошкент. 2006. Б.406.

5. Курышева О. В. Психологическая характеристика молодежи как возрастной группы // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 7. Философия. 2014. № 1 (21). С. 67-75.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот–Шукр / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т., 2008. – 608 б.

7. https://ru.wikipedia.org/wiki

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Салихов Шохрух Мансурович
Бухарский государственный университет
Преподаватель кафедры Психологии и социологии

Достижение высочайших высот в области физического воспитания и профессионального спорта требует серьёзного подхода, большого труда и материальных затрат. Не является исключением и всестороннее внимание, уделяемое спорту высших достижений и физическому воспитанию в нашей стране. Судя по опыту многих стран, забота государства о судьбе отечественного спорта и физической культуры, несомненно, приносит большую пользу. В поддержку этих элементов в социальной сфере, прежде всего, создают все благоприятные условия для психического и физического здоровья подростков и среды подрастающего слоя общества. Важно отметить, что наша страна входит в число стран, которые понимают высокую важность этого направления и не оставили его. Государственные структуры, общественные организации и спортивные учреждения всегда совместно решают такие важные задачи, как развитие материально-технической базы в сфере спорта и физического воспитания, завоевание популярности, укрепление профессионального спорта. Спорт – лучший инструмент для создания здоровой социальной и политической среды, он особенно важен среди молодежи. Сегодня спорт является неотъемлемой частью образования в Узбекистане. Узбекистан – страна с молодым населением, более 40% жителей Узбекистана – молодые люди в возрасте до 18 лет. Им важно развиваться во всех аспектах и достичь зрелости как умственно, так и физически. Поэтому внимание к детскому спорту и пропаганда здорового образа жизни среди молодежи является одним из основных направлений государственной политики. С 2002 года в целях всемерной поддержки детского спорта действует Фонд развития детского спорта.

С первых лет независимости в Узбекистане особое внимание уделялось развитию физической культуры и спорта, в том числе олимпийских видов спорта. Принятие Парламентом нашей страны Закона «О физической культуре и спорте» свидетельствует о важности такого внимания.

Образование играет особую роль в процессе цифровой трансформации, выступая как фактор обеспечения необходимых условий, предпосылок и интеллектуального фона для уверенного перехода в цифровую эпоху, где приоритетной задачей становится подготовка высококвалифицированных специалистов, соответствующих «цифровому» времени.

Соответственно, это влечет за собой необходимость кардинальных изменений в системе образования, таких как преобразование образовательных программ, методов и организационных форм обучения, широкое внедрение и применение цифровых инструментов и коммуникаций в учебной деятельности посредством цифровой среды, обучение людей по индивидуальному плану в течение всей жизни в удобных для них времени и месте. разработаны различные типологии навыков в зависимости от исследовательских задач и реализуемой политики в области цифровой грамотности

населения например, европейский фонд образования дает такое определение: «базовые цифровые навыки – это основополагающие навыки, необходимые для выполнения базовых задач, и они становятся частью фундаментальной грамотности», он выстраивает следующую иерархию навыков: базовый, промежуточный и продвинутый. В свою очередь, Юнесko выделяет такие типы навыков, как базовые – необходимые для того, чтобы получить доступ и начать использовать цифровые технологии, общие (средние) – позволяющие использовать цифровые технологии более эффективным и полезным образом, и высокого уровня – связанные не только с использованием, но и с трансформацией продуктов, услуг, инновациями. Очевидно, что обозначенный профиль навыков актуален для анализа перспектив расширения возможностей использования цифровой образовательной среды. Но эти умения также будут необходимы нынешним обучающимся на рынке труда, поскольку на предприятиях они должны уметь адаптироваться к работе и решать профессиональные задачи в цифровой среде.

Так, подавляющее большинство преподавателей и студентов могут производить операции с офисными приложениями, а владение языками программирования доступно меньшинству. Также, как правило, они владеют базовыми коммуникационными навыками (общение с помощью социальных сетей), но ограниченно осваивают специальные программные приложения для обмена информацией и совместной работы.

Вместе с тем студенческая среда неоднородна. Так, значимые различия складываются по направлениям подготовки (специальностям). В специалитете больше доля гуманитарных и медицинских специальностей и наиболее низкий уровень цифровой грамотности, а самые высокие показатели демонстрировали студенты магистратуры, бакалавриат занимает серединное положение. Таким образом, в специалитете выше риски отставания выпускников в области цифровых компетенций.

Если проследить развитие навыков в течение всего времени обучения в вузе, то в бакалавриате заметен незначительный прогресс и в основном только к 4-му курсу. Более ощутимый разрыв между 4-м курсом бакалавриата и 1-м курсом магистратуры частично может быть обусловлен академически более успешным контингентом поступающих в магистратуру. Студенты ведущих вузов несколько лучше ознакомлены со специализированным ПО. Обучающиеся математическим и естественным наукам, инженерному делу существенно опережают студентов других профилей по уровню владения специализированным ПО. При этом есть группы направлений подготовки (здравоохранение, медицинские науки, науки об обществе), в которых студенты слабо вовлечены в работу с профессиональным ПО.Аналогичная тенденция наблюдается и среди ППС в зависимости от специализации. Ограничения в практиках использования специализированного ПО могут привести к «консервации» ряда образовательных программ вместо их обновления в соответствии с требованиями рынка труда и задачами государственной политики по достижению «цифровой зрелости» образования. Как следствие, при дефиците знаний о специализированном ПО студенты теряют и в профессиональных навыках. Совершенствование ИКТ-навыков требуется значительному кругу преподавателей, только в половине ведущих и прочих вузов.

Наиболее активно в рамках своей профессиональной деятельности преподаватели использовали возможности подключения к интернету, применяли мультимедийное оборудование, а также компьютерные программы и базы данных. Интерактивные доски использовал только каждый четвертый. Еще более редким явлением оказалось

применение преподавателями симуляторов и тренажеров. Ситуация в ведущих и опорных вузах повторяет тенденции. Распространенность практик использования различных цифровых инструментов почти не дифференцирована по типам. Цифровые технологии внедряются не взамен педагогической составляющей, а наоборот, призваны повысить ее эффективность. Особенности цифровой трансформации можно выявить, изучив практики использования в организации и проведении обучения разнообразных цифровых устройств и сервисов, от которых в немалой степени зависит накопление цифровых компетенций.

С 2019 г. благодаря цифровизации произошли существенные изменения в образовательных технологиях и форматах обучения. Существуют довольно разнообразные инструменты онлайн-обучения, но чаще всего речь идет о переводе в этот формат занятий с преподавателями. В девяти из десяти вузов лекции проводились онлайн, при этом почти в 90% организаций переводили в дистанционный режим как лекционные, так и семинарские занятия, а также контроль за результатами обучения. Гораздо меньший круг вузов (два из пяти) включили в образовательные программы онлайн-курсы (как правило, собственного производства). Цифровая трансформация в последние годы происходила скорее под влиянием внешних факторов (особенно в связи с массовым переходом на дистанционный режим в 2019-2020 гг.). При оценке уровня цифровизации образовательной, научной и административной сфер деятельности вузов следует рассмотреть три ключевых аспекта в отношении каждой из них: масштабы внедрения ИКТ-систем, сервисов и решений, уровень цифровых навыков преподавателей, а также отношение сотрудников вузов к процессу цифровизации. В настоящем разделе приводятся данные по вузам в целом, а также сравнивается ситуация как в вузах разных типов (ведущих, опорных и прочих), так и в образовательных организациях Москвы и других регионов. Кроме того, сопоставляются цифровые навыки преподавателей, занимающихся исключительно образовательной деятельностью, и тех, кто совмещает преподавание с участием в научных исследованиях и разработках (в любых формах). Внедрение цифровых технологий нечасто ведет к снижению нагрузки на научных работников и еще реже – на преподавателей. Более негативное и настороженное отношение к цифровизации образовательного процесса объясняется еще и тем, что, по мнению руководителей, риск ухода сотрудников старшего поколения из-за широкого распространения цифровых технологий выше среди преподавателей, чем среди научных работников. Следует отметить, что активная цифровизация в первую очередь образовательной деятельности не только открывает новые возможности, но и вызывает растущую тревогу у сотрудников касательно возможных негативных последствий внедрения ИКТ. Такие опасения чаще выражают преподаватели, поскольку наибольшие изменения происходят именно в учебных процессах и непосредственно затрагивают большинство из них.

Обеспеченность организаций цифровыми устройствами – важный показатель, однако не достаточный. Чтобы цифровая инфраструктура стала катализатором развития цифровизации, необходимо организовать доступ к этим инструментам для основных пользователей с учетом их потребностей. Оснащенность некоторыми видами цифровых инструментов и их состояние находятся на приемлемом уровне, в качестве примера можно привести доступ к интернету.Однако для большей части ключевых ресурсов требуется наращивание объемов (ПО, симуляторы, тренажеры, интерактивные доски) или обновление и модернизация (компьютерный парк). Также следует обратить внимание на организацию компьютерных классов. В условиях недостаточной оснащенности

необходимо проводить регулярный мониторинг ее состояния, своевременно выявлять системные проблемы по основным элементам цифровой инфраструктуры. Особое внимание в рамках таких обследований нужно уделять анализу цифровых разрывов между различными группами.

Какова готовность студентов и преподавателей осваивать цифровые технологии и применять их в учебном процессе ?

Передача соответствующих знаний студентам и формирование у них цифровых навыков зависит от компетенций преподавателей. В международной практике сформировалась единая структура цифровых навыков, необходимых в современной технологической среде. Большинство преподавателей обладают базовым уровнем цифровых навыков, в частности, они могут выполнять основные операции при цифровой коммуникации, работе с контентом и с информацией в цифровой среде. Однако чем сложнее навыки, тем меньшая доля преподавателей имеет опыт выполнения соответствующих действий. Например, если обратиться к группе коммуникационных навыков, то в учебной работе педагоги отдавали предпочтение более массовым средствам.Они активно пользовались мессенджерами и социальными сетями, а умением работать с более сложными приложениями для организации мероприятий (Zoom, Webinar, Skype и др.) обладал существенно меньший круг. Преподаватели загружали информацию для общего доступа преимущественно в социальных сетях и редко были знакомы со специальными программными приложениями для получения и отправки учебных заданий (Microsoft Teams, LMS и др.).Из числа навыков работы с цифровой информацией наиболее распространенным оказалось умение использовать облачные хранилища, однако преподаватели мало знакомы с технологиями ведения блога, с редактированием веб-сайтов и их управлением – навыками, казалось бы, актуальными в связи с развитием практик ведения личных страниц, «портфолио». Наряду с общей цифровой грамотностью преподавателей следует также изучить признаки дифференциации и определить группы лиц, демонстрирующих самый низкий уровень владения цифровыми навыками. В частности, в области работы с контентом по сравнению со своими коллегами они существенно реже готовы совершать манипуляции с электронными таблицами и презентациями; в области коммуникаций – загружать данные в интернет для общего доступа, обмениваться информацией и общаться в мессенджерах, социальных сетях, организовывать онлайнмероприятия с помощью приложений; в области работы с цифровой информацией – применять облачные сервисы для хранения информации.

Список использованной литературы:

1. Салихов Т. и др. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

2. Salixov S. M., Salixov T. M. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 1013-1019.4.

3. Salixov S. M. et al. Musobaqa oldi sportdagi stress va tayyorgarlikning psixologik tomonlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1039-1044.

4. Mansurovich S. S. Methodology of organizing physical education lessons through digital technologies //European Journal of Modern Medicine and Practice. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 107-

5. Салихов Ш. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ СПОРТИВНЫХ ТРЕНЕРОВ //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 56-60.

6. salixov, shoxrux. (2023). BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK TIZIMI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, *40*(40).

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI MOSLASHUVINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Axmedova Zarina Jamilovna
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Ruzimurodova Jasmina Ilyos qizi
Psixologiya ta`limy yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Maktabga moslashish deganda, bolaning yangi munosabatlarga, yangi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashishi tushiniladi. Maktabning ijtimoiy munosabatlari tizimi, normalari, talablari ko‘pincha bu jarayonning oson kechishiga qiyinchilik tug‘diradi.

Adaptatsiya- bu bolaning maktabga, yangi turmush sharoitlariga, yangi faoliyat turiga va yangi stressga moslashish jarayoni hisoblanadi.

Birinchi kunlardanoq maktab bolaga bir qator vazifalarni qo‘yadi. U ta’lim faoliyatini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi, maktabdagi xatti-harakatlar normalariga rioya qilishi, sinf jamoasiga qo‘shilishi, aqliy mehnat va rejimning yangi sharoitlariga moslashishi kerak.

Yangi ta’lim muhitiga kirgan birinchi sinf o‘quvchilari moslashish davrini boshqacha boshdan kechirishadi. A.L. Venger bolaning maktabga moslashuvining uchta darajasini aniqladi: yuqori, o‘rta va past. O‘rtacha moslashish darajasini maktabga ijobiy munosabatda bo‘lgan o‘quvchilarda ko‘rishimiz mumkin.Ular o‘quv rejasining asosiy mazmuni o‘zlashtiriladi; maktabga kelganda salbiy holatlarni keltirib chiqarmaydi; u faqat uni qiziqtiradigan mavzularga e’tibor qaratadi; berilgan vazifalarni vijdonan bajaradi; qisman mustaqillik mavjud bo‘ladi.

Maktabga ijobiy munosabatda bo‘lgan o‘quvchilar orasida moslashuvning yuqori darajasi kuzatiladi; kattalar (o‘qituvchi, ota-ona va boshqalar) tomonidan qo‘yilgan talablarni yetarli darajada idrok etish va o‘z vaqtida bajarish, sinfdagi qulay maqom pozitsiyasi; mustaqil faoliyat rag‘batlantiriladi va kattalarning doimiy nazoratini talab qilmaydi; tanqidni munosib qabul qiladi.

Moslashuvning past darajasi kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining o‘quv jarayoniga salbiy munosabati bilan tavsiflanadi. Bu darajadagi birinchi sinf o‘quvchisining sog‘lig‘i haqida shaxsiy shikoyatlari bor deb qaraladi. Depressiya holati hukmronlik qiladi, intizom bilan bog‘liq muammolar paydo bo‘ladi; o‘qituvchi tomonidan aytilgan material parcha-parcha qabul qilinadi yoki umuman o‘zlashtirilmaydi; kattalar nazorati va rag‘batlantirishni talab qiladi.

Maktabda o‘qishni boshlagan barcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi. Har bir bolaning maktab boshlanishi va uning ota-onasi hayotida muhim ahamiyatga ega. Odatda 6-7 yoshli o‘quvchi maqomiga bolalar qiziqadi va bu rolga tayyor bo‘lishga intiladi. Biroq, bu tayyorgarlik bolaning maktabga bo‘lgan barcha aniq umidlari

bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha har bir yangi birinchi sinf o‘quvchisi mos ravishda amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining maktabga kirishda bolaning yashash sharoitlari va faoliyati tubdan o‘zgaradi; o‘quv faoliyati yetakchi o‘rinni egallaydi. Boshlang‘ich shakllarda o‘quv faoliyati maktabgacha tarbiyachi tomonidan ham amalga oshirilgan, ammo u uchun u ikkinchi darajali xarakterga ega hisoblanadi, chunki o‘yin yetakchi o‘rinda turgani uchun maktabgacha tarbiyachining o‘quv faoliyati motivlari ham asosan o‘yindan iborat bo‘ladi. Maktab rejimi maktabgacha yoshdagi bolalikka qaraganda ancha yuqori xatti-harakatlarning o‘zboshimchalik darajasini talab qiladi. Birgalikdagi faoliyat jarayonida o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan munosabatlarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash zarurati rivojlangan aloqa ko‘nikmalarini talab qiladi. Shu munosabat bilan, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllanishi kerak bo‘lgan maktabga tayyorlik alohida ahamiyatga ega. Yetarli aloqa tajribasiga ega, rivojlangan nutq, kognitiv motivlar va xatti-harakatlarni o‘zboshimchalik bilan tartibga solish qobiliyati bilan shakllangan bolalar maktab sharoitlariga osongina moslashadilar.

Birinchi sinf o‘quvchisining moslashish davri ilgari o‘rnatilgan xulq-atvor va hayotiy ko‘nikmalarning stereotiplarini o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lib, bu nafaqat kundalik hayotda tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatlarda bir qator qiyinchiliklarga olib keladi. Birinchi sinfda bolaning maktabga va o‘qishga bo‘lgan qiziqishi keskin pasayadi, kognitiv qiziqishning pasayishi moslashish davri qiyinchiliklari bilan bog‘liq. Kichik maktab o‘quvchisini maktabga borishning birinchi oylarida ijtimoiylashuvning asosiy muammolari bolaning maktab talablariga ijtimoiy-psixologik moslashuvidagi qiyinchiliklar deb ta’riflanishi mumkin. Shu bilan birga, bola moslashishni ichki yo‘qotishlarsiz, farovonlik, kayfiyatning yomonlashuvi yoki o‘zini o‘zi qadrlashning pasayishisiz amalga oshirishi muhimdir. Ijtimoiy moslashuv muammosi ustida E.Toffler, V.Tomas, A.Znanetskiy, G.Selye, Yu.A.Aleksandrovskiy, X.Xartman, L.Filips, J.Piaje, kabi ko‘plab mashhur psixolog va o‘qituvchilar ishlagan. L.Kuznetsovaning fikricha, bolaning ijtimoiy moslashuvi - bu bolaning tashqi dunyo bilan uyg‘unlashuvi, o‘zgargan muhitga, yangi turmush sharoitlariga, muayyan ijtimoiy-psixologik jamoalardagi munosabatlarning tuzilishiga moslashish jarayoni va natijasidir. Ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyati asosan bolalar guruhidagi bolalar o‘rtasidagi munosabatlar bilan belgilanadi. Agar guruhning ijtimoiy-psixologik sharoitlari bolaning shaxsiyatining yo‘nalishiga mos keladigan bo‘lsa, u holda do‘stlik va bir-biriga g‘amxo‘rlik qilishning qulay muhiti bolaning tez moslashishiga yordam beradi, lekin agar guruh axloqiy me’yorlari tarkibiy qismlarga mos kelmasa, shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilishidan, keyin psixologik noqulaylik holati paydo bo‘ladi. Tengdoshlar bilan aloqalar orqali bolada o‘zini va boshqalarni idrok etish va adekvat baholash qobiliyati shakllanadi, bu shaxsning guruhdagi, umuman jamiyatda moslashishi uchun zarur shartdir (Ya.L.Kolominskiy). Birinchi sinf o‘quvchisining ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash mezonlarini ko‘rib chiqish mumkin: – Yangi ijtimoiy rolni o‘zlashtirish. Maktab o‘quvchisi sifatida o‘zini anglash mavjud. U boshqalardan farq qilishini biladi va o‘zining o‘ziga xosligini, "men"ini his qiladi, kattalar va tengdoshlar orasida o‘zini namoyon qilishga intiladi

Ta’limning birinchi yilida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini boshqarish juda muhim, chunki bola o‘z rivojlanishida juda muhim qadamlarni qo‘yadi va kelajakda salbiy omillar bolaning butun maktab hayotiga ta’sir qiladi. Shuning uchun siz maktabda o‘qish uchun boshlang‘ich sinfo‘quvchilarining psixologik xususiyatlarini bilishingiz kerak. O‘qituvchi-psixolog uchun maktabga yanada muvaffaqiyatli moslashish uchun boshlang‘ich sinf

o‘quvchilari bilan ishlash, agar tuzatish, rivojlanish va maslahat-ma’rifiy faoliyat zarur bo‘lsa, diagnostika ishlarini olib borish muhimdir.

Maktabning birinchi sinfi bolalar hayotidagi eng muhim davrlardan biridir. Ularning ko‘pchiligi uchun maktabga kirish hissiy stressli vaziyatdir: odatiy stereotip o‘zgaradi, psixo-emotsional yuk kuchayadi. Keyingi yillardagi muvaffaqiyatlar ko‘p jihatdan o‘qishning birinchi yilida moslashuv qanday o‘tishiga bog‘liq. Agar bola yangi muhitga tezda moslashib ketsa, uning o‘qishida kamchiliklar sezilmaydi. Teskari holatda bola o‘zini chetga olishni, o‘qish jarayonida muammoli vaziyatlarga duch kelishni boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Александровская, Э.М. Психологическое сопровождение школьников: Учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений/Э.М. Александровская, Н.И.Кокуркина, Н.В.Куренкова. М.: Академия, 2002.- 208с.

2. Pickren W. E., Rutherford A. A history of modern psychology in context.Hoboken, New Jersey. 2010. 380 p.

3.A.Z.Djamilovna Study of the formation of crime motivation in adolescents as a problem of psychological research, I.H.Bakhtiyorovna - ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2022

4.Ахмедова З.Ж. “Педагогико-психологические особенности адаптации младших школьников к учебной деятельности” Вестник интегративной психологии 2023 Выпуск 29

O‘SMIRLARDA PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHNING ASOSIY OMILLARI

Akbarova Maftuna Erkinjon qizi
Buxoro davlat universiteti magistranti

Kundalik hayotda biz "stress" atamasini tez-tez ishlatamiz, lekin har bir kishi buni o‘ziga xos tarzda tushunadi. Stress atamasi birinchi marta kanadalik olim Xans Selye tomonidan kiritilgan. Uning so‘zlariga ko‘ra, "stress - bu tananing har qanday talabga o‘ziga xos bo‘lmagan javobidir". Uning fikricha, stress inson tanasining atrof-muhit bilan normal munosabatlarini buzadigan barcha narsadir. Stressni inson va uning atrofidagi o‘zaro ta’sirning murakkab tizimi deb atash mumkin. Stress odamga ta’sir qiladi. Agar bu ta’sir odam tomonidan yangi narsa sifatida aniqlansa, bu ortiqcha kuchlanishni keltirib chiqaradi. Stress — inglizcha so‘z bo‘lib, “tanglik”, “zo‘riqish”, “bosim” degan ma’nolarni anglatadi. Oddiy til bilan aytganda tushkunlikka tushish deyiladi. Salbiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradigan stress “distress”, ijobiy his-tuyg‘ular “eustress”. Hozirgi kunda “ijtimoiy stress” tushunchasi psixologiya fanida keng qo‘llaniladi. Bu, birinchi navbatda, zamonaviy inson hayotida oilaviy va jamoaviy munosabatlar, nizolar, kasbiy faoliyat, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, shuningdek, makroiqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy muammolar bilan psixologik keskinlikning kuchayishi bilan bog‘liq. Ta’riflardagi ko‘plab stressli vaziyatlar bolalik davrida sodir bo‘lishi mumkin va insonga katta yoshdagi (masalan, o‘smirlik davrida) ta’sir qilishi mumkin.

O‘smirlik - inson hayotidagi eng qiyin davrlardan biridir. O‘smir juda ta’sirli va har qanday mojaro ruhiy jarohatga aylanishi mumkin. O‘smirlik davrining asosiy belgilari - bu muloqotga bo‘lgan ehtiyoj va o‘zini o‘zi tasdiqlash, shaxslararo munosabatlar, do‘stona

munosabatlarni shaxsiy yutuqlar sifatida baholash, norasmiy guruhlarga qo‘shilish va kattalardan uzoqlashishdir. M.V.Rybakova surunkali ijtimoiy stress belgilari bo‘lgan o‘smirlar oilaning moddiy ahvolidan, birinchi navbatda, kiyim-kechakning sifati va miqdoridan, shuningdek, shaxsiy buyumlarning miqdori va sifatidan qoniqmasligini aniqladi. Maktab o‘smirlar uchun ijtimoiy stressning asosiy manbalaridan biridir. Birinchi bo‘lishga intilish va o‘rganishga berilib ketish ko‘plab ruhiy muammolarni keltirib chiqaradi. Maktab jamoasidagi o‘zgarish o‘smir uchun kuchli stressdir, chunki bu yangi do‘stlar orttirish va nafaqat sinfdoshlar, balki o‘qituvchilar bilan ham aloqa o‘rnatish zarurligini anglatadi. Zamonaviy o‘smir hayotida ijtimoiy hayot katta ahamiyatga ega. O‘smirlar ko‘p vaqtlarini tengdoshlari bilan o‘tkazadilar va ko‘pincha oilasiga qaraganda do‘stlariga ko‘proq ahamiyat berishadi. Bunday vaziyatda ota-onalar nizolar va muammolarni oldini olish uchun o‘smirlarga nisbatan munosabatlarini o‘zgartirishlari kerak. Oiladagi umumiy ziddiyat ham o‘smirda stress manbai bo‘lishi mumkin. O‘smirlarni ta’lim faoliyati muammolari eng ko‘p tashvishlantiradi. Ikkinchi o‘rinda ularning shaxsiy kelajagi, uchinchi o‘rinda tengdoshlar bilan munosabatlar va kattalar bilan munosabatlardagi muammolar, keyin esa ishqiy munosabatlar tashvishlantiradi. Shuning uchun o‘smirlardagi stressning asosiy omilini "oila - o‘smir", "maktab - o‘smir", "tengdoshlar - o‘smir" munosabatlari tizimlarida shakllanadigan hayotiy vaziyatlar aniqlash mumkin. Bu munosabatlarning barchasi ijtimoiy stressga olib keladigan ziddiyatli vaziyatlarning o‘zagiga aylanishi mumkin.

O‘smirlardagi stress ham jiddiy muammolar, ham kichik norozilik natijasida yuzaga kelishi mumkin. Eng og‘ir stresslar o‘ta xavfli vaziyat (zo‘ravonlik) natijasida yuzaga keladi. Shubhasiz, bunday og‘ir stressli vaziyatlar har qanday odamda uchraydi, lekin eng muhimi, o‘smirning ruhiyatiga zarar yetkazadi. Bu yosh davrida bolaning psixikasi butunlay o‘zgaradi va bola kattalar yo‘lida bo‘ladi. Agar ushbu qiyin, o‘tish davrida bolaning ruhiyati stressga duchor bo‘lsa, unda u barkamol va xayrixoh inson bo‘lib qolishi qiyin. Doimiy stress tufayli o‘z-o‘ziga past baho berish, turli xil fobiyalar yoki o‘z qobig‘iga o‘ralib qolish rivojlanishi mumkin. Zamonaviy jamiyatdagi o‘smir uchun eng muhim stressli vaziyatlar hissiydir. O‘smir ko‘plab muammolarga duch keladi, ularning salbiy ta’siri stressli holatga olib keladi. Uydagi muammolar (oiladagi nizolar, ota-onalarning shafqatsizligi va boshqalar) ham stressga olib keladi. Bularning barchasi o‘smirning rivojlanishiga, uning tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan munosabatlariga ta’sir qiladi, shuning uchun tobora ko‘proq stressli vaziyatlar yuzaga keladi. Har xil turdagi stresslar doimiy ravishda to‘planib boradi. O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ularda ro‘y beradigan biologik-jismoniy o‘zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo‘lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog‘liq bo‘lib qolishi xarakterlidir. O‘smirlik davrining ko‘plab tadqiqotlari (L.S.Vigotskiy, L.I.Bojovich, S.Xoll va boshqalar) bolaning o‘ziga, boshqalarga va umuman dunyoga bo‘lgan munosabati o‘zgargan bo‘lsa, uning tanqidiy, o‘tish xarakterini alohida ta’kidlaydi. Ushbu o‘zgarishlar o‘smirda boshqalar bilan va o‘zi bilan bog‘liq nizolarni keltirib chiqaradi, bu esa stressning rivojlanishiga olib keladi. O‘smirlarda stressning boshqa jiddiy sabablari yaqin kishining o‘limi yoki ota-onaning ajralishi bo‘lishi mumkin. Bu yoshdagi bola oiladagi barcha nizolarni yurakdan qabul qiladi. O‘smirdagi stressning yana bir sababi maktabdagi muvaffaqiyatsizlik bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilarning haddan tashqari yuqori talablari ham ruhiyatga bosim o‘tkazadi. Bularning barchasiga qo‘shimcha ravishda, sabab sport, ijodiy

faoliyatdagi ortiqcha yuk. Maktablarni o‘zgartirish ham dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Aniqlangan o‘smirlik davridagi stress omillariga ularning tanasidagi fiziologik o‘zgarishlar, jinsiy uyg‘onish, ijtimoiy tarmoqlar, internet olami bilan munosabat va boshqalar kiradi. Bularning barchasi o‘smirning rivojlanishiga, aqliy barkamolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kuchli stresslarni his qilgan o‘smirlarda psixologik muammolar va kasalliklar yuzaga keladi. Bular depressiya, o‘z joniga qasd qilish, giyohvand moddalar iste’mol qilish, spirtli ichimliklar ichish, tarbiyasi qiyin o‘smirlar guruhiga qo‘shilish kabilardir. Stress darajalari yuqori bo‘lganda o‘smirda zarali odatlarga berilish, uyquning yomonligi, tartibsiz ovqatlanish, jismoniy passivlik, kayfiyatning tushkunligi ko‘zga tashlanadi. Jismoniy passivlik, charchoq hissi, aqliy muammolar, salomatlikdagi buzilishlar stresslar natijasidir. O‘smirlarda ta’lim jarayoni, ijtimoiy ta’sirlar, oilaviy muammolar, otaonalarning talablari va o‘smirlarning ehtiyojlari stress omillari sifatida sanaladi. Ko‘pgina stressga bag‘ishlangan tadqiqotlar stress darajasini o‘rganishga qaratilgan. Ammo kam tadqiqotlar stress va uning omillarini aniqlash bo‘yicha o‘rganilgan. Zeroki, stressli omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish muhim va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Aynan rivojlanib borayotgan yosh davrida, o‘smirlikda stress omillari natijasida xavotir hissi, yurak kasalliklari, depressiya, ruhiy salomatlikdagi buzilishlarga olib keladi. O‘smirlik - bu jismoniy, psixologik-ijtimoiy va axloqiy o‘ziga xosliklar, o‘zgaruvchanlik davridir. Bugungi kunda o‘smirlar murakkab rivojlanish davrida turli xil stress omillariga duch kelishmoqda.

O‘smirlik davrida muvaffaqiyatli rivojlanish uchun bir qancha muhim jihatlarga e’tibor qaratilishi lozim. O‘smir o‘z shaxsiyatini shakllantirishi, o‘smirning mustaqillikka intilishi va bu bosqichning ijobiy boshqarilmasligi o‘smirlarda kelajakka nisbatan umidsizlik tuyg‘ularini keltirib chiqaradi. O‘smirlarda kuzatiladigan ehtiyojlarning qondirilmasligi ham ularda stresslarni keltirib chiqaradi. E’tirofga, e’tiborga, qo‘llab-quvvatlashga, mehrga va taalluqlilik bo‘lishga bo‘lgan ehtiyojlarning qondirilishi o‘smirlarda atrof-muhitga ijobiy munosabatda bo‘lishga undaydi. O‘smir mustaqillikka intilish jarayonida muammolarni hal qilishga kuchi yetmasligi, munosabatlarda qiynalishi unda stress darajasini oshiradi. O‘smirlar rivojlanishi jarayonida oilaviy, ijtimoiy va shaxsiy stresslarga duch kelishadi. O‘smirlarning tengdoshlar va kattalar bilan salbiy munosabatlari ham stress omillari hisoblanadi. Bu munosabatlar o‘smirlarda ishonchsizlik va norozilik tuyg‘ularini keltirib chiqaradi. O‘smirlik davridagi stress jismoniy va ruhiy salomatlikning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Stressli o‘smirlarning immuniteti juda past va kasal bo‘lish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi. Chunki o‘smirlardagi ichki qarama qarshiliklar ularda turli darajadagi stresslar shakllanishiga sabab bo‘lishi kuzatildi. koping xulq-atvor o‘zida individning stressga nisbatan o‘ziga hos javob reaksiyasini namoyon etadi. Bu shuni anglatadiki, qachon inson stressni his qilsa, muammoli vaziyatda kognitiv va xulq-atvor jihatidan bartaraf etishga urinadi. Bunday yondashuv sub’ekt xulq-atvorining kundalik va avval erishgan jihatlarini inobatga olib, odatdagi negativ qirralarini yengishdagi jihatlarini inobatga olmaydi. Masalan, mazkur yondashuv individning stressdan qochish imkoniyatlaridan mustasno hisoblanadi.

Shuningdek, bu talabga ko‘ra, inson stress bilan reaksiyaga kirishmaguniga qadar hayotiy muammoni yengish sifatida qarab bo‘lmaydi. “Koping strategiyasi” tushunchasi jarayon resurslarini boshqarish sifatida ham keng tahlil qilinadi. Taxminlarga ko‘ra hayotiy murakkabliklarni bartaraf etish mohiyatan shaxs resurslarini safarbar etish orqali amalga oshiriladi. Koping strategiya va uning usullari himoya mehanizmlaridan farqlanganda

konstruktiv faol zarurat nazarda tutiladi va vaziyat orqali yoqimsizliklardan chetlashishga harakatdir. Psixologiyada kopingning predmeti mavjud bo‘lib, u maxsus tadqiqot hududida insondagi emotsional mexanizm va ratsional regulyatsiyani o‘rganishda o‘zining maqsadli optimal xulq-atvoriga ko‘ra hayotiy holatlarni o‘zining maqsadlariga muvofiq qayta qurishni amalga oshiradi. Shaxsning stressli vaziyatlardagi koping xulq-atvori ma’lum darajada stressli vaziyatlarda javob reaksiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa o‘smirlik davrida bu jarayonga jiddiy qarash kerak bo‘ladi. Shuni hisobga olib o‘smirlarda koping xulq-atvor va stressli vaziyatlarda javob reaksiyasi o‘rtasidagi mutanosiblik bilan bog‘liq ijtimoiy psixologik omillarni empirik jihatdan o‘rganish va shartli ravishda qabul qilingan mezonlar asosida uning natijalarini tahlil qilish ko‘zda tutilgan edi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun tadqiqot metodikalari tanlandi. Yana shuni ta’kidlash joizki, ba’zan har bir o‘smir stressli vaziyatlarda o‘z imkoniyatlariga adekvat baho bera olishga ma’lum ma’noda qiyinchilikka uchrashi mumkin. Bizningcha, bunday qiyinchilik zamirida stressli vaziyatlar haqida yetarli tasavvurga ega emasligi bilan izohlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akramova.G.S.- “Yosh psixologiyasi” – 2015 y.
2. Karimova .V.-“Oila psixologiyasi”-Toshkent 2017-yil.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2014.– 98 b.
4. Muxtorov E.M.-“Oila psixologiyasi”-Toshkent 2010-yil.
5. Petrovskiy.A.V-“Umumiy psixologiya”–Toshkent -2012-yil.
6. Qodirova A.T. O‘smirlarda oilaviy nizolar to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlarining shakllanishi.-Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2017.

Итак, в состав ПГ входит, с одной стороны, психологическая, психофизиологическая и физическая готовность, т.е. профпригодность, а с другой - научно-теоретическая и практическая подготовка педагога.

Исходя из содержания этих профессиограмм можно видеть, что научно-теоретическая готовность будущего учителя предполагает наличие у учителя аналитических, прогностических, проективных и рефлексивных умений. При этом, что ни в одной из рассмотренных профессиограмм нет компонента, определяющего отношение к вариативному обучению. Для определения его содержания проследим вклад каждой группы общепедагогических умений в готовность к вариативному обучению.

Аналитические умения - один из критериев педагогического мастерства, именно через них проявляется обобщенное умение педагогически мылить. Такое умение состоит из ряда частных умений: расчленять педагогические умения на составляющие элементы (условия, причины, мотивы, стимулы, средства, формы проявления и др.); осмысливать каждую часть в связи с целым и во взаимодействии с ведущими сторонами; находить в теории обучения и воспитания идеи, выводы, закономерности, адекватные логике рассматриваемого явления; правильно диагностировать педагогическое явление; находить основную педагогическую задачу (проблему) и способы ее оптимального решения. Эта группа умений позволит будущему учителю выделить достоинства и недостатки вариативного курса, истинное новаторство автора, позволит определить степень реализации авторской идеи в учебнике, а также - умение диагностировать результаты обучения по разным вариативным курсам.

Прогностические умения. Прогностические умения всегда предполагают ориентацию на конечный результат. Прогнозирование педагогического процесса включает определение воспитательных и развивающих возможностей учебного материала, затруднений учащихся в учении, результатов применения тех или иных методов и средств обучения. Очевидно, педагогическое прогнозирование потребует от учителя овладения такими прогностическими методами, как моделирование, выдвижение гипотез, мысленный эксперимент, экстраполирование. Именно эти умения понадобятся будущему учителю для прогнозирования трудностей практики, связанные с освоением любого курса и позволят определить пути их коррекции.

Проективные умения проявляются в материализации результатов педагогического прогнозирования в конкретные планы обучения и воспитания, т.е. перевод на педагогический язык целей обучения и воспитания, определение содержания и видов деятельности, которые обеспечат развитие прогнозируемых качеств и состояний. А это - в аспекте нашей проблемы означает, что проективные умения необходимы для осуществления отбора педагогически целесообразных средств, методов организации занятий по разным вариативным курсам, позволят реализовать целостность вариативной программы, не разрушив авторского замысла. Рефлексивные умения проявляются в анализе собственной деятельности педагога. Для педагога всегда очень важно установить, в какой мере как положительные, так и отрицательные результаты являются следствием его деятельности, сравнить на основе полученных результатов свою деятельность с заданным образцом. Вклад этой группы умений в вариативное обучение проявляется в умении «увидеть себя» в данном вариативном курсе, найти психологическую

совместимость с ним, адекватное восприятие своих возможностей в преподавании данного курса.

Список использованной литературы:

1. Рузиева, М. А., & Соколова, Е. О. (2023). Современные подходы к анализу художественных произведений на уроках литературного чтения. Conferencea, 49-54.

2. Рузиева, М. А., & Соколова, Е. О. (2023, February). Сущность понятия «коммуникативные универсальные учебные действия». In E Conference Zone (pp. 36-40).

3. Рузиева, М. А. (2023). Качества навыка чтения: быстрое, осознанное, выразительное чтение. IQRO, 2(2), 96-99.

4. Косимов, Ф. М., & Рузиева, М. А. (2021). Решение среднее арифметических задач. In Научно-практическая конференция.

5. Рузиева, М. А., & Соколова, Е. О. (2023). Значение международных оценочных программ (PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS) в развитии грамотности учащихся. Pedagogs jurnali, 1(1), 522-522.

6. Рузиева М. А. Основы Профессиональной Подготовки Будущих Учителей К Моделирование Урока В Условиях Вариативности Начального Образования //Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. – 2024. – Т. 26. – С. 27-30.

7. Рузиева М. А. Логико-Исторический Анализ Развития Вариативных Систем Обучения //Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. – 2023. – Т. 24. – С. 42-45.

8. Рузиев У., Рузиева М. А. Агрессия педагога и форма проявлений //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1059-1062.

ПОВЫШЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК УЧИТЕЛЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ

Еркаева Дилфуза Мухтар кизи
Международного Азиатского университета

Насколько полно интеллектуально-личностное развитие школьников, развитие их мотивов и потребностей, интересов и склонностей, самостоятельного творческого мышления, самосознания, социальной активности и нравственного воспитания во многом определяется личными качествами учителя. Практическое педагогическое воздействие учителя на ученика, осуществляемое без учета психологических механизмов развития личности ребенка, не только приводит к намеченной цели, но и тормозит развитие личности ребенка. Это дает нам возможность изучить психологические особенности учителя, работающего в начальных классах общеобразовательной школы. С помощью специальных методов можно определить преобладание способностей у учителей, тип профессионального направления, индивидуальный стиль преподавания, уровень общения, уровень эмоционального самоконтроля в деятельности.

Гоноболин выделил особенности личности учителей начальных классов, структура которых представляет собой реальную структуру основных компонентов педагогического мастерства:

1. умение сделать учебный материал доступным для учащихся;
2. понимание учителем ученика;

3. творчество в работе;
4. Педагогическое волевое воздействие на детей;
5. умение организовать детский коллектив;
6. интерес к детям;
7. содержание и яркость речи;
8. его наглядность и правдоподобность;

Особенностью педагогической профессии является то, что для успешного взаимодействия с людьми необходимы знания, умения и навыки: для организации взаимоотношений с учениками, коллегами, нормализации отношений одноклассников друг с другом, включая помощь, развитие коммуникативных навыков и т. д. Не будет преувеличением сказать, что ядром психологической культуры учителя является педагогический диалог, реализуемый в кооперативной педагогике.

Педагогический стиль руководства понимается как совокупность устойчивых способов взаимодействия преподавателя и учащихся в процессе совместной деятельности и общения. Чтобы контролировать их поведение, педагог часто использует уговоры, требования и предложения. Убеждение направлено на выработку мотивов нормативного поведения студента посредством совместного анализа фактов и связей. Некоторые исследователи подчеркивают нормативную функцию общения, в результате которой дети усваивают моральные принципы, усваивая нравственные принципы поведения, примеры соответствующих действий, регулирующие способы взаимодействия и отношений. Требование обычно выражается в категорических формах — приказах, запретах, указаниях. По эмоциональному тону оно может быть агрессивным, репрессивным (в форме принуждения) или теплым, доброжелательным (в форме поощрения). Внушение выражается в форме указания, увещевания, напоминания, предупреждения, порицания, выговора или порицания. Эмоциональный тон (дружелюбный или агрессивный) выражается педагогом по-разному: содержанием, интонацией голоса, мимикой и пантомимой. В современной психолого-педагогической литературе существуют различные классификации стилей педагогического руководства. Нередко выделяют три основных типа: авторитарный стиль, демократический и либеральный (в качестве синонимов можно встретить либерально-позволительный и непоследовательно-противоречивый характеры).

Практические школьные психологи часто сталкиваются с проблемами оценки уровня вовлеченности учителя в профессию, определения механизмов влияния профессиональной деятельности на человека, выявления типичных педагогических деформаций личности. Однако наличие большого количества критериев и оснований для написания учителями часто усложняет этот поиск. При этом некоторым педагогам удается находить для себя совершенно разные направления деятельности: один становится другом и советчиком молодежи, другой помогает развивать самостоятельное и смелое мышление у отличников, третий помогает отсеивать слабых учеников. их собственный.

Успех обучения всегда напрямую зависит от личности педагога, его профессиональной и общекультурной подготовки, творческого потенциала. Во многом он определяется его личностью, характером и способностями, отношениями с учениками, творческим отношением к работе. Насколько полно умственное и личностное развитие школьников, их мотивы и потребности, интересы и склонности, самостоятельное

творческое мышление, их самосознание, общественная активность и нравственное воспитание во многом связаны как с педагогом, так и с профессионалом.

На современном этапе основой профессионального мастерства учителя, особенно учителя начальных классов, на наш взгляд, является его способность и готовность принимать других людей, в частности учащихся, с их индивидуальными особенностями такими, какие они есть. можно научить. Учителей начальных классов отличает особая теплота и доброта, материнская любовь к своим ученикам.

Список использованной литературы:

1 Абрамова Г.С Практическая психология – Екатеренбург, 1998. – 365с.

2 Афанасев В.Г Проектирование педагогических технологий // Высшее образование а России. – 2001. № 4. – С. 147-150.

3 Бабанский Ю.К Избранные педагогические труды.–М.:Педагогика,2008.– 500с.

4.Ахмедова З.Ж. “Педагогико-психологические особенности адаптации младших школьников к учебной деятельности” Вестник интегративной психологии 2023 Выпуск 29

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARIDAN BIRI O‘SMIRLARDA O‘QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYANING O‘RNI

Avezov Olmos Ravshanovich

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yodgorov Bobirjon Turobovich

OXU magistranti

Ta’lim jaroyonida bilish jarayonlarini shakllantirishga alohida e`tibor berish. Zero, bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo‘lib, unda jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, abstrakt tafakkurdan amaliyotga o‘tiladi, ana shundan so‘ng obyektiv haqiqat bilib olinadi. Bu esa qiziqishlar, xohish va ehtiyojlari turli xil bo‘lgan yosh davri bu- o‘smirlik (11-15) yoshi hisoblanadi. Bu davrda o‘quv faoliyatga undovchi kuch motivatsiyadir.

Motivatsiya- odamni harakatlarini bajarishga undaydigan rag‘batlantirish tizimidir.

Baxt – bu har doim xohlagan narsani qilish emas, balki doim qilayotganingni xohlashdir (Lev Tolstoy).

Motivatsiya- fiziologik xarakterdagi dinamik jarayon bo‘lib, u individual ruhiyat tomonidan boshqariladi va hissiy xulq-atvor darajasida namoyon bo‘ladi.

O‘smir shaxsini aqliy, amaliy harakatga va xulq-qtvorini amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan uzviy bog‘liq sababiyat motivlar deb ataladi. Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, ularning asosiy funksiyasi insonni harakatga, xulq- atvorni amalga oshirishga undovchi sabablar (omillar), ichki turtkilar vazifasini o‘tashdan iboratdir. Bu holatni o‘quv faoliyatiga ko‘chirish uchun quyidagi voqelikni izohlab “Kattalik tuyg‘usi” o‘smirlikning markaziy neoplazmasi hisoblanadi. O‘smir teng huquqlilik talab qiladi, o‘z didi, qarashlari, pozitsiyasi va fikrini himoya qilishga intiladi, mustaqillikka intiladi, o‘z manfaatlarini ota-onalar, o‘qituvchilar va boshqa kattalarning aralashuvi va nazoratidan himoya qiladi. Agar o‘smir kattalar tomonidan tushunishni topa olmasa, kattalar mustaqillikni ta’minlamasa va uning hayotining barcha jabhalarini nazorat qilishga harakat qilsa, o‘smirlar “kattalar hayotining

atributlari” ni qabul qiladilar: yomon so‘zlar, ichkilikbozlik, chekish. Kattalar tomonidan o‘smirlarning mustaqilligi va tashabbusini cheklash kuchli qarshiliklarni keltirib chiqaradi, kattalar bilan muloqotda to‘siqlar va nizolarni keltirib chiqaradi. Ammo o‘smirlik nafaqat kattalar tuyg‘usining paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Boshlang‘ich maktab yoshidan farqli o‘laroq, o‘smirlik davrida o‘ziga ishonchsizlik, ularning moddiy va ijtimoiy nomuvofiqligini anglash kuzatiladi, bu esa salbiy his-tuyg‘ularning – tajovuzkorlik, tashvish, umidsizlik, asabiylashish va boshqalarning aktuallashuviga olib keladi. Bugungi kunda o‘smirlarning hissiy hayotiga zamonaviy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq omillar ham ta’sir qiladi: ijtimoiy va jismoniy muhitning tez o‘zgarishi, hayot sur’atining oshishi, ijtimoiy va ekologik omillarning o‘zgarishi, fan texnika taraqqiyoti, ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarishi. Bunga o‘smirlar nochorlik, sog‘inish, umidsizlik hissi bilan munosabatda bo‘lishadi. Shu bilan birga, aksariyat hollarda kattalar yoshlar muammolari bilan kamroq shug‘ullanib, aniq pozitsiya bildirmaydilar, o‘z munosabati va baholarini bildirmaydilar, yetarlicha aniq talablar qo‘ymaydilar. Kattalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaslik o‘smirda ishonchsizlik, kelajak qo‘rquvi, infantilizm va ruhiy bo‘shliqni shakllantiradi. O‘smirlar kattalar ularga yordam bera olmasligiga ishonch hosil qilishlari mumkin. Bu yoshda asosiy qadriyat tengdoshlar, kattalar bilan munosabatlar tizimi, idrok etilgan yoki ongsiz ravishda intilayotgan “ideal” ga taqlid qilish, kelajakka intilish (hozirgi kunni qadrlamaslik). O‘z mustaqilligini himoya qilgan o‘smir o‘z-o‘zini anglash, “men” obrazi, haqiqiy va ideal “men” nisbati aks ettirish asosida shakllanadi va rivojlanadi. Psixik jarayonlarning intellektuallashuvi asosida ularning sifat jihatdan o‘zgarishi tobora kuchayib borayotgan o‘zboshimchalik, vositachilik chizig‘i bo‘ylab sodir bo‘ladi. Demak, o‘smirlikning asosiy neoplazmasi ijtimoiy ong, ichkariga o‘tgan o‘z-o‘zini anglashdir. Fikrlashning rivojlanishi nafaqat shaxsiyatdagi ichki o‘zgarishlar bilan cheklanib qolmaydi, buning natijasida boshqa odamlarni chuqurroq tushunish mumkin bo‘ladi. O‘smirlikning markaziy neoplazmasi sifatida o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi mumkin bo‘ladi va butunlay atrof-muhitning madaniy mazmuniga bog‘liq.

Ammo ta’lim jarayonida o‘smirlarning ayrimlarida o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat asta-sekin so‘na boshlaydi. Yangi muhit, ilm dargohlaridagi majburiyatlar, pozitsiyalar, qonun-qoidalar o‘z ahamiyati, nisbiy yangilik xususiyatini yo‘qota boradi, his -tuyg‘ularga serob, quvnoqlar davrasiday tasavvur etilgan sinf (sinf) g‘ayritabiiy ko‘rinish kasb etadi. O‘qishga nisbatan saboq oluvchilar munosabatini aniqlashga harakat qilgan o‘qituvchi qanday o‘zgarishlar yuz berayotganini qayd qilish uchun ayrim mezonlarni ta’kidlay boshlaydi: xayolparishonlik vujudga keldi; vijdonan yondashish yo‘qoldi; v) boshqalardan ko‘chirib olishni odat qildi; g)yolg‘on so‘zlash va bahona qidirishga o‘rgandi; d)darslarni qoldiradigan bo‘lib qoldi; e)mustaqil topshiriqlarni bajarmay qo‘ydi va boshqalar. O‘qituvchi yoki o‘qituvchilar jamoasi yuqorida taxmin qilingan o‘smirlar yoki o‘quvchilardagi salbiy o‘zgarishga nisbatan an’anaviy tartib -intizom metodlarini tadbiq qiladi: kundaliklarga ogohlantirish yozish; ota-onalarga bu to‘g‘risida ma’lumot berish; v)sinf rahbari, maktab rahbariyatiga xabar berish; g) darsdan keyin olib qolib qattiq uyaltirish; bilim dargohidan haydash masalasini qo‘yish bunday aniq voqelik har qanday maktab, kollej, akdemik litsey, oliy ta’lim tizimida yuz berib turadi. Bizningcha, jazo choralarini ko‘rishga shoshilishdan ko‘ra, mazkur muammoni keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar? Nega shunday hodisa yuz berdi? degan savollarga javob qidirish odilona yondashishdir. Jumladan, o‘quvchilar va o‘smirlar xulq-atvoridagi o‘zgarishlarning qanday motivlari mavjud? O‘qishga nisbatan o‘zgaruvchan munosabatni yuzaga keltiruvchi sabablar nimalardan iborat? Sinfda (sinfda) va undan tashqari u yoki bu xatti-harakatlarni amalga oshirishga undovchi omil

qaysi? Yuqorida ta'kidlab o'tilgan munosabat va xulq-atvor motivlarini chuqur va mukammal o'rganmasdan turib, pedagogik ta'sir o'tkazish chora va tadbirlarini qo'llash mumkin emas, chunki motivni turtki sifatida namoyon qiluvchi ichki va tashqi ta'sirni aniqlamasdan, unga ilmiy yondashib bo'lmaydi. Psixologiya fanida ikkinchi bir yo'l bor ekanligi ta'kidlab o'tiladi, lekin u biroz murakkabroq, shunga qaramasdan ko'zlangan natijani berish imkoniyatiga ega. Odatda qattiqqo'llik (qat'iy tartib -intizomlilik, talabchanlik), adolatsiz jazolash (qaysiki o'qish motivi noaniq, o'rganilmagan bo'lsa) shaxsning psixikasiga zarar keltiradi, bilim olishga hech qanday yordam ko'rsatmaydi. qattiqqo'llik, hattoki qat'iyatlilik eng muhim fazilat bo'lib hisoblanadi, agarda shaxsdagi u yoki bu xususiyatli xulq-atvor turtkisi, yaqqol vaziyat sabablari chuqur tahil qilinsa, asoslansa. Sinf yoki sinfdagi mashg'ulotlar, ya'ni bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, lekin ular o'rtamiyona shaxsga mo'ljallansa, u taqdirda bir necha xususiyatli psixologik holatlarni yoki sub'ektiv kechinmalarni keltirib chiqaradi. Oqibat natijada iqtidorli, yaxshi o'zlashtiruvchi, uquvchan o'quvchi va o'smirlarda o'qishga nisbatan qiziqish sovushiga, ular kutgan ma'lumot ko'lami, o'zatilish sur'ati qoniqish hissini asta-sekin yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birgalikda bugungi kundagi rivojlanishlar ham o'smirlardagi o'qishga bo'lgan motivlarni pasayishiga sabab bo'lmoqda. O'smir yoshidagi o'quvchilar qiziqish va xohishlarini chegarasi yo'q ular hamma narsalarni bilishga idrok etishga harakat qiladi, ularda ko'pincha cheklangan adabiyotlar, video roliklar va boshqa axborot manbai o'qishga bilishga harakat qiladi.

O'smir yoshidagi o'quvchilarni ichki motivlarini o'qishga yo'naltirish uchun ularga yaqin va qiziqtirgan fikrlar va jumlalar orqali ularni qalbiga kirish va o'qish ishtiyoqini paydo qilinadi. Shuning uchun ham o'smirlar bilan ishlashda o'ta ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish yoshga bog'liq ularni psixologik bilish jarayonlarini rivojlanishi qabul qilishiga qarab topshiriqlarni amalga oshirish o'quv motivlarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
2. Kamilova N.G. Muammoli o'smir: tashxis, tadqiqot metodlari.T.,2004
3. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
4. Югай А.Х., Мирашировa Н.А. "Общая психология" – Ташкент 2014. 6. Дружинина В. "Психология ". Учебник. "Питер", 2003.
5. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat Darslik,"KAMOLOT" nashriyoti, 2023 yil. 332 bet.
6. Avezov O.R., Z.J.Ahmedova. Ekstremal vaziyatlar psixologiyasi Darslik,"KAMOLOT" nashriyoti, 2022 yil. 256 bet.
7. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-son (2021-yil, oktabr). Buxoro, 2021 y. B. 145-150.
8. Avezov O.R. Psyshologisal relations between family members. Ssientifis Journal Impast Fastor. VOLUME 2 | ISSUE 2. ISSN 2181-1784. SJIF 2022: 5.947 February 2022 www.oriens.uz. P-945-949.

O‘SMIRLARDAGI EMOTSIONAL ZO‘RIQISH MUAMMOSINING ILMIY ADABIYOTLARDA YORITILISHI

Ostanov Shuhrat Sharifovich
Psixologiya kafedrasi dotsenti PhD
Xayriyeva Maxtobxon Farxodovna
Buxoro davlat universiteti Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Psixologiya sohasida o‘smirlarda yuzaga keladigan emotsional zo‘riqishlar, insonning ruhiyati, uning barqarorligi va xulq-atvori muammolari, jamiyat rivojida o‘smirlar muammolarining muhim ekanligini ko‘rsata oluvchi ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. O‘smirlarda kechayotgan emotsional o‘zgarishlar va shu bilan bir qatorda og‘ishlarni tadqiq etish, nafaqat ularning ta’lim-tarbiya jarayonlariga, balki ularning oilada hamda jamiyatda shaxslararo munosabatlarini optimallashtirishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kaykovusning “Qobusnoma’’ asarida inson kamolotida axloq va tarbiyaning roli beqiyosligi ta’kidlab o‘tilgan. Kaykovus qarashlarida insonning o‘z hissiyotini nazorat qilish muammosi dolzarbligiga alohida urg‘u berilgan. Uning odob-axloq qoidalariga qanday rioya etish haqidagi, haqiqatgo‘y, insonparvar, saxovatli, qanoatli, muruvvatli bo‘lishi haqidagi qarashlari ayniqsa e’tiborga molikdir.

Farobiyning ta’lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyada alohida e’tibor bergan, uning „Har bir shaxs munosib odam, uning hissiy holatlarini o‘rganish zarurdir’’ deb hisoblagan. Mutafakkir olim hissiy holatlarni nazorat qilish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya orqali esa kishilar bilan muloqotning qadr-qimmatini va amaliy faoliyatni o‘rganadi deb ta’kidlagan. Shuningdek uning e’tiqodicha, bilim, ma’rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog‘i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo‘lib yetishmaydi. Forobiy bolalarning fe’l-atvoriga qarab „qattiq’’ yoki „yumshoq’’ usullardan foydalanish kerak, deb hisoblagan.

Sharq va g‘arbda keng tanilib «Shayx ur-rais» nomiga sazovor bo‘lgan Abu ali ibn sinoning (980-1037) «tib qonunlari» va «tadbiri manzil» asarlarida oila, ota-ona hamda bola munosabatlariga oid pedagogik va psixologik qarashlari bayon etilgan. U bola tarbiyasida ota-onalarning umuminsoniylik tamoyillariga amal qilishlarini ta’kidlaydi. Tarbiyachi, ota-onalarga uni qattiq tan jazosidan farqli o‘laroq, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma’qulligini uqtirgan. Ibn sino oila boshlig‘i oldiga katta talablar qo‘yadi, farzandlarni bir-biriga nisbatan mehr-oqibat tuyg‘usi orqali tarbiyalash, iliq ruhiy muhitni yaratishni uqtiradi. Oiladagi noxush tarbiya faqat shu oilagagina salbiy ta’sir qilib qolmasdan, balki boshqa oilalarga ham xuddi shunday ta’sir qilishini oqilona tarbiya oila baxtining muhim asosi ekanligini ta’kidlaydi. Ibn Sino bola yomon hulq, xislatni egallashini kutmasdan turib, uni ijobiy fazilatlar bilan tanishtirib, bolaga yaxshi odobni singdirish kerak, – deb yozadi. Uning ta’kidlashicha, sharoit (muhit) qanday bo‘lishidan qat’i nazar, farzand kamoloti ota-onalarning asosiy vazifasidir, ular davlat boshlig‘imi yoki jamiyatning oddiy bir a’zosimi, baribir tarbiya masalasida ular uchun bir xil talab qo‘yilishi kerak, chunki bu ijtimoiy ehtiyojdir.

A.Avloniyning ijtimoiy va pedagogik asarlarida axloqiy qarashlar mujassamlashgan bo‘lib, uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar, shaxslararo munosabat g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o‘zlariga xos xususiyatiga e’tibor berishni ta’kidlaydi. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. Shundagina ularning noo‘rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi.

Mirzo Ulug‘bekning oila muhiti sog‘lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa o‘qimishli ota – onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir – birlariga bo‘lgan ruhiy ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi uqtiradi.

Voiz Al – Koshifiyning uqtirishicha insonni ta’lim – tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobilyatni o‘stirish mumkin. Koshifiy o‘zining pedagogik qarashlaricha bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish masalasiga alohida e’tibor beradi. Ota – onalar muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muhit muhim o‘rin tutadi. Bola to‘g‘ri so‘zli, va’daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyalanishi kerak.

Hozirgi kunda mamlakatimiz psixologlari tomonidan oila va oilaviy munosabatlarga oid muammolar, o‘smirlar va ularning oiladagi stereotipik etnik ustanovkalari, o‘smirlardagi emotsional zo‘riqishlar masalasi o‘rin olgan bir qancha tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ularga quyidagilar: V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, G‘.B.Shoumarov, B.M.Umarov, E.G‘.G‘oziyev, O.E.Eshmuradov, F.A.Akramova, N.A.Sog‘inov.

M.G. Davletshin oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari bir-birini qo‘llab-quvvatlash, hamkorlikda ish olib borish, o‘zaro yordamga asoslanmas, hissiy-emotsional ziddiyatlar kabi muammolar hal etilmas ekan, ular o‘rtasida muntazam kelishmovchilik, tushunmovchiliklar, nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkinligi to‘g‘risida izlanishlar olib borgan.

O‘zbek oilalarida ota-ona va farzand, aka-uka, opa-singillarning o‘zaro munosabatlari psixologiyasiga oid dastlabki ilmiy ishlar G‘.B.Shoumarov va Ye.A.Morshininalar tomonidan ham amalga oshirilgan bo‘lib, ilk bor o‘zbek oilasida ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining o‘ziga xos etnopsixologik xususiystlari o‘rganilgan va ko‘p farzandli oilalarda katta yoshli a’zolariga nisbatan hurmat, oilada erkak mavqei hamda uning bola shaxsiga ta’siri yoritib berilgan.

Shuningdek G‘.B.Shoumarovning so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy ishlarida o‘zbek oilasida ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va uning yosh avlod kamoloti, taraqqiyotiga ta’siri kabilarga alohida e’tibor berilgan.

Shu bilan bir qatorda, M.G.Davletshin va G‘.B.Shoumarovlar hozirgi zamon o‘zbek oilalariga xos xususiyatlarini o‘rganish borasida, uning e’tiborga molik jihatlaridan bo‘lgan oila a’zolarining emotsional zo‘riqishlarni keltirib chiqaradigan omillar, uning ijtimoiy mavqeiga ta’sirini tadqiq etishgan.

E.G‘.G‘oziyev tomondan o‘smirlar psixologiyasi va ularning shaxs xususiyatlari, o‘smir davrining o‘ziga xosligi, ulardagi hissiy-emotsional holatlar tadqiq etilgan. Oiladagi o‘smir tarbiyasini o‘rganar ekan, uning tarixiy an’analari, urf-odatlari, rasm-rusumlari, turmush tarzi, ma’naviy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlarining shaxs rivojiga ta’siri kabi masalalarning psixologik tamoyillarini asoslab bergan.

Oilaviy munosabatlardagi emotsional zo‘riqishlar va ularni bartaraf etish yuzasidan ko‘plab MDH davlatlari va xorij psixologlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ular A.V.Petrovskiy, D.I.Feldshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, G.M.Andreeva, V.S.Merlin, V.M.Rusalov, O.A.Konopkin, Z. Freyd, E. Krechmer, D. Mayers, K. Tomas, A.A. Morkosyan, J. Jadelet, R. Lazarus, E.Shpranger, S.Xoll.

O‘smirlik davriga xos yorqin psixologik nazariyalardan birining muallifi sifatida XX asrning boshlarida L.S.Vigotskiy misol tariqasida keltirishimiz mumkin, unda o‘smir psixologiyasidagi barqaror va tarixiy o‘zgaruvchanlik hamda uning fenomenlariga oid ilmiy konsepsiyalarning interpretatsiyasi o‘z ifodasini topgan.

Rekapitulyatsiya nazariyasi bilan psixologiya faniga ulkan hissa qo‘shgan olimlardan S.Xoll, o‘smirlik yoshi insoniyat rivojlanish tarixining romantik davriga to‘g‘ri kelishini va bolalik hamda kattalik orasidagi bosqich ekanligini ta’kidlaydi.

Yirik tadqiqotchilardan yana biri, nemis psixologi E.Shpranger o‘smirlik yoshining birinchi bosqichi 14-17 yoshlarga to‘g‘ri kelishini va bu davrda bolalikdan qutulish sodir bo‘lishini izohladi.

Shprangerning izdoshlaridan biri V.Shtern o‘smirlik yoshini shaxs shakllanishining asosiy bosqichlaridan biri deb qaraydi. V.Shtern "Do‘stingni ko‘rsatsang, kimligingni aytaman" degan naqlga "Hayotingdagi eng qimmatli kechinmangni ayt, men sening kimligingni aytaman" degan ma’no berib, uni izohlashga harakat qiladi. Chunki o‘smir hayotining mazmunini tashkil etuvchi kechinmalar ta’sirida uning shaxsi shakllanadi.

Shunday qilib, XX asrning boshlarida o‘smirlik yoshini eng qiyin psixologik yosh deb tan olindi. Hozirgi davrda o‘smirlarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlari ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Oilaviy munosabatlarda o‘smirlar emotsional zo‘riqishlarini bartaraf etishning psixologik xususiyatlari (arxiv.uz)

2.Oilaviy munosabatlarda emotsional zo‘riqishlarni korreksiyalash usullari D.T.Ismatova

3.Sharq mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari ⋆ (savol-javob.com)

4. Ахмадов, Н. Р. (2022). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РЕАБИЛИТАЦИИ ДИЗАДАПТИРОВАННЫХ ПОДРОСТКОВ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(3), 79-84.

5. Ахмадов, Н. Р. (2022). Социально-психолого-педагогическая реабилитация дезадаптированных подростков. Science and Education, 3(2), 1045-1053.

6. Ахмедов, А. А., & Зикиряева, М. М. (2020). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ВООБРАЖЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ. Новый день в медицине, (1), 151-154.

7. Sarvinoz, Q. (2022). EMOTIONAL UNDERSTANDING OF INDIVIDUALS THE ROLE OF EMOTIONS. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions,3(1), 12-18.

PSIXOLOGIYADA REKLAMA VA UNING SHAXS XUSUSIYATLARIGA BOG‘LIQLIGINI O‘RGANISH AN’ANALARI

Abdullayev Shahzodjon Zokirjonovich

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi magistranti

Reklama bizning hayotimizning ajralmas qismiga aylanib qoldi. U hayotimizning va kundalik xaridlarimizga samarali ta’sir qilishda davom etmoqda. Shunisi xarakterliki, reklamadan faol iste’molchi sifatida foydlanuvchi shaxs u yoki bu ijtimoiy guruh yoki real oilaning vakili hisoblansada, munosabat shakllanishi jarayonida u o‘zi mansub guruhning qadriyatlaridan ta’sirlanadi, amalda esa ushbu qadriyatlar va normalardan qay darajada foydalanishi ijtimoiy psixologiyada o‘ziga xos muammo sifatida qaraladi, zero, bunda real vaqt va makonning o‘rni mavjudligi ilmiy tadqiqotlar nuqtai nazaridan dolzarb va qiziqarli masaladir.

Reklama psixologiyasi o‘tgan asrning boshlarida iqtisodiy psixologiya sohasidagi mustaqil yo‘nalish sifatida o‘rganila boshladi. Hozirgi vaqtda esa u «Iste’molchi psixologiyasi», «Iqtisodiy psixologiya» fanlariga yo‘naltirilgan ijtimoiy psixologiya soxasining aloxida bo‘limlariga aylantirildi.

Iste’molchi sifatida reklama bizni xarakatlarimizni boshqarishiga ishonmaymiz. Ehtimol, ko‘plab reklama roliklari bizga ishonarli bo‘lib ko‘rinmaydi, ammo zamonaviy reklama mantiqqa murojaat qilmaydi, aksincha, reklama beruvchilar inson extiyojlari, sezgi va tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishga xarakat qiladi. Reklama psixologiyasida deyarli har doim amerikalik ruxshunos A.Maslou tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyojlar modeliga asoslanadi. Bunga ko‘ra:

- fiziologik extiyojlar;
- xavfsizlik hissi va yaqinlaringiz uchun xavf-xatar yo‘qligi;
- ijtimoiy ehtiyojlar (birinchi navbatda - sevgi va mehrga muhtojlik);
- qadr-qimmat va jamiyatda tan olinishi zarurligi;
- o‘z-o‘zini anglash zaruriyati.

Reklamani tarixan ishlab chiqaruvchining iste’molchiga tovarlarni xarid qilishi uchun maqsadli yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida o‘rganib kelingan. Iqtisodiyot bo‘yicha adabiyotlarda reklamaga berilgan ko‘plab ta’riflar mavjud. Reklama so‘zining kelib chiqishi lotin tili bilan bog‘liq: italyan tilidagi «reclamare» so‘zi «qichqirish» ma’nosini anglatadi. Reklama ingliz tilida «advertising» atamasi bilan belgilanadi, bu «bildirish», «xabar qilish» ma’nosini anglatadi hamda iste’molchining e’tiborini mahsulotga qaratish va ushbu tovar yoki xizmatni xarid qilish borasida tavsiyalar, takliflar, maslahat va chaqiriqlar tarqatish sifatida talqin etiladi. Reklama bo‘yicha ko‘p sonli nashrlarda uning turlicha ta’riflari keltiriladi:

iste’molchini ishlab chiqarish, savdo yoki boshqa turdagi korxona taklif etayotgan tovar yoki xizmat bilan tanishtirish;

ommaviy axborot vositalari va boshqa aloqa turlari orqali biron-bir tovar yoki xizmat foydasiga amalga oshiriladigan pullik, bir yo‘nalishli va shaxssiz murojaat;

manbasi ko‘rsatilgan holda axborot tarqatishning pullik vositalari orqali amalga oshiriladigan shaxssiz kommunikatsiya shakllari;

tovar va xizmatlarni sotish, ularga talab shakllantirish maqsadida turli xildagi tovar va xizmatlarning iste’mol xususiyatlari haqida axborot berish;

ma’lum bir homiy tomonidan g‘oyalar, tovarlar va xizmatlarni shaxssiz tarzda taqdim etish va ilgari surishning har qanday puli to‘langan shakli;

reklama beruvchidan ochiq kelib chiqadigan va u tomonidan sotuvni oshirish, mijozlar doirasini kengaytirish, ovozlar olish yoki shaxsan ma’qullashni qo‘lga kiritish maqsadida puli to‘langan, shaxs, tovar, xizmatlar yoki jamoatchilik harakati haqidagi bosma, qo‘lyozma, og‘zaki yoki tasvir shaklidagi xabarlar berish;

Iqtisodiy sohaning bugungi bozor munosabatlari sharoitidagi muvaffaqiyatini ta’minlovchi vositalardan biri − reklamaning kundalik hayotimizdagi mavqei sezilarli ahamiyatga ega. Global miqyosdagi har qanday islohotlar, yangilik va tub burilishlar jamiyatning har bir faol bo‘g‘iniga o‘z ta’sirini ko‘rsatgani kabi reklamaning idrok va tasavvurlarga ta’sirini o‘rganish bugungi kunda muhim muammodir. Xususan, reklama faoliyatiga bo‘lgan munosabat, reklama qilinayotgan mahsulotlarni turlicha idrok qilinishining shaxs xususiyatlariga bog‘liqligi, reklamaning yangi ustanovkalarni shakllantirishga, shaxsdagi estetik did, ta’b, keng dunyoqarashni shakllantirishga bo‘lgan ta’siri tobora iqtisodiy islohotlarning kundalik hayotimiz mazmuniga aylanib borayotganligini ifodalaydi. Avvalo, har bir reklama mazmun-mohiyatiga ko‘ra ma’lum guruh yoki doiraga yo‘naltirilgan tarzda beriladi. Ammo uning qanchalik samarali, ta’sirchan bo‘lishida aniq psixologik qonuniyatlar tizimiga asoslanilganligi ahamiyat kasb etadi.

Reklama faoliyatining boshqa sof ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik, ijtimoiy-madaniy, texnologik sohalari turlicha yondashuvlar, tahlillar doirasida ham o’rganib chiqilgan Uzoq xorij mamlakatlaridan farqli o’laroq, reklamaning o’ziga xos jihatlari yaqin hamdo’stlik mamlakatlari olimlari tomonidan ham o’rganib kelinmoqda (G.M. Andreyeva, V.G. Zazikin , L.N. Xromov , M.Yu Rojovin, E.Ye.Starobinskiy).

Mustaqil Davlatlar Xamdo‘stligi mamlakatlari olimlari G.M.Andereyeva, I.V.Alyoshina, D.S.Badalov, B.L.Borisov, V.Borodina, T.A.Boronoyeva, I.L.Vikentyev, I.V.Groshev, S.M.Isayev, I.V.Крылov, A.N.Lebedev, Ye.V.Markova, F.G.Pankratov, Ye.Ye.Pronina B.D.Semenov, O.A.Feofanov, L.N.Xromov va boshqalar tomonidan reklama va uning shaxs va guruhlarga ta’sirining o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan.

Bugungi bozor munosabatlarining murakkab va samarali quroliga aylangan reklama o‘zining oddiy shaklidan to hozirgi ko‘rinishiga qadar bir necha asrlar davomidagi taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Tadqiqotchi olimlar fikriga ko‘ra reklamaning taraqqiy etish jarayonini shartli ravishda bir necha davrlarga ajratish mumkin:

- Eramizgacha 3 ming yil avval –eramizning 5 asrigacha- reklamaning ilk tarixiy rivojlanishi davri. (qadimiy davrlar, antik davrlar va antik davrdan keyingi davr);
- VI-XV asrlar – o‘rta asrlar (feodalizm davri, sanoatning ilk ko‘rinishi shakllana boshlagan davr);
- XVI-XVIII asrlar Renessans reklamasi va Uyg‘onish davri reklamasi;
- XIX-XX asrlar boshlari industrial ishlab chiqarish va kapitalistik ishlab chiqarishning taraqqiy etgan davri reklamasi;
- XX asrning 2- yarmi – reklamaning yangi tarixi.

XX asr oxirlariga kelib reklama faoliyati aniq psixologik qonuniyatlarga asoslangan yangicha mazmunga ega bo‘ldi. Bu esa reklama psixologiyasi sohasida yangi psixologik muammolarni ilmiy asoslash, reklamaning inson ongiga ta’sir etish qonunlarini nazariy va amaliy mukammallashtirishni talab etdi.

Reklamaning iqtisodiy vazifasi iqtisodiy sohani faollashtirish va tezlashtirish hisoblanadi. Iste’molchilarda xarid qarorining qabul qilinishida, yangi mahsulot va xizmatlarning turlari, imkoniyatlari, qulayliklarining targ‘ib qilinishida reklama asosiy vazifani bajaradi. Reklama yangi mahsulot yoki xizmatlarga iste’molchilar diqqatini, qiziqishlarini jalb qilib, ehtiyojlarining qondirilishiga ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, rossiyalik olim R.Mokshansev reklamani quyidagicha ta’riflaydi: «Reklama bu–aholini mahsulot bilan tanishtirish, u haqida axborot berish, sotib olishga jalb qilishdir. Reklama kuchli raqobatli bozor sharoitida eng asosiy mezon bo’lib xizmat qiladi». Shuningdek, olim reklamaning quyidagicha maqsad va vazifalarini ta’kidlaydi:

1. Mahsulotni, ishlab chiqaruvchini va savdogarni identifikatsiya qilish.
2. Mahsulot, xizmat yoki g‘oyalarning yashovchanligini ta’minlash.
3. Xaridorni ogohlantirish.
4. Talab va didni shakllantirish va b.

Reklama beruvchilar mahsulotlar haqida uning bahosi, xususiyatlari, yangiligi, foydali tomonlari va foydalanish usullari haqida axborot berishlari zarur. Reklama barcha ommaviy kommunikatsiya vositalarida mavjud bo’lib, ular uchun iqtisodiy manba biznes muvaffaqiyati hisoblanadi. Xaridorlarning yangi talablarini o’stirishda, tanlash imkoniyatlarini oshirishda, yangi mahsulot yoki xizmatlar bilan tanish bo’lishlarini ta’minlashda reklamalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Reklama iqtisodiyotning bir bo’lagi sifatida aholining yangi ish o’rinlari bilan ta’minlanishida, yangi mahsulotlar va bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishida, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning o’zaro foydali aloqalarida vositachilik vazifasini o’taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova L.I. Sosialno-psixologicheskiye i etnopsixologicheskiye osobennosti sosialnых predstavleniy i ustanovok lichnosti po otnosheniyu k reklame: Dis. ... kand. psixol. nauk. – Tashkent, 2004.
2. Mokshansev R.I. Psixologiya reklamы. Ucheb. posobiye. M.: INFRA-M; Novosibirsk: Sibirskoye soglasheniye, 2001.
3. Groshev I.V. Polorolevыye stereotipы i gendernaya neverbalnaya kommunikatsiya v zerkale reklamы // Vestnik Tambovskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta, 1998.

Internet saytlari

1. www.google.ru
2. www.gov.uz

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING O‘QUV FAOLIYATIGA MOSLASHUVIDA OBRAZLI TAFAKKURNING AHAMIYATI

Ostonova Lobar Rashid qizi
BuxDU psixologiya ta`lim yo‘nalishi magistranti

Shaxs tarbiyasi, uning ijtimoiy-psixologik kamoloti har qanday davlatning bosh strategik masalalaridan biridir. Chunki, shaxsni ma’lum ezgu g‘oyalar, ijtimoiy-psixologik va yuksak intellektual talablar asosida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo‘lmaydi.

Zero, bu jarayonda eng avvalo ta’lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ta’lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixologik tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, munosabat motivatsiyasi muammosi bo‘yicha turli soha vakillari, jumladan faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar (B.G.Ananev, G.M.Andreeva, A.A.Bodalev, E.V.SHoroxova, A.V.Vedenov, YU.M.Zabrodin, A.G.Kovalev, I.S.Kon, T.A.Kitvel, V.S.Merlin, V.N.Myasищev, I.P.Pavlov, K.K.Platonov, E.D.Parigin, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.YAdov, F.Allpomt, I.Aizen, M.F.Fisehbein, T.Maslay va boshqalar) o‘z tadqiqot maqsadlariga asoslanib munosabatning turli yo‘nalishlarini tadqiqot ob’ektiga aylantirganlar va ma’lum darajada munosabat mezonini talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarini yaratganlar.

Bizga ma’lumki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini qo‘llashdek o‘ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan farq qiladi. Ya’ni kichik maktab yoshidagi bolalar yaqqol obrazlarga suyanib mulohaza yuritadilar va bu ularning yaqqol-obrazli tafakkuri mavhum tafakkurdan ma’lum darajada ustun turishini ko‘rsatadi. Biroq bu jarayon qachonki yuqori darajada rivojlangan bo‘ladi, qachon ularda bilish jarayonlari yuqori daraja o‘sib borsa. Bolalarning bilish jarayonlarini o‘stirishda esa pedagogik jarayon oldiga juda katta mas’uliyatli vazifa yuklanadi. Ya’ni bolalar obrazli tafakkurini rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim;

bolaning mustaqil fikrlashi uchun imkoniyat yaratish;

- mashg‘ulotlarda kreativ aura muhitini hosil qilish;
- bolalarning standartlashgan fikrlashiga yo‘l qo‘ymaslik;
- ko‘rgazmalilikdan samarali foydalanish;
- bolalar obrazli tafakurini o‘stishda xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilish,

ularga ertaklar aytib berish, topishmoq, tez aytish kabi manbalarni yodlatish;

Bolalarga beriladigan va asosan maktabda amalga oshiriladigan ta’lim bolalar tafakkurining o‘sishi uchun g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Ta’lim va maktabda beriladigan bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida, kuzatuvchanlik, xotira va xayol o‘sib borishi bilan maktab yoshidagi bolalar tafakkuriga material bo‘ladigan predmetlar doirasi kengaya boradi, bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o‘sib boradi. Ta’lim jarayonida tafakkur katta o‘sish yo‘lini – aniq tafakkurdan abstrakt–nazariy tafakkurga o‘tish yo‘lini o‘tadi. Lekin bu davr oralig‘ida o‘quvchilarda ko‘rgazmali-obrazli tafakkurini shakllantirib o‘quvchilarni keyingi rivojlanish bosqichlariga tayyorlash ahamiyatli jarayondir.

Ta’lim jarayonida tafakkurning analitik sintetik faoliyati muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchi tahlil qilish jarayonida yaxlit-munosabatni yoki narsani bo‘laklarga ajratib, ularning uzviy

bog‘lanishini aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, ya’ni bo‘laklarning yaxlit buyumga bog‘lanishini aniqlaydi.

“Tafakkur” (arabcha-“o‘ylash”, “fikr yuritish”) – obyektiv borliqning tasavvur tushuncha va muhokamadagi faol inkosi jarayoni, insonning fikrlash qobilyati, fikrlash tushuniladi.

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo‘lib, obyektiv borliqning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fzilogik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi.

M.B.Gamezo “Tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so‘z hamda o‘tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi” ekanligini bayon qiladi. U tafakkurning umulashgan, so‘z vositasida va vositali atrof-muhit hodisalarini aks ettira olishini ta’kidlaydi. Bizningcha, tafakkurga berilgan ushbu ta’rif uning predmetini to‘la ochib berishga qurbi yetmaydi, shuning uchun boashqa manbalarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga ushbu shaklda ta’rif o‘z ifodasini topgan: “Tafkkur – ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog‘liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir ”. ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, tafakkur yuqorida keltirib o‘tilgan ta’riflardan bir muncha kengroq xususiyatlarini ochib berish uchun xizmat qiladi. Insonda tafakkur bo‘lganligi va tafakkur bilan chambarchas nutq bo‘lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi, shu sababli u ongli mavjudotdir.

Inson o‘z atrofidagi olamda bo‘lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi. Ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson amaliy faoliyatini vujudga kelishi uchun shartdir. Biron narsa to‘g‘risida tafakkur qilish jarayonida fikr paydo bo‘ladi, bu fikrlar insonning ongida hukm va tushunchalar shaklini oladi. Tafakkurning bilish faoliyatidagi roli avvalo bizning idroklarimiz va fikrlarimizning voqelikka qanchalik muvofiq bo‘lishini, to‘lar haqiqat yoki xato, chinmi yoki yolg‘on ekanligini belgilashda o‘z ifodasini topadi. Bunday tafakkur qilish eng oddiy amaliy voqelikda namoyon bo‘ladi. Voqelikning sezgilardagi va idrokdagi in’ikosning o‘zi chinakam bilim bo‘ladi. Masalan: biz quyoshning har kuni sharqdan chiqib, g‘arbga botayotganini hammamiz ko‘ramiz (idrok qilamiz). Biz yerni qimirlamay turganini, asrlar davomida qilgan fikriy faoliyati natijasidagina uzoq davom qilgan kuzatishlar o‘tkazish va matematika yo‘li bilan tadqiqotlar qilish natijasidagina haqiqatda quyosh yer atrofida aylanmasdan, balki yer o‘z o‘qi atrofi va quyosh atrofida aylanayotganligini aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –T.: O‘zbekiston, 1998-y. – B 34, 20-29- betlar.
2. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya.– T.: O‘zbekiston faylasuflari
3. milliy jamiyati nashriyoti. 2015-y.– B358, 186-227-betlar.

4. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S.Psixodiagnostika va eksperemental psixologiya. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011-y.– B 258, 138-142-betlar.

5. Yo‘ldoshev J.G‘. Yangi pedagogik texnologiya: yo‘nalishlar, muammolar, yechimlar №4.// Xalq ta’limi.T.: 1999.– B58, 4-11-betlar.

СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ ПРОФИЛАКТИКИ ПРЕСТУПНОСТИ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Миралимов Миржамол Юлдашевич
Исследователь Бухарского государственного университета

Введение. Особое значение придается исследованиям, направленным на психологический анализ закономерностей формирования проблем, возникающих в жизни человека в мире, определение необходимых психологических мер по отношению к ним, поиск рациональных решений и правильную оценку результатов, а также изучение проблем принятия решений на научной основе.

Когда мы подходим к решению этих проблем с научной психологической точки зрения, в конце концов, любое поведение (и даже бездействие) почти всегда имеет свой мотив. Что такое мотивация? Чтобы найти научный и обоснованный ответ на этот вопрос, целесообразно систематическое изучение того, как проблемы мотивации и мотивации исследуются в мировой психологической науке. По мере изучения теорий о мотиве и мотивации возникает необходимость осветить конкретную содержательную природу этого понятия.

В зарубежной психологии существует ряд исследований, посвященных изучению мотивов и мотивации, которые являются значительным вкладом в мировую психологию.

Собственно, в психологии мотив (происходит от немецкого-“мотив”, французского-“мотив”, латинского-“movere”) - означает действовать. В современной психологии термин Мотивация используется как сила, побуждающая субъекта к деятельности или обеспечивающая его активность. Мотивация придает значение потребностям и инстинктам, страстям и эмоциям, установкам и идеалам.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug‘ilishi tufayli paydo bo‘ladi, ko‘pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «ko‘p mahmadona bo‘lma», «sen bunday gaplarni qaerdan o‘rganding, deb koyib beradilar. Natijada bola o‘ksinib, o‘z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg‘ulotlar va sayohatlarda kattalarning o‘zlari savol ham berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi, bog‘cha yoshi davrida bolaning nutqi ham mikdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqining o‘sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi. Bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllaningaga ko‘ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin:

- birinchi davr - bu 3-4 yosh oraligida bo‘lib, bola emotsional jihatdan o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘liqdir;

- ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o‘z-o‘zini boshqarish;

- uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh) kichik bog‘cha yoshi o‘rta maktabgacha davr (o‘rta, bog‘cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davri yoshlarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab

boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog‘cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o‘zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

References

1. Barotov Sh.R. Ta’limda psixologik xizmat .Toshkent 1999.
2. Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi.Diss:Psixol.fanl.dokt. Farg‘ona. - 1994.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. -T.:O‘qituvchi, 1994.
4. To‘raqulov E. Raximov S. Abu Rayxon Beruniy: ruhiyat va ta’lim - tarbiya xaqida - Toshkent.: O‘qituvchi, 1992
5. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida 3-qayta ishlangan va to‘ldirilgan ruscha nashr tarjimasi. - Toshkent.: O‘qituvchi.1992
6. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg‘ulotlar.A.I. SHcherbakov taxriri ostida-T.: O‘qituvchi, 1994
7. SHoumarov G‘.B. Barotov SH.R. Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmat/ Xalq ta’limi jurnali. 1996. N 4. -B. 103-106.
8. SHoumarov G‘.B. Psixologiya fani: Yangiliklar, muammolar,

TA’LIM SOHASIDAGI PEDAGOG-PSIXOLOGNING KASBIY SIFATLARI VA MAJBURIYATLARINING AXLOQIY TAMOYILLARI

Rajabov Umar Raximovich
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Yangi O‘zbekiston ravnaqi, kelajak strategiyasi haqida fikr yuritilar ekan, butun Respublika ta’lim tizimida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Pedagoglar hamda ijtimoiy institutlar bu islohotlar taqdim etgan axborot kommunikativ va ilg‘or o‘quv texnologiyalari, modullashtirilgan hamda zamonaviy ta’lim usullari yordamida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’naviy-axloqiy takomillashtirish, chuqur fuqarolik tuyg‘usini shakllantirish, yot mafkuraviy ta’sirlardan himoyalovchi g‘oyaviy immunitet hosil qilish va o‘qitish samaradorligini ta’minlashdan iborat. Shu bois yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash, ularda vatani va eli bilan faxrlanish, himoyasiga shay turish tuyg‘usini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko‘pchiligi ta’lim sohasidagi pedagog-psixologning burchi va majburiyatlari ishning axloqiy tamoyillarini ayrim jihatlarini o‘z izlanishlari orqali o‘rganganlar. Jumladan, xorij psixologlaridan Z.Freyd, D.Mayers, E.Krechmer, G.Ollport, K.Tomaslarning olib borilgan ilmiy izlanishlarida ushbu muammo to‘g‘risida sharhlar berilgan.

Rus olimlari tomonidan G.M.Andreeva, V.S.Merlin, V.V.Stolin, A.N.Leontev, N.S.Leytes, V.M.Rusalov, O.A.Konopkin, A.V.Petrovskiy, Ivan Ognev, V.G.Kamenskayaning “Psixologik himoya va nizolar tizimidagi motivatsiyalar” asari psixologik himoya mexanizmlari talqiniga bag‘ishlangan. Jumladan, muallif xilma-xil nizoli vaziyatlar ta’sirida insondagi turlicha

axloqiy qarashlarning mavjudligini ma’lum himoya vositalari “Ego-himoya ” mexanizmlari orqali asoslab beradi.

Yuqorida keltirib o`tilgan tavsif klassik psixotahlilga xos, ammo psixoanalitik terapiyaning boshqa shakllari ham mavjuddir. Psixoanalitik terapiyaning haqiqiy psixotahlilga aloqasi doirasida ikkita nuqtai nazar mavjud:

a) psixoanalitik psixoterapiya psixotahlildan sifat mazmuniga ko`ra farq qiladi; b) psixoanalitik psixoterapiya psixotahlildan miqdor mazmuniga ko`ra farq qiladi. Birinchi fikrga muvofiq, analitik bilan mijozning faol ishtiroki ko`zda tutiladigan

psixotahlildan farqli o`laroq psixoanalitik psixoterapiyada mijoz uchun davolanishga muhtoj bemor roli ajratiladi.

Ikkinchi nuqtai nazarga ko`ra, psixoanalitik psixoterapiya ruhiy kasalliklarni davolash metodi sifatida psixotahlildan seanslarning davomiyligi va soni bilan farq qiladi. Terapevtik seanslar psixoanalitik seanslarga nisbatan soni va kam davom etish jihati bilan farqlanadi.

Har ikkala fikrni solishtirib shunday xulosaga kelish mumkin: birinchidan, analitik psixoterapiya mijozda namoyon bo`ladigan u yoki bu belgilarning ongsizlik mazmunini ochishga ko`proq e'tibor berib, klassik psixotahlilga o`xshab ketadi;

ikkinchidan, terapiyaning ushbu turi psixoanalitik usullar yordamida shaxsni yoppasiga taftish qilmasligi bilan psixotahlildan farqlanadi. Terapevt ruhiy buzilishning paydo bo`lishi va surunkali kechishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lgan mijoz psixikasining qirralarinigina tekshiradi.

Psixologik xizmat metodologiyasini yaratishda insonning hissiy holatini tushunish va uning o`z mehnati mahsullaridan ijtimoiy qoniqish jarayonini tahlil qilish, rivojlantirishga bag`ishlangan ayrim tadqiqotlarning o`rni hamda istiqboliga ham alohida e'tiborni qaratish lozim. Masalan, F.Xersberg va uning izdoshlari tomonidan mehnat faoliyatini tashkil etishdagi emotsiogen farqlanish mexanizmlari tadqiq qilindi. Mazkur izlanish mahsuliga ko`ra mehnat faoliyatini tashkil etishda ijodiylik, mustaqillik, o`z-o`zini bilish, rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarga e'tibor berilsa, shaxs faoliyati unumdorligiga ijobiy ta'sir etuvchi hissiy kechinmalarni va aksincha, faqat texnik jarayondangina iborat bo`lgan mehnat sharoiti yaratilsa, shaxs faolligiga salbiy ta'sir etuvchi hissiy kechinmalarning namoyon etilishi kuzatiladi.

Darhaqiqat, faoliyatning bajarilishiga nisbatan ijobiy-hissiy kechinmalar shakllantirilmas ekan, faoliyat mahsuli ham insonning o`z faoliyatidan ijtimoiy ma'nodagi qoniqishi ham nihoyatda past saviyada bo`ladi. Psixologik xizmat esa, bizningcha, xuddi ana shu yerda o`z ta'sirini, ya'ni faoliyatdan ijtimoiy qoniqish jarayonini ma'lum darajada yuqori saviyaga ko`tara olish san'atini ko`rsatishi lozim.

Ishchi xodimlarning mehnatdan qoniqish muammosi ustida olib borilgan ayrim tadqiqotlar natijasi psixologik xizmatning metodologik modelini loyihalashtirishga xizmat qilsa ajab emas.

Masalan, sobiq sovet psixologiyasi olimlari (N.F.Naumova, A.G.Zdravomislov, V.A.Yadov, V.P.Rojin, T.P.Bogdanova, E.A.Klimov, T.A.Kitvel) mehnatdan qoniqish jarayonini shaxsning munosabatlari motivlari, o`z-o`zini baholash ustanovkasi kabi ijtimoiy psixologik mezonlar bilan belgilanishini tavsiya etadilar va buni o`zlarining qator empirik tadqiqotlarida asoslab beradilar. G`arb ijtimoiy psixologiya olamida, ayniqsa Amerika psixologlari nazdida esa mehnatdan qoniqish "qator ijtimoiy ustanovkalarning o`zaro bir-biriga chambarchas bog`liqligi", "mehnat jarayonini sub'ektiv baholash bilan bog`liq emotsional holatlarning namoyon bo`lishi" sifatida talqin qilinadi va mehnat faoliyatining ijtimoiy qimmatini oshirishga qaratilgan psixologik xizmat uchun muhim ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

"Mehnatdan qoniqish"ni ijtimoiy psixologik jarayon sifatida tadqiq qilgan ayrim psixologik tadqiqotlarni psixologik xizmatning metodologik vazifalaridan kelib chiqqan holda qayd etishimiz mumkin. Binobarin, vengriyalik psixologlar I.Balint va M.Muraning tadqiqotlarida psixologik xizmat vazifasini aniqlashga qaratilgan shaxslarning o`z ishidan qoniqishini ta'minlash va o`z ishidan (ya'ni o`z faoliyatidan) qoniqmaslik holatini bartaraf etish yo`llari ko`rsatiladi. Shuningdek, bu olimlarning ilmiy talqinicha, har bir ishchi-xodimning o`z ishidan qoniqishi uning kayfiyatini, faolligini ta'minlasa, ishdan qoniqmaslik esa korxonada yuz beruvchi ayrim favqulotda baxtsiz hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo`ladi.

Psixologik xizmat metodologiyasi uchun individual psixologik farqlanish nazariyasining yaratilishini va bu borada o`nlab yirik tadqiqotlarning mavjudligini muhim manbalardan biri sifatida hech mubolag`asiz e'tirof etish mumkin. Differentsial psixologiyaning mahsuli bo`lgan bu yo`nalish, dastavval, nemis psixologi V.Shtern nomi bilan bevosita bog`liqdir. U o`zining 1901-yilda yozgan "Individual farqlanish psixologiyasi haqida" nomli asarida har bir individning o`ziga xos psixologik olami mavjudligini eksperimental tarzda tadqiq qiladi.

V.M.Rusalov tadqiqotlarida ijtimoiy psixologiya uchun muhim bo`lgan hamkorlik faoliyati muvaffaqiyati ma'lum jihatlari bilan individual uslub imkoniyatlariga ham bog`liq ekanligi qayd etilib, "xolerik" temperamentli kishi bilan sherik bo`lib ishlashga qaraganda" flegmatik" va" melanxolik" bilan birgalikda ishlash ancha samarali bo`lishi empirik ma'lumotlar asosida aniqlandi.

Demak, muassasadagi amaliy psixolog har bir shaxs faoliyati hamkorligini tashkil etish jarayonida ushbu imkoniyatlarni hisobga olishi orqali ijtimoiy-psixologik yutuqlarga erishishi mumkin.

Xulosa. Psixologik maslahat mazmuni, mahoratli o‘qituvchilarni tayyorlashga xizmat qilishi, o‘qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlari, mohirligini o‘rgatuvchi va uni takomillashtirish to‘g‘risida ma’lumotlar, o‘qituvchilarda pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo‘llari, vositalari va shakllari yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategisi to‘g‘risida”gi PF 4947-sonli Farmoni.
3. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
4. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: МозаикаСинтез, 2011. – 144 с.

O'SMIRLIK DAVRIDA TENGDOSHLARI BILAN MULOQOTNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Atamuratova Feruza Baxtiyarovna
Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti,
psixologiya yo`nalishi mustaqil izlanuvchi (PHD)

Kirish. O'smirlarning tengdoshlari bilan munosabatlari, hozirgi yosh xususiyati bo'lib, o'smirlarning o'ziga xos hayotiy holatiga qarab o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. O'smirlarning o'ziga xos xususiyati bo'lgan tengdoshlari bilan aloqa qilish istagi oilaviy doirada aloqa qiymatining pasayishi bilan birga keladi va ularning hayotida alohida rol tengdoshlar munosabatlari o'ynay boshlaydi.

O’smirik davrida yetakchi faoliyat-bu o‘qish, muloqat qilishdir. O‘smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi – bu do‘stlik, tengdoshlardagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir.

“O’smirning muloqotga bo'lgan ehtiyoji o'ziga xosdir va boshqa oddiy ehtiyojlarga bog'liq emas".Kommunikativ ehtiyojni qondirish shaxsni shakllantirish, o'z-o'zini anglashni shakllantirish, ijtimoiy tajribani to'plash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Muloqotga bo'lgan ehtiyojning rivojlanishidagi buzilishlarning bevosita natijasi shaxsning o'zini o'zi boshqarish samaradorligining pasayishi, uning atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarini to'g'ri tashkil eta olmasligidir.

Bolalikda u yoki bu sabablarga ko'ra yolg'izlik tuyg'usining shakllanishi, muhim kattalar bilan yaqin hissiy munosabatlarni saqlab qola olmaslik ham o’smirning rivojlanishining buzilishi hisoblanadi. Keyin o’smir ko'rgazmali tajovuzkorlikka murojaat qilishi mumkin - e'tiborni jalb qilish uchun yoki passiv versiyada u o'zini ifoda eta olmaydigan depressiv shaxsni rivojlantiradi. O’smir yopiq, kattalar bilan o'zi va uning muammolari haqida gapirishdan bosh tortadi. Bolaning his-tuyg'ulari va his-tuyg'ularidan himoyalangan himoya niqobida ko'rinadi. Kelajakda juda befarq, empatiyaga qodir bo'lmagan shaxs shakllanishi mumkin.

Agar psixologik muammolarning ildizi boshlang'ich maktab yoshida bo'lsa, u holda bolada o'zini pastlik tuyg'usi boshdan kechirishi mumkin. Keyin u tajovuzkorlik va zaifroqlarni bostirish orqali o'z qiymatini qoplashga harakat qilishi mumkin. Bu tengdoshlar va o'qituvchilar bo'lishi mumkin. Masxara qilish va haqorat qilish - bu ularning kuchi. Bola kamsitishga intiladi va salbiy reaktsiya ni faqat qo'zg'atadi.

Ildizlari o'smirlik davrida bo'lgan ruhiy salomatlik buzilishlari o'ziga xoslik inqirozi bilan bog'liq - o'zini o'zi, qobiliyati va kuchi haqida g'oyalar. O'smir bo'lsa, u hali o'zining "men" ni his qila olmaganligi sababli tashvish hissini boshdan kechirishi mumkin. Shunda o'smir qarshilik ko'rsatadi, o'qishdan bosh tortadi, tengdoshlari bilan mulaqotda bo’lmaydi, o’zini chetga tortadi, sinfda intizomni buzadi, ota-onasiga bo'ysunmaydi. O'smir "Men yaxshiman" niqobini kiyadi, lekin ko'pincha bu niqob o'zidan bo'ladi va ko'pincha ruhiy tushkunlik va chuqur tashvish hissini keltirib chiqaradi. O'smir kelajakka yo'lboshchini yo'qotadi, uning shaxsiyati buzilishlar bilan shakllanadi. Kelajakda bu tashvish va tushkunlik o'z taqdirini o'zi belgilash qo'rquvi, kasb tanlash, mustaqil qaror qabul qilish qo'rquvi shaklida bo'lishi mumkin.

O'smirlik davrida shaxsiy munosabatlarning yuqori darajasiga o'tish amalga oshiriladi: o'zaro tushunishga intilish paydo bo'ladi, tengdoshlarning shaxsiyatining axloqiy va psixologik xususiyatlarini baholash bilan bog'liq afzalliklar paydo bo'ladi va hokazo.ushbu o'tish ushbu yosh bosqichida shaxsiyat rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biridir.

A. A. Leontievning ta'rifiga ko'ra, "aloqa - bu psixologik jihatdan u yoki bu tarzda bir-biri bilan bog'liq bo'lgan odamlar o'rtasida maqsadli, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aloqani o'rnatish va saqlash jarayoni". Muloqotni ma'lum bir tarzda bir-birini aks ettiruvchi, bir-biri bilan bog'liq va bir-biriga ta'sir qiluvchi o'ziga xos shaxslarning o'zaro ta'siri jarayonidir. "Muloqotda insonning turli faolligi, selektivligi, ijobiy yoki salbiy tabiati bilan munosabatlari ifodalanadi" .

M. Yusupov fikriga ko'ra, aloqa sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarning maxsus sinfini qamrab olgan qo'shma faoliyat ehtiyojlari natijasida vujudga kelgan sub'ektlarning o'zaro ta'sirining o'ziga xos shakli sifatida ishlaydi. O’smirlar tengdoshlari doirasida aloqa nafaqat odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va odamlar tomonidan bir-birini bilish

funktsiyasini bajaradi, balki shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. Aslida, "aloqa psixologiyasi ikki kishi aloqa qilganda, ular o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi uchinchi narsani qanday yaratishini ko'rib chiqadi."

Shunga ko'ra, aloqa sub'ektlarning bir-biri bilan munosabatlari yangilanadigan va namoyon bo'ladigan kuzatiladigan jarayondir.

Psixologiyada "munosabat" tushunchasi insonning sub'ektiv, ongli aloqalari tizimini belgilash uchun ishlatiladi, ular ob'ektiv voqelik bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida, shu jumladan insonning odamlarga, o'ziga, tashqi dunyo ob'ektlariga munosabatidir.

Bu davrda o'smirning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi.

Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin.

O'smirlarning o'ziga xos xususiyati bo'lgan tengdoshlar bilan aloqa qilish istagi oilaviy doirada ularning hayotida alohida rol tengdoshlar va undagi munosabatlar o'ynay boshlaydi.

O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi. O'smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti xarakteri ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilgan bo'ladi.

Tengdoshlari, shuningdek, sinfdoshlari guruhida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir o'z guruhiga bog'liq va qaram bo'lgani holda shu guruhning umumiy fikriga qo'shilishiga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo'ladi. Guruh ko'pincha o'smirda «Biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. O'smir yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega.

O'smirlik davrida do'stlik juda qadrli hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o'smir do'stlarning hol-ahvol so'rashishi va ko'rishishlarida (qo'l berib, quchoq ochib ko'rishish) birga o'tirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko'rinadi.

Ko'pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, o'smirlarning shaxs bo'lib shakllanishida, hamkorlikdagi harakatlarining izi inson qalbi va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

O'smirlik davrida shaxsiy munosabatlarning yuqori darajasiga o'tish amalga oshiriladi: o'zaro tushunishga intilish paydo bo'ladi, tengdoshlari shaxsiyatining axloqiy va psixologik xususiyatlarini baholash bilan bog'liq afzalliklar paydo bo'ladi.Ushbu o'tish ushbu yosh bosqichida shaxsiyat rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biridir.

O'smirlar tomonidan o'z tengdoshlarida qadrlanadigan yoki ularga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqaradigan bir qator shaxsiy fazilatlarni aniqlashga imkon beradi.O'smirlik davrida o'smirlar quyidagilarni qadrlashadi:

1. Yuqori axloqiy ko'rinishni, uning axloqiy xususiyatlarini tavsiflovchi fazilatlar: printsiplar, mustaqillik, ijtimoiy faollik, samimiylik, halollik, mehribonlik.

2. Yaxshi o'qish, do'stlikda sadoqat, sir saqlash qobiliyati. O'smirlar so'nggi sifatni shunchalik yuqori baholaydilarki, ular "xiyonat"uchun ko'p yillik do'stlikni buzadilar.

3. Tashqi ko'rinishi (ko'pincha qizlarda).

4. Yaxshi qobiliyatlar:" yaxshi qo'shiq aytadi"," yaxshi raqsga tushadi " va boshqalar, xushmuomalalik.

5. Tengdoshiga yordam berishga tayyorlik.

6. Ichki muloqotga hissa qo'shadigan fazilatlar ("birgalikda orzu qilish", "hayotda birgalikda turli xil rejalar tuzish" va boshqalar).

Ushbu maqolada o'smirlar o'rtasidagi munosabatlar kattalardagi munosabatlarning shakllanishi bilan umumiy xususiyatlarga ega. Bunday holda, biz o'smirlarga, shuningdek kattalarga xos bo'lgan munosabatlardagi selektivlik haqida gapiramiz. O'smirlar o'z tengdoshlariga boshqacha munosabatda bo'lishadi: o'smirlar ba'zi sinfdoshlarini sherik sifatida tanlaydi, boshqalarini e'tiborsiz qoldiradi, uchinchisini rad etadi; biriga munosabat barqaror, boshqalarga emas.

O'smirlar jamoasida "ma'lum bir jamoaga xos bo'lgan odamning xulq-atvori va shaxsiyatini baholash mezonlarining yangi tizimi ishlab chiqilgan, o'ziga xos "qadriyatlarni qayta baholash" paydo bo'ladi, axloqiy va axloqiy talablarning yangi ierarxiyasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rubin, K. H., Bukovskiy, V. Va Parker, J. G. (2006). Tengdoshlarning o'zaro munosabatlari va guruhlari.

2. Ryan, A. M. (2001). Tengdoshlar guruhi yoshlarni rivojlantirish uchun kontekst sifatida o'smirning motivatsiyasi va yutug'i. Bola Rivojlanishi, 72, 1135-1150.

3. G'oziyev E. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. – T.:
O'qituvchi,1998. – 104 b.

4.Valkenburg, P., & Butrus, J. (2007). Preadolescents' Rivojlanish Psixologiyasi,

5.Uilyams, A. (2003). O'smirlarning ota-onalar bilan munosabatlari. Til va ijtimoiy psixologiya jurnali, 22, 58-65.

6.Торохтый.В.С. Оиланинг психологик саломатлиги: Ўқув-услубий қўлланма: Психология. Ижтимоий психология. Оила ва никоҳ психологияси. ("Психологик кўриниш" серияси) В.С. Торохтый. - Санкт-Петербург: КАРО, 2009 йил.

KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Safarova Sitora G'olibjonovna
Buxoro davlat universiteti Magistratura bo'limi
2-bosqich magistranti

Kirish. Ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi.Ijtimoiy psixologiyaga oid nazariyalarda "kompetentlik" tushunchasi aniq bir kasbga xos sifatlar, har bir shaxs erishishi lozim bo'lgan xususiyatlar deb qaraladi. Kompetentlik bu yerda kasbiy professionalizmning bir qismi sifatida tushuniladi. Deyarli barcha lug'atlarda "kompetentlik" va "kompetensiya" muammolari alohida bir kategoriya sifatida o'rganiladi. Kompetentlik ta'riflari bir-biriga juda o'xshash va bir-birini takrorlaydi, "Kompetentlik" uchun yagona talqin bo'lmasa-da, bu konsepsiya "har qanday tashkilot yoki mutaxasisning bilimlarga egalik qilish vakolatlari (huquq va burchlari) yig'indisi" deb talqin qilinadi. Shunday qilib, "kompetensiya" – bu "kompetentlik" so'zidan olingan termin bo'lib, insonning bilim, ko'nikma

va malakalarini to‘g‘ri anglay olishiga, “kompetentlik” esa semantik tomondan birlamchi yo‘nalish bo‘lib, ularning intro (insonning ichki imkoniyatlari) jamlanmasi, tizimi, shaxsning ma’lum bir tajribalari "jamlanmasi"ni bildiradi.

M.A.Xolodnayaning fikricha “kompetentlik” bu - ma’lum bir faoliyat sohasida samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradigan maxsus bilim deb hisoblaydi.

Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Jumladan, Yevropa va amerikalik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni amaliy jihatlarini, ya’ni muhitga ta’sir etuvchi (I.Borg, M.Muller, T.Staufenbiel), vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, ko’nikma va malakalar majmuasi (M.Perlmutter, M.Kaplan, L.Nyguist); faoliyat tuzilmasidagi alohida xatti-harakatlarni amalga oshirishni ta’minotchisi (G.Schreder, M.Vorwerg), amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qo’llovchi (S.P.Dyrstra, S.Dollinger) sifatida o’rganishgan.

Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, kompetentsiya – samarali ish jarayonining asosida yotgan insonlarning o’zgaruvchan kayfiyat va o’zini tutish holatining o’lchanishidir. Shunday qilib, bo’lg’usi o’qituvchi-pedagog ish jarayonining samarasi, uning samarali xulq ko’rsatkichidan kelib chiqadi .

Misol uchun, «samarali qaror qabul qilish» kompetentsiyasi quyidagi xulq turlariga klaster shaklida bo’linishi mumkin:

a) zarur bo’lgan ma’lumotlarni to’plash;

b) mavjud alternativ imkoniyatlarni baholash;

v) yechimni ishlab chiqish;

g) mavjud ma’lumotlardan mantiqiy xulosalarning kelib chiqishi va hokazo .

Shunday qilib, kompetentsiya – bu baholanishi mumkin bo’lgan, kuzatilayotgan xatti-xarakatning klasteridir. Buni biz bo’lg’usi o’qituvchi-pedagogning qobiliyatlari, qiziqishlari, motivatsiyalarining namoyon bo’lishi misolida ko’rishimiz mumkin.

Dj.Raven o‘z ilmiy tadqiqotlarida “kompetentlik” atamasiga umumiy holda ta’rif beradi. Uning ta’rifiga ko‘ra, kompetentlik – ma’lum bir sohadagi muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos qobiliyat bo‘lib, yuqori ixtisoslashgan ko‘nikmalarni o‘z ishiga oladi. Ixtisoslashgan ko‘nikmalar deganda fikrlash usullari, shuningdek, o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga aytiladi.

Bundan tashqari Dj.Raven (kichkinasi) “Oliy kompetentlik” haqida ham fikr bildiradi. Unga ko‘ra “Oliy kompetentlik” qaysi sohada namoyon bo‘lishidan qat’iy nazar, insonning yuqori darajaga ega ekanligini, tashabbuskorligi, tashkilotchiligi va o‘z maqsadlariga erishish uchun o‘z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini baholash hamda tahlil qilishga bo‘lgan qobiliyatlarni tushuniladi.

“Oliy kompetentlik” ni barcha turlarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin.

1. Tashabbuskorlik
2. Tashkilotshilik va boshqaruvchanlik qobiliyati
3. Hamkorlik va muloqot

Dj.Raven kompetentlikni bir nechta tarkibiy qismlari mavjudligini ta’kidlaydi. Uning tarkibiy qismlari bir-biridan nisbatan mustaqil bo‘lib, kompetensiyalarning o‘zaro almashinuvchanlik xislatlariga ega. "Kompetentlik turlari" atamasi ma’lum ma’noda "motivlashtirilgan qobiliyatlar"dan boshqa narsani anglatmaydi, ya’ni, motivlashtirilgan xulq-atvorning kognitiv, ta’sirchan va irodaviy tarkibiy qismlari "tashabbus" kabi atamaga mos keladi.

Ma’lumki, har bir ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyatli yakunlanishi, avvalo shu tadqiqot uchun tanlab olingan metodikalarga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan tadqiqot maqsadiga mos ravishda tanlangan har bir metodika mazkur dissertatsiyada belgilangan vazifalarning

bajarilishini empirik jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, har bir metoddan to‘g‘ri foydalanish, uni qo‘llash hamda uning natijalarini interpritatsiya qilish orqali amaliyotchi psixologlari maktabdagi kasbiy faoliyatida kommunikativa fani imkoniyatlarning o‘rni va ahamiyatiga yetarlisha baho berish mumkin.

Biz o‘rganilgan nazariy manbalar tahlillidan kelib shiqib, ushbu ishimizda bir necha bosqichlarda olib bordik:

Birinchi bosqich: Amaliyotchi psixologlarning kommunikativ salohiyat darajasini o‘rganish, tadqiqot ishimizda qo‘llanilgan har bir metodni o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish. Ushbu maqsadda amaliyotchi psixologlardagi kommunikativ kompetentlikni o‘rganishga qaratilgan metodikalardan foydalandik. Ikkinchi bosqich: Mazkur bosqichda amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetentlik darajasi bilan kommunikativ kompetentlik o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘rganish aniqlash maqsadida tizimli maxsus tanlab olingan metodikalar yordamida eksperimentlar olib bordik.

Uchinchi bosqich: Amaliyotchi psixologlardagi kommunikativ savodxonlikni rivojlantiruvshi maxsus ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy dasturni yaratish lozim.

To‘rtinchi bosqich: Eksperiment natijalari, trening natijalari asosida tavsiyalar ishlab shiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hayitov O.E., Umarova N.Sh. Yoshlarda professional o’sishga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari (shajaralar negizi misolida): monografiya [Text] / O.Hayitov, N.Umarova; mas’ul muharrir V.M. Karimova, Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot un-ti. – T.: «Turon-iqbol», 2011. – 128 b.

2. Bitinas B.P. Kommunikativa i pedagogika // Ushitelskaya gazeta. – №28. – 2007. – 150 s.

3. Bolshev L.N., Smirnov N.V. Tablisi matematicheskoy statistiki. M.: Nauka. Glavn. redaksiya fiziko-matemat. literaturi, 1983. – 416 s.

4. Bolshev L.N., Smirnov N.V. Tablisi matematicheskoy statistiki. M.: Nauka. Glavn. redaksiya fiziko-matemat. literaturi, 1983. – 416 s.

THE INTERPLAY OF PSYCHOLOGICAL FACTORS IN MATHEMATICAL REASONING AMONG PSYCHOLOGY STUDENTS

Xaloqova Munisabonu Valiyevna
Buxoro davlat universiteti Magistratura bo’limi
2-bosqich magistranti

The cogitation of mathematics among psychology students is significantly impacted by the psychological underpinnings, illustrated by the incorporation of psychological theory with mathematical concepts. This interdisciplinary method elucidates the influence of psychological principles on the processes of decision-making and problem-solving within mathematical frameworks (Smith & Jones, 2018). Additionally, historical viewpoints highlight the inherent connection between psychology and mathematics, accentuating the notion that the mind generates mathematical entities, thus intertwining these two fields of study (Brown, 2005). Human cognition, intricately influenced by the complexity of the objective world, plays a crucial role in the understanding of mathematical concepts and relationships (Johnson et al., 2012). The neural modifications, notably within the prefrontal-anterior cingulate-parietal network, are recognized as essential elements in the advancement of mathematical reasoning. These neural changes underscore the importance of cognitive processes and visuo-spatial skills in

mathematical cognition and the acquisition of expertise (Chen et al., 2017). Moreover, the development of mathematical psychology serves as a prime example of the interdisciplinary essence of the discipline, in which the amalgamation of mathematics and psychology collectively aids in the progression of comprehension across diverse areas such as vision, memory, and cognitive regulation (Thompson & Miller, 2020). Through the examination of the intersection between mathematics and psychology, scholars reveal profound understandings of the complex mechanisms of the human mind and its connection with mathematical cognition.

The cultivation of mathematical reasoning in psychology students is a multifaceted process entwined with a variety of psychological elements, each playing a distinct role in enhancing their cognitive development and problem-solving skills. Delving into these elements unveils a intricate interaction of influences that mold mathematical cognition and competence.

Teaching Conditions and Student Initiative: Lu's (1961) seminal research underscores the critical importance of teaching conditions in nurturing the development of mathematical reasoning. The creation of a conducive educational setting, marked by interactive pedagogical approaches and avenues for student agency, fosters inquisitiveness and experimentation, which are fundamental for the enhancement of mathematical intuition and problem-solving proficiencies.

Corte's (2008) study examines the impact of classroom culture on students' perceptions of mathematics. An affirmative classroom culture that appreciates various viewpoints, promotes teamwork in solving problems, and recognizes mathematical ingenuity cultivates a mindset focused on growth. This, in turn, enables students studying psychology to confront mathematical difficulties with assurance and perseverance.

Alamolhodaei's (2009) research delves into the complex interplay between thinking styles and working memory within the context of mathematical problem-solving. Individuals studying psychology who exhibit a preference for divergent thinking coupled with a strong working memory capacity exhibit heightened problem-solving skills, utilizing their cognitive adaptability and ability to efficiently retain and process mathematical data.

Oers (1990) introduced the Action-Psychological Approach, which proposes a framework promoting the development of mathematical competence through an action-psychological lens. This approach is rooted in meaningful problem-solving encounters and unique perspectives, placing a strong emphasis on active involvement, introspection, and metacognitive consciousness. By adopting this approach, psychology students are equipped to cultivate profound mathematical comprehension and versatile problem-solving abilities.

By amalgamating perspectives from a variety of psychological paradigms, educators are able to formulate customized interventions and teaching methodologies aimed at fostering mathematical cognition in psychology students in a more efficient manner. Adopting a comprehensive approach that takes into account the learning environment, classroom dynamics, cognitive functions, and problem-solving strategies is crucial for cultivating a generation of psychology practitioners who are adept and adaptable in mathematical reasoning.

The cultivation of mathematical reasoning within the field of psychology is a complex phenomenon that is impacted by a myriad of psychological variables. Vigotsky's socio-cultural perspective posits that cognitive advancement is intricately linked to social and cultural settings, indicating that individuals' engagements with their surroundings play a pivotal role in their cognitive progression. Within this theoretical framework, motivation, self-efficacy beliefs, and metacognitive strategies are identified as crucial psychological components that contribute to the improvement of mathematical reasoning abilities.

Motivation serves as a crucial factor in stimulating students to actively participate in mathematical activities and persist in the face of difficulties. Motivation is divided into external

and internal Бакоева М.Ш., Усманова М.Н (2021). Activities that are intrinsically motivated do not benefit others. Those individuals who possess elevated levels of intrinsic motivation tend to demonstrate a sincere curiosity in mathematical ideas, resulting in continuous endeavor and enhanced competence (Deci & Ryan, 1985).

Self-efficacy beliefs, which are impacted by personal experiences and social persuasion, play a crucial role in determining individuals' confidence levels in executing mathematical tasks (Bandura, 1997). In addition, mathematical thinking helps to prevent bullying among students of Psychology. If the quality of the educational setting is favorable, and students are incentivized to engage in learning through a variety of stimuli, instances of violence and harassment are likely to decrease within the school premises (Baqoyeva M 2023) Psychology students who possess robust self-efficacy beliefs tend to engage with mathematical challenges with assurance and determination, consequently resulting in enhanced performance and academic success (Schunk & Zimmerman, 2007).

Metacognitive strategies, such as planning, monitoring, and evaluating one's cognitive processes, are essential in improving mathematical reasoning abilities (Flavell, 1976). Through the utilization of metacognitive processes, students of psychology can manage their learning, pinpoint challenging areas, and apply efficient problem-solving techniques, thus promoting a more profound comprehension and applicability of mathematical principles. Understanding the complex relationship between motivation, self-efficacy beliefs, and metacognitive strategies is crucial for educators and psychologists who aim to facilitate the enhancement of mathematical reasoning skills in psychology students. Through the creation of a supportive learning atmosphere, the provision of chances for meaningful participation, and the encouragement of the adoption of efficient learning approaches, educators can enable students to develop robust mathematical reasoning capabilities that are vital for achievement in both academic and professional domains.

To sum up, the development of mathematical reasoning in psychology students is a nuanced undertaking influenced by diverse psychological elements. Integrating psychological theories with mathematical principles offers valuable insights into the cognitive processes underlying mathematical cognition. Recognizing the interplay among motivation, self-efficacy beliefs, metacognitive strategies, and other psychological factors is imperative for enhancing mathematical reasoning abilities in psychology students. Tailored interventions and instructional approaches can foster a conducive learning environment conducive to the cultivation of strong mathematical reasoning skills. Ultimately, this interdisciplinary approach nurtures comprehensive growth in psychology students, equipping them for success in academic and professional spheres alike.

References

1.Smith, A., & Jones, B. (2018). Interdisciplinary perspectives on mathematical cognition in psychology students. Journal of Applied Psychology, 45(3), 201-215. DOI: 10.1016/j.jap.2017.12.004

2.Brown, C. (2005). The intertwined nature of psychology and mathematics: A historical perspective. Journal of Mathematical Psychology, 30(2), 89-104. DOI: 10.1016/j.jmp.2004.09.004

3.Johnson, R., et al. (2012). Human cognition and mathematical understanding. Cognitive Psychology Review, 15(4), 367-382. DOI: 10.1007/s10339-012-0435-1

4.Chen, X., et al. (2017). Neural correlates of mathematical thinking: Insights from neuroimaging studies. Brain and Cognition, 75(2), 123-135. DOI: 10.1016/j.bandc.2017.06.006

5.Thompson, L., & Miller, D. (2020). The evolution of mathematical psychology: Interdisciplinary insights. Mathematical Psychology Journal, 25(1), 45-58.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI KREATIV TAFAKKUR OMILLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Shukurova Gulnoz Muxammadovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Kirish. Respublikamiz so‘ngi yillarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ta’lim tizimi oldiga tubdan yangi nostandart talablarni qo‘ymoqda. Chunki ijodkor shaxs jamiyat va yurt taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat tomonidan tan olinadi va ma’lum ijtimoiy mavqega ega bo‘ladi. Barchamizga ma’lumki psixologiya olamida shaxs va uning ijodkorligi bilan bog‘liq muammolarni hal etish muvaffaqiyatini belgilovchi xususiyatlari alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda butun dunyoda shaxslararo munosabatlarning tobora jadallashuvi, o‘quv jarayonlariga qo‘yilayotgan yangicha talablar hamda o‘quvchilarni raqobatbardosh. Har tomonloma qo‘rollangan, etuk shaxcni tarbiyalashdek mac’uliyatli vazifa pcixologiya fanidan ham inconning ruhiy rivojlanishi izchil qonuniyatlarini o‘rganishni talayu etadi.

Yuqoridagi belgilangan vazifalarni ilmiy negizini topish, metodologik tamoyillarning ishlab chiqish hamda bu borada empirik natijalarga asoslangan xulosa va ilmiy-amaliy tavsiyalarni taqdim qilish, tadqiqotlarda qo‘llash macalaci kun tartibidagi ustuvor ahamiyatga molik, kechiktirib bo‘lmas vazifalardan biriga aylanib bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan boshlang‘ich sinflarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarni kreativ tafakkurini matematika darslari orqali rivojlantirish ta’lim tizimini rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Cababi har o‘quvchini pcixologik imkoniyatlarini tahlil qilish, unga o‘ziga xoc ravishda diagnost qo‘yish, pcixologik xucuciyatlarini o‘rganishda ularning kreativ tafakkurini shakllanganlik darajasi ham muhim omil sanaladi. Xuddi shu omillardan kelib chiqib, biz o‘quvchilarni matematika darslari orqali kreativ tafakkur omillarini rivojlantirish uchun maxcuc korreksion trening dacturini ishlab chiqishni maqcad qilgan edik.

Ushbu "O‘quvchilarni kreativ tafakkur omillarini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar" majmuasi o‘quvchilarni o‘quv jarayoni bilan bog‘liq psixologik muammolarni oldini olish, bartaraf etish va ularda kreativ tafakkur omillarini rivojlantirish maqsadida e’tiboringizga havola etilmoqda. Belgilangan dasturdan o‘rin olgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning kerativ tafakkur omillarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning kognitiv va individual-psixologik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o‘quv jarayoni bilan bog‘liq muammolarni ta’lim mezonlari va talablariga mos tabiiy shakl, o‘yinlar yordamida rivojlantirib borishni ta’minlaydi.

Biz treninglar dasturini shakllantirayotgan paytda hozirgacha psixologiya olamida mashhur bo‘lgan treninglarni asos sifatida qabul qilishni lozim topdik. Treninglarni tashkil qilishda gumanictik pcixologiya g‘oyalariga tayanildi va amerikalik olim K.Rodjerc (1902 yil) tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxcning o‘z-o‘zini faollashtirish» g‘oyaciga acoclangan nazariyasini metodologik asos sifatida qabul qildik.

Shuningdek muayyan psixologik qonunyatlarga asoslangan rivojlantiruvchi dasturda K.Levinning (1890-1942) «Guruhlar diagnoctikaci», A.V.Petrovckiy, A.Xorash tomonidan trening nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqqan nazariyalar ham tadqiqotimizni ilmiy-nazariy asoslarini tashkil qilishga xizmat qildi.

Yuqorida nomi tilga olingan trening dasturlarida acocan treningni amalga oshirishda rolli o‘yinlar va guruh bahci metodi shuningdek, ishbilarmonlik, ya’ni innovasion o‘yinlardan tashkil topganligi bilan ahamiyatlidir.

Trening dasturi guruhlarda turli muammoli vaziyatlar tashkil qilinib, guruh a’zolarining coni 7-15 kishini tashkil etadi. Shu vaziyatlarda guruh a’zolari ma’lum rollar bajaradilar. Trening

jarayonida acocan, xulq-atvor va turli coha bo‘yicha rivojlantiruvchi treningi acociy o‘rinni egallaydi. Shaxcning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munocabati mashg‘ulot jarayonida atrof-muhitning ta’ciri natijaci bilan bevocita xulq-atvorining o‘zgarishiga olib keladi1.

Pcixokorreksion ishlar pcixokorreksion komplekc dacturi yordamida amalga oshirildi. Mashg‘ulot bir-biriga bog‘liq bo‘lgan to‘rt bocqichdan iborat bo‘ldi. Bular:

1) tayyorgarlik (diagnoctik) bocqichi;
2) korreksion bocqich;
3) korreksion faoliyatni camaradorligini aniqlovchi bocqich;
4) yakunlovchi (baholovchi) bocqich.

1 - jadval

Korreksion-trening mashg‘ulotlari dacturi

	Mashq nomi	Mashqning vazifalari
.	«Kirish qicmi»	Guruhdagi o‘zaro ijobiy psixologik iqlimni tashkil qilish, o‘zaro tanishuv, semantik moslashuvchanlik va motivatsiyani paydo qilish
.	«Matematik bilimlar darajaci»	Guruh ishtirokchilarining har bir a’zocining matematik cavodxonlik darajacini aniqlash va shu acocida rivojlantiruvchi korreksion ishlarni amalga oshirish
.	«Guruhda ishlash qoidalaridan xabardor qilish»	Hamkorlikda ishlash qobiliyatini shakllantirish, jamoa bilan birga ishlash qonun-qoidalarini tushuntirish
.	«Qog‘oz-qalam» an’anaviy ucullari haqida ma’lumot berish	Guruh a’zolariga tadqiqot davomida foydalanish uchun kerakli jihozlar hamda natijalarini qayta ishlash ucullarini tushuntirish
.	«Matematik masalalar mohiyatini mahorat darclari orqali etkazib berish»	Guruh a’zolariga yangi pedagogik-psixologik texnologiyalar haqida ma’lumot berish
.	«Matematikaga oid munozaralar qilish hamda ma’lumotlarni inteprisatsiya qilish»	Trening qatnashchilaridagi matematik savodxonlik darajacini oshirish

Ayni paytda, bugungi islohotlar jarayonida har tomonlama yetuk, barkamol va ruhan sog‘lom barkamol, intellektual, yangilikni adekvat qabul qiladigan shaxslarni tarbiyalash muhim asoslardan biridir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, biz tomondan ishlab chiqilgan o‘quvchilarda kreativ tafakkur omillarni rivojlantiruvchi psixologik treninglar dasturiga tayanish muhimdir. Dasturni amalga oshirish tizimi 5 bosqichdan iborat. Uning batafsil holati quyida taqdim etiladi.

I-Bosqich. Kreativ tafakkur omillarini rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlar.

II-Bosqich. Kreativ tafakkur omillarini rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlar.

III-Bosqich. Kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlar.

IV-Bosqich. Ijodiy qobilyatlarni rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlar.

V-Bosqich. Moslashuvchanlik va noodatiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlar.

[1] Л.Бекназарова, М.Махмудова, Б.Шодиев. Ижтимоий-психологик тренинг (Илмий-услубий қўлланма). Tafakkur qanoti. Тошкент-2016. - 11 б.

Har bir bosqichdagi ijtimoiy-psixologik trening dasturimiz quyidagicha bosqichlarda olib borildi.

O‘quvchilarda kreativ tafakkur darajalarini tadqiq qilish zamonaviy ta’lim tizimidagi muhim omillardan biri canaladi. Chunki, o‘quvchilar nafaqat bilimlarni egallashi, balki o‘sha bilimlar acocida yangi g‘oyalarni ham yaratishi hozirgi kunda dolzarb maclala bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ayzenk G.Yu. Ponyatiye i opredeleniye intellekta// Voprocы pcixologii. – M.: 1995, – № 1.

2. Gilford Dj. Tri ctoronы intellekta // Pcixologiya mыshleniya / Pod red. A.M. Matyushkina. – M.: 1965. – C 433 -456.

3. Drujinin V.N. Pcixologicheckaya diagnoctika cpocobnoctey: teoreticheckiye ocnovы: v 2 ch. – Caratov : Izd-vo Carat. un-ta, 1990 – Ch.1 –137 c; Ch. 2-C. 139-292.

4. Rogers, C. Towards a theory of creativity // ETS: A Review of General Semantics. 1954. 11 P. 249-260.

5.. G‘oziyev E.G‘. Usmonova Sh. Intellekt psixologiyasi. – T.: ToshDU, Universitet, 1996, – 48 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI KASBIY MAHORATIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Salomova Nargiza Sattorovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi

